



811.587  
H-28

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

S.A.NASIROVA

# XITROY TILI TARIXI

DARSLIK

5A120102 – Lingvistika (xitroy tili)



TOSHKENT – 2021



## **Muallif:**

**Nasirova S.A.** TDSHU “Xitoy filologiyasi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori

## **Taqrizchilar:**

**Xashimova S.A.** TDSHU, “Xitoy filologiyasi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori

**Yang Taibao** TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti direktori, professor

Darslik xitoy tili tarixiga doir ko‘plab ma‘lumotlarni qamrab olgan 20 mavzudan iborat, ilova qismida 8 qismli videodars materiallari keltirilgan. Har bir dars yakunida mavzuga doir savollar, amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar, mustaqil ta‘lim ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan vazifa va test savollari berilgan.

Darslikning an‘anaviy darsliklardan farqi shundaki, u Xitoy Xalq Respublikasi Xitoy xalq ta‘limi “Xanban” departamenti tomonidan 2009 yili nashr etilgan “汉字五千年” (Iyerogliflarning 5ming yillik tarixi) deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi videodarslarining o‘zbek tiliga tarjima qilingan materiallari bilan boyitilgan (tarjima materiallari CD diskda ilova etilgan).

Darslik mamlakatimiz oliy va o‘rta ta‘lim davlat standartlari asosida ishlangan va to‘ldirilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Shu bilan birga, xitoy tilini o‘rganuvchi insonlar uchun ham foydali manba sifatida tavsiya etilgan.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug‘iga (ro‘yxatga olingan raqami 418-037) asosan, hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 19.05.2020 yildagi 5-sonli bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

“Xitoy tili tarixi” fani talabalarni xitoy tili tarixiga oid muhim masalalar bilan tanishtirib, ularning tilshunoslik sohasidagi bilimlarini zamon talablariga javob bera oladigan darajaga keltirish, xitoy tili va tilshunosligiga oid masalalarning o‘rganilish tarixi, G‘arb olimlarining bu masalalarga doir turli nazariyalari, xitoyshunos, tilshunos olimlar yaratgan asarlar mazmunini tushuntirish, ulardagi tarixiy va nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish vazifalarini bajaradi.

Xitoy tili dunyodagi eng qadimgi tillardan biri hisoblanadi. Bu tilning tarixi uning yozuv sistemasi bilan chambarchas bog‘liq. Qadimgi tillar bir nechani tashkil qilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar faqatgina Xitoy iyeroglifik yozuvidan muomalada foydalanib kelmoqda. Xitoy yozuvining boshqa tillardan farqi unda ohangning mavjudligidir. Ohang mavjudligi sabab xitoy tili ohangdor, eshitishga xush yoqadigan xususiyatga ega. Unda iyerogliflar soni cheksizdek. Shunday bo‘lishiga qaramay kalitlar sabab ularni yod olish va eslab qolishda yengillikka erishiladi. Xitoy iyerogliflarining rivojlanish tarixida ularning bir nechta husnixat shakllari mavjud. Xitoy iyerogliflarining rivojlanish bosqichlari oltita davrga bo‘linib, asosan, yetti xil turga ega bo‘lgan husnixatlar vujudga kelgan. Shan-In va G‘arbiy Djou sulolasi davrida 古文, Sharqiy Djou davriga kelib 大篆, Tsin imperiyasi davrida 小篆, Xan imperiyasining dastlabki yillarida 隶书 va 草书, Xan imperiyasining oxirida 楷书, Shimoliy Vey sulolasi davrida 行书 vujudga kelgan. Har bir husnixat uzoq yillar mobaynida o‘zidan oldingi o‘tmishdosh husnixatlar asosida takomillashgan, ba’zan soddalashgan. Xitoyda qadimdan “iyerogliflarning olti turi” degan bir naql bor. Hozirda bizgacha yetib kelgan va qo‘llanilayotgan iyerogliflarni Xitoy xattotlari kelib chiqishi jihatidan olti xil turga bo‘lib ko‘rsatadilar. Ular “Xitoy

iyerogliflari turkumlari” deb yuritiladi. Uning aynan iyeroglifik yozuviga asoslanganligi uchun, dunyo bo‘ylab unga qiziquvchilar soni ortib bormoqda va xitoy tilini o‘rganuvchilar soni ham ko‘payib bormoqda.

“Xitoy tili tarixi” deb nomlangan mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xitoyshunoslik” fakulteti “Xitoy filologiyasi” kafedrasida professor - o‘qituvchilari, jumladan, marhum ustozimiz dotsent Majid Maxmudxodjayev, professor v.b.Akram Karimov, dotsent Shoazim Shozamonov, marhum dotsent Ismatulla Bekmuratov, dotsent Jasur Ziyamuhamedov, dotsent Sabohat Xashimova, katta o‘qituvchi Lola Sultanova va kafedraning sobiq o‘qituvchisi Mohichexra Turatova tomonidan taqdim etilgan qimmatli tavsiyalari, amaliy materiallari asosida bir turkum ko‘rinishida to‘ldirildi va tizimlashtirildi.



## 1 - MAVZU: SUNGUSUE. XITOIY FONOLOGIYASI. ER YA. FANG YAN

**Darsning o'quv maqsadi:** Tsin va Xan davrlarida xitoy leksikografiyasi, A.Maspero taklif etgan davrlashtirish tizimi. Xitoy tilshunos olimi Van Li tomonidan «汉语史稿» (hànyǔ shǐgǎo) chop etilgan kitobida taklif etilgan davrlashtirish tizimi.

Xitoy filologiyasi tarixi, Xitoy fonologiyasi, “Er ya” va “Fang yan” kitoblar g'oyasini o'rganish, mazmunini ochib berish.

**Tayanch so'z va iboralar:** “Sungu sue”, “syao sue”, “fono”, “Sungu”, “gu sun”, “die gu”, Sungu sue yaovey”, “Sungu sue”, “Sungu sue gayyao”.

Fonologiya “绝”, Metodologiya, Xan “韵”, Sin “韵” “韵”, “音韵表”, “成韵图. Fonologiya tadqiqot vositalari: she'riyat, qofiya, fanchie, sheva, 对音.

Er ya: Bangu, Xannoma, Shi gu, Shi Yan, Shi sun, konfutsiychilik, qonunlar, eski matnlarga izoh, tilni tushuntirish, hikmatli so'zlar.

Fang yan: Xan shu, Dyun, Yang Siong, Shu, Lin.

### **Xitoy tilining tarixiy davrlarga bo'linishi**

Xitoy tili tarixi 3000 ming yildan ko'proq davrni qamrab oladi. Ammo Xitoy tili tarixi haqidagi manbalarning kamligi va davrlashtirishdagi qiyinchiliklar sababli hozirgi paytgacha umumqabul qilingan xitoy tili tarixini tasnifi mavjud emas. Ba'zi xitoyshunos olimlar bu borada izlanishlar olib borib, ular tomonidan taklif etilgan davrlashtirish shartli bo'lib, qadimdan bizgacha yetib kelganlari ham adabiy yodgorliklar asosida amalga oshirilgan.

Xitoyshunoslikda A.Masper<sup>1</sup> taklif etgan davrlarga bo'lish modeli dunyo xitoyshunosligida yaxshi ma'lum. U xitoy tili tarixini 3 katta davrga bo'lgan, har bir davrning o'z o'rnida ilk va so'nggisi bo'lgan. Bu davrlashtirish kasriy ko'rinishga ega:

1) arxaik (qadimgi) xitoy tili: a) ilk arxaik (Xan davrigacha, ya'ni miloddan avval III asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi); b) so'nggi arxaik (milodiy III asrgacha);

2) o'rta xitoy tili: a) ilk o'rta (milodiy IVdan VIII-IX asrgacha); b) so'nggi (XII asrgacha bo'lgan davr);

3) zamonaviy: a) ilk zamonaviy (XII-XVII asrlar); b) so'nggi (XVIII-XX asrlar);

Yana bir muqobil ko'rinishdagi davrlashtirish Xitoy tilshunos olimi Van Li<sup>2</sup> tomonidan «汉语史稿»<sup>3</sup>(hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan. U xitoy tili tarixini 4 davrga bo'lgan:

1) 上古期 (shànggǔqī) – ilk yozma manbalarda keltirilgan qadimgi xitoy tili, III asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asosiy xususiyati: bo'lishsiz va so'roq gaplarda olmosh to'ldiruvchisi fe'ldan oldin joylashishi; shuningdek, kirish ohangining (入声<sup>4</sup>rùshēng) ikki turi mavjud bo'lganligi. Miloddan avvalgi III va IV asrlar o'tish davrlari hisoblanadi;

2) 中古期 (zhōnggǔqī) – o'rta davr xitoy tili, mil.avv. IV - milodiy XII asrlarni qamrab oladi. Asosiy xususiyati 是(shì) bog'lamasi; olib chiqilgan to'ldiruvchili natija konstruksiyasi; 儿(ér), 子(zǐ), 了(le), 着(zhe) suffikslari (qo'shimchalari); va

<sup>1</sup>Anri Maspero (1883-1945) – fransuz xitoyshunos olimi, Hindixitoy tillari va tarixi bo'yicha mutaxassis. Yirik asari: "Qadimgi Xitoy" (1927). Ushbu kitob qadimgi Xitoyning m.a. XII-III asrlari tarixi va madaniyatini o'z ichiga olgan.

<sup>2</sup>Van Li (王力) (1900-1986) Xitoy tilshunos olim, 60 ga yaqin lingvistik asar muallifi.

<sup>3</sup>"Xitoy tili tarixi tasnifi". – Pekin (北京), 1958.

<sup>4</sup>Kirish ohangi (入声) 4 changdan biri. Zamonaviy xitoy tili ba'zi lahjalarida (粤语-yue, 吴语-u, 闽南语-min) haligacha saqlanib qolgan, ammo putunxua (xitoy og'zaki adabiy tili)da allaqachon muomaladan chiqqan.

pasayuvchi ohangning (去声 qùshēng)<sup>1</sup> paydo bo'lishi. O'tish davri – XII-XIII asrlar;

3) 近代期 (jìndàiqī) – yangi xitoy tili, XIII-XIX asrlar (Afyun urushigacha bo'lgan davr). Xususiyati: shimoliy shevada shunday atalmish “Xira undoshlar” (浊声母 zhuóshēngmǔ), - t bilan tugaydigan qofiyalar va kirish ohangining yo'qolishi. O'tish davri: 1840-yil (Afyun urushining boshlanishi)dan 1919-yil (“4- may” harakati)gacha bo'lgan davr;

4) 现代期 xiàndàiqī – zamonaviy xitoy tili, XX asr boshidan to hozirgi davrgacha bo'lgan jarayon. Xususiyati: g'arb tillari grammatikasining ta'siri kuchayishi hamda katta miqdorda ko'p bo'g'inli so'zlarning paydo bo'lishi.

Van Li fikricha, eng asosiy mezon– grammatik tizimdagi o'zgarish, Maspero esa buni fonetikadagi o'zgarish deb hisoblaydi. Shunga qaramasdan, har ikki olim taklif etgan davrlashtirish bir-biridan katta farq qilmaydi.

Rossiyalik tilshunos olimlar esa asosan S.E.Yaxontov<sup>2</sup> taklif etgan tasnifni tan olishadi. Unga ko'ra, xitoy tili tarixi quyidagicha bo'linadi:

1) Mumtoz davrgacha bo'lgan jarayon: miloddan avvalgi V asrgacha yaratilgan ilk yozma yodgorliklar tili;

2) Mumtoz davr: miloddan avvalgi V-III asrlar (Chjou sulolasining oxiri va Chin sulolasi) va qisman keyingi 4 asr (Xan sulolasi) davri, ya'ni milodiy II asrgacha yaratilgan yozma manbalar tili;

3) so'nggi qadimgi: III-IV asrlar;

4) o'rta davr: IVdan XII-XIV asrlargacha;

5) zamonaviy.

<sup>1</sup>Zamonaviy xitoy tilidagi 4-ohangga to'g'ri keladi.

<sup>2</sup>Yaxontov Sergey Yevgenevich (1926-yilda tug'ilgan). Zamonaviy va qadimgi xitoy tili grammatikasi, xitoy tili tarixi, xitoy lahjalari bo'yicha yetakchi mutaxassis. Xitoyshunoslik, Janubi-Sharqiy Osiyo tillari va umumiy tilshunoslik bo'yicha 80 dan ziyod ilmiy ishlari chop etilgan.



Qadimgi xitoy tili ikkiga bo'linadi:

- 1) qadimgi og'zaki til – 雅言 (yǎyán)
- 2) qadimgi yozma til - 文言 (wényán), 白话 (báihuà)

**Yayan** 雅言 – qadimgi davrlarda shunday atalgan qonun va me'yorlarga solingan og'zaki til hisoblanadi. Yayan miloddan avvalgi VII-VI asrdan to milodiy III asrgacha (hammasi bo'lib 10 asr atrofida) muomalada bo'lgan. Kong Ingda (孔颖达) ning “Chjengven” kitobida quyidagicha yoziladi:

“雅言，正言也。”<sup>1</sup> (Uǎyán, zhèng yán yě) – Ya tili Xitoyda ishlatilgan eng dastlabki og'zaki til, zamonaviy putunxuaga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, ya tili Chjou sulolasi davri mahalliy lahja asosida yuzaga kelgan.<sup>2</sup>

Konfutsiy<sup>3</sup> Lu davlatida o'z maktabini ochgan va ilm o'rgatgan. Uning 3000 nafar shogirdi Xitoyning turli tomonlaridan kelgan edi. Darslarni Konfutsiy ya tilida olib borar edi. Gaplarimiz dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

“子所雅言，“诗”，“书”，执礼，皆雅言也” (Zǐ suǒ yǎyán, “Shī”, “Shū”, zhǐlǐ, jiē yǎyán yě) – Konfutsiy ma'ruzalarni ya tilida o'qirdi, qolganlar ham ya tilida gapirardi; “Shijing”, “Shujing”<sup>4</sup> ham shu tilda yozilgan.<sup>5</sup>

<sup>1</sup>Sixay (辞海), 1-jild. Shanxay, 2008. 509-b.

<sup>2</sup>Chjou sulolasi (m.a. XI asr – m.a. 221-yil). Poytaxti – Fengao shahri (丰镐) (hozirgi Sian shahrining shimoli-g'arbi).

<sup>3</sup> Konfutsiy - 孔子 (m.a.551-479) – Xitoy buyuk mutafakkir olimi, donishmandi, siyosatshunos, pedagog. “Rujya” falsafiy maktabi hamda konfutsiychilik ta'limotining asoschisi. Uning asosiy g'oya va qarashlari “Lunyu” (Mulohazalar va suhbatlar) asarida o'z aksini topgan. (Sixay, 2-jild. 1176-b).

<sup>4</sup>Bu asarlar haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun mazkur ishning 23-betiga qarang.

<sup>5</sup>“Lunyu. Shuer”(22,56).

---

*Qadimiy xitoy tili* – “zamonaviy xitoy tili”ning ota-bobosi bo‘lib, 1919-yil 4-may harakatidan<sup>1</sup> oldingi tarixiy jarayondagi Xan millatining umummilliy tili hisoblangan.

Bu til zamonaviy xitoy tili bilan umumiy til asosiga ega, lug‘atshunoslik va grammatika tuzilishi ham o‘zaro moslashadi; biroq leksik tizim va og‘zaki til nuqtayi nazaridan zamonaviy xitoy tilidan katta farq qiladi. Qadimgi xitoy tili odatda, qadimgi yozma tilni ifodalaydi, “venyan” va “qadimgi bayxua”<sup>2</sup>ni o‘z ichiga oladi. U avvalgi davrlar tillari xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib, gohida o‘ta murakkab g‘oyalar yozma bayonining turli til usullarini ishlab chiqqan.


*Sungu sue* 训诂学 – bu Xitoyning eng qadimgi fanlaridan biri hisoblanadi. U an‘anaviy filologiya bo‘lib, ilgari odamlar uni “小学”, ya‘ni “kichik fan” deb ataganlar.

*Sungu suening* ikki ma‘nosi mavjud. Lin Yi o‘zining “*Sungu sue*gasharhlar” kitobida *sungu suening* adabiyotdagi ta‘sirini quyidagicha ko‘rsatadi:

---

<sup>1</sup>4-may harakati (五四运动) – Xitoy tarixida imperiyaga qarshi qaratilgan yirik qo‘zg‘olon harakati. 1919-yil 4-may Pekinda talabalar namoyishi bilan boshlangan. Bu harakat Xitoyda marksizm g‘oyasini tarqalishini tezlashtirdi.

<sup>2</sup>Qadimgi bayxua – VII-VIII asrdan hozirgi paytga qadar (13 asr atrofida) muomalada bo‘lgan. Doimo venyan bilan kurashib kelgan: 5 asrpassiv, 8 asrfaol kurash olib borgan. Bayxuada asosan ommabop adabiyot asarlari yozilgan, ya‘ni u oddiy xalq uchun mo‘ljallangan mazmunan oson, sodda, omma tushunadigan tildir. 1919-yil 4-may harakatidan keyin venyan o‘rnini bayxua egallagan. Bayxua – shimoliy lahja asosida shakllangan bo‘lib, og‘zaki nutqqa yaqin bo‘lgan yozma tildir. 白话文 báihuàwén – “sodda tilda maqola yozmoq” ma‘nosini anglatadi.



Xitoyning an'anaviy filologiyasi, ya'ni "kichik fan"i odatda, uch qismga ajratiladi: *sungu* (qadimgi matnlarga sharh berish), fonologiya va yozuv. Bularning barchasi *sungu suega* qarashli bo'lib, *sungu suening* tor ma'nosi hisoblanadi. Ammo *sungu sue* fonologiya va yozuvni alohida ajrata olmaganligi sababli keyinchalik keng ma'nodagi *sungu sue* paydo bo'ldi.

Keng ma'nodagi *sungu sue* an'anaviy filologiyaning bir bo'limidir. U qadimgi matnlarni, shu bilan birga, o'sha davr jamiyatining siyosati, iqtisodiyoti, madaniyati hamda urf-odatlarini kabilarni o'rganadi. Uning maqsadi odamlarga qadimgi matnlarni o'qishda yordam berish va ularning o'qish salohiyatini oshirishdir.

Tor ma'nodagi *sungu sue*- bu Xitoyning qadimgi so'zlar leksikasini o'rganuvchi bo'limdir. U asosan Xan sulolasidan oldin yozilgan qo'lyozmalarni o'rganadi. U nafaqat leksikologiyani, balki shu bilan birga, fonologiya, grammatika va stilistikani ham o'rganadi.

*Sungu sue* ikki davrga, ya'ni ilk va so'nggi davrlarga bo'linadi. İlk davri 1947-yil bo'lib, Van Li "Yangi *sungu sue*" nomli maqolasida eski *sungu sueni* umumlashtirib, yangi *sungu sueni* yaratadi. "Biz 小学 ni to'xtatib, eski fikrlardan xalos



bo'lishimiz kerak, keyinchalik yangi *sungu sue* filologiyaning bir bo'limiga aylanadi", - deb yozadi Van Li. Hozirgi kunda *sungu sue* tadqiqotchilarining aytishicha: "*Sungu suening* o'rganish ob'yekti - bu so'zning leksikasi va tizimi, asosiy vazifasi esa - bu so'zning rivojlanish qonuniyatini o'rganishdir". Yuqorida aytilgan so'zlarning barchasi yangi *sungu suega* taalluqli bo'lib, ilk *sungu suedan* ozmuncha farq qiladi.

*Sungu sueni* yana "训诂 *sungu*", "古训 *gu sun*" deb ham ataydilar. Jou Vey "ShiTzin" kitobiga qilingan sharhlarni "Shigu sun chuan" deb nomlaydi. Bu yerdagi "gu", "sun" va "chuan" so'zlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, qadimgi kitoblardagi uch usulni izohlaydi. "*Sungu*" atamasi Xan sulolasidan boshlab shakllangan. "*Sun*" deganda nimani tushunamiz? U zamonaviy so'zlarning ma'nosini izohlaydi. "*Gu*" deganda nimani tushunamiz? U qadimgi so'zlarning ma'nosini izohlaydi.

Shakl jihatdan u ikki iyeroglifdan tashkil topgan. U Suy va Tan sulolalari davrida paydo bo'ldi, Sun sulolasi davri esa yangilanish davri hisoblanadi. Yuan va Min sulolalarida *sungu sue* rivojlanmay to'xtab qoladi. Ammo Chin sulolasi davriga kelib, *sungu sue* rivojlanishning eng baland cho'qqisiga yetadi va ushbu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishiladi. Hozirgi kun *sungu suening* rivojlangan davri hisoblanadi. Tilshunoslarning fikricha, agar *sungu suedan* erishilgan muvaffaqiyatlarni umumlashtirsak, zamonaviy tilshunoslikda yangi *sungu sue* bo'limini yaratsak bo'ladi.

An'anaviy *sungu sue* asosan ikki turdan iborat: 1) matnlar ma'nosiga qilingan izoh; 2) semantikaga qilingan izoh.

An'anaviy *sungu suening* ikki katta kamchiligi mavjud: 1) u butunlay buddizm ta'limotiga asoslangan, nazariyalar tizimini umumlashtirmagan; 2) katta urg'uni qadimga emas, hozirgi zamonga bergan. Tan davrida kengaytirilgan maqollar o'rganilmas edi. Yangi *sungu suebu* ikki muammoni hal qilishga harakat qildi. Bir tomondan, u Tan sulolasidan keyin paydo

bo'lgan maqollarning ma'nosini o'rgandi, og'zaki nutq shevalarini o'rgandi. Ikkinchi tomondan, nazariyalar tizimini umumlashtiradi. *Sungu sueni* tahlil qiladigan bir guruh tadqiqotchilar paydo bo'ldi. Shu mavzu doirasida quyidagi adabiyotlar yaratildi: Jou Da "Sungu sue yaovey", Gong Cheng "Sungu sue", Lin I "Sungu sue gayyao".

### **Xitoy fonologiyasi haqida**

Mutaxassislar fonologiyani odatda, "unutilgan fan" deb ataydilar. 绝 iyeroglifining bir nechta ma'nolari mavjud, aynan ushbu matnda "unutilgan fan" ma'nosida qo'llanilgan. Haqiqatdan ham, fonologiya Xitoy uchun an'anaviy fan bo'lib, qadimdan bir nechta olimlar tomonidan o'rganilgan va shu sohada katta yutuqlarga erishilgan. Ammo fonologiyaning bu sohasiga tegishli shunday atamalar mavjudki, ular haligacha to'liq o'rganilmagan. Metodologiya borasida ham munozaraga sabab bo'luvchi jihatlar mavjud.

Dastlabki tadqiqotchilarning ilk qadamlarida bu yopiq masala bo'lsa-da, uni noto'g'ri yo'lga yetaklovchi mavzu deb bilishgan. Ammo agar biz tirishqoqlik va iroda bilan ushbu masala ustida ish olib borsak, uni egallash u qadar qiyin emas. Dastlab fonologiya an'anaviy filologiyaning bir bo'limi bo'lgan. An'anaviy filologiya kelib chiqishining sababi shu davrda bilim yurtlarida mumtoz adabiyotlarga izoh berish deb tushuntiriladi. An'anaviy filologiya shunday muhit ostida yuzaga keldiki, izoh berish jarayonida iyerogliflarni uch jihatdan – shakl, tovush va ma'no jihatdan o'rganadi. "绝" iyeroglifining asosi "pichoq va ip".

Xulosa qilib aytganda, iyeroglif shaklini – iyeroglifshunoslik, iyeroglifning o'qilishini – fonologiya va iyeroglif ma'nosini – leksikologiya bo'limi o'rganadi. Ammo bu taxminiy bo'linish bo'lib, aslida ushbu uch yo'nalish bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Keyinchalik an'anaviy filologiya rivojlangan sari, ya'ni so'z bo'lib keladigan iyerogliflarni shakl,



fonetik va leksik jihatdan o'rganadigan fan, shu bilan birga, fonetika, grammatika va leksikologiyani rivojlanish qoidasi va fonologiyani o'rganadigan zamonaviy fanga aylangan. Hozirgi xitoy tili lingvistikasini tashkil etadi.

Fonologiya ham lingvistikani bir tarmog'ini tashkil etuvchi bo'limidir.

“Fonologiya” - “tovush” ma'nosini bildirib, “yozuvda paydo bo'lganda, talaffuzga aylanadi”. Xan sulolasidan oldingi davrda 韵 yun iyeroglifi mavjud bo'lmagan.

Sin sulolasi davrida yashagan tilshunolar “韵” “韵” tarzida yozganlar. Masalan, “olti kitob”, “音韵表”, “成韵图” nutq talaffuzini bildirib, odatda, uni fonetika deb atashadi. Xitoy tili fonetikasining asosiy birligi-bu bo'g'in. Bo'g'in esa o'z navbatida, *shenmu* va *yunmuga* bo'linadi. Fonologiya aynan xitoy tilining boshlang'ich va so'nggi tovushini, uni kelib chiqishi va turlarini o'rganadi. Shu bilan birga, bu fan ularning ilk va so'nggi rivojlanish jarayonini tahlil etgan.

Xitoy tili juda uzoq tarixga ega. Uning fonetikasi ham shunga yarasha rivojlanib borgan va o'zgartgan. Mumtoz va zamonaviy fonetika bir xil emas, janub va shimoldagi shevalar orasida ham farq bo'lishiga qaramay, tarixdan hozirgi kungacha umumiy til va shevalar orasidagi farq saqlanib qolgan. Ushbu muammolar fonologiya tadqiqotining ob'yekti hisoblanadi. Chin davrining olimlari fonologiyani uch qismga ajratishgan. Ilk fonologiya - Sin sulolasigacha bo'lgan ilk fonetikani o'rganadi; o'rta fonologiya - 切音 uslubida berilgan; so'nggi fonologiya - ma'lum boshqa turdagi grafika asosida ohang turini tahlil qiladi. Zamonaviy olimlar fonologiyani tasniflaganda, har bir tarixiy davrning fonetikasini o'rganganlar. Umumiy qilib aytganda, bu alohida davr bo'lib, uni xitoy tili fonologiyasi tarixi deb ataganlar. Har bir tarixiy davr asosan bir qancha fonetik sathlarga bo'linadi. Masalan, ilk, o'rta va yangi davr fonetikasi. Bunday sathlarga bo'lib o'rganish eng asosiy vazifadir. Barcha davrlarga



ko'ra tadqiqot har bir sath qiyosi, nutq tovushlarining qadimdan to hozirgi kunga qadar evolyusion qonuniyatlarining tadqiqi va muhokamasi asosida amalga oshiriladi. Bu fonologiyaning asosiy mazmunidir.

Xitoy xalqi uzoq tarix va madaniyatga egadir. Har bir millat yozuvi bilan yozilgan adabiyotlar va manbalar madaniyat xazinasini hisoblanadi. Xitoy tilida yozilgan yozma yodgorliklar eng ko'p bo'lib, ular fonologiyani boy materiallar bilan ta'minlaydi. Ammo xitoy yozuvi fonetik yozuv bo'lmaganligi uchun qadimgi davr nutq tovushlarini o'zida jamlagan adabiyotlar chegaralangan. Mavjud bo'lgan taqdirda ham ularni tekshirib, ma'lum tartibga solish shart. Faqat shunda yaxshi natijaga erishish mumkin.

Fonologiya tadqiqot vositalari quyidagilardan iborat:

1. She'riyat. Mumtoz adabiyotlarda she'r, qo'shiq kabi qofiyalangan asarlar juda ko'p. Qofiyalarni umumlashtirib, o'sha davrdagi *yunmulari* bilan tanishish mumkin. Birinchi o'rinda, qofiyalar ro'yxatini tuzish kerak. Masalan, Shitzin qofiyalar ro'yxati, Suy davri qofiyalar ro'yxati, Tan davri qofiyalar ro'yxati, Sunsi qofiyalar ro'yxati kabilar.

2. *Fanchie* qofiyalar ro'yxati – bu bo'g'inlarning fonetik jadvalidir. *Fanchie* – bu iyerogliflardan foydalanib, iyeroglifga transkripsiya berishning usulidir. Bu degani ikki iyeroglif yordamida bitta iyeroglifga transkripsiya berishdir. Birinchi iyeroglif *yunmuni*, ikkinchi iyeroglif esa *shenmuni* bildiradi. Har bir davr *fanchieni* tartibga solish yordamida nutq tovushlarini tadqiq etish mumkin. Qofiyalar ro'yxati shenmu turlari va ohang turlari asosida tuzilgan. Shuning uchun bu qadimgi davr nutq tovushlarini o'rganishda o'rni katta.

3. Hozirgi davr shevalari. Hozirgi kun xitoy tili shevalari mumtoz xitoy tilidan tashkil topgan. Ya'ni hozirgi kun shevalarida mumtoz til unsurlarini ko'rsak bo'ladi.

4. 对音 ikki turga bo'linadi. U boshqa tillardan xitoy tiliga kirib kelgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi turga esa aksincha xitoy tilidan boshqa tilga kirib kelgan so'zlar kiradi.

Birinchi va ikkinchi bo'limdagi vositalar faqat qadimiy xitoy tili nutq tovushlarining yunmu, shenmu va ohang turlarini o'rganadi. Uchinchi va to'rtinchi bo'limda tadqiqotlar olib borish va boshqa tillarning fonetik yozuvi yordamida umumiy tovush sifatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Faqatgina ushbu vositalarni barchasini qo'llab turib yaxshi natijalarga erishsak bo'ladi.

Birinchidan, fonologiyaning vazifasi mumtoz adabiyotlarni o'qishga yordam berish. Qadimgi xitoy tili bilan zamonaviy xitoy tili orasida kun sayin farq ortib bormoqda. Masalan, qadimgi xitoy tiliga izoh berilmasa, mumtoz adabiyotni o'qish juda qiyin. Fonologiya esa adabiyotlarga izoh berishning bir vositasidir.

Ikkinchidan, xitoy tili va grammatikasi, fonetika va leksikologiya tarixini o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, fonologiyaga o'ziga aloqador bo'lgan fanlarga yordam berishi mumkin. Tarix, iyeroglifshunoslik, arxeologiya, adabiyot, millatshunoslik bilan bir qatorda zamonaviy xitoy tili, lug'atshunoslik, kam millatlar tili va yozuvini o'rganishga yordam beradi.

### Er ya

"Er ya" bu Xitoyning eng qadimgi tematik guruhlariga ajratilgan maxsus kitob bo'lib, u qadimgi lug'at hamdir.

"Er ya"ning muallifi noma'lum bo'lib, u eramizdan avvalgi 770-yil Chun Chiu davridan so'ng bir olim qadimgi mumtoz kitoblar orasidagi atamalarni olib, ularga izoh bergan. G'arbiy Xan davrining boshlariga kelib, uni to'ldirib, tugal kitob shakliga keltiradi. Bangu (32-92) o'zining "Xannoma"sida bu haqida shunday yozadi: Tan davriga kelib, uni "Kanonlar" qismiga



kirgizgandan so'ng, "Er ya" konfutsiychilik mumtoz asarlaridan biriga aylanadi. "13 ta kanon" orasida u o'n ikkinchisi bo'lib qoladi. U qadimgi mumtoz kitob bo'lib qolmay, u yana qadimgi lug'atdir.

Hozirgi ko'rinishdagi "Er ya" o'z ichiga 19 bo'limni qamrab olgan. 19-bo'limning nomalanishi: eski matnlarga izoh berish, tilni tushuntirish, hikmatlar (qonun-qoidalar)ni tushuntirish, qarindoshlik atamalariga izoh berish, saroy so'zlari va texnikaga xos so'zlarni tushuntirish, musiqaga oid so'zlarga izoh berish, astronomiyani o'rganish, geografiyaga xos so'zlarga izoh berish, tog' nomlariga oid so'zlarga izoh berish, suvni o'rganish, o'simliklarga izoh berish, daraxt nomlariga oid so'zlarni o'rganish, xasharotlarni tadqiq qilish, baliq turlariga oid so'zlarini tushuntirish, parranda turlariga oid so'zlarini izohlash, hayvonlar turlariga oid so'zlarni o'rganish.

"Er ya"ning so'zlari, iyerogliflari nozik didli bo'lib, mazmuni to'liq yoritiladi. 19 ta bo'lim bu so'zlarning ma'nolariga izoh berishlarga bag'ishlanadi. "Shi gu" bo'limida qadimgi so'zlarga izoh berilib, "Shi Yan" bo'limida esa fe'llar va bir qism sifatlar tushuntiriladi, "Shi sun" so'z birikmalari va qo'shilib o'qiladigan takroriy so'zlar hamda sifatlar va ravishlar tushuntirilgan. Ushbu uch bo'lim hozirda qadimiyatni tushuntirishda qo'llaniladi va ommaga taqdim etilgan.

Masalan: 初, 首, 基, 祖, 元, 胎, 叔, 落, 始也 (eski matnlarga izoh berish); 殷, 齐, 中也 (tilni tushuntirish); 明明, 斤斤, 察也 (hikmatlar va qonun-qoidalarni tushuntirish). Bu yerda tushuntiriladigan so'z oldinga qo'yilib, uning ma'nosiga o'xshash va yaqin so'zlarni undan keyin bir qator qilib saralab qo'yiladi. Oxirida bitta me'yoriy morfologik izoh beriladi.

Qolgan 16 bo'lim leksikaga bo'lingan. Tushuntirilayotgan paytda bugungi kunda qo'llaniladigan so'zlarni qadimiy va nozik qilib izoh beriladi, bir so'zni olib boshqa so'zga almashtirib unga



tushuntirishlar beriladi. To'rtinchi bo'limda qarindoshlar orasidagi aloqalarga izoh beriladi, u o'z ichiga ota-ona, aka-uka, er-xotin va boshqalar orasidagi munosabatlar. Masalan: ota izlanish uchun, ona halok bo'lish uchun, avval aka erkak bo'ladi, so'ngra uka.

Beshinchi bo'limdan yettinchi bo'limgacha saroy xonalari qurilishlariga bag'ishlangan bo'lib, odatda, har kun ishlatiladigan uskunalar, oziq-ovqat, ichimliklar, kiyimlar, turli musiqa asbob nomlari tushuntiriladi.

Masalan: 宫 ni 室 deb aytish mumkin, 室 ni 宫 tarzida ham qo'llash mumkin. 正门 ni 应门 shaklda; 木豆 ni 豆 deb atashadi. 竹豆 ni 筴 deyish mumkin, 瓦豆 ni 登 tarzida qo'llanadi. 大琴 ni 离 tarzida ishlatlsa bo'ladi.

Yettinchi bo'limdan o'n ikkinchi bo'limgacha, astronomiya, ob-havo, fasllar, hududlarning bo'linishi, past-balandliklar, turli xil tog'liklar, daryolar nomi izohlangan. Masalan: 河南, 华, 河西, 河东, 岱, 河北, 恒, 江南, 衡 (tog' so'zlariga oid so'zlarga izoh berish).

O'n uchinchi bo'limdan o'n to'qqizinchi bo'limgacha o'simliklar, hayvon nomlarining tematik leksikasi ko'rsatilgan, ya'ni o'tlar, daraxtlar, xasharotlar, baliqlar, chumchuqlar, yovvoyi hayvonlar, uy hayvonlari. Ammo ular orasida ilmiy bo'lmagan qirralar mavjud, masalan: "Uy hayvonlari" bo'limida bu uyda parvarish qilinadigan hayvonlar kiritilishi nazarda tutiladi, "Yovvoyi hayvonlar" da esa yovvoyi tabiatda voyaga yetgan hayvonlar kiradi, cho'chqa, sigir, qo'y va hokazolar ham yovvoyi, ham uy hayvonlari bo'limiga kiritilgan.

"Er ya" - so'zlarning ma'nosiga izoh beruvchi kitob bo'lib, keyingi avlodlar tadqiqoti uchun qadimgi atamalar, nomlarga oid muhim, qimmatbaho ma'lumot yig'indisidir. Xan davridagi Guo She, Liu Yin, Fan Guan, Li Sun, Sun Yan, Lian Chen Tzuan va hokazolarning ijodlarida asarlarga sharh yozish asosiy o'rin tutadi.

Ushbu sharhlar juda ko'p tarqala boshladi, Sin dinastiyasidagi Ma Guo Xanning "Er Yaga qadimgi izoh". Hozirgi davom ettiruvchilardan faqat Pu dinastiyasidagi Guo Puning "Er yaga izoh", Sun sulolasidagi, Liu Sining "Er yaning yangi ma'nosi", Chjen Chjiening "Er yaga izoh" va hokazo.

Sin sulolasida "Er ya"ni tadqiq qiluvchilar soni nihoyatda oshdi. Ular orasidagi Shao Tzin Xan (1742-1796)ning "Er yaning adolatligi", Xao Yi Xanning (1757-1825) "Er yaning izohlari yig'indisi" diqqatga sazovordir. Shao Chji "Talaffuzi yaqin bir xil ma'no"ni izohlash usulini qo'llagan holda so'zning ma'nosini izohlab, tushuntirib beradi va juda katta yutuqqa ega bo'ldi.

Keyingi yillarda "Er ya"ga bag'ishlab ko'plab asarlar yozilgan, bularni yana "Chun ya" deb ham ataydilar. Ular orasidagi eng asosiylari quyidagilar: "Kichkina Er ya" (Xan sulolasidagi yozuvchi Sun Fu), "Pi Ya"(Sun sulolasidagi Liu Si yozgan), "Er Ya Yi (qanoti)" (Sun sulolasidagi Luo Yuan), "Ping Ya" (Min sulolasidagi Chju Mo), "Tong Ya" ( Min sulolasidagi Chji), "Bie Ya" ( Sin sulolasidagi U Yu), "Shi Ya" (Sia Vey Tan), "Bi Ya" (Xong Liang Szi), "Die Ya" (Shi Meng Lan) va "G'arbiy Er Ya" (Van Chu Tong). Ushbu asarlar "Er Ya"ga sharhlar singari Xitoy tarixiy leksikologiyasi tadqiqotlariga bag'ishlangan yetuk qimmatbaho ma'lumotlardir.

### **"Fang yan"**

"Fang yan" – bu Xitoyning ilk shevasiga oid maxsus kitobidir. "Fang yan" kitobining muallifi Yang Siong. Yang Siong mil.avv. 53 milodiy 18-yillarda G'arbiy Xan sulolasi davrida yashagan. U o'z davrining yetuk adabiyotchisi va faylasufi edi. Uning ushbu filologik asaridan tashqari, yana "Sun zuan bien" filologik asari ham mavjud.

"Xan shu" kitobida Yang Sionga quyidagicha ta'rif berilgan: "Yang Siong- chuqur bilimga ega ensiklopedistdir". Uni

49 yoshida Sin imperatorligiga tabib qilib yuborilgan. Yang Siongni Sin imperatorligi davrida odatda har yilning avgust oyida elchi qilib turli viloyatlarga yuborishgan. Bundan maqsad turli joylardagi shevalarni o'rganib, ularni to'plash edi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar tahrir etilgan. Sin imperiyasida parokandalik yuz bergan paytning o'zida ushbu ma'lumotlar deyarli yo'qolib ketgan. Ammo Shu sulolasiga kelib, Dyun ismli odam mingga yaqin iyerogliflarni yig'adi. Lin ismli odam ham bu taxmini bilar edi.

Dyun Yang Siongni ustози, Lin esa Yang Siongni qarindoshi bo'lgan. Ularning butun ma'lumotlari va tadqiqotlarini Yang Siong yig'adi. Yang Siong shevalarga juda qiziqadi, keyinchalik o'zi ushbu ishni davom ettiradi. U har bir hududdagi hurmatga sazovor harbiylarning ziyoratga poytaxtga kelganidan foydalanar edi. "Mo'yqalam va ipak qog'ozdan foydalanib, turli-xil shevalarning tallafuzini yig'gan". Izlanish ishlari va ularga izoh qo'shilganidan so'ng, ya'ni 27 yil o'tib, 9000 iyeroglifli kitob tuziladi. Yang Siongning ushbu ishini Luo Chang quyidagicha baholaydi: "U zamonaviy tilshunos olim bo'lib, yozish va qayta ishlash ishlarini parallel ravishda olib borgan". Tabiiyki, hozirgi paytda ba'zi bir odamlar "Fang yan" kitobidan hayratda qolishi tabiiydir.

Yang Siong ushbu kitobni yozishda, o'zidan oldin yashagan ulamolar manbalaridan ham foydalangan. Bu manbalar xitoy tilining asrlar davomida o'zgarishi hamda mumtoz shevalarning vaziyatini o'zida aks ettirgan. Shu bois, ushbu kitob oddiy qo'lyozma emas, balki qadimgi va zamonaviy tilning izohini o'zida mujassam etgan. Aynan shuning uchun kitobning nomida "Beqiyos tilning izohi" kabi so'zlar ishtirok etgan. Bunga izoh sifatida kitobda quyidagi bo'lim mavjud: "Masalan, "吴"ning ma'nosi "katta", "抽" o'qimoq" ma'nosini anglatadi, "qadimgi va zamonaviy til" - "qadimgi va navqiron tillar" ularning hammasi ushbu holatdadir. Albatta, bu kitobning asosiy



qismida “boshqa mamlakatlardagi shevalar”, ya’ni Xan sulolasi davridagi turli joylarning shevalari orasidagi farqlar ko’rsatilgan. Unda shevalar quyidagi turlarga bo’lib ko’rsatilgan:

1. Umumqabul qilingan til – chegarasiz hududlardagi sheva;
2. Ba’zi bir tillar orasidagi umumiy tilshunoslik nisbatan kattaroq maydonni egallagan;
3. Ba’zi bir tillar orasidagi shevalar - kichkina hududda ishlatiladigan sheva;
4. O’zgaruvchan til- davr va hududga bog’liq bo’lib, bir so’z ikkinchi so’zdan fonologik jihatdan farq qiladi.

Yozuvchilar sheva usullarini ko’rsatib o’tishgan. Ular bitta so’z yoki sinonimik qatorni tanlab, ularni sarlavhaga aylantirganlar. So’ngra ularning har birini ishlatiladigan hududga ajratganlar. Butun kitob 30 jilddan iborat bo’lib, har bir so’z o’z ma’nosiga ko’ra ma’lum jild tarkibiga kiritilgan. Ma’nolarga asoslanib bo’linganida 标目 mavjud bo’lmaganiga qaramay, “Er ya” kitobiga asoslangan. Masalan, 8-jildning bosh va oxirgi bo’limlari hayvonlar, qushlar va qurt-qumursqalarning turlari haqida. 9-jildning bosh bo’limi arava bilan bog’liq so’zlar, oxirgi bo’limi esa kemasozlik bilan bog’liq bo’lgan so’zlar berilgan. Hammasi bo’lib butun kitob 669 bo’limdan tashkil topgan. Ularni quyida ko’rib o’tsak:

恍, 奄, 怜, 牟 iyerogliflarining hammasi “sevmoq” ma’nosini bildiradi (1-bo’lim).

“Fang yan” – Xitoy shevalari masalasida ma’lumot beruvchi nodir kitoblardan bo’lib, xitoy filologiyasi tarixida muhim o’rin egallagan. Shuningdek, kitob qimmatli manba sifatida xitoy tilining rivojlanishi, shevasi, leksikologiya tarixi va fonologiyasiga oid boy daliliy ma’lumotlarni qamrab oladi. Xususan, mazkur manba asosida Xan sulolasidan ilk va so’nggi tilda mavjud bo’lgan holatni va murakkab shevalardagi muammolarni ko’rish imkoni paydo bo’ladi.

Bundan tashqari, mazkur kitob ba'zi bir shevadagi so'zlarning umumqabul qilingan til tarkibiga qay tarzda kirib kelishi yoki aksincha yo'qolib ketishini; ba'zi bir umumqabul qilingan so'zlarning qay tarzda shevaga aylanib ketishi yoki yo'qolib ketishi; keyinchalik jamiyat rivojining xitoy tili taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishdagi yagona manba ham deyish mumkin.

“Fang yan” kitobining diqqatga sazovor joyi yana shundaki, u xitoy filologiyasi tarixida yangilikni olib keldi, manbalarni yig'ish, hattoki tahrir qilishning usullari o'sha davrning o'ziga xos ilmi hisoblangan. Uning ta'siri ostida, keyingi asrlarda ko'p filologlar shevani o'rganishga juda katta e'tibor berganlar. Natijada, turli xildagi ilmiy ishlar yuzaga kelgan hamda “Fang yan” shevalar kitobi paydo bo'lgan.

Afsuski, keyingi davrlarning tadqiqotlari odatda, ushbu kitobdagi manbalar bilan cheklanib qolar edi. Yang Siong kabi hech kim bu qadar tadqiqot ishlarini olib borolmagan. Ushbu vaziyat yaqin davrlarda o'zgardi.

### **Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:**

1. Tsin va Xan davrlarida xitoy leksikografiyasi.
2. A.Maspero taklif etgan davrlashtirish tizimi.
3. Xitoy tilshunos olimi Van Li tomonidan “汉语史稿” (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan davrlashtirish tizimi.
4. *Sunguxuexitoy* filologiyasi fani rivojida tutgan o'rnini nimalarda ko'rasiz?
5. *Sunguxuenecha* turga bo'linadi?

**Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

1. Qadimgi xitoy tilshunosligi haqida nazariy bilimlar.
2. Sunguxue. Xitoy fonologiyasi. Er ya. Fang Yan.
3. *Sungu sue* haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lish.
4. Chin davri fonologiyasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
5. Er yaning Xan sulolasi davri rivojlanishi.
6. Er yaning Ching sulolasi davri rivojlanishi.
7. Er ya haqida tushunchalar hosil qilish.
8. Xitoy tilining rivojida Er yaning tutgan o'rni.
9. Er yani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishish.
10. Er yaning bo'limlari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

1. "Gu liang zhuan" va "Gong yang zhuan" asarlarining Xitoy mumtoz adabiyotlariga izoh berishdagi ahamiyati.
2. Sima Chien. "Tarixchi bitiklari" matnidan lavhani tarjima qiling.
3. Matnda uchragan kishilik olmoshlari va ravishlar tahlilini amalga oshiring.



## TEST

1. 现代汉民族共同语是以为标准音，以北方话为基础方言，以典范的现代白话文著作作为语法规范的普通话。



答案：北京语音

2. “练、辣、律”这一组字的读音声母相同，都是“\_\_\_\_\_”。

答案：l

3. “诺、念、逆”这一组字的读音声母相同，都是“\_\_\_\_\_”。

答案：n

4. “棍、寸、论”这一组字的读音韵母相同，都是“\_\_\_\_\_”。

答案：un (uen)

5. “警、冰、停”这一组字的读音韵母相同，都是“\_\_\_\_\_”。

答案：ing

6. “俊、酷、帅”这一组字的读音声调相同，都是\_\_\_\_\_。

答案：第四声（去声）

7. “ü”在“\_\_\_\_\_、\_\_\_\_\_、\_\_\_\_\_”这三个声母后，书写时应该去掉“ü”上的两点。

答案：j、q、x

8.“iou、uei、uen”拼写音节时，若前有辅音声母，应写成“\_\_\_\_\_”。

答案：iu、ui、un

9.“好”在汉语中是个多音字，在词语“好人好事”中读作：在词语“业余爱好”中读作。

答案：hǎo、hào

10.“一”在“一丝一毫”中念第\_\_\_\_\_声，在“一字一句”中念第\_\_\_\_\_声。

答案：四、二

## 2-MAVZU: XITOIY AN'ANAVIY TILSHUNOSLIK MAKTABI

**Darsning o'quv maqsadi:** Xitoydagi tilshunoslik ilmining rivojlanishida Yevropa tilshunosligining ahamiyati. Xitoy filologlari “grammatika” atamasiga bergan ta'riflari va ilk grammatika paydo bo'lgunga qadar o'rganilgan grammatik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Xitoy an'anaviy tishunoslik maktablari haqida atroflicha tushunchaga ega bo'lish. Yevropa tilshunosligining Xitoy an'anaviy tilshunoslik maktablari rivojiga ta'siri masalasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** 训诂 *syungu*, “Shuzin”, “Shizin”, “Lizi”, “Yizin”, “Tzodjuan”, “Yuezin”.

Xitoydagi tilshunoslik ilmining rivojlanishida Yevropa tilshunosligining ahamiyati katta deyiladi. Haqiqatdan ham, ilk xitoy tilining yevropacha talqinidagi grammatikasi 1898-yili yozilgan bo'lib “*马氏文通*” Ma Shi Ven Tung deb nomlangan. Uning muallifi *马建忠* Ma Zyan Djung Yevropada ta'lim olib, o'zining ilmiy ishini yevropa tillari grammatik talqiniga asoslanib yozgan<sup>1</sup>. Xitoy mualliflari Ma Zyan Djungning ilk grammatikasi paydo bo'lgunga qadar ham o'zlarining til xususiyatlarini o'rganishgan, ammo yevropaliklar nazdida bunday o'rganish grammatika hisoblanmas edi. “Dunyo tilshunoslik ilmi tarixining guvohlik berishicha, til faoliyatining noyevropaviy qonunlari o'rtasidagi mavjud farq, nutq tuzilishi qoidalari ham madaniy-g'oyaviy jihatdan, ham konstruktiv belgilar va tushuncha-terminologik apparat, tilning toifalarga ajratilishi jihatidan va uning lingvistik tavsifiy shakliga ko'ra yevropacha namunalarga qarshilik qiladi”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Кирюхина Л.В. Грамматические исследования в китайском языкознании // Филология. – №1(26). - Иркутск, 2014. - С.204.

<sup>2</sup> Ольховиков Б.А. Общая теория языка. – М., 2007. – С. 24.



Xitoy tilshunoslari qadimdan yevropacha namuna asosida bo'lmasa-da, xitoy tili grammatikasini o'rganish bilan shug'ullanganlar.

Uzoq lingvistik an'ananing davom etishiga qaramay(xitoy filologiyasi 2000 yildan uzoq tarixga ega), xitoyliklarda grammatika yo'nalishlari deyarli ishlab chiqilmagan edi. "Xitoy tilshunosligidagi eng muhim tadqiqot obyekti nutq emas, balki iyeroglif edi. Iyeroglif yozuv, o'qish va ma'no jihatlariga ega, hamda ushbu 3 jihat uch xil ilm sifatida o'rganiladi".<sup>1</sup>

Xitoy filologlari asosan matnlardagi iyerogliflarni tahlil qilishar, ya'ni ularning tuzilmasi, o'qilishi hamda etimologiyasini o'rganishar edi. Grammatikaga emas, aynan iyerogliflarga bo'lgan qiziqish tushunarli holat, axir har qaysi lingvistik an'ananing shakllanishi qaysidir amaliy maqsadlarga bog'liqdir. Xitoy an'anasi haqida gap ketganda shuni aytib o'tish joizki, «Iyeroglifik yozuvning murakkab tabiati uning maxsus tadqiq etilishini talab qiladi, iyerogliflarning ko'p miqdorda ekanligi hamda ularning murakkab tuzilmaga egalik holatida ularni toifalarga tasniflash, hamda ular tarkibidan ko'p iyerogliflar tuziladigan tipik birliklarni ajratish zarurdir».<sup>2</sup>

Xitoy tilshunosligining eng qadimgi sohasi 训诂 *syungu* hisoblanadi. Syungu – hikmatli ma'nolarga ega qadimgi matn sharhlari demakdir. Bunday qadimgi sharhlar qadimgi so'zlarni bugungi kunda qo'llaniladigan, o'quvchiga tanish bo'lgan so'zlarga tarjima qilish orqali kelajak avlodga yetkazib berish vazifasini o'tar edi. Yana bir boshqa soha – iyerogliflarning yozilishi, tuzilma va etimologiyasini o'rganish hisoblangan<sup>3</sup>.

Undan keyingi soha esa – fonologiya hisoblanadi, ya'ni tilda mavjud tovushlardagi farqlarni aniqlash. Olimlar

<sup>1</sup> Яхонтов С.Е. Древнекитайский язык. – М.: Наука, 1965. – С.18.

<sup>2</sup> Алпатов В.М. История лингвистических учений // Языки славянской культуры. – М., 2001. – С.368.

<sup>3</sup> Кирюхина Л.В. Китайская «падежная грамматика» // «Magister Dixit» Научно – педагогический журнал Восточной Сибири. – М., 2011.- №4. – С.73.

tovushlarning tabiati va talaffuzi mavzusiga umuman tegishmagan. Garchi boshqa ilmlardan keyin paydo bo'lgan bo'lsa-da, ushbu katta rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi.

Bir necha ming yillar davomida Xitoy Shan sulolasi (mil.avv.1766-1122) davrida paydo bo'lgan o'zining yozuv madaniyatini saqlab qoldi. Xitoy an'anaviy madaniyatining rivojlanishini ko'plab asrlarga yoygan asosiy matnlar Djou va Xan davriga oid edi.

Ilk filologik yutuqlar Xan davriga tegishli bo'lsa, Djou davrining eng katta merosi deb Konfutsiy matnlarini aytishimiz mumkin.

Djou sulolasining so'nggida Konfutsiy matnlari 6 kanonik kitoblarga birlashtirilgan: "Shuzin", "Shizin", "Lizi", "Yizin", "Szdjuan", "Yuezin". Xan sulolasining boshiga kelib "Yuezin" kitobi yo'qolgan, va kitoblar to'plami 5 ta bo'lib qolgan. Keyinchalik Tsing va Xan sulolalari davrida bu kitoblarni o'qish man etilib, kanonlarni yoddan bilgan olimlar soni tobora kamayib ketgan.

Xan sulolasi davrida ayrim yodda qolgan matnlar zamonaviy lishu yozuvi bilan yozib qoldirilgan. VII asrga kelib Tang sulolasi (628-649) Tayzun davrida rasmiy mumtoz matnlarning soni 13 taga yetkazildi.

Imperator Chendi (mil.avv. 32-7) davrida imperator arxivini tekshirish uchun 3 nafar kishidan iborat mas'ul komissiya tashkil etildi, ularning orasida Konfutsiy matnlarini izlab topish vazifasi tilshunos olim Lyu Syanga topshiriladi. Aniqlangan matnlarni tahlil ishlari uning o'g'li Lyu Sin tomonidan yakuniga yetkazildi. Lyu Sin tomonidan ishlab chiqilgan ilk tasnif 七略 *qilue* deb nomlandi. Yettita bo'lim: 六艺 *liuyi* mumtoz matnlari, 传记 *zhuanji* tarixiy yilnoma, 诸子 *zhuzi* falsafiy matnlar, 诗赋 *shifu* qasida va she'rlar, 兵术 *bingshu* harbiy san'at haqida asarlar, 数术 *shushu* ta'bir qilish haqida asarlar, 方技 *fangzhi* texnika haqidagi asarlar. Shu tarzda



xitoy tilshunosligida koʻhna konfutsiy matnlarini oʻrganish boʻyicha yangi soha – koʻhna yozuv maktabi ajralib chiqdi. Bu soha shu darajada rivojlanib ketdiki, oʻsha davrda saroyda 五经博士 *wujing boshi* yaʼni besh kanonlarni yoddan biluvchi olim lavozimi tashkil qilindi. Koʻhna yozuv maktabi tilshunoslarning ikkinchi avlodi orasida Ma Yun (79-166) va Zya Kuy (30-101) mashhur edilar. Ularning katta shogirdi Syuy Shen (58-147), kenja shogirdi Djen Syuan (127-200) lar xitoy iyeroglifik yozuvi va mumtoz matnlar tahlili haqida asarlar yaratishgan.

Oʻsha paytda xitoy yozuvini oʻrganuvchi kichik ilm 小学 deb atalgan. Shu bilan birga, davlat lavozimlarini egallash uchun maxsus imtihon tashkil etilganligi iyeroglifik yozuvini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishini taʼminladi. Ushbu imtihonning murakkab jihati maxsus lugʻatlardan foydalanib iyerogliflar yordamida qofiyadosh sheʼrlar yaratish edi. Ushbu uslub oʻrta asrlar xitoy filologiyasining rivoj topishiga zamin yaratdi. Filologiyaning ilk yutuqlaridan biri iyerogliflarning grafik va semantik tuzilmasiga qarab belgilar boʻyicha 6 ta 六书 *liushutoifasiga* ajratish belgilandi: 象形 *xiangxing* tasvir piktogramma belgilari, 指事 *zhishi* predmetga yoʻnaltiruvchi belgi, 会意 *huiyi* ideogramma belgilari, 象声 *xiangsheng* fonetik belgilar, 假借 *jiajie* oʻzlashgan belgilar, 转注 *zhuanzhu* shakli oʻzgargan belgilar.<sup>1</sup> Iyerogliflar shu yoʻsinda to hozirgi kungacha oʻz kuchini yoʻqotmagan prinsip asosida tasniflanar edi, jumladan, kontingentiga koʻra – tasvir piktogramma va predmetga yoʻnaltiruvchi belgilar, grafik tuzilmasiga koʻra – ideogramma, fonetik va shakl oʻzgargan belgilar, matndagi vazifasiga koʻra - oʻzlashgan belgilar. Oʻsha davr filologiyasining murakkab jihati shunda iborat ediki, Djou davrining har bir hukmronligida iyerogliflar oʻzlariga tegishli

<sup>1</sup> Кирюхина Л.В. Китайская «падежная грамматика» // «Magister Dixit» Научно – педагогический журнал Восточной Сибири. – М., 2011. – №4. – С.73.



shevada o'qilar edi. Xan davrida esa iyerogliflarni "to'g'ri" o'qish qoidasi ishlab chiqildi. U paytda savodxonlikni chiqaruvchi asosiy qo'llanma Tsan Tsepyen bo'lib, u bo'yicha tanilgan mutaxassis, ilk xitoy paleografi Djan Chan edi.

Shunday qilib, xitoy tilshunoslari xitoy yozma yodgorliklariga sharh berish, iyerogliflarni tasniflash turli xil masalan, qofiyalar lug'ati kabi lug'atlar tuzishga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Grammatik tadqiqotlar ham olib borildi, ammo bu sohada leksikografiya, fonologiya va grammatologiya sohalaridagi kabi juda katta yutuqlarga erishilmadi.

Xalq inqilobi g'alabasidan so'ng Xitoy tilshunoslari o'z ishlarini shiddat bilan olib bordilar. Ularning oldida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar turgan edi: o'z mehnatlari bilan xalq inqilobi yaratib bergan asl umumxalq ildizi asosida xitoy milliy tilining o'rnini mustahkamlash; ular milliy til adabiy me'yorlarini ishlab chiqishga yordam berishlari, maktablarda zamonaviy adabiy tilni o'rgatishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishlari zarur edi. Ushbu vazifalarni xitoy tilshunoslari g'urur bilan amalga oshirib, ko'plab yutuqlarga erishdilar.

Xitoy lingvistlari – ona tili mutaxassislari faoliyatining mazmuni–xitoy tilshunosligi chegaralaridan o'tib ketgan. Ular, odatda, izolyativ deb nomlanuvchi, agglyunitativ va flektiv tillar tuzilishiga qaraganda kam miqdorda ochiq bo'lgan til tuzilishini o'rganadilar. Izolyativ tillar tuzilishi tahlili tilshunoslikning umumiy qismini tashkil etgani bois, xuddi shunday xitoy lingvistlarining ishlari umumiy tilshunoslik uchun birinchi darajali muhim va zarur mazmunga egadir. Shuning uchun, xitoy mutaxassislari ishlarini nafaqat xitoyshunos lingvistlar, balki, tilshunoslikning umumiy muammolari bilan qiziquvchilarning barchasi kuzatib borishi zarur.

Bunda, lingvistlar uchun xitoy tilshunoslarining ishlarini yanada qiziqarli qilib ko'rsatuvchi alohida tomonlar mavjud: xitoy tilshunoslari o'z mamlakatlarida ikki ming yillik tarixga ega tilshunoslik milliy an'alariga egadirlar. O'z ishlarida esa

ular ushbu anʼanalarni bilan tortishadilar, qayta koʻrib chiqadilar, ulardan foydalanadilar, qabul qilib ularning baʼzi tomonlarini rivojlantiradilar. Shuning uchun, xitoy tilshunosligi bilan shugʻullanuvchi har bir tadqiqotchi kamida ushbu anʼanalarni umumiy miqyosda bilishi zarur. Ushbu maqolaning maqsadi shunday qoidalardan baʼzilarini ochib berishdir.

Xitoyda, Sharqning boshqa baʼzi mamlakatlari singari tilshunoslik tarixida ikki davrni ajratish mumkin: Yevropa til ilmi bilan tanishuvdan avval va undan soʻng. Ushbu davrlarga ajratishga lingvistik tadqiqot metodlari va prinsiplarining farqlanishi asos boʻlib xizmat qiladi: birinchi davrda ushbu mamlakat tilshunoslari yevropa tilshunosligi taʼsir qilmagan holdagi metod va prinsiplari asosida oʻz tillarini oʻrganadilar, ikkinchisida esa, yevropa tilshunosligi prinsipi va metodlari asosida. Shunday qilib, birinchi davrda til ilmi oʻz anʼanalari doirasida rivojlangan, ikkinchisida esa – Yevropa tilshunosligi anʼanalari.

Bir davrdan boshqa davrga oʻtish Sharqning ushbu davlatida Yevropa ilm-fani va Yevropa taʼlimining tarqalishi hamda Yevropa va Amerikada yoki oʻzlarining yevropalashgan taʼlim muassasalarida olgan malakalari bilan bogʻliq.

Baʼzi hollarda bunday oʻtishning aniq belgisi boʻlmish dalillarni topish mumkin boʻladi. Bunday dalil sifatida Yevropa ishlari namunasida mahalliy muallif tomonidan yozilgan maʼlum bir sharq tili haqida yozilgan ishning yuzaga kelishi boʻlishi mumkin. Koʻpincha bunday ishlar oʻz tilining grammatikasi boʻladi, masalan, Yaponiyada: 1833-yilu yerda Tsurumine Sigenobu tomonidan yozilgan yapon tilining birinchi yevropalashgan grammatikasi yaratilgan. Bunday holni Xitoyda ham kuzatish mumkin: 1898-yili Ma Zyan Djung “Ma shi ven tung” xitoy grammatikasi chiqqan. Bunday hollarda mualliflarning Yevropa tillarining qaysi birigadir yaqqol yoʻnalganligi aniqlanadi. Xitoy muallifi fransuz tiliga, undan esa lotin grammatikasiga; yapon muallifi esa golland tiliga yoʻnalgan.



Bu esa tarixiy-madaniy shartlar bilan tushuntiriladi: fransuz tili XVII-XIX asrlarda Xitoyda fransuz missionerlar bilan aloqada bo'lgan o'qimishli xitoyliklar uchun ma'lum bo'lgan; golland tili esa XVII asr boshlari va XIX asr o'rtalaridagi yaponiyaliklar duch kelgan yagona yevropa tili edi. Ushbu boshlang'ich davrda ham o'z tilining grammatika sxemasini to'liq yevropa tili grammatikasi sxemasi asosida qurib bo'lmalik aniqlanadi. Bunday hollarda mualliflar o'z tillarining oldingi an'alarini tushuntirib o'tishga majbur bo'ladilar. Masalan, Ma Zyan Djung ham yevropa tillari grammatikasidagi so'z turkumlari bo'limlariga xitoy so'zlarini joylashtira olmagan uchun ularni o'z qadimgi leksik-grammatik toifalari asosida taqqoslamay qoldirolmagan – "to'la so'zlar" (shizi) va "bo'sh so'zlar" (syuyzi).

Yevropa va milliy an'alarining bog'lanishi keyinchalik ham davom etdi: bunda, shunday fursat yuzaga keladiki, o'ziga xos eklektizm (turlicha qarashlar, nazariyalarni bir-biriga o'zboshimchalik bilan qo'shib yuborish) sxemasi ishlab chiqiladi: buning natijasida shunday ishlar yuzaga keladiki, ularda ikki an'ana to'la mos kelib, bu ishlar esa boshqa, asosan, o'quv grammatikalariga namuna bo'ladi. Aynan shunday ish Xitoyda Yan Shudaning 1913-yil nashrdan chiqqan "Gaodengguo venfa" grammatikasi edi. Ammo keyinchalik eklektizm elementlari sustlashib boradi va ikki an'ana tanqid ostida qabul qilinadi: har biridan faqatgina mazkur tadqiqotchining fikriga asosan, uning tiliga mos keluvchi tomonlari olinadi. Grammatika ilmidagi bunday og'ir bosqichni Xitoyda Lyu Funing "Djunguo venfa tunlung" (1920) xitoy tili nazariy grammatikasi tasdiqlaydi. Bunday grammatikalar Xitoy va Yaponiya yirik olimlari tomonidan taqdim qilingan ishlar asosida o'z tillarini chuqur o'rganishga asos soldi. Ma Zyan Djung, xitoy tilining mazkur grammatikasi birinchi muallifi hattoki, barchasini qadimgi xitoy tili, qadimgi klassik yodgorliklar tili materiallari asosida tuzgan. U paytlarda o'rganishga loyiq til bu – qadimgi adabiy yozma til hisoblanib,



so‘zlashuv tili esa uzoq vaqt “oddiy xalq tili” (“suhua”) deb hisoblangan. Bunday qarashlar tasodifiy bo‘lmagan: uning ortida o‘sha paytning til haqiqati berkingan bo‘lib, yangi adabiy til, aniqrog‘i – milliy tilning adabiy me‘yori u paytda endi tarkib topayotgan edi, tilni grammatik jihatdan o‘rganish esa odatda, o‘z materiallarida aynan shu me‘yorlarga ega. Bundan tashqari, maktab o‘quv dasturiga faqat yozma adabiy til kiritilgan. Shuning uchun Xitoy va Yaponiya yangi tilshunosligi tarixida muhim davr bo‘lib, zamonaviy til grammatikasining paydo bo‘lishi hisoblanadi.

Bunday grammatikalarning paydo bo‘lishi nafaqat tillarning milliy til sifatida rivojlanishi, balki ularda o‘z adabiy me‘yorlarining shakllanishi, boshqacha aytganda, yangi adabiy tilning yuzaga kelishi haqida guvohlik beradi.

Shu bilan birga, bunday burilish mamlakat jamiyat holati – demokratik harakatlar rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tomonlar Xitoyda yaqqol paydo bo‘ladi: zamonaviy tilga e‘tiborning kuchayishi, Xitoyda “4-may harakati” (1919) nomi bilan mashhur demokratik harakatning ko‘tarilishi bilan mos keladi. Bunday dalillar muhim ahamiyatga egadir. Chunki grammatika ilm-fani undan oldin qadimgi adabiy til materiallari asosida tuzilgan, chunki tilning grammatik tuzilmasini o‘rganishda yangi davrda ham an‘ana katta kuchga ega edi; zamonaviy tilni o‘rganishda esa tadqiqotchi o‘tgan zamon hukmronligidan ancha ozod bo‘lgan. Aytib o‘tish joizki, Xitoyda hozirgi kunda qadimgi adabiy tilni “venyan”ni o‘rganish, asta-sekinlik bilan qonunan til tarixi sohasiga o‘tib bormoqda, birinchi o‘ringa esa, zamonaviy til ko‘tarilib kelmoqda. Bunday burilish ayniqsa, Xalq inqilobiga ta’sir ko‘rsatib, tadqiqotchilar diqqatini bugungi kunda xalq hayotining barcha jabhalariga aloqador narsalarga qaratgan Xitoyda sezilmoqda. Shunga qaramasdan, milliy an‘ana ta’siri davom etmoqda. Bu nafaqat o‘z tili haqidagi tasavvur, uning tarixi, boqiyliqi bilan tushuntiriladi, balki zamonaviy til eski til bilan taqqoslanganda qanchalik yangi

---

bo'lmasin, yuz yillar osha shakllanganligi, bu yuz yilliklar ma'lum bir me'yor va sifatda uning tarkibidadir. Shuning uchun xitoy tadqiqotchilar ishlarida milliy an'analarning qay tarzda ifoda etilganligini hisobga olish muhim.

### **Xitoy tili hamda yozuvining shakllanish jarayoni**

Ma'lumki, xitoy tili alifboga ega emas, balki iyerogliflarga asoslangan til hisoblanadi.

Xitoy tili o'zining murakkabligi, mazmundorligi va o'ziga xosligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Uning asosini tashkil qiluvchi iyerogliflar ham o'z tarixiy kelib chiqishiga ega. Har bir iyeroglif bir necha xil kelib chiqish tarixiga ega. Ba'zilari qadimiy mavjud predmet yoki holatdan kelib chiqqan bo'lsa, ba'zilari tashkiliy yoki fonetik tuzilishga ega. Bu kabi holatlar iyerogliflarni yanada osonroq eslab qolish va uni qo'llay olishni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Istalgan jamiyatning lingvistik birligi umumiy aloqa vositalari bilan belgilanadi va ushlab turiladi. Uning yordamida jamiyat a'zolari orasida o'zaro muloqot vujudga keladi. Aloqa vositalari o'rnida til yoki predmet, imlo va tasvirlar orqali hosil qilinuvchi belgilar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xitoy yozuvi – alifbo yozuvi shaklida emas, balki iyerogliflar ko'rinishida shakllangandir. Xitoy iyeroglifik yozuvi zamonaviy yozuv turlari orasida istisno hisoblanadi. Bu dunyodagi yagona eramizdan avvalgi bir yarim ming yil avval yaratilgan va hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan iyeroglifik yozuv hisoblanadi. Iyeroglifik yozuv deyarli barcha qadimgi sivilizatsiyalarda – Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Xitoy, Markaziy Amerika<sup>1</sup>da yaratilgan edi, ammo bugungi kunga qadar yo'qolib ketgan hisoblanadi. Faqatgina xitoy iyeroglifik yozuvi o'zining rivojlanish bosqichida sivilizatsiya rivojidagi turli o'zgarishlarga

---

<sup>1</sup> Софронов М.В. Китайский язык и китайская письменность. – Москва: "Восток-Запад", 2007. - С.444.

moslashib, hozirgi kunda ham Xitoyda yozuv vositasi hisoblanib kelmoqda.

Xitoy olimlari o'z yozuviga izoh berar ekan, ular "Bizning xitoy yozuvimiz "biaoyi" (表意 biǎo yì) yozuv tizimiga kiradi", deydi.<sup>1</sup> Bu murakkab so'zni o'zbek tiliga tarjima qilganda, "mazmunni ifoda qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Agar uni tilshunoslik nazariyasidan kelib chiqib izohlasak, mazkur so'z "ideografik yozuv" degan atamani bildiradi. Bu atamaga olimlarimiz tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: ideografik yozuv bu so'z anglatadigan ramz, ya'ni shartli belgilardir.<sup>2</sup> Demak, har bir xitoy iyerogliflari o'z oldiga butun so'zni ifoda qilish uchun xizmat qiladigan yozuv tizimidir.<sup>3</sup>

Xitoy iyerogliflarining rivojlanish tarixi haqida gapirar ekanmiz, albatta, bu yozuv husnixatlarining turlari haqida gap yuritmasdan bo'lmaydi. Chunki Xitoy iyerogliflarining rivojlanishi ana shu husnixatlarda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan iyeroglif husnixatlari uning rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi.

Xitoy iyerogliflarining rivojlanish tarixida ularning bir nechta husnixat shakllari bo'lib, ular bilan quyida tanishib chiqamiz<sup>4</sup>.

古文<sup>5</sup> [gǔwén] qadimgi yozuv. 清 qīng sulolasi (1644-1911) ning so'nggi yillarida Xenan viloyatining Anyang shahri yaqinida arxeologlarning olib borgan qazilma ishlari natijasida bundan uch ming yil ilgari yashab o'tgan 商 shāng sulolasi (e.a. XVI – XI asrlar)ga xos bo'lgan, toshbaqa kosalari va hayvon

<sup>1</sup> Li Sivey va boshqalar. Xitoy iyeroglifining shakli va talaffuzi. - Uhan, 2000. 13-b.

<sup>2</sup> Xodjavey A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002. 41-b.

<sup>3</sup> "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat" Xitoy iyerogliflarining soni haqida Dotsent M.Mahmudxodjavey maqolasi.– Toshkent, 2009. 25-b.

<sup>4</sup> Mahmudxodjavey M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: "Matbuot", 1990. 5-b.

<sup>5</sup> Ko'rsatilgan manba.6-b.



suyaklariga o'yib yozilgan iyerogliflar topilgan. Bular eng qadimgi Xitoy yozuvi (iyerogliflari) husnixati bo'lib, 甲骨文 jiǎgūwén deb nom olgan va bu husnixat ko'rinishi jihatiga qaraganda ko'proq rasmni tasvirlash xususiyatiga ega bo'lganligi ko'rsatiladi.

Tarixdan ma'lumki, Shang sulolasining ikkinchi yarmi 殷 yīn (e.a. XIV – XI asrlar) nomi bilan atalgan. In va undan keyingi 西周 xī zhōu G'arbiy Djou (e.a. XI asr 770-yillar) sulolasi davrida bronza paydo bo'lib, kishilar orasida keng qo'llanilgan. Bu paytlarda bronza asboblari ustiga ham ko'plab iyerogliflar bitilgan. Bizgacha yetib kelgan bronza ustidagi iyerogliflarni 金文 jīnwén yoki bo'lmasa 钟鼎文 zhōngdǐngwén (temir asboblari yoki ibodatxona va uch oyoqli qozonlar ustiga yozilgan yozuv) deb ataganlar.

金文 husnixati garchi shakl jihatdan 甲骨文 ga o'xshab ketsada, lekin uning iyerogliflarining imlo chiziqlari bir oz soddalashtirilgandir. Shuning uchun iyeroglifshunoslar 金文 va 甲骨文 ni birgalikda 古文 deb atashadi.

大篆<sup>1</sup> [dàzhuàn] Katta belgili yozuv. 东周 dōngzhōu Sharqiy Djou (e.a. 771-256-yillar) davriga kelib yana bir husnixat shakli 籀文 zhòuwén boshqacha atalishi 大篆 vujudga keldi. Bu husnixat shakli, albatta, 古文 ga nisbatan bir oz boshqacha ko'rinishga ega bo'lib, iyeroglif imlo chiziqlari biroz silliq tuzilishi bilan umumlashib, to'rtburchak tus ola boshlagan. Shunga qaramasdan, Xitoyda bir davrning o'zida ishlatilgan 大篆 husnixatining turli yozuv usul va uslublari bo'lib, ular o'z navbatida, o'z davrida iyerogliflardan foydalanishda ancha qiyinchiliklar tug'dirgan. Chunki bu usul va uslublar yozilishi jihatidan bir-biridan tubdan katta farq qilar edi.

<sup>1</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: "Matbuot", 1990. 6-b.

小篆<sup>1</sup> [xiǎozhuàn] Kichik belgili yozuv. Eramizdan avval 秦 qín imperiyasi (221-206-yillar) tashkil topib, imperator 秦始皇 qínshǐhuáng Xitoydagi mayda davlatlarni umumiy bir imperiyaga birlashtirganidan keyin uning vaziri 李斯 lǐsī rahbarligida iyerogliflar islohoti o‘tkazildi. Bu Xitoyda iyerogliflar ustidan olib borilgan birinchi islohot bo‘lib, natijada navbatdagi yangi islohot shakli 小篆 vujudga keldi. Husnixatning bu xil shakli 大篆 ga qaraganda ancha soddalashtirilib, iyerogliflar ma‘lum bir tartibga keltirilgan edi. Islohotning eng muhim ahamiyati shundaki, iyerogliflarning ma‘lum bir qoida asosida birlashtirilishi katta ahamiyat kasb etib, nihoyat Xitoy iyerogliflari o‘zining rivojlanish tarixiga yangi bir ildam qadam qo‘ydi.

Vaqt o‘tishi bilan husnixatning 小篆 husnixati ham o‘z mavqeini yoqotib, borganligi va davr talabiga javob bermay qolganligi uchun, olimlar husnixatning yangi shaklini ijod qila boshladilar.

隶书<sup>2</sup> [lìshū] Rasmiy yozuv. Xitoy rivoyatlariga ko‘ra 程邈 chéngmiǎo degan iyeroglifshunos 小篆 husnixatini yanada soddalashtirishga kirishadi. Oqibatda iyerogliflar asta-sekin o‘zgarib 汉 sulolasining boshlarida (e.a. 206 - e. 200 - yillari) 隶书 husnixati shakliga kirar ekan, zamonaviy tusga ega bo‘la boshlagan. 隶书 husnixati hozir biz foydalanayotgan iyerogliflardan ko‘p farq qilmay, shu usulda yozilgan manbalarni bemalol o‘qishimiz mumkin.

章草<sup>3</sup> [zhāngcǎo] Rasmiy yozuv. Jamiyatning taraqqiy etishi va rivojlanishi natijasida 隶书 husnixati ham takomillashgan bo‘lishiga qaramay, kishilarni qanoatlantira

<sup>1</sup>Ko‘rsatilgan manba. 6-b.

<sup>2</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.; “Matbuot”, 1990. 7-b.

<sup>3</sup>Ko‘rsatilgan manba. 7-b.

olmay qoldi. Iyeroglifshunoslar bu husnixatni ayni bir vaqtda yozish tezligi past bo'lganligi uchun ham shu yozuvda yozish ko'p vaqt talab qiladi deb hisoblanib, yanada tezroq yozish mumkin bo'lgan yozuv xatini ixtiro qilishni o'ylay boshladilar. Bunday intilishlar esa 隶书 husnixatining dunyoga kelganidan ko'p vaqt o'tmasdan, Xitoy iyerogliflarining yana bir husnixati shakli vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Bu yangi husnixat shakli dastlab 章草 deb atalgan va 晋 jin sulolasi (265-420-yillar) davriga kelib keng tarqalgan va qo'llanilgandir. Bu yozuvni yana 今草 jīncǎo (bugungi tez yozuv xati) deb ham ataganlar. 章草 husnixatini ko'zdan kechirar ekanmiz, unda bari bir 隶书 husnixatining butunlay siqib chiqarmasdan ba'zi bir qoldiqlari qolganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. 章草 husnixatini ham 隶书 kabi iyeroglif imlo chiziqlarining chegaralari aniq bo'lib, oqibatda ko'pgina iyerogliflarning shakllari yoqolib, o'qilishi jihatidan ancha murakkablashib qolgan.

隶书 va 草书 husnixati deyarli bir xil davrga xos bo'lishiga qaramasdan 草书 o'zining murakkab shakliga ega bo'lganligi uchun ziyolilar orasida qo'llanilib, bosmada asosan 隶书 husnixati ishlatilib kelingan.

楷书<sup>1</sup> [kāishū] Namunali yozuv. Xan sulolasining oxiriga kelib, 隶书 husnixati yana o'zgarib, 楷书 husnixati shakliga aylanib borgan. 楷书 husnixatining imlo chiziqlari yanada aniq, shaklan mukammal va ravshan, o'qish va yozishga juda qulay bo'lib, 隶书 husnixatiga qaraganda iyerogliflari yana ham ixchamlashib, namuna bosqichiga yetgan. Shuning uchun 楷书 husnixati 隶书 husnixatining o'rnini egallab, bizgacha yetib kelgan va jamiyatda o'z o'rnini yoqotmay kelmoqda. Bu husnixat iyeroglif ko'lamidan

<sup>1</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.; "Matbuot", 1990. 8-b.



qat'iy nazar 方块字 fāngkuàizì (to'rtburchak shaklidagi iyerogliflar) deb yuritiladi. Lekin ba'zi "odam" kabi iyerogliflar bu qoidadan mustasno bo'lib, o'ziga xos shaklga ega ekanligini ko'rsatadi.

行书<sup>1</sup> [xíngshū] Yarim tez yozuv.北魏 běiwèi Shimoliy Vei (386-534) davriga kelib, husnixatlarning yana bir turi 行书 vujudga keldi va bu husnixat 楷书 va 草书 husnixatlari oraliq'idagi o'ziga xos iyeroglif shaklidan iborat bo'lgan husnixatdir. 行书 husnixati 楷书 ga qaraganda yozilish jihatidan tez, 草书 ga nisbatan o'qilish jihatidan osondir. 行书 husnixati ham o'zining qoidasi va me'yoriga ega. Bu turdagi husnixatlarni faqat ko'p mashq qilish natijasidagina o'zlashtirib olish mumkin. Shu usulda yozishni o'rganish davomida ma'lum qoidalarga rioya qilinmasa, uni o'zlashtirib bo'lmaydi.

Xitoyda qadimdan "iyerogliflarning olti turi" degan bir naql bor<sup>2</sup>. Hozirgi bizgacha yetib kelgan va qo'llanilayotgan iyerogliflarni Xitoy iyeroglifshunoslari kelib chiqishi jihatidan olti xil turga bo'lib ko'rsatadilar. Ular "Xitoy iyerogliflari turkumlari" deb yuritiladi. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

1. Tasviriy-rasm turkumi. 象形字 [xiàngxíngzì]<sup>3</sup>; bu turkumdagi iyerogliflar hayotimizda borliqni tasvirlab, jismlarning shaklini belgilaydi. Shuning uchun bu turkumdagi iyerogliflar borliqni rasm orqali tasvirlovchi iyerogliflar turkumi deb ham yuritiladi.

2. Ko'rsatkich turkumi. 指事字 [zhǐshìzì]<sup>4</sup>; bu turkumga kiruvchi iyerogliflarga ko'z bilan ko'rib, rasm orqali ifoda etib bo'lmaydigan voqelikka nisbatan ijod qilingan iyerogliflar

<sup>1</sup> Ko'rsatilgan manba. 8-b.

<sup>2</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: "Matbuot", 1990. 10-b.

<sup>3</sup> 胡朴安著. 文字学常识. – 北京, "中华书局", 2010. 61 页.

<sup>4</sup> 胡朴安著. 文字学常识. – 北京, "中华书局", 2010. 67 页.

kiradi. Shuning uchun bu turkumga kiruvchi iyerogliflar tasviriy turkumdagi iyerogliflarga ko'rsatish belgisining qo'shilib kelishi bilan vujudga keladi.

3. Ma'naviy birlashish turkumi. 会意字 [huìyìzì]<sup>1</sup>; bu turkumdagi iyerogliflar bir qancha tasviriy-rasm turkumiga kiruvchi iyerogliflarning birikib kelishi natijasida tuzilib, ular bitta iyeroglifni tashkil qiladi.

4. Shaklan o'zgaruvchi turkum. 转注字 [zhuǎnzhùzì]<sup>2</sup>; jamiyat taraqqiy etar ekan xitoy tilida ham boshqa tillar qatori yangi so'zlar vujudga kelib, lug'at boyligi ortib boradi. Natijada paydo bo'lgan yangi so'zlarga iyerogliflar qabul qilish taqozosi tug'iladi. Shuning uchun iyeroglifshunoslar asli bor va ma'no jihatdan yaqin bo'lgan iyerogliflardan foydalanib, ularga ozgina o'zgartirish kiritishlari natijasida yangi so'zlarga iyerogliflar tuzganlar.

5. O'zlashtiruvchi turkum. 假借字 [jiǎjièzì]<sup>3</sup>; bu turkumga xos bo'lgan iyerogliflar ham yangi qabul qilingan iyerogliflar bo'lmay, balki ilgari asli bor bo'lgan iyerogliflardan foydalangan holda, ularning tovushini o'zlashtirib olish yo'li bilan yangi mazmun anglatgan.

6. Rasm-talaffuz turkum. 形声字 [xíngshēngzì]<sup>4</sup>; Xitoy jamiyati rivojlanishi bilan birga Xitoy tili ham rivojlanib borgan. Binobarin, yuqorida ko'rsatib o'tilgan turkumlarga kiruvchi iyerogliflarning tuzilish usullari qanoatlantira olmagan. Natijada asta-sekinlik bilan "rasm-talaffuz turkumi"ga kiruvchi iyerogliflar paydo bo'la boshlagan. Bu turkumga kiruvchi "rasm-talaffuz turkumi"ga iyerogliflar bo'lib, ular yuqorida biz tanishib chiqqan turkumdagi iyerogliflarning qo'shilishi tufayli tashkil topgan. Bu turkumdagi iyerogliflarning bir bo'lagi uning

<sup>1</sup>胡朴安著. 文字学常识. - 北京, "中华书局", 2010. 71 页.

<sup>2</sup>胡朴安著. 文字学常识. - 北京, "中华书局", 2010. 81 页.

<sup>3</sup>胡朴安著. 文字学常识. - 北京, "中华书局", 2010. 87 页.

<sup>4</sup>胡朴安著. 文字学常识. - 北京, "中华书局", 2010. 75 页.

ma'nosini, ikkinchi bo'lagi esa o'zining asl ma'nosini yoqotib faqat uning tovushini anglatadi.

Xitoy yozuvining belgilari bir yoki bir necha murakkab grafik belgilarning birikishidan hosil qilingan hisoblanadi. Uni xitoy tilida 字 zi "yozuv belgisi" deb nomlanadi. Yevropa tillarida esa character – "belgi", rus tilida - иероглиф deb ataladi. Xitoy yozuvining nooddiyligi olimlar va havaskorlarning unga bo'lgan qiziqishini doim orttirib borgan. XVIII asrdan boshlab, Yevropada iyeroglif haqida turli izlanishlar olib borilgan.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoydagi tilshunoslik ilmining rivojlanishida Yevropa tilshunosligining ahamiyati.
2. Xitoy filologlari ilk grammatika paydo bo'lgunga qadar o'rgangan grammatik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari.
3. Xitoy tilida transkripsiya ma'nosi qanday izohlanadi?
4. Xitoy tilida transkripsiya berish usuli qachondan paydo bo'la boshladi?
5. Qadimgi xitoy tilida transkripsiya berishning qanaqa usullarini bilasiz?
6. Iyeroglif yozuv deganda nimani tushunasiz?
7. Xitoyda iyeroglif yozuv necha ming yillik tarixga ega?
8. Iyeroglif yozuv bilan alifboli yozuvning farqli tomonlarini nimalarda ko'rasiz?

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

1. Tsing va Xan davrlarida xitoy leksikografiyasi A. Maspero taklif etgan davrlashtirish tizimi.
2. Xitoy tilshunos olimi Van Li tomonidan «汉语史稿» (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan davrlashtirish tizimi.
3. Transkripsiya berishning ji in usuli qachon paydo bo'lgan?



4. Ji in usulida ijod qilish saqlanib qolganmi, yo'qmi asoslab bering?

5. Ji in usulining qo'llanilishida qanday kamchiliklar bor?

6. Qaysi lug'atlar ji in usulida yaratilgan?

### Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:

1. "Gu liang zhuan" va "Gong yang zhuan" asarlarining Xitoy klassik adabiyotlariga izoh berishdagi ahamiyati.

2. Sima Chien. "Tarixchi bitiklari" matnidan lavhani tarjima qiling.

3. Matnda uchragan kishilik olmoshlari, ravishlarni tahlilini amalga oshiring.

### TEST

1. "不"在"不见不散"中念第\_\_\_\_声, 在"不屈不挠"中念第\_\_\_\_声。

答案: 二、四

2. 汉语普通话口语里面, "啊"在"好啊"、"不啊"、"读书啊"中习惯念"\_\_\_\_", 在"去啊"、"淘气啊"、"大衣啊"中习惯念"\_\_\_\_"。

答案: 哇(wa)、呀(ya)

3. 古代汉字有、指事、会意、形声等四种造字法。

答案: 象形

4. 形声字构成的词语"蜘蛛"的形旁都是"虫", 声旁是"\_\_\_\_"和"\_\_\_\_"。

答案: 虫、知、朱

5. 形声字“城”的形旁是“”，声旁是“”。

答案：土、成



6. “口”和“今”，可以根据左右结构和上下结构组成两个不同的汉字，它们是“”和“”。

答案：吟、含

7. 七十二个小时。

猜一个字：。

答案：晶

8. 光打雷不下雨。

猜一个字：。

答案：田

9. 难分上下。

猜一个字：。

答案：卡

10. 镜中“人”。

猜一个字：。

答案：入

### 3 - MAVZU: IYEROGʻLIF VA SOʻZ – XITOIY ANʻANAVIY TILSHUNOSLIGINING OBʻYEKTI SIFATIDA

**Darsning oʻquv maqsadi:** Qadimgi matnlarda uchraydigan iyeroglifning maʼnosini izohlash. Iyerogliflarning rivojlanishi va oʻzgarishi oqibatida leksik tizimdagi oʻzgarishlar. Xitoyda ilk lugʻatlar asosida iyerogliflarning 6 toifasi kelib chiqish tarixi bilan tanishish.

**Tayanch soʻz va iboralar:** 尔雅 “Erya”, “释诂”, 说文解字 “Shuowenjiezi”, “字彙”, 注音字母 *Zhùyīn zìmǔ Djuyin zimu*, 字典 *zidian*

#### Iyerogliflar, ularning kalitlari hamda hozirgi iyerogliflarning turlari va tarkibi

Iyerogliflar<sup>1</sup> – bir soʻz, boʻgʻin yoki tovushni ifodalashga xizmat qiluvchi grafik ifoda. Xitoy iyerogliflari – xitoy tilining yozuv belgisi hamda aloqa vositasidir.<sup>2</sup> Iyerogliflar hozirgi kunda abstrakt grafik tuzilishga ega boʻlib, koʻrinishidan ifodalaydigan maʼnosi bilan yozilishida bir-biri bilan aloqadorligi yoʻqdek koʻrinadi. Iyerogliflar shakli uning fonetik talaffuzini ifodalamaydi. Shu sababli xitoy tili uchun bir vaqtning oʻzida oʻqish, yozuv va til metodikasini qoʻllab boʻlmaydi. Ogʻzaki tilni oʻrganish uchun bir vaqtning oʻzida iyeroglifning yozilishini eslab qolish kerak, bu esa oʻz navbatida, fonetika va iyeroglifning yozilishi ogʻzaki tilni oʻrganish uchun muhim vosita ekanligini ifodalaydi.

Iyerogliflarning qadim zamonlardan kelib chiqishi bilan bogʻliq turlari ham mavjud. Ularning qatoriga piktogrammalar, ideogrammalar hamda fonogrammalar kiritamiz. Ularning oʻzaro farqlari nimada, nima sababdan ular bunday turlarga boʻlingan?

<sup>1</sup> Yunoncha “hieros” – muqaddas va “qluphe” – oʻyiq, muqaddas oʻyiq.

<sup>2</sup> Hidoyatova SH., Karimov A., Aminov E. Xitoy tili grammatikasi. Fonetika va iyeroglifik yozuv. – Toshkent; “Fan va texnologiya”, 2004. 54-b.



## Piktogrammalar <sup>1</sup>象形字 [xiàngxíngzì]

Xitoy yozuvi bilan birinchi bor duch kelgan odam albatta, uni tushunishda avvaliga xuddi yechimi topilmaydigan bir qator qiyinchiliklarga uchraydi. Ammo aynan ilk iyerogliflar ana shu muloqotdagi, tushunishdagi to'siqni yengish uchun o'ylab topilgan. Agarda iyerogliflarning to'rt ming yil avvalgi ko'rinishiga qaraydigan bo'lsak, ko'z oldimizda tabiat hodisalari, o'simliklar, odam, qurol-aslaha va boshqalarning deyarli aniq manzaralari namoyon bo'ladi.<sup>2</sup> Ana shu birinchi tasviriy rasmlar bilan yaratilgan iyerogliflar piktogrammalar deb ataladi. Hozirgi kunda ular iyerogliflarning unchalik katta bo'lmagan qismini tashkil qiladi. Undagi muhim jihati shundaki, hodisa, o'simlik yoki odam aniq holicha tasvirlanadi, ortiqcha detallarga to'xtalib o'tilmaydi.

Qadimgi "tog'" piktogrammasi, masalan, tog'ning umumiy ko'rinishi uchta narsalar bilan shartli ravishda tasvirlagan. "Daraxt" piktogrammasi shoxlar, daraxtning tanasi va ildizning ko'rinishida tasvirlangan. "Odam" iyeroglifi odamning yon tomonlama turgandagi sxematiklashgan tasvirida namoyon bo'ladi. "Olov" iyeroglifining ilk ko'rinishi "tog'" piktogrammasiga o'xshash bo'lib, ulardan birida tog'ning cho'qqilari ikkinchisida olov uchqunlari tasvirlangan. "Daryo" piktogrammasi tizilib oqayotgan suvni tasvirlagan. Qo'l tasviri shartli bo'lib, u barmoqalarning sonini tasvirlamagan.

Shu tariqa alohida iyerogliflar guruhi paydo bo'ldi. Ular ko'rsatuvchi yoki belgi iyerogliflari deb nomlanib, unda geometrik tuzilish yordamida u yoki bu tushunchalar beriladi. "Past" va "tepa" iyerogliflari predmetning gorizont chizig'idan tepe yoki pastdagi o'rnini ifodalaydi. "Oraliq" iyeroglifi

<sup>1</sup> Мьщик А.П. 214 ключевых иероглифов в картинках с комментариями. – СПб.; "КАРО", 2007. – С.4.

<sup>2</sup> 胡朴安著. 文字学常识. –北京,; "中华书局", 2010. 62 页.

kamonning o'rtasidagi o'q bilan birgalikdagi tasviriga asoslangan hisoblanadi.

Shunday qilib, Xitoyda predmet shakli ifodasiga asoslangan yozuvning sodda tizimi shakllandi. Umumiy hisobda alohida belgilar ajralib chiqdi va ikki yuzga yaqin piktogramma iyerogliflari muomalada qoldi.

### Ideogrammalar 1 会意字 [huìyìzì]

Til va fikrning rivojlanishi bilan ularni ifodalashda tasviriy iyerogliflar soni yetishmay qoladi. Piktogrammaning qiyin turlarini o'ylab topish esa o'zlari uchun qiyinchilik tug'dir edi. Ammo piktogrammalar asosida ideogrammalar shakllana boshladi. Ideogrammalar – bu shunday belgiki, predmetning tasvirlanishi asosiy maqsad bo'lmagan, ya'ni ma'lum bir ko'rinishdagi predmet (misol uchun odam pozalari) uning holati yoki vazifasini ifodlashi kerak bo'lgan. Ko'pchilik ideogrammalar mavjudlarini qo'shish orqali boshqa ma'noni ifodalash uchun hosil qilingan.<sup>2</sup>

Misol uchun “daraxt” iyeroglifi yoniga yana bitta “daraxt”ni qo'yish bilan yangi tushuncha – “o'rmon” hosil qilingan; uchta “daraxt” elementining qo'shilishi esa “daraxtzor”, “o'rmonzor” ma'nosini beradi. Bir turdagi sodda elementlarning sondagi ko'payishi – ideogrammalarni hosil qilishidagi sodda usul hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida nafaqat iyerogliflarning o'zi, balki ularning shakllanishi ham rivojlanib bordi.

Masalan, quyosh, uning daraxt ortidagi tasviri “sharq” ma'nosini, daraxt soyasidagi odam “dam olmoq” ma'nosini, qush dumidan ushlab turgan qo'l “ushlamoq” ma'nosini

<sup>1</sup> Мыщик А.П. 214 ключевых иероглифов в картинках с комментариями. – “СПб: КАРО”, 2007. – С.5.

<sup>2</sup> 胡朴安著. 文字学常识. –北京, “中华书局”, 2010. 72 页.

ifodalagan. Shunday qilib, ideogrammalar ma'nolari qismlarning bir-biriga munosabatini ifodalagan.

Vaqt o'tishi bilan ideogrammalar tasviriy xususiyatlarini yoqotib, shartli xarakter hosil qila boshlagan. Ko'pgina iyerogliflarning kelib chiqishi shundan iboratki, ularning hozirgi ma'nosi uning tarkibiga kiruvchi elementlarning ma'nolaridan kelib chiqib hosil qilingan.

### Fonogrammalar<sup>1</sup>形声字[xíngshēngzì]

Hosil qilib bo'lingan mavjud iyerogliflardan tilni juda boyitish mumkin edi. Ammo qadimgi xitoyliklar boshqa usulni tanladilar. Alohida esda saqlab qolarli alifbo tizimini ishlab chiqdilar. Ana shunda fonogrammalar yuzaga keldi, ya'ni biron bir predmetning talaffuzini olib, uning nimadan ekanligi iyeroglifning asosiy iyeroglifning elementi sifatida bitta iyeroglifga qo'shildi (determinat).

Misol uchun "piyoz" so'zi iyeroglifda nima haqida so'z borayotganini aniq ko'rsatish uchun yoki piyozning rasmi korsatilgan yoki o'simlikni bildiruvchi shartli belgi qo'yilgan bolar edi. Bunda piyoz tasviri "determinat" vazifasini o'tagan bo'ladi. Undan keyingi kelayotgan belgilar esa mavjud iyeroglif ifodalayotgan so'zning aynan o'simlikka oid ekanligini bildirib keladi. Bunday analogning kamchiligi shunda ediki, iyeroglif tarkibidagi fonetik to'liq iyeroglifning talaffuzini berib, yozuvda esa talaffuzni hosil qiluvchilar aks etmas edi. Fonetiklar sifatida eskirib qolgan talaffuzli piktogramma yoki ideogrammalar olinar edi. Fonografik iyerogliflarda ifodalanadigan so'z fonetik jihatdan uning elementi talaffuzi bilan teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, iyeroglifning, ya'ni so'zning o'qilishi undagi biron bir elementning o'qilishi bilan bir xil. Bundan tashqari, fonetiklar

<sup>1</sup> Мыщик А.П. 214 ключевых иероглифов в картинках с комментариями. – "СПб: КАРО", 2007. - С.6.



iyeroglif ifodalayotgan ma'no bilan aloqador ham bo'lishi mumkin. Fonetikning ma'noga aloqadorligi esa iyeroglifning qanday usul bilan yaratilganligiga bog'liq bo'lgan.

Fonografik iyerogliflarning rivojlanishi qadimgi piktografik iyerogliflar funksiyalarining qiyinlashuviga sabab bo'ldi. Ular yozuvning yangi rivojlanish turida sifat o'zgarishiga duch keldi. Ilk piktogramma-determinativlar ideografik aniqlovchi vazifasini bajargan. Qadimgi lug'atlarda so'zlar mazmun jihatdan guruhlariga bo'lingan. Misol uchun qadimgi xitoy tili lug'atlaridan birida "osmon" determinatidan so'ng, "quyosh", "yomg'ir", "bulut" va h.k.lar joylashtirilgan; "yer" kalitidan so'ng "suv", "tog'", "qishloq", "o'simlik" kabilar joylashtirilgan.

Ushbu guruhga kiruvchi iyerogliflarning ko'pchiligi bitta determinatlarga ega bo'lgan. Mana shu jihatdan iyeroglifning lug'atdagi joylashuv o'rnini osonlik bilan topish mumkin bo'lgan.

Shunday qilib, determinat qo'shimcha funksiyaga ega bo'ldi – iyeroglifning lug'atdagi o'rnini belgilash, ya'ni lug'atdan iyeroglifni qidirib topish funksiyasi.

Vaqt o'tishi bilan bu funksiya deyarli asosiya aylanib, ideografik ma'nosi esa ikkinchi darajali bo'lib qoldi. XVII asrga kelib, kalit belgilarining soni 214 taga yetdi. Kalitlar ma'lum darajada iyeroglifning ideografik ma'nosini saqlab qolgan. Misol uchun, "daraxt" kalitiga ega ko'pgina iyerogliflar daraxtlar ma'nolarini yoki daraxtdan tayyorlangan predmetlar ma'nolarini ifodalaydi.

Demak, odamlarning gaplashishga, muloqot almashishga bo'lgan ehtiyoji sabab Xitoy hududida ilk iyerogliflar paydo bo'lgan. Keyinchalik mavjud iyerogliflar esa fikrlar, predmetlar, voqea-hodisalarni to'liq yetkazib berishda kamchilikni tashkil qilgan. Bu esa yangi iyerogliflarni yasashga turtki bo'lib xizmat qilgan. Ammo yangidan yangi iyerogliflar o'ylab topish birmuncha muammolarga sabab bo'lar edi, hamda ularni eslab

qolishda qiyinchiliklar keltirib chiqarardi. Shuning uchun, mavjud iyerogliflarni ma'no jihatdan bir-biriga qo'shish orqali yangi ma'no hosil qilingan. Bu usul orqali iyerogliflar soni ko'paytirilgan bo'lib, ularni eslab qolish qiyinchilikni keltirib chiqarmagan. Chunki, iyerogliflarda ishtirok etgan barcha elementlar ularga tanish bo'lgan.

Xitoy tilida morfologik kategoriya bo'yicha juda ko'p miqdorda iyerogliflarning yaratilishi ma'lum turdagi siklik belgilarning saralab olinishiga sabab boldi. Aynan shu belgilar kalitlar yoki iyerogliflarning ma'lum bir predmetlar guruhi yoki hodisalarga aloqadorligini bildirib turuvchi ma'noli determinatlar sifatida qo'llaniladi.

Misol uchun iyerogliflarning predmetni, o'simlik dunyosi bilan bog'liq qismi, daraxtlar sinfiga bog'liq bo'lganligi sabab quyidagi iyerogliflarda ma'noli qismi bo'lib 木 mù "daraxt" belgisi qo'llaniladi.

杨 yáng "terak" talaffuzi "quyosh", "quyosh nurlari" fonetikasiga ega bo'lsa, uning daraxt guruhiga mansubligini esa "daraxt" kaliti belgilab beradi.

Ba'zida predmetning qanday ashyodan tayyorlanganligiga qarab kalitning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Misol uchun "miltiq" 枪 qiāng iyeroglifi bilan ifodalanadi, uning bu kalit bilan ifodalanishiga sabab esa u avval, "nayza"ni bildirgan. Hozirda miltiq tayyorlashda daraxt emas, balki temirdan foydalaniladi. Shuning uchun 木 mù "daraxt" 金 jīn "temir"ga o'zgartirilgan. Demak, 2 ta ma'noni beruvchi iyerogliflar mavjud bo'lib qoldi, ularning farqi esa ma'nosini anglatuvchi kalitda, xolos.

Kalitlar o'rnida sodda iyerogliflar qo'llaniladi. Misol uchun 米 mǐ "guruch", 竹 zhú "bambuk", 豆 dòu "loviya", 山 shān "tog'", 田 tián "dala", 日 rì "quyosh", 口 kǒu "og'iz", 耳 ěr "quloq" va boshqalar.

Kalit va fonetikalarning aniq soni iyerogliflarning tuzilishiga doir ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq, shuning uchun

ularning soni har bir tadqiqotchilarda bir xil emas. Kalitlarni joriy qilish juda muhim sanaladi, boisi, bu har turdagi lugʻatlarni tuzishda katta qulaylik yaratadi. Eramizning I asrida Xin Shen tomonidan tuzilgan“说文解字”(shuō wén jiě zì) lugʻatida (sodda iyerogliflarni tanishtirish hamda murakkab iyerogliflarni tahlil qilish) iyerogliflar 540 ta kalitlar boʻyicha joylashtirilgan. Gu Ewen tomonidan VI asrda tuzilgan “语篇”(yǔ piān) lugʻatida 542 ta kalitlardan foydalanilgan. 1208-yilda eʼlon qilingan “无音类句”(wú yīn lèi jù) lugʻatida esa 444 ta kalit qoʻllanilgan. Ularning 421 tasi “语篇” lugʻatidan olingan, 23 tasi esa qayta saralab olingan. XIV asrda olim Zhao Zian “六书本义”(shūběn běnyì) lugʻatini tuzib chiqadi. Unda kalitlar soni 360 tagacha qisqartiriladi.

Xitoy iyerogliflari tizimida kalitlarni tartibga solishda 1633-yilda nashr etilgan “子汇”(zǐ huì), 1705-yilda esa “真字通”(zhēn zì tōng) nomi bilan qayta nashr qilingan lugʻat katta ahamiyatga ega. Bu lugʻatda kalitlar soni 214 taga yetkazilgan. Shundan beri kalitlarning bu tizimi koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan boʻlib, hozirgi kungacha saqlanib qolingan. Aynan shu tizim bilan koʻpgina lugʻatlar nashr etiladi (1-ilova).

Toʻliq hosil qilingan iyerogliflar 整字 zhěngzì deb atalsa, uni hosil qilishda quyidagilar ishtirok etadi<sup>1</sup>.

- 部首 bùshǒu – iyeroglif kaliti;
- 偏旁 piānpáng – yon boʻlak;
- 部件 bùjiàn – grafema;
- 笔画 bǐhuà – imlo chiziqlari;

Yuqorida koʻrsatilgan kalitning maʼnosi qadimgi ideogramma boʻlib, ana shundan ishlash, yaʼni 工 iyeroglifi paydo boʻlgan. Uning kelib chiqishi borasida ikki xil nazariya mavjud.

<sup>1</sup>Hanzi: The Chinese Characters 汉字主编周建. 上海: “外语教育出版社”, 2009年. 第74页.



Bularning biri gorizontal chiziqlar ikki daraja yoki saviyani, vertikal chiziq esa quruvchilarning asbobi bo'lib, u o'lchamlarni aniq olish uchun xizmat qilgan. Ikkinchisi esa, ikki gorizontal chiziqlar yer va osmon, vertikal chiziq esa odam, ya'ni uning yer va osmon orasidagi qilishi kerak bo'lgan faoliyatini bildirgan.

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi misollarning kaliti 工 iyeroglifi xizmat qilgan. 功 iyeroglifida 工 kaliti iyeroglif o'qilishini bergan, shu bilan birga, uning ma'nosiga ham aloqadordir. 工 kaliti bilan ma'nodor yon bo'lak 力 li ning qo'shilishidan hosil bo'lgan. 力 iyeroglifi esa kuch-quvvat, energiya, qobiliyat, layoqat, astoydil kabi ma'nolarga ega. Keyingi misolda esa 工 kaliti 巧 yon bo'lagi bilan qo'shibil 巧 iyeroglifini hosil qilgan. Bu iyeroglifda 工 kaliti faqatgina mazmuni ifodalab kelgan, iyeroglif o'qilishida esa ahamiyat kasb etmaydi.

女 nǚ<sup>1</sup> - ayol, ayollarga xos, qiz.

Bu iyeroglif patriarxat davrida paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ayol timsoli sokin holda o'tirgan va qo'llarini ko'krak oldiga tutgan tarzda tasvirlangan.

妻子 qīzi - rafiq

她 tā - u, uni (ayol kishiga nisbatan)

姐姐 jiějie - katta opa.

Yuqoridagi misollarda 女 kaliti asosiy ma'nodor qism sifatida ta'riflanadi. Birinchi so'zdagi 妻 iyeroglifining kelib chiqishi shunday ta'riflanadi: urush davrida dushmanlar tomonidan hujum qilingan yurtlarda erkaklarni qatl etib yoki qullikka olib, ayollarini esa kanizak qilib (xotinlikka) olishgan (ayollarni sochlaridan tortib olib kelingan). Ana shundan rafiq ma'nosini ifodalovchi iyeroglif hosil bo'lgan. Ikkinchi iyeroglifda esa 女 kaliti olmoshning ayol jinsiga mansubligini bildirib keladi. Undagi 也 yon bo'lagi ma'noga hech qanday

<sup>1</sup>谢光辉.常用汉字图解.北京:“大学出版社”1997.第一版.44页

ta'sir qilmagan. Uchinchi so'z iyeroglifida esa 女 kaliti 且 qiě yon bo'lagi bilan qo'shilib ana shu iyeroglifni hosil qilgan. Bu so'zda ham yon bo'lakning ma'noga ta'siri yo'q. Berilgan uchta misollarda ham kalit iyeroglif o'qilishini belgilab bermaydi, faqatgina uning mazmunida aks etadi.


### **Ideogrammalarning tuzilmaviy xususiyatlari va o'ziga xosligi**

Zamon rivojlanishi bilan aholiga qonunlarni yetkazish uchun, administrativ hujjatlarni yozish uchun ma'lumotlarni aniq va lo'nda yetkazuvchi vosita kerak bo'lgan. Ana shunda muomalaga iyerogliflarning yangi turi ideogrammalar kirib kelgan. Odamlar piktogrammalarni chizmay, balki ideogrammalarni yozishar edi. Endi ma'lum bir belgida aniq predmet yoki harakat emas, balki asbtrak tushuncha va fikrlar ifodalanar edi (2-ilova). Misol uchun 飠 “ovqat, yemish” belgisi “tinch” ma'nosini ham ifodalashi mumkin edi.

Ideogrammalarda rasm va fikr o'rtasidagi aloqani anglab olish qiyin. Masalan, 𠄎 iyeroglifi “hukmronlik qilish” degan ma'noni anglatadi. Bu iyeroglif asoni tasvirleydi, aso belgisi hukmronlikning belgisi emasmi? Bundan tashqari, ideogramma istalgan grammatik shaklda kelishi mumkin. Bu “hukmronlik qilgan” yoki “hukmronlik qiladi” shakllari nazarda tutilgan bo'lishi ham mumkin.

Bir belgi bir vaqtning o'zida ikki vazifada kelishi ham mumkin: agar unda aniq predmet nazarda tutilsa, bu – piktogramma, agar unda abstrakt ma'no mavjud bo'lsa, u holda bu – ideogramma hisoblanadi. Yozuv shakllanishining bu bosqichida piktogramma va ideogrammalar birgalikda qo'llanilgan.

Olimlar qadimgi Misr yozuvlarini o'rganar ekanlar, misrliklar matnda so'zni turli usullar bilan yozganliklarining guvohi bo'ldilar. Ba'zi belgilar butun so'zni ifodalagan, ba'zilari bo'g'inlarni ifodalagan. Ismlarni esa tovushlarni ifodalovchi

belgilar bilan yozganlar. Bunday belgilarni harflar deb ham atasa bo'ladi. Ismlarni bildiruvchi iyerogliflarni dumaloq belgi bilan chegaralab yozganlar.  <sup>1</sup> <sub>2</sub> <sub>3</sub> <sub>4</sub> <sub>5</sub> <sub>6</sub> <sub>7</sub> <sub>8</sub> <sub>9</sub> <sub>10</sub> <sub>11</sub> <sub>12</sub> <sub>13</sub> <sub>14</sub> <sub>15</sub> <sub>16</sub> <sub>17</sub> <sub>18</sub> <sub>19</sub> <sub>20</sub> <sub>21</sub> <sub>22</sub> <sub>23</sub> <sub>24</sub> <sub>25</sub> <sub>26</sub> <sub>27</sub> <sub>28</sub> <sub>29</sub> <sub>30</sub> <sub>31</sub> <sub>32</sub> <sub>33</sub> <sub>34</sub> <sub>35</sub> <sub>36</sub> <sub>37</sub> <sub>38</sub> <sub>39</sub> <sub>40</sub> <sub>41</sub> <sub>42</sub> <sub>43</sub> <sub>44</sub> <sub>45</sub> <sub>46</sub> <sub>47</sub> <sub>48</sub> <sub>49</sub> <sub>50</sub> <sub>51</sub> <sub>52</sub> <sub>53</sub> <sub>54</sub> <sub>55</sub> <sub>56</sub> <sub>57</sub> <sub>58</sub> <sub>59</sub> <sub>60</sub> <sub>61</sub> <sub>62</sub> <sub>63</sub> <sub>64</sub> <sub>65</sub> <sub>66</sub> <sub>67</sub> <sub>68</sub> <sub>69</sub> <sub>70</sub> <sub>71</sub> <sub>72</sub> <sub>73</sub> <sub>74</sub> <sub>75</sub> <sub>76</sub> <sub>77</sub> <sub>78</sub> <sub>79</sub> <sub>80</sub> <sub>81</sub> <sub>82</sub> <sub>83</sub> <sub>84</sub> <sub>85</sub> <sub>86</sub> <sub>87</sub> <sub>88</sub> <sub>89</sub> <sub>90</sub> <sub>91</sub> <sub>92</sub> <sub>93</sub> <sub>94</sub> <sub>95</sub> <sub>96</sub> <sub>97</sub> <sub>98</sub> <sub>99</sub> <sub>100</sub>

Eng qadimgi madaniyat o'choqlarida odamlar yozuvlar uchun maxsus material va yozuv qurolidan foydalanganlar. Masalan, Shumer kotiblari "stilo<sup>1</sup>" deb ataluvchi cho'p yordamida loy taxtalariga bo'rttirib va aniqroq qilib yozganlar, belgilar o'tkirroq bo'lgan. Bunday yozuv turi "mixxat yozuvi" deyiladi. Misrda maxsus bo'yoq – tushlar, qamishdan esa kistochka va papiroslar tayyorlaganlar. Bu esa, yozuv jarayonining osonlashuviga olib keldi. Tez yozuv usuli paydo bo'la boshladi. Rasmlar chiziqalar hamohangligiga aylandi. Bunday yozuv turi – iyeroglif-tizim o'z navbatida, yangi tushunchalarga sabab bo'ldi. "Og'iz" va "kuchuk" belgilarining qo'shilishi "vovullash" ma'nosini, ikki daraxt elementlarining birikishi esa "o'rmon" ma'nolarini anglata boshladi.

Zamonaviy yozuvning ideografik tuzilishi – xitoy va undan kelib chiqqan yapon yozuvlarida mavjud.

Xitoy hamda shumer, ossuriya va bobil yozuvlari bo'g'inga teng hisoblanadi. Masalan, shumer yozuvidagi "yurmoq" so'zi bitta "du" bo'g'ini tarzida talaffuz qilingan. "Oyoq" belgisi ham "yurmoq" ma'nosini ham "du" bo'g'inini ifodalashi mumkin bo'lgan.

In yozuvi<sup>2</sup> ning aksariyat qismini bir nechta sodda tasvirlardan iborat ideogrammalar tashkil etadi. Bu sodda tasvirdan piktogramma sifatida ham foydalanish mumkin edi. Chunki ular murakkab iyeroglif tarkibida doimiy ma'no vazifasini ham o'tab kelishi, ham geometrik shakl sifatida

<sup>1</sup> Yunoncha "stylos" so'zidan olingan bo'lib, yozish uchun mo'ljallangan uchi uchi cho'p. Hozirda esa "stylos" so'zidan harakat tarzi, badiiy vositalar degan so'zlar hosil qilingan.




<sup>2</sup> Софронов М.В. Китайский язык и китайская письменность. – Москва: "Восток-Запад", 2007. – С. 475.











doimiy ma'no anglatmasligi mumkin edi. Geometrik shakl ma'lum predmetlarning sxemalashtirilgan tasviri bo'libgina qolmay, grafik o'xshash iyerogliflarni farqlash uchun xizmat qiluvchi texnik vazifasini ham o'tagan. Sodda tasvirlarning ma'nolarini qo'shish orqali ideogrammalar hodisa yoki holatni ifodalagan. Ideogrammalarning semiotik xususiyatida esa iyeroglif bir necha tasvirlarning birikishidan hosil bo'lib, ularning har bir shakl-ishorasi o'zining ma'nosiga ega bo'lib keladi. Shu tarzda sodda birliklardan tashkil topgan yangi yozuv shakllanadi.



Harakatning semantik tasviridagi eng keng tarqalgan usul bu – sub'yekt, ob'yekt, joy yoki harakatga nisbatan qo'llanilayotgan qurol hisoblanadi. “Ko'rmoq” belgisida ko'z va o'tirgan odam yoki ko'z va turgan odamning tasvirlaridan foydalanilgan. “Kamon o'qi” piktografik belgi uchi o'tkir kamon o'qining bir necha ko'rinishdagi tasvirida namoyon bo'ladi: . Ammo “otmoq” ideografik belgisi esa kamon va o'qning tasviridan iboratdir . “Kamon o'qi” piktogrammasining gorizontal chiziq bilan birgalikdagi ifodasida, ya'ni o'qning yerga tegishi “yetib kelmoq” ma'nosini beradi. “Keltirmoq” belgisida idishdagi vino va tagidan ikki qo'l ushlab turgan tasviri ko'rsatilgan: . “Mehmon qilish” belgisida ikki odamning qarama-qarshi holatda baland turgichdagi idish atrofida tizzalarni bukib o'tirgani ifodalangan: . “Uy” belgisi odamning bo'yra o'tirgani: yoki bo'yra yonida turgani tasvirlangan: .

“In” ideogrammalari piktogrammalar singari bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin (2-ilova). Bu ko'rinishlar tashqi ko'rinishidan hamda tarkibidagi ideogrammani hosil qiluvchi grafik elementlari bilan farqlanadi. Ushbu ko'rinishlarni tahlil

qilish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, bir ideografik belgi bir necha grafik shakllarni yoki bir necha tasviriy detallarni o'z ichiga olishi mumkin. Buning yaqqol misolida "mehmon"ning grafik ko'rinishlarida ko'rishimiz mumkin. Ularning eng soddasi tom ostida bir odam ko'rinishida tasvirlangan: . Uni bir:  yoki ikki gorizontaal chiziq bilan murakkablashtirish:  mumkin.

Murakkablashtirishning sababi shunda ediki, "In" yozuvida o'xshash bo'lgan "turar joy" belgisi mavjud edi, unda tom ostidagi odam ko'rinishida ikkita chiziq kesishar edi:  yoki . Uydagi odam uy egasining oila a'zolari emas, balki haqiqatdan ham mehmon ekanligini bildirish uchun tasvirga tovon izlari tasviri qo'shilar edi: . "Yovvoyi hayvon" belgisi fol ochish yozuvlarida bir necha grafik ko'rinishda uchraydi. Eng soddasi  daraxt va to'rt oyoqli hayvon tasviridan iborat bo'lib, bu o'rmonda yashaydigan hayvon ekanligini bildiradi. Boshqa grafik ko'rinishlarda daraxtda shoxlar va shoxlarda meva bo'lishi mumkin: . Yana bir ko'rinishida daraxt tanasini kesib o'tuvchi aylana mavjud bo'lib, u otishning ifodasi bo'lishi mumkin: . Bu belgining yana bir ko'rinishi mavjud, unda hayvon panjalarida tirnoqlari bilan tasvirlangan: .

"In" yozuvida keltirilgan belgilar piktogrammalar bilan ifodalab bo'lmaydigan holat bo'lib, abstrakt predmet yoki tushuncha bo'lib kelishi mumkin. In yozuvi ideogrammalarida abstrakt tushunchalarning qanday ifodalanganligini vaqtni bildiruvchi belgilarda ko'rsatish oson hisoblanadi. Inliklar vaqtni quyoshning osmondagi o'rniga qarab belgilaganlar. Demak, vaqtni bildiruvchi har bir belgida  grafik elementi yoki "quyosh"

 piktogrammasi mavjud. "Vaqt"  belgisining o'zi quyosh va oyoq izlarining tasviridan iborat, bu uning kunduzgi harakatini

bildiradi. In yozuvida “quyosh botishi” yer yuzini ko‘rsatuvchi dumaloqning ustidagi quyoshni tasvirlaydi. “Tong otishi” esa “o‘t” yoki “daraxt” qurshovidagi quyoshni tasvirlaydi. Tasvir ko‘rinishidagi yozuvdan mantiqiy tushuncha hosil qiladigan bo‘lsak, “quyoshning botishi”da quyoshning “daraxt” yoki “o‘t” bilan teng nuqtaga kelishi tushuniladi. “Tushdan keyin”gi vaqtni esa quyosh va odam soyasining qiyshiq tushayotgani tasviri ifodalangan.

Sifatni bildiruvchi ideografik tasvirlar ham shunday belgilar bilan ifodalangan. “Qizil” belgisi odamning yon tomonlarga turgani va uning ostida olov tasviri bilan ifodalangan. Bu ideogramma odamning olovga tegishini ko‘rsatadi. Qizil rang esa odam tanasiga olovning tegishidan hosil bo‘lgan kuyishning rangini ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda bu belgiga “tepalik” tasviri ham qo‘shilgan.

In ideogrammalarini izohlashda uning hozirgi zamonaviy xitoy tilidagi ko‘rinishi bilan o‘xshashlariga bog‘liqdir. Ammo ba’zi ideogrammalarning mustaqil tahlillari boshqa izohlarga sabab bo‘lishi mumkin. Qo‘y, qo‘l va hayvon axlatining tasviridan iborat bo‘lgan ideogramma zamonaviy yozuvdagi “chorvachilik bilan shug‘ullanish” ma’nosini beruvchi 养[yǎng] iyeroglifiga mos deb hisoblanadi.

Har bir ideogramma odatda, tasvirlarning umumiyligida kuchli ma’noni aks ettiradi. Bu birliklar oddiy belgilar bo‘lib, xizmat qiluvchi yozuv hisoblanadi. Bu oddiy belgilar birgalikda semantik kodni tashkil etadi, ya’ni ko‘pchilik ideogrammalarda ba’zi ma’nolarni beruvchi piktogrammalar tizimini tashkil qiladi. Bu ifodalar piktogrammalarning yakka holdagi ma’nosidan farq qilishi ham mumkin edi. Misol uchun In yozuvlarida harakat “oyoq izi” yoki “ko‘cha kesishishi” belgisi bilan ifodalangan.



Ammo “oyoq izi” piktogrammasining mustaqil holda qo’llanilishi fe’lga oid ma’noga ega emas. Balki, “ko’cha kesishishi” shunday ma’noni berishi mumkin. Murakkab iyerogliflar tarkibidagi ushbu ikki piktogramma doimiy harakat ma’nosiga ega bo’lib keladi. Shuning uchun ba’zi grafik elementlar tarkidagi belgilarning mavjudligidan uning taxminiy ma’nosini bilish mumkin. Mana shu o’ziga xoslikdan foydalangan holda In yozuvining yangi “ma’noga ega” belgilari yaratila boshlandi. Ushbu o’ziga xoslik bilan tanish bo’lgan odamlar yangi iyerogliflarning aniq ma’nolarini avvaldan bila olgan deyish qiyin. Har bir belgi singari ushbu o’ziga xoslik yangi belgi anglatayotgan voqea-hodisaning umumiy tushunchasini berishi mumkin edi, xalos. Ammo bu o’ziga xoslik yozuvni o’qitishda muhim ahamiyat kasb etgan, hamda aynan shu sabab katta miqdordagi belgilar sonini esda saqlab qolish ancha yengillashgan. Shunday qilib, yangi belgilarni o’rganish va uning ma’nolarini eslab qolishdagi ushbu o’ziga xoslikning o’rnini hech narsa bosa olmadi.

Mukammal ideografiyalar katta hamda doimiy ma’nosiga ega kichik miqdordagi ideogrammalarni semantik alifbo o’rnida qo’llaydi<sup>1</sup>. Ushbu ideogrammalarning kombinatsiyalari orqali istalgan so’zning ma’nosini tasvirlaydi. Ammo qadimgi yozuv, shu jumladan, In ideogrammalari mukammaldan ancha yiroq bo’lgan. Shuning uchun ba’zi grafik elementlar doimiy ma’noga ega emas. Bu grafik elementlar qatoriga – nuqta, chiziq, kvadrat, dumaloq kabi geometrik shakllar kiritiladi. Ularning har biri matnga aloqador ravishda murakkab belgi tarkibida kelgandagina ma’lum mazmunga ega, ya’ni nuqta – suvning tasviri, chiziq – “bir” sonining grafik tasviri, kvadrat – shahar devorlari tasviri, dumaloq esa – quyoshning tasviri hisoblanadi. “Shahar” belgisi o’zida shahar devorlari – kvadrat va uning ostida o’tirgan

<sup>1</sup> Софронов М.В. Китайский язык и китайская письменность. – Москва: “Восток-Запад”, 2007. – С.479.

odamning tasvirini o'z ichiga olgan. Kvadrat "shahar devorlari" mazmunida In yozuvining ko'pgina belgilarida uchraydi. Ammo unda kvadratning boshqa ma'noda kelishi ham ko'p uchraydi.

Masalan, "musiqa" 乐 belgisi ikki kvadratdan iborat. Bu qadimgi urib chalinadigan musiqa asbobining ko'rinishi hisoblanadi.

Gorizental chiziq In yozuvida "bir" sanoq sonini ifodalaydi. Ammo chiziq murakkab belgining grafik elementi sifatida ikki vazifasiga ega. Ulardan biri semantik vazifadir. Gorizental chiziq belgining pastki qismida kelsa, odatda, biron bir narsaning ustki qismini bildiradi, asosan, yer yuzini ifodalaydi. Boshqa vazifasi esa, belgilarni ajratish uchun xizmat qiladi. So'zdagi yozuv belgilarini yoki aralash ma'nolarni farqlash uchun aksariyat hollarda chiziq qo'llaniladi. Misol

uchun, "til" 舌 piktogrammasi og'izdan chiqib turgan tilning sxematik tasvirini ifodalaydi. Unga gorizental chiziqning qo'shilishi bilan bu piktogramma 言 "gapirmoq" ma'nosini ifodalaydi. Ba'zida bunday gorizental chiziqlar ikkita bo'ladi: 言 . Ikkita gorizental chizikli grafik belgi zamonaviy 言[yán] "so'z, nutq" iyeroglifining o'tmishdoshi hisoblanadi. Tilni ifodalovchi til belgisining tagidan o'tkazilgan gorizental chiziq "e'lon qilmoq" 告 belgisini hosil qiladi. Bu belgi esa shu ma'nodagi zamonaviy 告[gào] iyeroglifining o'tmishdoshi hisoblanadi. Bu murakkab tasvirlarda gorizental chiziq predmetni ifodalovchi "til" belgisini predikativ "gapirmoq" belgisiga aylantiradi, uning o'rnini esa predikatning turli xil usulini bildiradi.

## Xitoy iyerogliflarining tadrijiy rivojlanishi asosida yuzaga kelgan yozuv va husnixat turlarining terminlari

Dunyoga mashhur yozuvlarning aksariyati faqatgina 2-3 xil standart va tez yozuv usuliga ega. Xitoy kalligrafiyasida esa taxminan o'ntaga yaqin usul mavjud bo'lib, quyida yettita asosiy yozuv va husnixat turlarining xususiyatlari, qadimiy va zamonaviy leksik-semantik ma'nolari, iyeroglifik tuzilishi singari masalalarni ochib berishga harakat qilamiz.

甲骨文 *jiaguwen* – *jiaguven*, toshbaqa qobig'i va hayvon suyaklaridagi yozuv bo'lib, bu yozuv husnixat turi hisoblanmaydi, balki *zhuan* xatida yozilgan qadimiy yozuv turidir. Davriyligiga ko'ra, 5-6 ming yil avvalgi dastlabki xitoy yozuvlaridan bo'lganligi sababli iyeroglifikka, kalligrafiyaga bag'ishlangan barcha asarlarda dastlab aynan shu yozuv turi haqida gap boradi.

甲骨文 so'zi uchta iyeroglifdan tashkil topgan bo'lib, har birining o'ziga xos bir qator leksik semantik ma'nolari, fonetik talaffuzi, iyerogliflarning etimologik kelib chiqishi kabilar mavjud. Ushbu iyerogliflarni alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga molikdir.

甲 *jia* iyeroglifi 5 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, uchinchi ohangda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: “東方之孟，陽气萌動，从木戴孚甲之象。一曰人頭宜爲甲，甲象人頭”。<sup>1</sup> *Dong fang zhemeng, yangi meng dong, cong mudai fuji azhixiang. Yi yue rentou yi wei jia, jia xiang rentou.* Ya'ni: “Sharqda oy taqvimida bo'yicha birinchi oy. Yang quvvati kurtak otadi. Yog'ochdan boshga kiyiladigan qobiq figura shakli. Ba'zilarining aytishlaricha, odam boshi 甲 *jia* bo'lsa kerak. 甲 *jia* odamning boshiga o'xshaydi”.

<sup>1</sup> 段玉裁。说文解字注。— 杭州：浙江古籍出版社，1999年。编号：9690。



Bunday qadimiy ma'nolardan tashqari 甲 *jia* iyeroglifining yana quyidagi ma'nolari ham mavjud: 1) o'nlik sikldagi birinchi belgi, *jia*; 2) osmonning birinchi sektori (*xitoy astronomiyasida*); 3) eng yuqori ball; 4) zirh, sovut; 5) toshbaqa qobig'i; 6) kurtak qobig'i; 7) qurol-yaroqli askar; 8) eng zo'ri bo'lmoq; 9) yetakchilardan deb hisoblamoq (*arxaik ma'no*); 10) ibtidosini olmoq (*arxaik ma'no*)<sup>1</sup>.

✚ 骨 *gu* – 10 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, asosan *gū* tarzida uchinchi ohangda, og'zaki nutqda *gú* tarzida ikkinchi ohangda, birikmalarda *gū* birinchi ohangda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: “肉之𩑦也。从冎有肉。凡骨之屬皆从骨”.<sup>2</sup> *Rou zhi hu ye. Cong gua you rou. Fan gu zhi shu jie cong gu.* Tarjimasi: “Go'shtning ustuxonidir. 冎 *gua* (“go'shtdan suyakni kesib olmoq”) va 肉 *rou* (“go'sht”) kalitlaridan tashkil topgan (go'shtdan suyakni kesib olganda go'sht va suyak hosil bo'ladi). Har qanday “骨” iyeroglifidan tashkil topgan iyeroglif “骨” “suyak” kaliti qismiga kiradi. 骨 *gu* iyeroglifining Suy Shen bergan izohidan ko'rinish turibdiki, mazkur iyeroglifning yuqori qismi arxaik ma'noli “go'shtdan suyakni kesish” iyeroglifi bo'lib, ostki qismi esa “go'sht” kaliti kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Shu tufayli ushbu iyeroglifni 会意字 *huiyizi* “ma'noviy birlashish turkumi”ga kiritamiz.

骨 *gu* iyeroglifining yana quyidagi ma'nolari mavjud: 1) suyakdon; 2) (suyak singari) mustahkam, qattiq; 3) suyak, ustuxon; 4) xarakter, tabiat, fe'l-atvor, xulq; 5) murda, jasad, xok; 6) qaddi-qomat, jussa; 7) osteo-, oste-, osse- (*tibbiyot terminlarida*); 8) Gu familiyasi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т.П.–М.: Наука, 1983. – С. 928.

<sup>2</sup> 段玉裁. 说文解字注. – 杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 2557.

<sup>3</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т.III.–М.: Наука, 1983. – С. 184.

↓ 文 *wen* 4 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, ushbu iyeroglif ikkinchi *wén* va uchinchi *wèn* ohanglarda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: “錯畫也。象交文”。<sup>1</sup>*Cuo hua ye. Xiang jiao wen.* Tarjimasi: “Chiziqdagi chatishtirish (kesishtirish)dir, 交 *jiao* iyeroglifi shakliga o‘xshaydi”.

文 *wen* iyeroglifining quyidagi leksik-semantik ma’nolari mavjud:

1) yozuv, xat, iyeroglifik yozuv; 2) til yozuvi; 3) adabiy til, venyan; 4) badiiy asar, adabiy janr; 5) hujjat; matn; 6) madaniyat, madaniyatlilik, ma’lumotlilik; 7) fuqarolik xizmati; 8) marosim, urf-odat; 9) shakl, formula; 10) bezak, zeb-ziyat; zebolik, orastalik; 11) naqsh, ornament; rang-barang; 12) Ven familiyasi<sup>2</sup>.

金文 *jinwen* – *jinven* bronzadan yasalgan qurbonlik idishlariga bitilgan yozuv ham jiaguven singari husnixat turi emas, balki qadimiy yozuv turi bo‘lib, mazkur ikki yozuv birgalikda 古文 *guwen* “qadimiy yozuv” deb nomlanadi. 金文 *jinwen* so‘zidagi 金 *jiniyeroglifining* tahlilini amalga oshirsak. 文 *wen* iyeroglifining tahlilini yuqorida ko‘rib chiqdik.

↓ 金 *jin* iyeroglifi 8 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, birinchi ohangdagi ikki xil talaffuzi mavjud – *jīn* va *gēn*. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: “五色金也。黃爲之長。久薶不生衣，百鍊不輕，从革不違。西方之行。生於土，从土；今聲”。<sup>3</sup>*Wu se jin ye. Huang wei zhi chang. Jiu mai bu sheng yi, bai lian bu qing, congge bu wei. Xifang zhi xing. Sheng yu tu, cong tu; jin sheng.* Tarjima: “Rangli metallidir. Sariqligi doimiy bo‘ladi. Uzoq vaqt ko‘mib qo‘yilsa qobiqlanmaydi. Ko‘p marotaba eritsa ham

<sup>1</sup> 段玉裁。说文解字注。—杭州：浙江古籍出版社，1999年。编号：5693。

<sup>2</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь. Т. IV. —М.: Наука, 1983..

<sup>3</sup> 段玉裁。说文解字注。—杭州：浙江古籍出版社，1999年。编号：9211。

yengil bo‘lib qolmaydi. O‘zgarishi buzilmaydi. G‘arbda iste‘molda. Tuproqning ichida paydo bo‘ladi, tuproqdan olinadi. 今 *jin* dan talaffuz olgan”.

金 iyeroglifining quyidagi ma‘nolari mavjud:

1) oltin, tilla; “aurum (oltin)”; 2) pul, mablag‘; 3) xazina, boylik, davlat; 4) metall, metaldek mustahkam; 5) bronza, bronza buyumlar (*arxeologiyada*); 6) qo‘ng‘iroq (*arxaik ma‘no*); 7) urib chalinadigan musiqa asboblari; 8) bong, zang; 9) Metall (qadimiy xitoy kosmogoniyasida beshta tabiiy kuchlardan biri); 10) kuz (*ko‘chma ma‘noda*); 11) jin (*qimmatbaho metallar uchun o‘lchov birligi*); 12) Venera sayyorasi<sup>1</sup>.

篆书 *zhuanshu* – *juanshu*. Toshbaqa qobig‘i va hayvon suyaklaridagi qadimiy *jiaguwen* yozuvi hamda bronzali qurbonlik idishlaridagi jinwen yozuvi aynan *juanshu* uslubida yozilgan. *Juanshu* uslubining o‘ziga xosligi shundaki, unda imlo chiziqlar oz miqdorda bo‘lib, unda nuqta, ilmoq va siniq chiziqlari mavjud emas. Yana bir xususiyati barcha chiziqlar qalinligining bir xilligidadir.

⚭ 篆 *zhuan* iyeroglifi 15 ta imlo chiziqdan tashkil topgan bo‘lib, to‘rtinchi ohangda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga shunday izoh keltirilgan: “引書也。从竹彖聲”.<sup>2</sup> *Yinshu ye. Cong zhu tuan sheng*. Tarjimasi: “Kitobdan iqtibos olmoqdir. *Zhu* va *tuan* dan talaffuz olgan”.

篆 *zhuan* iyeroglifining yana quyidagi ma‘nolari mavjud.

1) xitoy kalligrafiyasida *juan* yozuv uslubi (qadimgi yozuv bo‘lib, hozirda muhrlarda qo‘llaniladi; 2) muhr; 3) xushmuomalalik; 4) xushbo‘y narsali lagancha (kosa); 5) jo bo‘lmoq, saqlanib qolmoq (xotirada, ko‘ngilda)<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Опшанин И.М. Большой китайско-русский словарь. Т. II. –М.: Наука, 1983.

<sup>2</sup> 段玉裁. 说文解字注. – 杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 2870.

<sup>3</sup> Опшанин И.М. Большой китайско-русский словарь. Т. III. –М.: Наука, 1983.



书 *shu* iyeroglifining tahlili I bobning 1-bandida ko‘rilgan.

隶书 *lishu* – *lishu*.

隶 *li* iyeroglifi 8 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, to‘rtinchi ohangda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga shunday izoh keltirilgan: “及也”.<sup>1</sup> *Ji ye*. Tarjimasi: “Yetishmoq, yetib olmoqdir”.

隶 *li* so‘zining quyidagi ma‘nolari mavjud:

1) tobe bo‘lmoq, bo‘ysunmoq; tegishli bo‘lmoq; 2) tartibga keltirmoq, tizimlashtirmoq, bog‘lanishni o‘rnatmoq; 3) tobelar; xizmatkor; qul; 4) *lishu* yozuv uslubi; 5) *Li* familiyasi; 6) yetmoq, yetishmoq, yetib bormoq (*dai*)<sup>2</sup>.

草书 *caoshu* – “tez yozuv”. *Cao* uslubi tez yozuv uslubining eng muhimi hisoblanadi va yuqorida qayd etilgan *singshu* tez yozuvi uslubiga qaraganda, *kayshu* asosiy standart uslubdan ancha uzoqlashib ketgan. *Caoshu* uslubida *kayshu* uslubidagi normativ iyeroglif shakli o‘zgaradi yoki iyeroglif chiziqlari ulanib chirmashgan yozuvni hosil qiladi. Iyerogliflarning ayrim chiziqlari va belgilari aksariyat hollarda pastga tushadi, shu sababli *caoshu* uslubidagi iyerogliflarning yozilishida ham, farqlanishida ham qiyinchiliklar tug‘iladi.

✦ 草 *cao* iyeroglifi 9 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, uchinchi ohangda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga shunday izoh keltirilgan: “櫟實也。一曰象斗子。从艸早聲”<sup>3</sup>. *Caodou*, tarjimasi: “Eman mevasidir. Aytilishicha, konussimon savatga o‘xshaydi. 艸 *cao* va 早 *zao* dan talaffuz olgan”.

草 *cao* iyeroglifining yana quyidagi ma‘nolari bor:

<sup>1</sup> 段玉裁. 说文解字注. – 杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 1936.

<sup>2</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). III-том.–М.: Наука. 1983. – С 829.

<sup>3</sup> 段玉裁. 说文解字注. – 杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 679.

1) o't, maysa; somon; 2) chakalakzor, changalzor; ovloq joy, xilvat; 3) maysa yozuv, tez yozuv usulidagi, caoshu husnixat turi; 4) xomqolip, xomaki reja; 5) urg'ochi, moda, makiyon; 6) beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz; qo'pol; 7) loyiha tayyorlamoq; 8) (o't) o'rmoq; 9) Cao familiyasi<sup>1</sup>.

### 楷书 *kaishu* – “namunali yozuv”.

Kaishu usuli standart usullardan bo'lib, ming yillardan buyon keng foydalanib kelinadi, hozirgi xitoy iyeroglifik yozuvining asosiy usuli hisoblanadi. Bosma va kompyuter shriftlarida, asosan, mazkur uslubdagi iyerogliflar ishlatiladi. Uning asosiy xususiyati standartlik (bir qolipga solinganlik), imlo chiziqlarining aniq tartibi va yozuvning sekin sur'atidir. Bu uslubda yozilgan iyerogliflarni farqlash oson. Xitoy kalligrafiya san'atida kayshu uslubiga, odatda, rasmiy vaziyatlarda murojaat qilinadi. Masalan, bu uslubda kitob va ro'znomalarning nomlari, rasmiy-ishchi hujjatlar, yangi yil juft yozma tilaklari yoziladi, shuningdek, do'kon viveskasi, binolardagi xotira lavhalari, sag'ana, haykal va yodgorlik toshlaridagi yozuvlar bitiladi.

✚ 楷 iyeroglifi 13 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, ikki xil o'qilishi va talaffuz ohangi mavjud: *kāi* va *jiē*. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga shunday izoh keltirilgan: “木也。孔子冢蓋樹之者。从木皆聲”<sup>2</sup>. *Mu ye. Kongzi zhong meng shu zhi zhe. Cong mu jie sheng*. Tarjiması: “Daraxtdir. Konfutsiy mozorini o'rab, berkitib turgan daraxtlardir. Ma'nosi 木 *mu* dan, talaffuzi 皆 *jie* dan olingan”. Mazkur izohdan kelib chiqib 楷 iyeroglifini rasm-talaffuz turkumiga kiritamiz.

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома).Т.II. –М.: Наука, 1983. – С. 809.

<sup>2</sup> 段玉裁。说文解字注。 – 杭州：浙江古籍出版社，1999年。编号：3410.

楷 iyeroglifining yana quyidagi ma'nolari mavjud: 1) kǎi namuna, model; andoza, qolip; 2) kǎi xitoy kalligrafiyasida, kayshu uslubi (husnixati); 3) kǎi, jiē bot. xitoy pistasi (*Pistacia chinensis* Bge); 4) to'g'ri, haq; namunali<sup>1</sup>.

行书 *xingshu* – “yuradigan” yoki “yuguradigan” yozuv.

Zamonaviy *singshu* uslubi tez yozuv uslublaridan biri bo'lib, kayshuning negizida shakllangan, standart kayshu hamda tez yozuv caoshu o'rtasidagi oraliq yozuv hisoblanadi. Asosiy xususiyati: nuqta va boshqa chiziq kombinatsiyasi qo'lni uzmay yoziladi. Iyerogliflar ancha qiyalab yoziladi, silliqligi, ravonligi, bejirimligi bilan farqlanadi. *Singshu* xususan, kundalik yozma nutq va epistolyar (noma) janrida qo'llaniladi.

✚ 行 iyeroglifi 5 ta imlo chiziqdan tashkil topgan, *xíng; háng; xìng; hàng* talaffuz shakllari mavjud. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga shunday izoh keltirilgan: “人之步趨也。从彳从子”<sup>2</sup>. *Ren zhi bu qu ye. Cong chi cong chu*. Kishining tez-tez qadam bosishidir. 彳 *chi* “chap oyoqda qadam qo'yish” va 子 *chu* “o'ng oyoqda qadam qo'yish”dan yasalgan. Mazkur izohdan kelib chiqib, 行 iyeroglifini ma'naviy birlashish turkumiga kiritamiz.

行 iyeroglifining yana quyidagi ma'nolari mavjud: 1) yurmoq, harakatlanmoq, olg'a yurmoq; 2) uzoq yo'lga jo'namoq, sayohat qilmoq; 3) tark etmoq; 4) (vaqt) o'tmoq, davom etmoq; 5) iste'molda bo'lmoq; 6) yaramoq, asqotmoq; 7) ...-dan kuchli (qobiliyatli) bo'lmoq; 8) (mashinani) harakatga keltirmoq, yurgazmoq; 9) amalga oshirmoq; 10) belgilangan maqsadda foydalanmoq; 11) (xatni) yubormoq; 12) qo'shimcha xizmat majburiyatlarini bajarmoq; 13) qavimoq (*hang*); 14) nazorat safarini amalga oshirmoq (*arhaik ma'noda*); 15) saf, qator; 16)

<sup>1</sup>Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома).Т. II. –М.: Наука, 1983. – С. 608.

<sup>2</sup>段玉裁. 说文解字注. –杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 1265.



qator, tartib; 17) firma, savdo korxonasi; 18) kasb; 19) bu yer (o'rtaxitoy tilida); 20) hamdo'stlar; 21) harakat, faoliyat; 22) sayohat, safar; 23) tabiiy hodisa; 24) singshu yozuvi husnixat turi; 25) ariya; 26) (hujjatning) xulosa qismi; 27) chorraha (arxaik ma'noda); 28) safar aslaha-anjomlari (arxaik ma'noda); 29) yo'l ma'budlari; 30) yarim yillik; 31) Bir tiyin! Ishimiz yo'q, mayli; 32) yaqinda, tez orada; 33) ba'zida; 34) Sing familiyasi<sup>1</sup>.

### Xitoy iyeroglifini tashkil etuvchi tub imlo chiziqlar nomlari

Xitoy xati turli shakldagi belgilar chiziqlarning bir-biriga qo'shilishi yordamida vujudga keladi. Belgi va chiziqlar xitoy xatining imlo chiziqlari 笔画 *bihua* deb yuritiladi.

Imlo chiziq deb xitoy xatini yozish davrida qalamning tushishidan to ko'tarilishigacha bo'lgan bitta harakatga aytiladi<sup>2</sup>. Quyida sakkizta tub imlo chiziqning ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

I. 点 *dian* "nuqta" imlo chizig'i to'qqizta chiziqdan tashkil topgan bo'lib, fonetik tizimda uchinchi ohangga ega. Mazkur so'z imlo chiziq vazifasidan tashqari bir nechta ma'nolarga ega:

I. Ot/hisob so'z so'z turkumlarida 12 ta ma'noga ega:

1) nuqta, tomchi; dog': 泥点 *ni dian* – loy dog'i;

2) tomchi, qatra: 雨点 *yu dian* – yomg'ir tomchilari;

3) nuqta (kalligrafiyada) iyeroglif imlo chiziqlaridan biri (丶): 加点 *jia dian* – nuqta qo'shmoq (masalan, 王 *wang* iyeroglifidan 主 *zhu* iyeroglifiga o'zgartirish);

4) nuqta, doira, vergul (matnda – tinish belgisi, matn osti yoki yonida – kursiv belgisi, raqamlar o'rtasida – o'nlik kasr belgisi, iyerogliflarda – matnni to'g'irlash va keraksizini o'chirish belgisi, iyeroglif burchagida – doira – ohang belgisi):

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т. II. – М.: Наука, 1983. – С. 1049.

<sup>2</sup> Mahmudxo'jaev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: Matbuot, 1990. – B. 14.

零点五 *ling dian wu* – 0,5; 打了一声点 *da le yi sheng dian*  
– doira – ohang belgisi qo‘yiladi;

5) *mat.* nuqta:

点空间 *dian kongjian* – nuqta makoni;

6) punkt, kritik nuqta.

终点 *zhongdian* – so‘nggi punkt; 零点 *lingdian* – nol nuqtasi (shkalada);

7) tomon, taraf, jihat:

优点 *youdian* – ijobiy tomon, kuchli jihat;

8) soat (vaqt); [belgilangan] vaqt:

点半 *san dian ban* – soat uch yarim; 火车误了点了 *huoche wu le dian le* – poyezd (vaqtidan) kechikdi;

8) baho, ball, ochko:

得了三十点 *de le san shi dian* – 30 ball oldim;

9) bir oz, jindak, ozgina, qatra:

吃点饭 *chi dian fan* – ozgina ovqat ye!

10) (*qisq.* 点心 *dianxin*) pirojniy:

茶点 *chadian* – choy va pirojniy;

11) (*tarixiy*) tamtam (Afrika va Sharq mamlakatlarida nog‘orasimon musiqa asbobi).

*II. Fe‘l so‘z turkumida 16 ta ma‘noga ega:*

1) bulg‘atmoq, kir qilmoq, ifloslantirmoq; sharmanda qilmoq, uyaltirmoq:

点素 *dian su* – oq shoyiga dog‘ tushirmoq; 自点 *zidian* – sharmanda bo‘lmoq, isnodga qolmoq;

2) tomizmoq, tomdirmoq:

点药 *dian yao* – dori tomizmoq;

3) [tinish belgisi] qo‘ymoq:

然后安点其点 *ránhòu ān diǎn qí diǎn* – shundan keyin bunga nuqta qo‘yib chiqmoq;

4) (ro‘yxat, menyu, repertuardan) tanlamoq:

点菜 *dian cai* – ovqat tanlamoq; 点人员 *dian renyuan* – (ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatidan) xodim tanlamoq;

5) bo'yamoq, botirmoq:

点翰 *dian han* – mo'yqalamni botirib olib yozishga (ijodga) kirishmoq;

6) yengilgina tegmoq, tegib ketmoq, teginib o'tmoq:

蜻蜓点水飞 *qingting dian shui fei* – ninachi suvga bir oz teginib uchadi;

7) sepmoq, sochmoq, ekmoq:

点花生 *dian huasheng* – yer yong'oqni urug'lab sepmoq;

7) o'rgatmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq, boshlamoq:

拿话一点他,他就明白了 *na hua yi dian ta, ta jiu mingbai*  
*le* – uni so'z bilan haq yo'lga boshlaganida u darhol tushundi;

8) bir-birlab; punkt bo'yicha, ro'yxat bo'yicha; buyurtmaga ko'ra solishtirib ko'rib chiqmoq, tekshirmoq:

点货 *dian huo* – (bir-birlab) tovarni tekshirmoq;

9) urmoq (taqillatmoq):

点鼓 *dian gu* – baraban urmoq;

10) yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq:

点炉 *dian lu* – pech yoqmoq;

11) sachratmoq; sachratib dog' (iflos) qilmoq:

点泥 *dian ni* – loy sachratmoq;

12) bo'yamoq, bo'yab tashlamoq; surkamoq, surkab tashlamoq:

点油 *dian you* – yog' bilan surkamoq (yog'lamoq):

13) teginmoq, xiyol suyanmoq, tiranmoq;

点棍子 *dian gunzi* – hassaga bir oz suyanmoq;

14) sezilmaydigan imo qilmoq, imlamoq;

点头 *dian tou* – boshni chayqamoq:

15) (kompyuterda) sichqonchani bosmoq.

### III. Morfologiyada

sifat-ravishning kichraytiruvchi va qiyosiy daraja suffiksi:



少点 *shao dian* – ozroq, 大点 *da dian* – kattaroq<sup>1</sup>

II. 横 *heng* “gorizontal chiziq” imlo chizig’i o’n beshta chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda ikkinchi va to’rtinchi ohangga ega. Qadimiy matnlarda yana *guáng*; *guàng*; *huǎng* fonetik shakllari mavjud. Mazkur so’z imlo chiziq funksiyali ma’nodan tashqari yana bir nechta leksik-semantik ma’nolarga ega:

1. Ot/hisob so’z so’z turkumlarida 8 ta ma’noga ega:

1) *héng* ko’ndalang to’sin; xari (ko’prik uchun hisob so’z ham); gorizontal; (kalligrafiyada) gorizontal chiziq, yotiq chiziq; ko’ndalang:

王字三横一竖 *wang zi san heng yi shu* – 王 *wang* iyeroglifida uchta gorizontal va bitta vertikal chiziq bor; 一横桥 *yi heng qiao* – bitta ko’prik; 横压力 *heng yali* – fiz. ko’ndalang bosim.

2) *héng* geogr. ko’ndalang yo’nalish; parallel kenglik; G’arbdan Sharqqa ko’ndalang, parallel bo’yicha:

不别横之与纵 *bu bie heng zhi yu zong* – ko’ndalangiga yo’nalishni bo’ylamasiga yo’nalishdan farqlamaslik; 横行于周 *heng xing yu Zhou* – Sharqqa Jouga tomon yurmoq.

3) *héng* yon, yonbosh, biqin; yon tomondan:

横击敌军 *heng ji di jun* – yon tomondan dushman qo’shiniga hujum qilmoq;

4) *héng* tarixiy gorizontal (G’arbdan Sharqqa) Ittifoq (Chin knyazligi boshchiligida, taxminan m.a. I asr):

连横 *lian heng* – Chin knyazligi boshchiligida Ittifoq [bo’lib birlashmoq];

5) *héng* nozir, nazoratchi:

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т.П.–М.: Наука, 1983. – С. 479.

有五横以揆其官 *you wu heng yi kui qi guan* – amaldorlar  
ustidan nazorat qilib turish uchun 5 ta nozirga ega bo'lmoq;

6) héng maktab: 横舍 *heng she* – maktab binosi;

7) guàngarxaik *ma'noda*, qarshilik ko'rsatish, zarba  
berishga qobiliyatlilik; jangovar ruh:

号以立横 *hao yi li heng* – buyruq bermoq va bu bilan  
jangovar ruhni ko'tarmoq;

8) huàngarxaik *ma'noda*, idishlar uchun peshtaxta (baland  
stol):

II *héng sifat/ravish so'z turkumlarida 3 ta ma'noga ega:*

1) qo'rs, qo'pol, surbet, bezbet, sur, gustoh, sulloh, beor;  
o'zboshimcha; o'chakishib, ziddiga; beruxsat:

那流氓挺横 *na liumang ting heng sheva* - bu bezori  
nihoyatda qo'rs edi; 这个人和我很横 *zhe ge ren he wo hen heng*  
- bu odam men bilan juda qo'pol; 横加拦阻 *heng jia lan zu* -  
hamma narsaga o'chakishib yo'lni to'smoq, o'zboshimchalik  
bilan birovlarning har qanday yo'lini kesib o'tmoq;

2) noxush, noqulay, o'ng'aysiz; baxtsiz, fojiali, fojiaviy,  
musibatli:

横死于车输之下 *heng si yu che shu zhi xia* - [mashina]  
g'ildirak ostida fojiaviy halok bo'lmoq;

3) buzilgan, buzuq, noto'g'ri, xato:

重文横入 *chong wen heng ru* - muhim hujjat xato  
kiritilgan.

III *héng yordamchi ravish sifatida 2 ma'noga ega:*

1) haqiqatan, darhaqiqat, chindan ham:

差得远呢, 横有十万八千里! Ancha yetmaydi, chindan  
ham (haqiqatdan) farqi nihoyatda ulkan;

2) har holda; baribir; qanday bo'lsa ham, qanday bo'lsa-da:

横是离好日子不远了 *heng shi li hao rizi bu yuan le* - har  
holda, yaxshi kunlar uzoq emas!; 我横不那末办! *Wo heng bu na*  
*mo ban!* Men baribir boshqacha yo'l tutaman!

IV. *Fe'iso 'z turkumida 7 ta ma'noga ega:*

A. 1) héng. kesishmoq; ko'ndalangiga tizilmoq (masalan, osmon-u falakdagi bulutlar haqida):

仙云洞口横 *xian yun dong kou heng* - ajoyib bulutlar sun'iy g'orga kirishdan oldin osmonda tiziladilar;

2) héng. ko'ndalang yotmoq; qalashib yotmoq, uyilmoq; (ilon kabi) o'ralib o'tmoq:

途中霍岳横 *tu zhong huo yue heng* - yo'lda tog' cho'qqilari qalashib yotardi;

3) guáng. *arxaik ma'noda*, chaqnamoq, porlamoq, yarqiramoq:

玉横 *yu guang* nefrit toshi yarqiraydi;

B. 1) héng kesib o'tmoq (yana *fe'l-predlog*, quyidagiga qarang):

C. 1) o'tmoq, (ko'ndalangiga) cho'zilib o'tmoq:

横过十字路 *heng guo shizi lukou* - chorrahadan o'tmoq; 横天 *heng tian* osmonni kesib o'tmoq;

2) héng gorizont (qiya tutib) ushlamoq; ko'ndalang qo'yimoq:

横剑别妻子 *heng jian bie qizi* - o'zining qilichini qiya tutib turib rafiqasi va farzandlari bilan vidolashmoq;

3) héng bir chetga [olib] qo'yimoq 坐横弓 *zuo heng gong* - o'tirib o'z kamonini bir chetga qo'yimoq;

V. héng *fe'l-predlog* ko'ndalang, -dan [kesib o'tmoq]; kengligida:

横江水起浮桥 *Heng jiangshui qifu qiao* - daryo oqimi ko'ndalangiga ponton ko'prik o'rnatmoq;

VI. *héngatoqli ot*

1) geogr. (横县 *Hengxian* o'rniga qisqartma) Hengsyen (Guangsi-juang avtonom-rayonidagi uyezd);



2) tarixiy, geogr. (横县 *Hengxian* oʻrniga qisqartma) Hengsyen (hozirgi Shandong provinsiyasi, Han sulolasi hududida joylashgan uyezd);

3) geogr. (横山 *Hengshan* oʻrniga qisqartma) Hengshan (Jyangsu provinsiyasidagi togʻ);

4) Heng (familiya)<sup>1</sup>.

III. 竖 *shu* “vertikal chiziq” imlo chizigʻi toʻqqizta chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda toʻrtinchi ohangga ega. Mazkur soʻz imlo chiziq funksiyali maʼnodan tashqari yana bir necha leksik-semantik maʼnolarga ega:

I. *Sifat/ravishsoʻz turkumlarida 3 ta maʼnoga ega:*

1) vertikal, tik koʻtarilgan; perpendikulyar; tikkaygan, dukkaygan:

竖线 *shuxian* vertikal chiziq; 竖写 *shuxie* vertikaliga, tikkasiga yozmoq;

2) boʻylama, uzunasiga (masalan, koordinatalar tizimida); boʻyiga, uzunasiga 横竖 *heng shu* ham boʻyiga, ham eniga; unday yoki bunday; 竖标 *shubiao* boʻylama (uzunasiga) koordinata;

3) *arxaik*past, haqir; mayda, kichik: 竖吏 *shushi* kichik amaldor.

II. *Feʻl soʻz turkumida 2 ta maʼnoga ega:*

1) tik turmoq; qaqqayib turmoq;

森竖 *senshu* tikka turmoq;

2) tik qoʻymoq tikkaytirib, dikkaytirib qoʻymoq; oʻrnatmoq;

竖旗 *shu qi* bayroq oʻrnatmoq;

III. *Ot soʻz turkumida 3 ta maʼnoga ega:*

1) *arxaik*.oʻspirin; bola; goʻdak;

2) *arxaik*.xizmatkor bola;

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т.IV. –М.: Наука, 1983. – С. 760.

3) *arxaik.* boylarning xizmatkorlariga mansub kishi; malay.

IV. *Atoqli ot.* Shu (familiya)<sup>1</sup>

V. 撇 *pie* “chap tomonga qaytarma chiziq” imlo chizig‘i o‘n uchta chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda birinchi va uchinchi ohanglarga ega. Mazkur so‘z imlo chiziq funksiyali ma‘nodan tashqari yana bir necha leksik-semantik ma‘nolarga ega:

I. *Fe* ‘*z turkumida 7 ta ma‘noga ega:*

1) *piē.* tashlamoq; voz kechmoq, rad etmoq; nariga surmoq, chetga surib qo‘ymoq:

把老一套都撇了 *ba lao yi tao dou pie le* - eskirgan usullarning baridan voz kechmoq;

2) *piē.* tark etmoq; tashlab ketmoq; (narsani) unutib qoldirib ketmoq:

他死俊撇下了一儿一女 *ta si jun piexia le yi er yi nv* - o‘limidan so‘ng u bir o‘g‘il, bir qizini tashlab ketdi;

把书撇在家里 *ba shu pie zai jia li* - kitobni uyda unutib qoldirmoq:

3) *piē.* ajratib olmoq, ajratib (olib) tashlamoq (masalan, ko‘pik, sardak):

撇沫儿 *pie moer* ko‘pigini olib tashlamoq; 撇油儿 *pie youer* - qaymog‘ini olmoq;

4) *piē.* *sheva.* otmoq, irg‘itmoq, itqitmoq, uloqtirmoq:

把手榴弹向敌人撇出去 *dushmanga qo‘l granatasini uloqtrimoq;*

5) *piē.* qiyshaytirmoq, burishtirmoq:

不要撇嘴 *bu yao pie zui* - og‘zingni qiyshaytirma;

6) *arxaik ma‘noda.* *piē* artmoq, artib olmoq; artib tashlamoq:

撇涕技泪 *ko‘z yoshlarini artib olmoq;*

<sup>1</sup>Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т. II.—М.: Наука, 1983. — С. 266.

7) *arxaik ma'noda*.piē urmoq; urilmoq: 撇波 *pie bo* - to'liqlarga urilmoq.

II. Pié ot/ quyi va chap tomonga qaytarma chiziq ( ) kalligrafiyada):

点撇 *dianpie* nuqta hamda quyi va chap tomonga qaytarma chiziq<sup>1</sup>.

V. 捺 *na* - "o'ng tomonga qaytarma chiziq" imlo chizig'i o'n bitta chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda to'rtinchi ohangda talaffuz qilinadi. Mazkur so'z imlo chiziq funksiyali ma'nodan tashqari yana bir necha leksik-semantik ma'nolarga ega:

I. *Fe'l so'z turkumida 2 ta ma'noga ega:*

1) muhr o'rninga barmoq izlarini bosib qo'ymoq; qattiq bosmoq (muhr);

2) bosmoq, ezmoq, siqmoq; tiymoq, yengmoq, yo'qotmoq; 捺着性子 *nazhe xingzi* [xarakterni] bosmoq; o'zini tiymoq; 捺气 *naqi* - g'azabni bosmoq;

II. *Ot so'z turkumida 2 ta ma'noga ega:*

1) *xitoy kalligrafiyasida*. o'ng tomonga qaytarma chiziq;

2) *xitoy shashka o'yinida*. ro'paradan qilinadigan iskanja<sup>2</sup>.

VI. 提 *ti* "yuqoriga chiziq" imlo chizig'i o'n ikkita chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda ikkinchi ohangda talaffuz qilinib, birikmada yanadi; *shi*; qadimiy matnlarda kamdan kam *di* fonetik shakli mavjud. Mazkur so'z imlo chiziq funksiyali ma'nodan tashqari yana bir necha leksik-semantik ma'nolarga ega:

I. *Fe'l so'z turkumida 10 ta ma'noga ega:*

1) ko'tarib olmoq (masalan, qo'ldan, sirtmoqdan); yig'ib (yig'ishtirib) olmoq (ko'ylakni); qo'lda ushlamoq:

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т.III.-М.: Наука, 1983. - С. 1078.

<sup>2</sup> Ko'rsatilgan manba. - 79 b.



提着一壶水 *tizhe yi hu shui* - bir choynak suvni ko'tarib olmoq;

她提起她的长裙 *ta tiqi tade changqun* - u uzun yubkasini yig'ishtirib oldi;

2) ko'tarmoq, oshirmoq, ko'paytirmoq; rag'batlantirmoq, ilhomlantirmoq;

提到一定的高度 *tidao yiding de gaodu* - muayyan balandlikka ko'tarmoq;

提精神 *ti jingshen* - ruhiyatni ko'tarmoq, kayfiyatni ko'tarmoq, ilhomlantirmoq;

3) tortib olib chiqmoq; taklif etmoq, qo'llab-quvvatlamoq (kimsani); yo'rdam bermoq, ko'mak bermoq, qutqarmoq, saqlamoq, xalos qilmoq;

弱相提将 *ruo xiang ti jiang* - kanslerni qulatib, askarboshini qo'llab-quvvatlamoq;

提不起来 *ti bu qilai* - qutqarib bo'lmaydi; to'g'rilab bo'lmaydi;

4) ko'tarmoq, (savol) qo'ymoq, (fikir) taklif etmoq; eslatib o'tmoq, tilga olmoq; suhbatda ...-ga o'tmoq;

他提了两个问题 *ta ti le liang ge wenti* - u ikki masalani ko'tardi;

旧话重提 *jiu hua chong ti* - eski gap yana ko'tarildi;

经他一提, 大家就想起来了 *jing ta yi ti, dajia jiu xiangqilai le* - u buni tilga olishi bilan barcha shu zahoti esladi;

别提了 *bie ti le* - asli gapirmang! Bu haqida eslatishning zarurati yo'q!

5) olmoq, tanlab olmoq; olib tashlamoq (masalan, taxtadan shashkalarni):

把款提出来 *ba kuan tichulai* - [hisobdan] pul olmoq;

提点钱 *ti dian qian* - biroz pul olmoq;

6) (muddat, muhlatni) ko'chirmoq, surmoq:

开大会提到九月间 *kai dahui tidao jiu yue jian* - syezd  
muddatini sentabrlarga ko'chirmoq;

7) qo'lda ushlamoq; ega (sohib, molik) bo'lmoq;  
boshqarmoq; boshchilik qilmoq, yetakchilik qilmoq;

提兵望洛阳进发 *ti bing wang Luoyang jinfa* - o'z  
qo'shinini Loyanga boshlab bormoq;

8) *arxaik ma'noda*. ushlab (tutib) turmoq, tortib turmoq;  
yo'naltirmoq, to'g'ri yo'lga boshlamoq, tuzatmoq;

提马而走 *ti ma er zou* - otni ushlab yurmoq;

疑者提之 *yizhi ti zhi* - shubhalanayotganni yo'lga sol;

9) *arxaik ma'noda*, yaqinlashmoq, yaqinlatmoq; yaqin  
tutmoq;

提其耳 *ti qi er* uning qulog'iga yaqinlashmoq; uning  
qulog'iga gapirmoq;

10) *d'arxaik ma'noda*, otmoq, irg'itmoq, itqitmoq,  
tashlamoq;

以药囊提之 *yi yaonang di zhi* - dori xaltani uloqtirmoq;

II. *Otso'z turkumida 5 ta ma'noga ega:*

1) band, dasta, tutqich, sop; halqa:

壶提 *huti* choynakning tutqichi; 提筐 *tikuang* dastali savat;

2) yog'log'i, cho'mich:

油提 *youti* yog' uchun cho'mich; 酒提 *jiuti* sharob uchun  
cho'mich;

3) kiyimlar; garderob, kiyim-kechak, ust-bosh:

百全之提 *bai quan zhi ti* - kiyim-kechakka to'la;

4) *xitoy kalligrafiyasida* ti, yuqoriga ko'tarilgan chiziq:

5) *arxaik ma'noda*, qayish bilan tang'ilgan kichik baraban  
(do'mbira, nog'ora):

师帅执提 *shishuai zhiti* - qo'shin lashkarboshisi kichik  
baraban ushlab oladi;

III. Atoqli ot. Ti (familiya)<sup>1</sup>.

VII. 勾 *gou* "ilmoq chiziq" imlo chizig'i to'rtta chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda birinchi va to'rtinchi ohanglarga ega. Mazkur so'z imlo chiziq funksiyali ma'nodan tashqari yana bir necha leksik-semantik ma'nolarga ega:

I. *Fe'iso'z turkumida 12 ta ma'noga ega:*

A. 1) *gōu* kelishmoq; til biriktirmoq; birlashmoq; ulfatlashmoq, do'stlashmoq, do'stona munosabatga kirishmoq:

跟 ... 勾着 *gen...gouzhe* ...bilan kelishmoq, ...bilan do'stona munosabatga kirishmoq;

2) *gōu*. ortidan (izidan) bormoq, qatorlashib yurmoq:

今儿听了戏又勾出几天戏来 *jinr ting le xi cha gouchu ji tian xi lai* - bugun pyesa tomosha qildim va bundan keyin ham bir necha kun tomoshalar davom etadi;

3) *gōu* 钩 o'rniga (egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq, qiyshaymoq);

B. 1) *gōu*. o'chirmoq, o'chirib tashlamoq; tugatmoq, bitirmoq, barham bermoq, tarqatmoq; bekor qilmoq:

一笔勾了 *yi bi gou le* - bitta chiziq bilan o'chirib tashlamoq;

勾了这笔账 *gou le zhe bi zhang* - bu hisob (qarz)ga barham bermoq, bu hisob (qarz)ni hisob-kitob qilmoq;

2) *gōu*. bo'yab tashlamoq, bo'yamoq; suvamoq, suvab qo'ymoq; tekislab tashlamoq:

勾墙缝 *gou qiangfeng* - devordagi tirqishlarni suvab tashlamoq;

3) *gōu*. belgi (ishora) qo'ymoq; tamg'a bosmoq; belgilamoq; chizib ko'rsatmoq, chiziq bilan ajratmoq (matn qismini  $\surd$  singari belgi bilan):

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т. III. - М.: Наука, 1983. - С. 948.



文字有遺落勾其旁而添之 *wenzi you yiluo gou qi pang er tian zhi* - matnda tushib qolgan joy bo'lsa, uning chap tomonidan ilmoq qo'yiladi;

4) gōu. *eskirgan ma'no*, da'volarga imperatorlik ijozatini berish (asosan, o'lim jazosiga):

勾汉字本 *gou hanzi ben* - xitoy nusxasidagi da'voga (Ching manjur sulolasi paytida o'limga hukm qilinganlar ro'yxatiga) imperatorlik ijozatini bermoq;

5) gōu. hoshiyalamoq, chiziq bilan o'ramoq; atrofini hoshiyalamoq; kontur chizmoq; bo'yamoq:

用铅笔勾一个轮廓 *yong qianbi gou yi ge lunkuo* - qalam bilan kontur chizmoq;

勾个脸儿 *gou ge lianr* - yuzga grim surtmoq;

6) gōu. (un, kraxmalni) qormoq, qorishtirmoq; (un, kraxmal qo'shish bilan) quyiltirmoq:

弄点杂合麪来勾一锅粥 *nong dian zahe mian lai gou yi gou zhou* - bo'tqani unli aralashma bilan bir oz quyiltirmoq;

7) gōu qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq:

勾烦 *gou fan* - bezovta qilmoq, tashvish keltirmoq;

8) gōu jalb qilmoq, o'ziga tortmoq, qiziqtirib qo'ymoq; shaydo qilmoq:

勾了好些人 *gou le hao xie ren* - yaxshi odamlarni jalb qilmoq;

9) gòu ...-ga cho'zilmoq, osilmoq; ...-ga qo'lini cho'zib yetkazmoq:

他不愿意勾那麼高的柜上的东西 *ta bu yuanyi gou name gao de gui shang de dongxi* - u shu qadar baland javon ustidagi narsalarga cho'zilishni xohlamadi:

II. gōu. *Otso 'z turkumida 3 ta ma'noga ega:*

1) qism; ulush:

五勾的四勾 *wu gou de si gou* - 4/5, to'rt dan besh;

2) mat. eng kichik katet:

勾股弦 *gou gu xian* - eng kichik va eng katta katetlar va gipotenuza;

3) ilmoqsimon belgi (viza):

予勾 *yu gou* - imperatorlik vizasini qayd etish (Ching sulolasi davrida o'lim jazosi hukmining imperatorlik tasdig'i).

III. *gōu.atoqli oi*

1) musiqa, gou, ilmoq (Song sulolasi davridagi nota yozuvi belgisi, 蕤宾 *ruibin* ohangini anglatadi (yevropa nomenklaturalarida "gis", sol diyez tovushi);

2) Gou (familiya).

IV. *gōu.so'z yasalishida.*

够 *o'rniga* (butunlay, to'la, tamoman; yetarlicha, xiylagina, yetarli darajada; serob, mo'l, to'yguncha, obdon, miriqib; o'ta darajada; bo'ldi, yetarli, bas, yetar singari ma'nolardagi natijaviy fe'llar modifikatori)<sup>1</sup>.

VIII. 折 *zhe* "siniq chiziq" imlo chizig'i yettita chiziqdan tashkil topgan, fonetik tizimda *zhé; zhē; shé;* ikkilantirishda, shuningdek, *tí* shakliga ega. Mazkur so'z imlo chiziq funksiyali ma'nodan tashqari yana bir necha leksik-semantik ma'nolarga ega:

I. *Fe'l so'z turkumida 18 ta ma'noga ega:*

A. 1) *zhé* sindirmoq, sindirib olmoq, sindirib tashlamoq:

折下疯枝来 *zhe xia feng zhi lai* - (hosildor daraxtning)

hosil bermaydigan shoxlarini sindirib olib tashlamoq;

无折我树杞 *wu zhe wo shu qi*- men o'tkazgan tollarni sindirma!

2) *zhé.* (bo'laklarga)sindirib bo'lmoq, ushatmoq, maydalamoq; (go'shtni) nimalamoq;

折九个 *zhe jiu ge* - to'qqiz bo'lakka sindirmoq;

3) *zhé.* (o'rtasidan) sindirmoq; kesib (yorib) o'tmoq:

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т. III.-М.: Наука, 1983. - С. 444.

折其右肱 *zhe qi you gong* - o'ng qo'lni sindirmoq; 折西河  
*zhe xi he* -G'arbiy daryoni kesib o'tmoq (kemalar bilan to'smoq);  
4) zhé, zhě. (摺 *zhe* o'rniga qisqartma) buklamoq, bukmoq,  
qayirmoq, egmoq:

把纸折起来 *ba zhi zheqilai* - qog'ozni buklamoq; 折巾一  
角 *zhe jin yi jiao* -ro'molning bir burchagini buklamoq;

5) zhē. ag'darmoq, to'ntarmoq, to'kmoq; quymoq:

把两碗饭折在一块儿 *ba liang wan fan zai yi kuair* - ikki  
piyolada pishirilgan guruchni bir-biriga ag'darib birlashtirmoq;  
折一折开水 *zhe yi zhe kaishui* - suv shopirmoq;

6) zhé. qaqshatqich zarba bermoq, yakson qilmoq, tor-mor  
keltirmoq, yo'q qilmoq, yanchib tashlamoq:

更相非折 *geng xiang fei zhe* - bir-biriga hujum qilib  
yanada kuchliroq so'kishishmoq;

7) zhé. boshqatdan hisob-kitob qilmoq; -ga almashtirmoq;  
(biror nima bilan masalan, qarzni) qoplamoq; o'rnini to'ldirmoq,  
hisobini chiqarmoq:

以米折钱 *yi mi zhe qian* - pul o'rniga guruch bilan hisob-  
kitob qilmoq;

把卢布折合人民币 *ba lubu zhehe renminbi* - rublni XRX  
yuaniga almashtirmoq;

8) zhé. chegirma bermoq; siylab kamaytirmoq, ozaytirmoq,  
qisqartmoq:

不折不扣 *bu zhe bu kou* - chegirma bermaslik; 折俸 *zhe  
feng.eski*. Moyanadan (jarima) ushlab qolmoq;

9) shé, kitobiy. zhé (nimadadir) yo'qotmoq; zarar ko'rmoq,  
ziyon ko'rmoq:

折了本钱 *zhe le ben qian* - xarajatlarini qoplay olmaslik,  
ziyoniga [sotmoq], sarflangan kapitalni qaytara olmaslik; 折了分  
量 *zhe le fenliang* - vaznni yo'qotmoq;

10) zhé. hal qilmoq, (ishni) tamomlamoq:



片言折狱 *pian yan zhe yu* - bitta gap bilan mahkama ishini hal qilmoq;

B. 1) shé, *kitobiy*.zhé sinmoq, maydalamoq; sinib ketmoq, sinib qolmoq; uzilmoq;

绳子折了 *shenzi zhe le* - arqon uzilib ketdi; 折棍子没用 *zhe gunzi mei yong* - singan tayoq yaramaydi;

2) shé, *kitobiy*.zhé sinib ketmoq, mayda-mayda bo'lmoq; egri-bugri, ilonizi yurmoq; keskin burilmoq; iziga qaytmoq;

河九折注于海 *he jiu zhe zhu yu hai* - daryo ko'plab (to'qqiz) burilib dengizga quyiladi; 由上海到北京一月总要折几个来回儿 *you Shanghai dao Beijing yi yue zong yao zhe jig e lai huir* - Shanxaydan Pekinga bir oy oldin har holda bir necha marotaba u yoqqa boriladi, bu yoqqa kelinadi;

3) zhé, shé. bo'ysunmoq, itoat qilmoq, taslim bo'lmoq;

心折 *xin zhe* - yuragi taslim bo'lmoq, rozi bo'lmoq;

周必折而入于韩 *Zhou bi zhe er ru yu Han* - Jou podsholigi shak-shubhasiz taslim bo'ladi va Han tarkibiga kiradi;

4) zhē, zhé. egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq;

折尺 *zhe chi* buklanadigan chizg'ich;

5) zhē. ag'darilmoq, to'ntarilmoq, yiqilmoq; to'kilmoq;

一筐梨儿都折了 *yi kuang lir dou zhe le* - bir savat nok to'kildi;

6) zhé. ta'naga (malomatlarga) qolmoq; g'ov (to'siq)larga duch kelmoq;

百折不挠 *bai zhe bu nao* - barcha qiyinchiliklarga qaramay ruhni tushirmaslik;

7) zhé. narx, paritet bo'yicha mos (muvofiq) kelmoq;

一个牛工折两个人工 *yi ge niu gong zhe liang ge ren gong* - bir ho'kizning bir kunlik ishi ikki kishining ishiga to'g'ri keladi;

8) zhé. vafot etmoq, o'lmoq (ayniqsa, yosh paytda):

夭折 *yaozhe* bevaqt (erta) vafot etmoq;

II. zhé.ot/hisob so 'zso 'z turkumlarida 8 ta ma'noga ega:

1) (chegirma yoki hisob-kitobdan so'ng narxdagi) o'n foiz:

六折 *liu zhe* avvalgi narxning 60%, 40% chegirma; 打了个

九折 *da le ge jiu zhe* 10%ga chegirma bermoq;

2) *qisqartma*. zigzag; egik (bukik) joy; siniq joy, darz:

波折 *bozhe* kulfatlar;

3) qarich, chorak:

绣鞋儿刚半折 *xiuxier gang ban zhe* - tufllilar endi yarim

qarich tikilgan;

4) akt (yuan dramasi pyesalaridan parcha, sahna):

三折戏 *san zhe xi* - uch aktli tomosha;

5) 摺 *zhe* o'rninga (hisob-kitob va to'lovlar uchun qat-qat bukilgan kitobcha;

6) *xitoy kalligrafiyasida*. burilish (mo'yqalamning o'z izi bo'yicha qaytarilishi, gorizontaal va vertikal shtrixni tasvirlash yo'li);

7) *arxaik*. dafn to'shagi (panjara ko'rinishida);

8) *arxaik*. to'rtburchak shakldagi Yer ma'budiga qurbonlik beriladigan joy.

III. zhé.atoqli ot. 1) tarix, geogr. Zhe (Shandong provinsiyasi hududidagi joy);

2) Zhe (familiya)<sup>1</sup>.

- Xitoy kalligrafiyasida bir necha tadrijiy bosqichlardan o'tgan yozuv va husnixat turlarining har biri 2 yoki 3 ta iyeroglifdan tashkil topgan bo'lib, iyerogliflarning har biri o'z fonetik talaffuzi, ohangi, mazkur ishimizda asos manba sifatida qabul qilgan “说文解字” *Shuo wen jie zi* asaridagi qadimiy ma'nosi hamda polisemantik zamonaviy ma'nolari mavjud.

Husnixat turlaridan birining qisqacha tahlilini misol sifatida ko'rib chiqamiz:

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь (4 тома). Т. II. -М.: Наука, 1983. - С. 606.

- 金 *jin* iyeroglifi 8 ta imlo chiziqdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi ohangdagi ikki xil talaffuzi mavjud – *jīn* va *gēn*. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida 金 iyeroglifiga “Rangli metallidir. Sariqligi doimiy bo‘ladi. Uzoq vaqt ko‘mib qo‘yilsa qobiqlanmaydi. Ko‘p marotaba eritsa ham yengil bo‘lib qolmaydi. O‘zgarishi buzilmaydi. G‘arbda iste‘molda. Tuproqning ichida paydo bo‘ladi, tuproqdan olinadi. 今 *jindan* talaffuz olgan tarzida izoh keltirilgan. Mazkur o‘rinda Oshanin lug‘atiga ko‘ra 5-ma‘noni oladi. 文 *wen* 4 ta imlo chiziqdan tashkil topgan bo‘lib, ushbu iyeroglif ikkinchi *wén* va uchinchi *wèn* ohanglarda talaffuz qilinadi. “说文解字” *shuo wen jie zi* asarida 文 iyeroglifiga “Chiziq-larni chatishtirish (kesishtirish)dir, 交 *jiao* iyeroglifi shakliga o‘xshaydi” tarzida izoh keltiriladi. Oshanin lug‘atiga 1-ma‘noni oladi.

- Xitoy iyerogliflarini tashkil etuvchi asosiy sakkizta tub imlo chiziq-lar mavjud bo‘lib, bular 点 *dian* “nuqta”, 横 *heng* “gorizontal chiziq”, 竖 *shu* “vertikal chiziq”, 撇 *pie* “chap tomonga qaytarma chiziq”, 捺 *na* – “o‘ng tomonga qaytarma chiziq”, 提 *ti* “yuqoriga chiziq”, 勾 *gou* “ilmoq chiziq”, 折 *zhe* “siniq chiziq” deb nomlanadi. Mazkur tub imlo chiziq-lardan qolgan 37 ta imlo chiziq-lar yasaladi.

### **Mavzu bo‘yicha savollar va topshiriqlar:**

1. Qadimgi matnlarda uchraydigan iyeroglifning ma‘nosini izohlang.
2. Iyerogliflarning rivojlanishi va o‘zgarishi oqibatida leksik tizimdagi o‘zgarishlar haqida so‘zlang.
3. “To‘rt muqaddas devon” (四书) va “Besh muqaddas to‘plam” (五经)
4. Xitoy iyerogliflari soni haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish.



5. Xitoy iyeroglifi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
6. Taoven husnixatlari haqida tushunchalar hosil qilish.
7. Jaguven husnixati bo'yicha ilmiy tushunchalarga ega bo'lish.
8. Shoven jiyezi lug'atida keltirilgan iyerogliflar sonini o'rganish.

### **Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

1. Tsin va Xan davrlarida xitoy leksikografiyasi A. Maspero taklif etgan davrlashtirish tizimi.
2. "Yuy pyan"(余篇) lug'ati va "Kangshi zidyan" (康数字点) lug'atida keltirilgan iyerogliflar soni haqida ma'lum tushunchalarni hosil qilish.
3. "Jungxua da zidyan" (中华大字典) va "Xanyuy da zidyan" (汉语大字典) lug'atlar iyerogliflar soni haqida statistik ma'lumotlarga ega bo'lish.
4. Iyerogliflarning ko'payib borish sabablari xususida aniq tasavvurni paydo qilish.
5. Xitoy tarixida iyerogliflarni ko'payishiga qarshi olib borilgan rasmiy hujjatlar haqida ma'lumotlarni to'plash.
6. Iyerogliflar soni bo'yicha yozilgan tarixiy manbalarni o'rganish.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

1. "Gu liang zhuan" va "Gong yang zhuan" asarlarining Xitoy klassik adabiyotlariga izoh berishdagi ahamiyati
2. Sima Chiyen. "Tarixchi bitiklari" matnidan lavhani tarjima qiling.
3. Matnning grammatik xususiyatlari tahlilini amalga oshiring.

TEST

1. 汉语口语中有这样的说法：“满肚子的墨水”，意思是“很有”。  
答案：学问（知识）

2. 汉语中有这样的句子：“有要紧事请找我们的一把手。”“一把手”的意思是\_\_\_\_\_。  
答案：单位、部门或集体的最高领导

3. 汉语中有这样的句子：“听说你乒乓球打得很不错，给咱们露两手吧！”这里“露两手”的意思是。  
答案：展示在某些方面的技术或才能  
请填写下面 3 个歇后语的后半部分：

4. 孔夫子搬家，\_\_\_\_\_。  
答案：尽是输（书）

5. 竹篮子打水，\_\_\_\_\_。  
答案：一场空

6. 小葱拌豆腐，\_\_\_\_\_。  
答案：一青（清）二白

7. 中国有句俗话：“只要功夫深，铁杵磨成针”，这里面有个故事。传说李白小时不爱学习，贪玩。一天，他看见一位老婆婆手里拿着根铁杵（铁棍），在一块大石头上磨。李白问：“你磨铁杵干什么？”老婆婆回答：“我磨一根针。”李白又问：“这么粗的铁杵，怎么能磨成针呢？”老婆婆说：“只要功夫深，铁杵磨成针。”李白听后很有感触，



回家刻苦用功，终于成为大诗人。这也是一个成语的来历，  
这个成语是。

答案：磨杵成针

8. 按顺时针方向填成语：

万众一心

( ) ( )

( ) ( )

( )

答案：万众一心

上想

千事

成

9. 从“十、百、千、万”中选词填空，组成成语。

年树人

里之行，始于足下

有八九

象更新

答案：百、千、十、万

10. 在空格中填上一个合适的汉字，从四个方向组成四个成语。

先

声

夺

平易近定胜天

杰

地

灵

答案：人



#### 4 - MAVZU: “MA SHI VEN TUNG” ASARINING YOZILISHI VA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

**Darsning o‘quv maqsadi:** Ma Zyan Djung morfologiyadan ko‘ra gap tuzilishini o‘rganishni ustun qo‘yishi masalasi. Xitoy tilshunosligida 马建忠 *Ma Jianzhong*ning grammatikasi tom ma‘nodagi ilk grammatik kitob sifatida tanilish jarayoni bilan, asarning mazmuni bilan tanishish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** 马建忠 *Ma Jianzhong*, 实字 *Shi ci*, 虚字 *Xu ci* “bo‘sh” (yordamchi).

Xitoy tilshunosligida 马建忠 *Ma Jianzhong*ning grammatikasi tom ma‘nodagi ilk grammatik kitob deyishimiz mumkin.<sup>1</sup> U 1898-yilda nashr etilgan. Ammo uning tadqiqot predmeti yangi zamonaviy xitoy tili emas, balki qadimgi venyan tili edi. Muallif asar ustida 10 yildan ziyod vaqt ishladi, shuningdek, uning akasi Ma Syang Bo ushbu asarni tugatib qo‘yishga o‘z hissasini qo‘shdi. 1898-yilda “Shanghai shangwu yinshu” nashriyotida, 1904-yilda esa ushbu asar Jang Sichen tomonidan qayta ishlanib, 1954-yilda Djonghua Shuju nashriyotida, 1983- yilda “Shangwu Yinshuguan” nashriyotida bosib chiqarildi. Lyuy Shusyang va Vang Hayfenlar “Ma Shi Ven Tung” asarini qo‘llanma holiga keltirib, 1986-yilda nashrdan chiqardilar. Asar ko‘plab bosqichlarni bosib o‘tib, 100 yillik an‘analarni boshlab berdi.

Xitoy tili grammatikasi bo‘yicha tadqiqotlarning ilk davrini ikki bosqichga ajratish o‘rinli: birinchi bosqich, uyg‘onish davri 马建忠 *Ma Jianzhong*, 杨树达 *Yang Shuda*, 黎锦熙 *Li Jingxikabi* tilshunoslar bu davr namoyandalari sifatida e‘tirof etiladi. Ikkinchi bosqich, taraqqiyot davri bo‘lib, ushbu davr

<sup>1</sup>王力中国语言学史. -山西, 1981. 第174页.

namoyandalari 王力 Wang Li, 吕叔湘 Lǚ Shuxiang, 高名凯 Gao Mingkai hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ma Zyan Djung “Ma Shi Ven Tung” asarining 2-nashri to‘liq tarjima va tahlili erta G‘arb tilshunoslari tahlilidan ancha ajralib turadi hamda unda muallif maqsadlari va qo‘llagan usullari ochib beriladi. Ma mumtoz xitoy tiliga yunon va lotin modellarini qo‘llashdan butunlay manfaatdor edi, hamda ushbu tizimlashtirish uning millatiga ijobiy foyda keltiradi deb ishonardi. G‘arbliklar asosan real, so‘zlashuvdagi xitoy tiliga diqqatni jalb etib, mumtoz xitoy tilini sun‘iy til deb hisobladilar. Ammo shuni aytish lozimki, qadimgi xitoy tili o‘tmishdan keluvchi muhim manba vazifasini o‘taydi. “Ma Shi Ven Tung” ikki, ikki yarim ming yilliklar avval yaralgan matnli mumtoz kitoblarning grammatikasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu asarning predmeti zamonaviy xitoy tili emas, balki qadimgi xitoy venyan tilidir.<sup>2</sup>Kitob butunicha Venyanda yaratilgan.

Ma Zyan Djungning ushbu “Ma Shi Ven Tung” “马氏文通” asari dunyoga kelishigacha Xitoyda deyarli hech qanday grammatik kitoblar bo‘lmagan, so‘z turkumlari degan tushuncha ham yo‘q edi. Biroq, qadimda so‘z turkumlari tushunchasi bo‘lmagan bo‘lsa ham, so‘zlar sinflarga bo‘linishi haqida tasavvurga ega edilar. An’anaga bincan xitoy tilining morfemalari ikki katta sinfga bo‘linar edi —实字 *Shi ci* “to‘liq” (mustaqil) va 虚字 *Xu ci* “bo‘sh” (yordamchi). “To‘liq” va “bo‘sh” morfema terminlari Tsin sulolasi davrida paydo bo‘lgan; o‘sha davr filologlari ushbu terminlardan tez-tez foydalanishgan<sup>3</sup>(Yanayam ilgariroq “bo‘sh” morfemalar *Xu ci*

<sup>1</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарк машъали. -Т., 2016. - №3, 17-б.

<sup>2</sup> 黎锦熙, 新著国语文法, 商务印书, 1924.-42 页.

<sup>3</sup> Кирюхина Л.В. Категория падежа в трактовке китайского грамматиста Ма Цзяньчжуна // Вестник МГЛУ. Исследования литературы и художественного дискурса. – М., 2015. - №10 (721).– С.63.

emas, *ci* – “so‘z” deb atalgan). *Ci* tushunchasi juda erta paydo bo‘ladi; Syuy Shenning “Shuowen jiezi”(sharqiy Han sulolasi davri) *ci* tushunchasiga ta’rif beriladi. *Ci*- ichi to‘g‘risida gapirib, tashqisini ifodalaydi” (“*Ci yan nei, er yi wai e*”). “Shuowen jiezi”da *ci* deb atalmish “so‘z” zamonaviy tilda *Xu ci* “*bo‘sh yoki yordamchi so‘zlar*”dir. “Shuowen jiezi”da ayrim morfemalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri *ci* yordamchilar deb atalgan. Albatta, Syuy Shen tasdiqlarining barchasi ham asoslangan emas, ayrim yordamchi bo‘lmagan morfemalar *Ci* deb nomlanadi va ayni damda yaqqol tasvirlanadi. Keyinchalik, Van Yinji o‘zining “Zin djuan shi tsi” (Kanon kitoblar va ularga sharhlar talqini)da ham yordamchi so‘zlar uchun *ci* so‘zi ishlatiladi. Shunday qilib, yordamchi so‘zlar haqida tasavvur sharqiy Han sulolasi davridayoq bor edi.

Kitob 5 bobdan iborat: birinchi bob 正名 *zhēngmín* gnomlash yoki nomlar tavsifi deb ataladi. Muallif har bir bobga 界说 *jièshuō* izoh beradi. Uning tarkibida o‘nta 卷 bo‘lim bo‘lib, ularning oltitasida 实字 *shízi*, uchta bo‘limda 虚字 *xuzi*, o‘ninchi bo‘limda sintaksis ko‘rib chiqiladi.<sup>1</sup>

Ikkinchi bo‘lim 实字 *shízi* to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “haqiqiy so‘zlar” ma’nosini anglatib mustaqil so‘z turkumlariga nisbatan qo‘llaniladi. Muallif 实字 *shízi*larni besh turkumga ajratadi: 名字 *míngzì* > 名 “nom; ot; ism” + 字 *zì* “iyeroglif; so‘z”, ot so‘zlar; 代字 *dàizì* > 代 *dài* “almashtirmoq; o‘rnida kelmoq” + 字 *zì* “iyeroglif; so‘z”, olmosh; 动字 *dòngzì* > 动 “harakat; harakatlanmoq” + 字 *zì* “iyeroglif; so‘z”, fe‘l; 静字 *jìngzì* > 静 *jìng* “tinch; sokin” + 字 *zì* “iyeroglif; so‘z”, sifat; 状字 *zhuàngzì* > 状 *zhuàng* “holat” + 字 *zì* “iyeroglif; so‘z, ravish”. Uchinchi bo‘lim 虚字 *xūzì* “qalbaki so‘zlar” ya’ni, yordamchi so‘z turkumlari. Ularni muallif to‘rt turkumga ajratadi: 1) 介字

<sup>1</sup> zh.wikipedia.org/wiki/馬氏文通



jièzi > 介 jiè “vositachilik qilmoq” + 字 zì “iyeroglif; so‘z”, old ko‘makchi; 2) 连字 liánzi > 连 lián “bog‘lamoq” + 字 zì “iyeroglif; so‘z”, bog‘lovchi; 3) 助字 zhùzì > 助 zhù “yordam bermoq, ko‘maklashmoq; yordamchi, ko‘makchi” + 字 zì “iyeroglif; so‘z”, modal so‘zlar (yuklama); 4) 叹字 tànzi > 叹 tàn “ho‘rsinmoq” + 字 zì “iyeroglif; so‘z”, undov so‘zlar. To‘rtinchi bo‘lim 句读 jùdòu deb nomlanadi, 句 jù “gap”, ushbu o‘rinda 读 (dòu tarzida talaffuz qilinadi,) 分句 fēnjù so‘z birikmasi; jumla ma‘nosida qo‘llanilgan. Bu bo‘lim tilning sintaktik xususiyatlarini o‘rganishga va so‘z birikmalari tahliliga bag‘ishlangan.<sup>1</sup>

实字 shizi (ma‘noga ega so‘zlar):	虚字 xuzi (yordamchi so‘zlar)
名字 mingzi ismlar	介字 jiezi old ko‘makchilar
代字 daizi o‘rinbosar so‘zlar (olmosh)	连字 lianzi bog‘lovchilar
动字 dongzi fe‘llar	助字 zhuzi yordamchi morfemalar
静字 jingzilar (sifat va son),	叹字 tanzi taqlid so‘zlar
状字 zhuangzi ravish	

<sup>1</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарк Машғали. - Т., 2016. - №3. - Б.20.

## 句子成分(gap bo'laklari)

- 起词 (主语)
- 止词 (及物动词的宾语)
- 语词 (谓语)
- 表词 (形容词谓语和名词、代词作谓语)
- 转词 (从动词转及的宾语, 外动词后由介词转及的类似宾语的成分)
- 司词 (介词的宾语)
- 加词 (介宾结构充当状语或补语, 同位语)

Grammatikada xitoy tilida gap tuzish tizimi qonun-qoidalari tadqiq etilgan, gap bo'laklari va kelishiklar kategoriyalari kiritilgan. Gapda stilistika muammolariga ham katta ahamiyat berildi.

Ma Zyan Djungning kiritgan grammatik atamalari zamonaviy xitoy tiliga ta'siri katta, buni biz Lyuy Shu Syang tomonidan yozilgan 现代汉语八百次 *Xiandai hanyu babaici* asarida ko'rishimiz mumkin.<sup>1</sup>

Wentong		Babaici	
<i>mingzi</i>	名字	<i>mingci</i>	名詞
<i>deizi</i>	代字	<i>liangci</i>	量詞
<i>dongzi</i>	動字	<i>zhidai</i>	指代詞
<i>jingzi</i>	靜字	<i>dongci</i>	動詞
		<i>xingrongci</i>	形容詞
		<i>shuci</i>	數詞
		<i>fangweici</i>	方位詞
<i>zhuangzi</i>	狀字	<i>fu</i>	副詞
<i>ji</i>	介字	<i>ji</i>	介詞
<i>lian</i>	連字	<i>lian</i>	連詞
<i>zhu</i>	助字	<i>zhu</i>	助詞
<i>tan</i>	嘆字	<i>tan</i>	嘆詞
		<i>xiangshengci</i>	象聲詞

<sup>1</sup>Alain P. Some Reflections on the Sources of the Mashi Wentong. - Leiden, 2001. - P.347.

Soʻzlar nechta sinflarga ajralishi lozim? Ushbu savolga bugun ham javob topilmagan. Ilk grammatika “Ma shi ven tung”da soʻzlar sinfi gʻarbiy andoza asosida ajratilar edi, shuning uchun unda ingliz grammatikasidek 8 guruh ajratilgan edi. Zamonaviy atamashunoslik bilan ifodalaganda bular: ot, olmosh, feʼl, sifat, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi va taqlid soʻzlardir. Lekin, “Ma Shi Ven Tung”da 9-sinf ham bor edi. Xitoy tiliga xos boʻlgan yordamchi morfemalar-助字 *zhuci*, hamda 单位名称 *danwei mingz* ideb atalardi. Shuningdek, “Ma Shi Ven Tung”ni Gʻarbiy grammatikaning ayni nusxasi deb atash xatodir. Ma Zyan Djung xitoy tilining oʻziga xosliklarini hisobga olib, unda yordamchi morfemalarni ajratib chiqqanligi uning eng katta xizmatidir. Soʻzlarning toʻqqiz guruhga ajralishi grammatikada anʻanaviy tusga kirdi. Bu qoida 1959-yilda “Xitoy tilini oʻqitishning vaqtinchalik grammatik tizimi” (“暂汉语教学语法系统”) vujudga keldi va hozirgacha oʻrta maktab hamda universitetlarda qoʻllanilib kelinmoqda. Ushbu ishda xitoy tili soʻzlari 11 sinfga: ot, feʼl, sifat, son, hisob soʻzlar, olmosh, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yordamchi va taqlid soʻzlarga ajratilgan. Ma Zyan Djung grammatikasi bilan qiyoslaganda bu yerda son va hisob soʻzlar qoʻshilgan.

Anʻanaviy gʻarbiy grammatikada sonlar alohida ajratilmagan, ular sifat guruhlariga kirib ketar edi. Soʻnggi paytlarda sonni ham alohida soʻz turkumi sifatida ajratila boshlandi. Hisob soʻzlar asli tagi otdan kelib chiqqan, shuning uchun “Ma shi ven tung”da ham ular ot sinfiga kiritiladi. Li Tsinzi ham hisob soʻzlarni ajratib, ularni otlarning kichik sinfi sifatida koʻrib chiqadi. Hozirgi kunda xitoy tili grammatikasida son va hisob soʻzlar ikkita mustaqil sinf sifatida ajralib chiqqan. Yuqorida aytib oʻtilganlardan shu narsa ayonki, xitoy tilidagi mustaqil soʻzlar haqidagi masala hali hamon oʻz yechimini topgan emas. “Ma shi ven tung” hamda Li Szing 9 sinflik, Djao Yuandjenning 15 sinflik tasnifini hisobga olib qaralgan



qarashlardagi farqning katta ekanligi ko'rinadi. Ammo ko'pchilik "Ma shi ven tung"dagi an'anaviy tasniflash tizimi xitoy tili xususiyatlarini eng to'g'ri bayon etib, unga katta o'zgartirishlar kiritish noma'qul ishdir deb hisoblaydilar. "Ma shi ven tung"da olmoshlar *daimingci* emas, balki daici (o'rinbosar so'z) deb yuritiladi. Negaki, zamonaviy xitoy tilida o'rinbosar so'zlar nafaqat ot, balki fe'l, sifat va boshqa so'z sinflari ham o'rnida qo'llana oladi. Shuning uchun hozirda *daici* atamasi umumqabul qilingan hisoblanadi.

### **"Ma Shi Ven Tung" asarida 实字 mustaqil ma'noli so'zlar tushunchasi**

XVIII asrda xitoy filologlari barcha so'zlarni 字 (ushbu atama ham so'z, ham iyeroglif ma'nosini berar edi). Mustaqil 实字 va yordamchi 虚字 so'zlarga ajratar edilar. Natijada bunday bo'linish yevropalik tilshunos olimlar xitoy tilini o'rganishida ham qo'llanilar edi. Haqiqatdan, yordamchi va mustaqil so'zlar Han sulolasining hukmronligi davridayoq mavjud bo'lgan (m.avv. II asr-millodiy III asr) 尔雅 lug'ati 19 bo'limining avvalgi 3 tasi asosan yordamchi so'zlarga, qolgan 16 tasi esa mustaqil so'zlarga bag'ishlangan. Syuy Shen 121-yilda许慎"说文解字"("Shuowen Jiezi" Xitoy iyerogliflarining kelib chiqishi asarining yaratilguniga qadar hech qanday aniq, real ma'noga ega bo'lmagan so'zlar 词cí yoki 语yǔ deb atala boshlandi. Bunday so'zlarga masalan者zhě (ko'rsatish olmoshi), 只zhī (modal so'z, 语已词), 宁níng (yordamchi so'z, 愿词), 皆jiē (umumiy so'z, 俱词), 各gè (qarshilik 异词), 吁yū (taqlid so'z, 惊语), 乎hū (gap yuklamasi, 语之余). Aniq va ma'lum ma'noga ega bo'lgan so'zlarni字zì deb atay boshlashdi. Djen Syuanning (郑玄)"说文解字注" "Shuowen jiezigaga sharhlar" asarida mustaqil so'zlar 名míng, yordamchi so'zlar 辞cí deb yuritiladi.

Lyan sulolasi davridagi Lyu Sening 刘勰(465- 520) “文心雕龙” “Matn tuzish san’ati”da yordamchi so‘zlar 3 guruhga ajratiladi: “至于夫惟盖故者，发端之首唱；之而于以者，乃剖句之旧体；乎哉矣也，亦送末之常科。据事似闲在用实切。巧者迴运，弥缝文体，将令数句之外，得一字之助矣”。<sup>1</sup>

夫 *fū*, 惟 *wéi*, 盖 *gài* va 故 *gù* so‘zlari gap boshida qo‘llaniladigan bo‘laklar; 之 *zhī*, 而 *ér*, 于 *yú* va 以 *yǐ* -bular gap o‘rtasida qo‘llaniladigan bo‘laklar; 乎 *hū*, 哉 *zāi*, 矣 *yǐ* vayé gap oxirida qo‘llaniladigan bo‘laklar. Mohiyatan ushbu yordamchi so‘zlar aniq bir ma‘no bermaydi, ammo gapda juda muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab alohida gaplar bitta yordamchi so‘z yordamida o‘zaro bog‘lanadi. Joylashuviga qarab u yordamchi so‘zlarni 3 turga bo‘ladi: 发端 *fā duān* gap boshida keluvchi yordamchi so‘zlar, 剖句 *dá jù* 送末 *sòng mò* gap oxirida keluvchi so‘zlar.

Xitoy tilshunoslari allaqachon so‘zlarning Grammatik xarakteristikasi o‘zgarishi mumkinligi va so‘zlar o‘ziga xos bo‘lmagan vazifani bajarib kelishi, ya‘ni konversiyaga uchrashi mumkinligi haqida aytib o‘tishgan.

宋代黄震说：“正音为静字，转音为动字。”明代袁子让说：“字义从音转。此一字也，变声则易一义。”比如“相”读去声，辅佐日相；读平声就同起而佐之之谓相。“衣”，平声，是衣服的衣服；去声，就是穿衣服了。<sup>2</sup>

Sun davrida Huan Djen yozishicha: So‘z standart holatda talaffuz etilsa, statik(静字), o‘zgarishlar bilan talaffuz etilsa, ko‘chma(动字) hisoblanadi. Min sulolasi davrida Yuan Dgidjan shunday yozadi: “So‘z ma‘nosi u talaffuz etilgandagi ohangning o‘zgarishiga bog‘liq. Bitta iyeroglif ikki xil ohangda o‘qilsa, ma‘no o‘zgaradi”. Masalan, “相”so‘zi pastlovchi ohang bilan

<sup>1</sup>林玉山汉语语法学史.-湖南教育出版社, 1983. 35 页.

<sup>2</sup>林玉山汉语语法学史.-湖南教育出版社, 1983.- 36 页.

talaffuz etilsa, “yulduzlarga qarab bashorat qilish” ma’nosini bildiradi. Tekis ohangda talaffuz etilsa “bashorat qilmoq” ma’nosini beradi. “衣”so‘zi tekis birinchi ohangda “kiyim” ma’nosida, pastlayotgan to‘rtinchi ohangda kelsa –“kiyim kiymoq” ma’nosini beradi. Shunisi ayonki, xitoylik tilshunolar turli xil so‘z turkumlarini ko‘rib chiqishgan, ularga atama va tasniflash usullarini keltirib o‘tganlar.“So‘z turkumlari” atamasining o‘zi XIX asr oxirida paydo bo‘lib, Yevropa grammatikasidan o‘zlashtirilgan. Shunga qaramay, xitoylik tilshunolar so‘zlarni fe’llar va ot/sifatlarga bo‘lishni taklif etganlar. Albatta, Yevropa tilshunolari so‘z turkumlarining nisbatan ko‘proq turini ajratganlar, so‘z turkumlarining nazariyasi to‘liqroq yoritilgan. Xitoy tilshunolari so‘zlarni turkumlarga ajratgan bo‘lsa-da, ularning turkumlarga xosligi o‘zgarishi hamda so‘zlar o‘ziga noodatiy bo‘lgan vazifalarni bajarib kelishi mumkin. Shu bilan birga, so‘zlarning grammatik xususiyatiga ohang ham ta’sir etishi mumkin. Ya’ni ma’lum bir so‘z har xil ohangda talaffuz etilsa, u turli xil turkumga xos bo‘ladi. Yevropa tilshunosligida ham albatta bitta so‘z faqat bitta yoki turli xil turkumga xos bo‘ladi deb aytilmagan. Xitoy tilida esa ma’lum bir so‘z bitta gap tarkibida kelsa ham, har xil vazifani bajarib kelishi mumkin.

Tildagi so‘zlarning umumiy grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra ma’lum guruhlarga bo‘linishi **so‘z turkumlari** deb yuritiladi.

实字：

Ma Zyan Djung grammatikasidan kelib chiqib, ot va so‘z turkumlarining toifalarini tahlil qilamiz, Janob Ma otlarga predmet nomini bildiruvchi gap bo‘laklari deya aniqlik kiritadi. **Ot so‘z turkumi** Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson, narsa-buyum, vaqt, joy nomini bildiruvchi so‘zlar turkumi **ot** deyiladi.



“名字，所以名一切事物者，省曰名”<sup>1</sup>. Ularni mustaqil soʻzlar guruhiga kiritdi. “实字“yaʼni, real maʼnoga ega, aniq tushunchani ifodalovchi soʻzlar deyiladi “凡字有事理可解者”.<sup>2</sup>

Shunday qilib, otlar deb predmet va hodisalar nomini atashga xizmat qiluvchi mustaqil maʼnoli soʻzlarga aytiladi “凡实字以名一切事物者”. Ma Zyan Djung otlarni ularning maʼnosiga qarab guruhlashtiradi: payt va vaqtni ifodalovchi otlar: 日 kun, 月 oy, 星 shom, 辰 kecha; kishi lavozimi: 君 imperator, 臣 xizmatkor, 父 ota, 子 oʻgʻil; abstrakt otlar: 力 kuch, 乱 tartibsizlik, ruh, foyda, hayot va insonparvarlik; qonun-qoidalar haqidagi otlar: 德 ahloq, 礼 etika, 政 siyosat, 刑 jazo; sanʼatga doir otlar: 礼 marosim, 乐 musiqa, 书 kitob. Qadimgi xitoy tilidagi ot soʻz turkumi grammatik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan deyarli oʻxshash. Mustaqil soʻzlarga 代字 olmoshlar ham kiritildi, jumladan: 你 sen, 吾 men, 彼 narigi, 此 mana bu, 其 uniki, 夫 u. Olmosh soʻz turkumi sifatida alohida oʻrin egallaydi. Olmosh soʻz turkumi ilk bor Ma Zyan Djung tomonidan oʻrganildi. Xitoy tili grammatikasi ilk bor tizimli tadqiq qilingan ushbu asar yuzaga kelgandan keyin koʻplab tadqiqotchi, olimlar soʻzlarni sinflarga ajratishga kirishdi. Demak, soʻz turkumlari tasnifisiz grammatika ham boʻlishi mumkin emas, degan fikr ilgari surildi.<sup>3</sup>

Janob Ma olmosh soʻz turkumini 代字 *daizi* “oʻrinda kelmoq, almashtirmoq” atamasi bilan atadi. U olmoshlarni 4 guruhga ajratdi: 指名代字 *zhiming daizi* “shaxs atovchi olmoshlar”, 接读代字 *jiedou daizi* “bogʻlovchi olmoshlar”, 询问代字 *xunwen daizi* “soʻroq olmoshlari”, 指示代字 *zhishi daizi* “koʻrsatish olmoshlari”.<sup>4</sup>

<sup>1</sup>林玉山汉语语法学史. - 湖南教育出版社, 1983. -37 页.

<sup>2</sup>Oʻsha manba. -37 b.

<sup>3</sup>Mustafayeva S. Xitoy tilshunosligida olmosh turkumi bilan bogʻliq terminlar evolyutsiyasi // BuhDU ilmiy axboroti. - Buxoro, 2016. - № 4. 65-b.

<sup>4</sup>马建忠马氏文通. -北京: 商务印书馆, 1998. 45 页.

指名代字 *zhiming daizi* “shaxsni atash olmoshlari”; 指 *zhi* ishora qilmoq, + 名 *ming* ism, + 代字 *daizi* “olmosh” komponentlaridan iborat. Muallif bu turkum olmoshlarini ikki turga ajratadi: biri gapirayotgan shaxsni ifodalovchi olmoshlar va ikkinchisi matn yoki gap tarkibida oldingi jumlaning almashtirib keluvchi olmoshlar. Shaxsni atash olmoshlari qatorida Ma Zyan Djung 吾 *wu* “men, mening”, 我 *wo* “men”, 余 *yu* “men” nutq egasini ifodalovchi, 爾 *er* “sen, sening”, 汝 *ru* “sen”, 若 *ruo* “sen” suhbatdosh (nutq qaratilgan shaxs)ni ifodalovchi va nutqda ishtirok etuvchi (kim yoki nima haqida bo‘lsa) 彼 *bi* “u”, 夫 *fu* “u”, 之 *zhi* “u; bu” so‘zlarini sanab, izohlab o‘tadi.

接读代字 *jiedou daizi* “bog‘lovchi olmoshlar” 接 *jie* “bog‘lamoq” + 读 *dou* “faza” + 代字 *daizi* “olmosh”. Bog‘lovchi olmoshlar oldingi jumlagacha mazmunan bog‘langan holda keyingi jumlaning tuzishda qo‘llaniladi. Bunday olmoshlarga 其 *qi* qadimgi xitoy tilida taxmin, buyruq ma‘noli gaplar va gaplarda ma‘no kuchaytirishga xizmat qilgan; 者 *zhe* gap o‘rtasida pauzaviy ohangni ifodalash uchun ishlatilgan; 所 *suo* ish-harakatning qabul qiluvchisi, umumlashtiruvchi so‘z sifatida qo‘llanilgan.<sup>1</sup>

询问代字 *xunwen daizi* “so‘roq” 询 *xun* “so‘ramoq, savol bermoq savol bilan murojaat qilmoq” + 问 *wen* so‘ramoq, savol bermoq, savol bilan murojaat qilmoq” + 代字 *daizi* o‘quvchiga noma‘lum bo‘lgan narsani so‘rab bilishni bildiradi.<sup>2</sup>

Janob Ma bu yerga 谁 *shui* “kim?”, 孰 *shu* “kim?”, “nima?”, “qaysi?”, 何 *he* “nima?”, “nima uchun?”, “qanday?”, “qay tarzda?” savolga javob beradigan so‘zlarni kirgizgan. Shu bilan birga, 奚 *xi* “nima sabadan?, qanday?, qayer?”, 胡 *hu* “nimaga?”, 曷 *he* “qanday?, qachon?”, 恶 *wu* “nima?”,

<sup>1</sup>马建忠马氏文通。—北京：商务印书馆，1998. 20 页。

<sup>2</sup>马建忠马氏文通。—北京：商务印书馆，1998. 71 页。

qaysi?”, 安 an“qayer?” va 焉 yan“qanday qilib?; qay yo‘sinda?, qayer?” ham so‘roq olmoshlari vazifasini bajaradi, ham ravishni ifodalab kelishi mumkin.

指示代字 *zhishi daizi* “ko‘rsatish olmoshlari”, 指 zhi “ko‘rsatmoq”; + 示 shi “namoyish etmoq” + 代字 daizi “olmosh”. Asarda ular 逐指 zhuzhi “umumlashtirib ko‘rsatish”, 特指 tezhi “ajratib ko‘rsatish”, 约指 yuezhi “taxmin qilib ko‘rsatish (ishora)”, 互指 huzhi “bir-biriga ko‘rsatish” kabi to‘rt turga ajratiladi<sup>1</sup>. 每 mei “har; hamma”, 各 ge “har”; 夫 fu voyaga yetgan o‘g‘il bolalar, erkaklarga murojaat uchun qo‘llanilgan “u, ular”, 是 shi “bu”, 若 ruo “sen”, 彼 bi “u”, 此 ci “bu”; 皆 jie “hamma”, 等 deng ko‘plikni ifodalash uchun ishlatilib. “sinf, tur; to‘da” ma‘nolarini beradi, 大要 dayao “muhim, asosiy”, 大抵 dadi “ko‘pchilik qism”, 大凡 dafan “barcha; hamma”; 自 zi “o‘zi”, 相 xiang “o‘zaro”, 交 jiao “bir-biriga” so‘zlarini mazkur turkum olmoshlariga mansub deb aytiladi.

Ushbu prinsip asosida so‘z bo‘linishining ikkinchi toifasi – shaxs otlari “公名”. Ayrim predmetlar, hayvonlar, jonli mavjudotlarni bildiradigan otlar ham bor “一以名同类之物, “离”二名, 曰公名”. Shuningdek, bunday otlarni Ma Zyan Djung yeg‘uvchi otlarga ham bo‘lgan “群名” kishilar guruhi, predmet nomlariga bo‘lgan – 称人物之聚者. Masalan, “五百人为旅” “500 kishidan iborat guruh sayyohlar” deb ataladi. Muallifning olmoshlar haqidagi bergan ma‘lumotlarining ayrim joylarini g‘arb grammatikasiga taqlid desak bo‘ladi. Asarda 接读代字 *jiēdù dàizì* “bog‘lovchi olmoshlar” G‘arbda “munosabat olmoshlari” deb ataladigan olmosh turi (*relative pronouns*)ga muvofiq ajratiladi. Bunday olmoshlarga 其 *qi* qadimgi xitoy tilida

<sup>1</sup>马建忠马氏文通。—北京: 商务印书馆, 1998. 78 页.



taxmin, buyruq ma'noli gaplar va gaplarda ma'no kuchaytirishga xizmat qilgan; 者 *zhe* gap o'rtasida pauzani ifodalash uchun qo'llanilgan; 所 *suo* ish-harakatning qabul qiluvchisi, umumlashtiruvchi so'z sifatida qo'llanilgan so'zlar kiritiladi.<sup>1</sup>

Muallif tomonidan kiritilgan 约指代字 *yuēzhǐ dàizì* "taxminiy" ko'rsatish olmoshlari Ma Zyan Djung bu tur olmoshlarga 皆 *jie* "hamma, barcha", 多 *duo* "ko'p", 凡 *fan* "barcha" so'zlarini kiritadi<sup>2</sup> va bu o'rinda fransuz grammatikasi ta'siri seziladi, chunki fransuz tilida *tout* (皆 *jie*, 凡 *fan* "hamma, barcha") va *plusieurs* (多 *duo* "ko'p") to'ldiruvchi vazifasida qo'llanilganda olmosh turkumiga kiritiladi.<sup>3</sup>

Shuningdek, Ma Zyan Djung 动字 fe'llarga aniqlik kiritib, shunday deydi: "凡实字以言事物之行者, 曰动字" *Fe'l so'z turkumi* Xitoy tilshunolarining fikricha, inson yoki narsa-buyum ish-harakati, psixologik kechinmalari, rivojlanishi, o'zgarishi va boshqa harakatni bildiruvchi so'zlar *fe'l* deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi fe'l grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan o'xshash. Gapda kesim, hol gap bo'laklari vazifasini bajargan. Quyidagicha o'ziga xosliklari mavjud, ayrim misollarni keltirib o'tamiz: 处世之 – keng qo'llaniluvchi fe'llar: 用 foydalanmoq, 行 shug'ullanmoq, 藏 saqlamoq; "行道之" – harakat fe'llari: 立 turmoq, 道 maqsadga erishmoq, 动 harakatlanmoq; "道国之" – his-tuyg'u fe'llar: 敬 hurmat, 信 ishonch, 爱 yaxshi ko'rmoq.

<sup>1</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарк машъали. - Т., 2016. - №3. - В.21.

<sup>2</sup> 马建忠马氏文通. -北京: 商务印书馆, 1998. 96 页.

<sup>3</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарк машъали. - Т., 2016. - №3. - В.21.

坐动 *zuo dong* va 散动 *san dong*<sup>1</sup> terminlari: muallif qo'llagan: 坐动 *zuo dong* termini yevropa tillaridagi aniq shakldagi fe'l (finite verbs)ga to'g'ri kelsa, 散动 *san dong* ushbu tillar grammatikasidagi fe'ning noaniq shakli (*infinite verbs*) tushunchalarini ifodalaydi.<sup>2</sup>

Ammo xitoy tilshunoslari nafaqat mustaqil va yordamchi so'zlar ustida ishlaganlar, balki alohida so'z turkumlarini ham rivojlantirdilar. Fe'l haqida gap ketganda shuni aytish lozimki, 春秋三传 asarida (周 Djou (m.avv. 770– 221 y.) sulolasi hukmronligi so'nggida yaratilgan Chunqiu –uch mumtoz sharh matnlari) o'timsiz 自动 va o'timli 他动 ga bo'linish, mustaqil 单用 va nomustaqil 连用 qo'llaniluvchilarga bo'linish mavjud.

公羊传 Gong yang zhuan sharhlarida gapga shunday qayd bor: 秋，王师败绩于贸戎 – Kuzda shahzoda Mao Jun tomonidan mahv etildi. 孰败之？盖晋败之。或曰：贸戎败之。然则曷为不言晋败之？王者无敌，莫敢当也 – Shahzoda askarlarini kim mag'lubiyatga uchratdi? Dzin podshohligining qo'shini ularni mag'lubiyatga uchratdi. Kimdirning aytishicha: Bu Mao Junning qo'shinlari ularni mahv etishdi. Garchi shunday ekan, unda ne sababdan to'g'ridan to'g'ri shahzoda qo'shinlarini Dzin shohligi mag'lubiyatga uchratdi, de' aytsa bo'lmaydi? Samoviy davlatda shahzodaga teng keladigani, unga qarshilik ko'rsatadigani yo'q.

Qadimgi tadqiqotchilar so'zlarni fe'llar, sifat va otlarga bo'lmagan bo'lsalar-da, ammo ular ushbu tushunchalarni farqlashar edi. Yuan davrida (1280 – 1367) 刘会监 Liu Hui Jian 动字 va 静字 atamalarini fanga kiritdi. Uning 动字 (“harakat so'zlari”) fe'l, 静字 (“harakatsiz so'zlar”) zamonaviy 形容词 sifat

<sup>1</sup> 马建忠 马氏文通. –北京: 商务印书馆, 1998. 263 页.

<sup>2</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарк машғали. – Т., 2016. – №3.

va 名词 otlarni o'z ichiga oladi. 动字 va 静字 lar bir-birining o'rni qo'llanilishi mumkin edi. Tsin davrida 王筠(1784 – 1854) Vang Yun shunday yozgan: “粪，说文‘弃除也’。粪本动字，孟子‘百亩之粪’。老子‘欲走马以粪’。‘则用为静字’。”<sup>1</sup>

粪 fèn so'zi “说文解字” “Shuo wen jie zi” da sharhlanishicha otmoq ma'nosida keladi, demak u fe'l so'z turkumiga xos. Mengzining risolasida esa, “100 mu ni o'g'itlamoq”. Laozining risolasida aytilishicha: “Yerni o'g'itlantirmoq uchun otda minib yurmoq (so'zma-so'z: “Otdan o'g'itlantirish maqsadida foydalanmoq”) kerak. Bu yerda 粪 fèn so'zi 静字 ot sifatida qo'llanilmoqda. Tsin davrida 黄本骥 (1781 – 1856) Huan Ben Tsining yozishicha, “昌黎古寒诗: ‘六龙冰脱髻。’ 寄李大夫诗: ‘无因帆江水。’ 冰字帆字, 皆以实字虚用, 死字活用, 作去声读”. HanChanlining “Shavqatsizig'irin” she'rida: “Olti ajdarho sovuqdan muzlab qolib, mo'ylovlari tushib ketibdi”; “Yangi lavozimga o'tib va Jianjoudagi saroyga kelib shifokor Li huzurida istiqomat qilmoq” she'rida: “Yelkanlarni ko'tarish uchun sabab yo'q” kabi gaplarda 冰 bīng “muz” va 帆 fān “yelkan” yordamchi so'z vazifasini qo'llamoqda, “o'lik” so'zlar “tirik” sifatida qo'llanilmoqda, pastlayotgan ohangda o'qiladi. 死字 o'lik deb atalgan so'zlar 静字 statik so'zlar aynan o'sha 名词 otva 形容词 sifatdir. Olmoshlardan ko'rsatish olmoshlari (zamonaviy xitoy tilida 指示代词) aniqlangan bo'lib, ular 指辞 (ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi so'zlar), 指实之词 (predmetni ifodalovchi so'zlar), 指事之辞 (ish-harakat, holatni ifodalovchi so'zlar), 指物之辞 (narsalarni ifodalovchi so'zlar), 指名之辞 (ismlarni ifodalovchi so'zlar) va shu kabilardir. Ularga: 夫 fūbu, o'sha 其 qí narigi, ushbu 此 cǐ manashu 是 shì manashu, shunday 斯 sī shu, 之 zhī mana shu, shuning, 者 zhě ushbu 彼 bǐ anavi 夫 fū hammasi, har biri va boshqalar.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>林玉山汉语语法学史. - 湖南教育出版社, 1983. -37 页.

<sup>2</sup>O'sha yerdan. - B.31.



Janob Ma sifat tushunchasini kiritadi. “凡实字以尚事物之形者，曰静字”predmetning belgisini ifodalovchi mustaqil soʻzlar sifat deb ataladi. **Sifat soʻz turkumi** Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyumning shakli, xususiyati va u ish-harakatning holatini bildiruvchi soʻzlar **sifat** deyiladi. Masalan, 长 uzun, 短 qisqa, 轻 yengil, 重 ogʻir, 大 katta, 小 kichik. Venyandagi sifat grammatik va sintaktik xususiyatlari jihatidan zamonaviy xitoy tili (bayxua)dagi sifat bilan deyarli bir xil. Gapda asosan, aniqlovchi, hol, kesim boʻlib kelgan. Baʼzida ega va toʻldiruvchi boʻlib kelishi ham mumkin boʻlgan, ammo bunday sifatlar sifatlik xususiyatlarini allaqachon yoʻqotgan, otlashgan sifatga aylangan. Quyida gapning tarjimasida uchraydigan gap keltirilgan:

“目辨黑白美恶，耳辨声音清浊，口辨酸咸甘苦，鼻辨芬芳腥臊，骨体肤理辨寒暑疾养”. Koʻzlar oqni qoradan ajratish uchun, quloqlar tiniq va noaniq nutqni ajratish uchun, tana sovuqdan issiqni ajratmoq yoki xasta yoxud sogʻlom boʻlish uchun berilgan.

Xitoy tilshunoslarining fikricha, narsa-buyum yoki ish-harakatning sanogʻini bildiruvchi soʻzlar **son** deb ataladi. Venyandagi son soʻz turkumi **son** va **hisob soʻzlarni** oʻz ichiga olgan.<sup>1</sup> Qadimgi xitoy tilidagi sonning qoʻllanilishi zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi, ular quyidagi xususiyatlarga ega:

*1. Gapda aniqlovchi, hol vazifasini bajargan, bunda odatda, hisob soʻz ishlatilmagan.*

**Son+Ot** “Yuygun togʻni surdi” hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān): “太山王屋二山”. Tàishān Wángwū èr shān (Tayshan va Vangu bu ikki togʻ). “二” èr (ikki): son boʻlib, “山” shān (togʻ) otini aniqlab kelgan, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. **Son+Feʼl** “Uch podsholik” “Chju Ge-Lyang hikoyasi”

<sup>1</sup> Karimov A.A. Xitoy tili nazariy grammatikasi. OʻUM(oʻquv-uslubiy majmuasi). – T.: ToshDSHI, 2016. – 16-b.

(三国志·诸葛亮传 sānguózhì·Zhūgěliàng zhuán) bo'limida: “由是先主遂诸葛亮，凡三往，乃见” (Yóu shì xiān zhǔ suì Zhūliàng, fán sān wǎng, nǎi jiàn)- Shu sababli Chju Gelyang huzuriga hammasi bo'lib uch marta tashrif buyurdim, shundagina uni ko'rish baxtiga muyassar bo'ldim.“三” (uch) son so'z turkumi, “往” (bormoq) fe'li holatini bildirmoqda, gapda hol vazifasini bajargan.

II. *Son predmetning sanog'ini bildirganda, ba'zida otdan keyin joylashadi.* **Ot+Son**Vey Syue “Xe chjouji” (核舟记): “通计一舟，为人五，为窗八”。 Tōngjì yī zhōu, wéi rén wǔ, wéi chuāng bā (Bitta qayiqda hammasi bo'lib beshta odam, sakkizta deraza bor). “一” (bir) soni otdan oldin kelgan, “五” (besh), “八” (sakkiz) esa aksincha otdan keyin kelgan.

状字 ravishi. Ravish – fe'l yoki sifatlarni bir-biridan aniqlashga xizmat qiladigan mustaqil so'zlar. “凡实字以貌动静之容者，曰状字” Ayrim misollar: 皇 ehtimol, 谦 murakkab, 蹇 mushkul, 谩 ochiqdan ochiq 纷 betartib, 又 yana, 尽 butunlay.

Biz yuqorida mustaqil so'zlarga oid 6 nutq birliklarini ko'rib o'tdik.

Ma Zyan Djung o'zining asarida ilk bor sonidan keyin keladigan so'zlarga 计数的别称 “hisobda qo'llaniluvchi maxsus so'zlar” deb izoh bergan. Zamonaviy tilga tarjima qilganda ularni 量词 “hisob so'zlar” deb aytish mumkin.<sup>1</sup> “二千五百人为‘一’师，五百人为‘一’旅，又五家为‘一’邻，二十五家为‘一’乡，五百家为‘一’堂，故事旅，邻，里，乡，堂皆群名也”<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Karimov A.A. Xitoy tilidagi hisob so'zlar (leksik – semantik, struktural va funksional tahlil). – T., 2003. – 19-b.

<sup>2</sup> 林玉山汉语语法学史. - 湖南教育出版社, 1983. -35 页.

**Yordamchi soʻz turkumlari** – yakka holda maʼno anglatmaydigan, gap boʻlagi boʻla olmaydigan, grammatik maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan soʻzlardir. Ular mustaqil soʻzlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, soʻz va gapning mazmuniga turli qoʻshimcha maʼnolar qoʻshadi. Oʻzining mustaqil maʼnosiga ega boʻlmagan, gapda mustaqil maʼnoli soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladigan soʻzlar 虚词 yordamchi soʻzlar deyiladi. “无解而惟以助实字之情态者”. Birinchi oʻrinda Ma Zyan Djung bu yerga “介子” old koʻmakchilarini kiritdi. Ushbu soʻzlar mustaqil maʼnoli soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladi. “凡虚字以联实字榫关之义者，曰介字”.

U 与 – bilan, 于 – da (boʻlmoq) kabi old koʻmakchilarni ajratib, shuningdek, bularga oldingi aniqlovchini keyingi aniqlovchi soʻzdan ajratuvchi 之 yordamchi soʻzlarni ham qoʻshadi. Ot aravasi shahar darvozlari tagida juda chuqur izlar qoldirdi. Nahotki bir nechta otlar shunday izlarni qoldira oladi? – “城 门 之 轨， 两 马 之 力 与？”<sup>1</sup>. Instrumental qoʻshimcha kirituvchi, odatda, rus tiliga otning birgalik kelishigi sifatida tarjima qilinuvchi “以” predlogi: turli xil kitoblar yordamida men oʻz bilimimni boyitaman, odob-axloq qoidalari yordamida esa, men oʻz soʻzlarimni va xatti-harakatlarimni boshqaraman – “博我以文， 约我以礼” odamlarni tayoq va pichoqlar bilan oʻldirish, baribir emasmi? – “杀人以梃与刃，有以异乎?”.

柳宗元 Liu Zong Yuan (773-819) “杜温夫书” kitobida ikki xil yordamchi soʻzlarni ajratib koʻrsatadi: soʻroq soʻzlar 疑问词 va darak soʻzlar 决词 bunday boʻlinish soʻzlar qoʻllanilishiga koʻra amalga oshirilgan. Keyinchalik “马氏文通” Ma Shi Ven

<sup>1</sup>林玉山汉语语法学史. - 湖南教育出版社, 1983. -36 页.



Tunda ham o'xshash tavsif keltiriladi. Yordamchi so'zlar 助字2 ga ajratiladi: ishonehlilik 传信 va shubha ifodalovchi 传疑.<sup>1</sup>

“五经正义” (“Besh muqaddas kitobga sharhlar”) muallifi Kong Yinda (574-648) yordamchi so'zlar hech qanday tushuncha va ma'no ifodalamasligi keltiriladi.

卢以纬(1280 - 1367) Lu Yiwei o'ziga qadar ko'plab tilshunoslar tomonidan ishlatilgan 语助(so'zma-so'z tarjimasi “nutqqa yordam beruvchi”)atamasidan foydalandi, ammo u ushbu atamani 虚词 yordamchi so'z zamonaviy atamasiga sinonim holatida qo'llagan ilk olimdir.

Yordamchi so'zlar ma'lum ma'noga ega bo'lmasa-da, ularning matndagi vazifasi juda muhim. Qadimgi davr tadqiqotchilari o'sha davrdayoq uning ahamiyatini bilib, unga diqqatni jalb etishgan. Liu Shutsayning aytishicha: “盖非假此以成声，则不能尽意”.Yordamchi so'zlar -bu mavjud hodisa, ularning tashqi qismi ohangga ega, ammo ular mustaqil holda ma'no ochib berolmaydi. 实词 va 虚词 atamaları Janubiy Sun (1127 -1279) davrida aniq farqlana boshladi. Jan Yan 张炎(1248 - 1320) “词源”(“So'zlarning kelib chiqishi”) asarida shunday yozadi: “词与诗不同，词之句语有三字四字至六字七字八字者。若堆叠‘实字’，读且不通，况付之雪儿乎？合用‘虚字’呼唤，单字如‘正’‘但’‘甚’‘任’之类，两字如‘莫是’‘还有’‘那堪’之类，三字如‘更能消’‘最无端’‘又是’之类，此等虚字却要用之得其所”<sup>2</sup>. Ci va shi har xil janr sanaladi, ci da gapdagi iyerogliflar soni 3-4 tadan 6 - 8 tagacha bo'ladi. Gap faqat mustaqil so'zlardan tashkil topsa, o'qib tushunish biroz murakkablik tug'diradi. Gaplar yordamchi so'zlar misol uchun, 正 zhèng bilan o'qilganda(deb, faraz qilsak

<sup>1</sup> Кирюхина Л.В.Грамматические исследования в китайском языкознании // Филология. - Иркутск, 2014. - №1(26). - С.205.

<sup>2</sup>林玉山汉语语法学史. - 湖南教育出版社, 1983. -37 页.

ham...)但 *dàn* (lekin, ammo), 甚 *shén* (va hatto; eng yomon holatda ham hatto...), 任 *rèn* (nima bo'lishidan qat'iy nazar; har qanday holatda ham; kim bo'lishidan qat'iy nazar); 莫是 *mòshì* (ehtimol; emas, balki holda ...; nafaqat ...) ga o'xshagan ikki bo'g'inli so'zlar; 还有 *háiyǒu* (hali bor, hali mavjud); 那堪 *nàkān* (qanday qilib bunday bo'lishi mumkin; bunday bo'lishi mumkinmi?); 更能消 *gèng néng xiāo* kabi uch bo'g'inli so'zlar (juda zarur, talab katta); 最无端 *zuì wúduān* (eng asossiz), 又却是 *yòu quèshì* (yana ...shunday ekanligi ham aniqlandi...). Bunday yordamchi so'zlarning barchasi o'z o'rnida qo'llanilishi uchun ham kerak. Yordamchi so'zlarga bag'ishlangan “助语辞” nomli (“Nutqqa yordam beruvchi so'zlar”), “助字辨略” (“Yordamchi so'zlarni farqlash uchun qisqa qo'llanma”), “虚字说” (“Yordamchi so'zlarni tushuntirish”) kabi maxsus adabiyotlar paydo bo'ldi.

王引之 Van Yinjining (1766-1834) “经传释词” (“Kanonik matnlar talqini”) asarida yordamchi so'zlarning batafsil tasnifi berilgan. Jami 52 xil yordamchi so'zlar ajratilib, ular orasida 连词 bog'lovchilar, 介词 old ko'makchi, 语气助词 modal so'zlar, 叹词 taqlid so'zlar yoritilgan. 连词 bog'lovchilarni o'z o'rnida 转折 qiyosiy, 假设 shartli, 疑问 so'roq va shu kabilarga, 语气助词 modal so'zlarni 表惊 qo'rquv, hayrat ifodalovchi, 表疑 shubha ifodalovchi, 表完结 tugallanganlikni ifodalovchi va boshqalar.<sup>1</sup> Bunday tasniflash keyinchalik “马氏文通” Ma Shi Ven Tungdagi tasniflashdan unchalik farq qilmaydi. Shunday qilib, biz xitoy tilshunoslarining yordamchi va mustaqil so'zlarni tadqiq etish bilan faol shug'ullanganlari, ularni atash uchun turli xil atamalarni berganliklari va har xil tasniflar qilganliklarini ko'rib chiqdik.

<sup>1</sup> Кирюхина Л.В. Грамматические исследования в китайском языкознании // Филология. - Иркутск, 2014. - №1(26). - С.206.

**Old ko‘makchilar:**

Xitoyda old ko‘makchi<sup>1</sup> va bog‘lovchilarni o‘rganishning ilmiy bosqichi Ma Zyan Djung mashaqqati bilan boshlandi. Muallif Xitoyning avvalgi olimlaridan qolgan boy materiallarni umumlashtirib va qayta ishlab, 介字 jiè zì “old ko‘makchilar” va 连字 lián zì “bog‘lovchilar” analogi mavjud bo‘lmagan klassik xitoy filologiyasiga yangi tushunchalar kiritdi va ularni so‘zlarning alohida sinfi sifatida ajratdi. Ma Zyan Djung fikricha, mustaqil ma‘noli so‘zlar o‘rtasida aloqa ma‘nosini ifodalash uchun foydalaniladigan har qanday yordamchi so‘zlar old ko‘makchi deb nomlanadi; bog‘lovchi deb esa muallif so‘z va gaplarni qo‘shish uchun foydalaniladigan har qanday yordamchi so‘zlarni nomlaydi.<sup>2</sup>

Biroq, Ma Zyan Djung birinchi old ko‘makchi (介字) deb 之 zhī ni ataydi. Birinchi bog‘lovchilar (连字) esa biz odatda, boshlang‘ich yuklama deb hisoblovchi - 夫 fū, 今 jīn, 且 qiě, 盖 gāi lardir. Tabiiyki, keyingi mualliflar buni qabul qila olishmagan.

Ma Zyan Djung qadimgi xitoy tili materiallari asosida tadqiqotlar olib borgan. Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, Ma Zyan Djung tomonidan taklif qilingan old ko‘makchi va bog‘lovchi ta‘rifining xususiyati cheklangan. Shunga qaramasdan, ularning kelajakda o‘rganilishiga aynan ushbu muallif nazariy asos solgan.

Xitoy tilida old ko‘makchi va bog‘lovchilarni farqlash mumkinligi borasidagi turli fikrlarning paydo bo‘lishi, unda yevropa nazariyasini qabul qilib uni xitoy tiliga tatbiq qilishga

<sup>1</sup> Aynan o‘zbek tilidagi xitoy tili grammatikasiga oid manbalarda 介字 jiezi atamasi ruscha old ko‘makchi deb berilgan. Bizning ilmiy rahbarimiz ushbu atamaga o‘zbekcha ekvivalent sifatida old ko‘makchi atamasini ishlatadilar. Ushbu atamaning o‘zbekchasini xitoy tiliga nisbatan dots. A. Karimov birinchi bo‘lib ishlatgan.

<sup>2</sup> Ma Tzyanchjun Ma shiv en tun (Правила письменного языка господина Ма). - Shanxay, 1956. 6-p.



xalaqit qiluvchi o'ziga xos xususiyat bilan tushuntiriladi. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Yo'nalish va o'rin ifodalovchi so'zlarning old ko'makchi vazifasida qo'llanilishiga Ma Zyan Djung quyidagicha ta'rif beradi: vaqt yoki o'rin-joyini ifodalashda 上 *shang* 'yuqori', 下 *xia* 'past', 内 *nei* 'ichki; ichkari', 外 *wai* 'tashqi; tashqari' so'zlari ko'makchi vazifasini bajaradi, ular toponim, antroponim yoki vaqtni ifodalovchi so'zlar bilan qo'llanilib, gapda ulardan keyin keladi va bu kabi vaziyatlarda old ko'makchining qo'llanilishiga ehtiyoj qolmaydi.<sup>1</sup>

1. Xitoy tilida rus tilidagi kabi har qanday so'zlar yoki birliklar – so'zlar va gaplar o'rtasida bog'lovchi aloqasini ifodalovchi “va” bog'lovchisi mavjud emas.

2. Xitoy tilida fonetik jihatdan mos keluvchi fe'llar va old ko'makchilar mavjud (masalan, 给 *gěi*, “bermoq” va “uchun”).

3. Xitoy tilida fonetik jihatdan mos keluvchi bog'lovchi old ko'makchilar va teng bog'lovchilar mavjud (masalan, 跟 *gēn* 'va').

4. Xitoy tilida fonetik jihatdan mos keluvchi old ko'makchi va ergashtiruvchi bog'lovchilar mavjud (masalan, 因为 *yīnwèi* “-dan, boisdan, sababli” va ‘chunki’).

5. Unda otlar (va olmoshlar) o'rtasida faqat teng aloqani ifodalovchi so'zlar mavjud emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ba'zi xitoy olimlari xitoy tilida bog'lovchi va old ko'makchi yagona kategoriyanı tashkil qilib, farqlanmaydi yoki old ko'makchilar fe'llardan ajratilmaydi deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, Li Tzin zi old ko'makchi va bog'lovchilarning birinchi zamonaviy tasnifini taklif qildi. Uningcha, old ko'makchilar va bog'lovchilar bitta sinf “aloqani

<sup>1</sup> Мустафасва С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий таракқиёти // Шарқ мағъали. - Т., 2016. - №3.

ifodalovchi soʻzlar” 关系词 guān xì cí ni tashkil qiladi. Old koʻmakchi va bogʻlovchilar bitta sinfga aloqador boʻlishiga qaramasdan, Li Tzin Si ularning orasidagi farqni koʻrsatib beradi. Old koʻmakchilar “vaqt, joy, sabab, harakat munosabatini ifodalash uchun otlar va olmoshlarning feʼllar yoki sifatlar bilan aloqasida qoʻllaniladi”.<sup>1</sup> Muallif “soʻzlar, soʻz birikmalari, gaplar, xat boshilar oʻrtasidagi oʻzaro aloqa munosabatini ifodalash uchun foydalaniladigan” soʻzlarni bogʻlovchi deb ataydi.<sup>2</sup>

Lyuy Shu Syang 之 zhī, 的 de, 所 suǒ, 者 zhě, 与 yǔ, 以 yǐ, 为 wèi, 把 bǎ, 被 bèi, 给 gěi, 和 hé, 而 ér, 则 cè, 因 yīn, 故 gǔ, 虽 suī kabi soʻzlarni bitta guruhga birlashtirib, ularni 关系词 guān xì cí “munosabatni ifodalovchi soʻzlar” deb nomlaydi.<sup>3</sup> Taʼkidlab oʻtish joizki, muallif ushbu guruhga nafaqat bogʻlovchilar (masalan, 因 yīn, 故 gǔ, 虽 suī, 以 yǐ, 为 wèi, 和 hé, 而 ér, 则 cè) va old koʻmakchilarni (masalan, 与 yǔ, 为 wèi, 把 bǎ, 给 gěi), balki 之 zhī, 的 de, 所 suǒ, 者 zhě kabi yordamchi soʻzlarni ham kiritdi. Oʻz ishida yuqorida keltirilgan soʻzlarni turli sintaktik tuzilishlarda koʻrib chiqib, toʻliq yoritib oʻtdi.

Keyinroq, 1953-yilda “语法学习” yǔfǎ xuéxí (“Grammatikani oʻrganish”) ishining 动词 dòng cí (feʼl) boʻlimida, Lyuy Shu Syang 副动词 fù dòng cí (yordamchi yoki koʻmakchi feʼllar) boʻlim ostini ajratib, unga 把 bǎ, 被 bèi, 从 cóng, 往 wǎng, 给 gěi, 跟 gēn, 替 tì, 对于 duìyú, 关于 guānyú kabi soʻzlarni kiritdi; u shuningdek, mustaqil boʻlimga 连介词 liánjiècí (bogʻlovchilar)ni ajratadi: 跟 gēn, 因为 yīnwèi, 所以 suǒyǐ.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> 黎锦熙, 新著国语文法, 商务印书, 1924.-10 页

<sup>2</sup> 黎锦熙, 新著国语文法, 商务印书, 1924.-11 页.

<sup>3</sup> Люй Шусян Очерк грамматики китайского языка: В 2-х т. — М.: Изд-во Вост. лит., 1961. — С.50.

<sup>4</sup> 吕叔湘, 语文学学习. -北京, 1954.- 35 页.

Boshqa olimlar, zamonaviy xitoy tilidagi old ko‘makchi va bog‘lovchilarni ko‘rib chiqib, ularning farqlanish mezonini haqida hech qanday izoh berishmaydi.

Masalan, Van Li 与 Yü, 和 hé, 且 qiě, 况 kuàng, 之 zhī, 于 yú turidagi yordamchi so‘zlar toifasini ajratadi va ularni 联系词 Liánxì cí (“bog‘lovchi so‘zlar”) deb nomlaydi. Uning fikricha, “ularning yordamida bir so‘zni boshqa so‘z bilan, yoki bir so‘z birikmasini – boshqa so‘z birikmasi bilan, yoki bir gapni – boshqa gap bilan bog‘lash mumkin”.<sup>1</sup>

Van Li ishida keltirilgan ko‘pchilik “bog‘lovchi so‘zlar”, – bu bog‘lovchilardir; muallif old ko‘makchilarni alohida so‘zlar sinfiga ajratmay, fe‘l deb hisoblaydi. “Asoslar”da (Б «Основах») shuningdek, “ko‘makchi fe‘llar” (Van Li termini) 把 bǎ va 被 bèi ham yoritilgan, ular odatda, old ko‘makchi sifatida qaraladi.

“Murakkab gap, bog‘lovchi elementlar, bog‘langan shakllar” teng va tobe aloqa bilan tuzilishga bag‘ishlangan XIV bobda murakkab gap qismlarini ulovchi bog‘lovchilarga aynan o‘xshash so‘zlarni tavsifini topish mumkin.

Van Li tuzilishning turli xillarini tahlil qilib, bog‘lovchi so‘zlar va “munosabatni ifodalovchi uchinchi turkum so‘zlari”ni ajratish zarurligi haqida so‘zlaydi. Shartli tuzilishni ko‘rib chiqib, muallif: “Milliy tilning qadimgi grammatik me‘yorlariga muvofiq holda, shartli tuzilish ko‘pchilik hollarda bog‘lovchi elementlar yordamisiz tashkil topadi. Agar bog‘lovchi elementni ishlatish zarur bo‘lsa, ushbu vazifada 若 ruò ‘agar’, 要 yào ‘agar’, 倘或 tānghuò ‘agar’ so‘zlari qo‘llanilishi mumkin. Ularni munosabatni ifodalovchi (ya‘ni ma‘lum darajada ravish), uchinchi turkum so‘zlari deb, ya‘ni bog‘lovchi element emas deb hisoblash lozim, chunki ular gapning asosiy va tobe qismi o‘rtasida joylasha olmaydi. Masalan, 明日若不交来, 奶奶不要

<sup>1</sup> Ван Ляо-и Основы китайской грамматики. – М., 1954. – С.47.



了 Míngri ruò bù jiāo lái, nǎinai bù yào le – “Agar u ertaga [pulni] olib kelmasa, xonim undan boshqa olmaydi” (Van Li misoli).<sup>1</sup>

“Grammatika va stilistika ocherklari”da Lyuy Shu Syang va Dju De Si old ko‘makchilarni yangi termin bilan atashni taklif qiladilar – 副动词 Fù dòngcí (“ko‘makchi fe‘llar”). Mualliflarning fikricha, fe‘llarning va ushbu sinfosti so‘zlarining farqi shundaki, ikkinchisi kesim o‘zagi bo‘la olmaydi.<sup>2</sup>

Djan Djigun old ko‘makchi va bog‘lovchilarni turli guruhlarga ajratadi, u ham, bu ham bog‘lovchi rovida kelishini qayd etadi. Shuningdek, old ko‘makchilar qoidaga ko‘ra, fe‘l yoki sifatga faqat otni qo‘shadi deb yozadi. Ammo u masalan, nima uchun 和 hé, 跟 gēn ham old ko‘makchi, ham bog‘lovchi ro‘yxatida kelishiga hech qanday izoh bermaydi.<sup>3</sup>

Jamoa grammatika mualliflari old ko‘makchilarni so‘zning alohida sinfi sifatida qarashmaydi, ularni fe‘l sinfosti 次动词 Cì dòngcí sifatida ajratishadi (“ikkinchi darajali fe‘llar”). Mualliflar fe‘llar va “ikkinchi darajali fe‘llar” o‘rtasida quyidagi farqlarni ko‘rsatadilar: birinchidan, “ikkinchi darajali fe‘llar” kesim o‘zagi bo‘la olmaydi, ikkinchidan, “ikkinchi darajali fe‘llar”dan so‘ng albatta, to‘ldiruvchi turishi kerak.

Mualliflar nazariyasiga muvofiq, bog‘lovchilar so‘zlarning alohida sinfiga 联系词 liánxì cí ajraladi (“biriktiruvchi so‘zlar”). Grammatikada bog‘lovchilarga bag‘ishlangan maxsus bob mavjud emas, lekin mualliflar turli tuzilma va gaplarni tavsiflaganda bog‘lovchilar faoliyatini batafsil tahlil qiladilar.

XX asr 40-60-yillari xitoy olimlarining asosiy xizmatlari shundan iboratki, ular old ko‘makchi va bog‘lovchilar ro‘yxatidan Lyuy Shu Syang da bo‘lgan 之 zhī, 的 de, 所 suǒ, 者 zhě kabi turli yuklamalarni chiqazib tashladilar. Bundan tashqari, olimlar

<sup>1</sup> Ван Ляо-и Основы китайской грамматики. – М., 1954. – С.47.

<sup>2</sup> 吕叔湘, 朱德熙, 语法修辞讲话, 北京, 开明书店, 1951.- 11 页.

<sup>3</sup> 张志公, 汉语语法常识. 北京, 1953.-35 页.

e'tiborlarini old ko'makchi va fe'l o'rtasidagi yaqin aloqaga qaratdilar.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida olimlar old ko'makchi va bog'lovchilarni o'rganish sohasida oldinga katta qadam tashladilar. 80-yillarning oxiriga kelib, xitoy tilshunosligida old ko'makchi va bog'lovchilar so'zlarning alohida sinfi ekanligi tan olindi. Grammatika tadqiqotchilari nafaqat barcha old ko'makchilarning batafsil tavsifini berdilar, balki ularni semantik va grammatik vazifalariga muvofiq tarzda tizimlashtirdilar.

Xitoyning yetakchi grammatika mutaxassislarining old ko'makchilarni o'rganish sohasidagi tadqiqotlari yordamchi so'zlar lug'atini tuzishda asos bo'lib xizmat qildi, masalan, U Ke Djun muharrirligi ostidagi "Zamonaviy xitoy tilining eng ko'p qo'llaniladigan yordamchi so'zlar lug'ati", Xou Syuedjao muharrirligi ostidagi "Zamonaviy xitoy tilining yordamchi so'zlar lug'ati", Tao Janya muharrirligi ostidagi "Zamonaviy xitoy tilining yordamchi so'zlar lug'ati" va boshqalar. Lug'atlarda har bir yordamchi so'z qaysi so'z sinfiga mansubligi, ularning eng ko'p qo'llaniladigan holatlari ko'rsatilgan, bo'lishi mumkin bo'lgan tuzilish variantlari keltirilgan.

Xitoy tilshunosligida bog'lovchilarni o'rganish sohasidagi asosiy ijobiy tomonlarda to'xtalib, "Zamonaviy xitoy tilining yordamchi so'zlar lug'ati" kitobining Djan Ishen va boshqa mualliflari, birinchidan, bog'lovchilarning batafsil tavsifiga bag'ishlangan lug'atlarning ko'p miqdorda chop etilayotganligini ta'kidlaydilar. Eng e'tiborlisi quyidagi ishlar deb hisoblaydilar: "关联网语词典" guānlián cí ("Biriktiruvchi so'zlar lug'ati") Day Mu Tzin muharrirligi ostida, "关联网语例释" guānlián cí yǔ lishi ("Biriktiruvchi so'zlar namunalari va tushunchalari") Men Tyan muharrirligi ostida, "现代汉语常用格式例释" xiàndài hànyǔ chángyòng géshì lishi ("Zamonaviy xitoy tilida eng ko'p qo'llaniladigan tuzilishlar namuna va tushunchalari") U Boso muharrirligi ostida va boshqalar.

Ikkinchidan, murakkab gaplardagi bog'lovchilarni o'rganishda muvaffaqiyatga erishildi: “关联词语” guānlián cí yǔ (“Biriktiruvchi soʻzlar”) Fan Kaytay muharrirligi ostida, Djou Gan doktorlik dissertatsiyasida “汉语联系研究” hànyǔ liánxì yánjiū (“Xitoy tili bog'lovchilarini o'rganish”) va boshqalar. Soʻnggisi: bog'lovchilar tavsifining nazariyasi va tamoyillari oʻzgardi. Hozirgi kunda tadqiqotchilar alohida bog'lovchilarning sharhidan, shuningdek, turli tuzilmalardagi bog'lovchilarni tushuntirish va oddiy tasnifidan chetlashadilar. Bog'lovchilarni o'rganish tarixiy tilshunoslik hamda lingvistik tipologiya, sintaksis va amaliy lingvistika bilan yonma-yon o'rganiladi, bu esa bog'lovchilar borasidagi tadqiqotni yangi ilmiy darajaga olib chiqadi.<sup>1</sup>

Xitoy tilshunoslarining zamonaviy xitoy tilida old koʻmakchi va bog'lovchilarga bag'ishlangan ishlarining tahlili, xitoy tilshunosligida ushbu soʻzlar sinflarining bir qancha yoʻnalishlarini kuzatish mumkinligini xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Birinchi nazariyaga asosan, old koʻmakchi va bog'lovchilar farqining asosiy prinsipi rasmiy omildir: yordamchi soʻz nima bilan boshqarishini va gapda bog'lovchi elementlarga qaraganda qanday joylashganligini hisobga olish zarur. Xitoy tilshunosligida ushbu nazariyani ilk bor Ma Zyan Djung taklif qildi, biroq, old koʻmakchi va bog'lovchilar roʻyxatiga turli xil yuklamalar ham tushib qoldi. Keyingi olimlar bu fikrga qoʻshilmadilar. Turli nizoli nazariyalar vujudga keldi.

Ikkinchi nazariyaga asosan old koʻmakchi va bog'lovchilar munosabatni ifodalovchi soʻzlarning bir guruhiga jamlanadi (关系词) guān xì cí. Ushbu nazariyaning asoschisi Li Dzin Sidir.

Uchinchi nazariyani Lyuy Shu Syang taklif qiladi, uning nazariyasida nafaqat old koʻmakchi va bog'lovchilar, balki

<sup>1</sup>张异声. 现代汉语修辞, 上海, 华东师范大学出版社, 2000.-141 页.



boshqa yordamchi soʻzlarni ham bir guruhga birlashtiradi. Keyinroq, Dju De Si bilan hamkorlikda uning fikri oʻzgaradi.

Toʻrtinchi nazariya biriktiruvchi soʻzlar tavsifida faqatgina bogʻlovchi soʻzlar xarakterlanib, deyarli barcha old koʻmakchilar feʼl deb hisoblanadi (Van Li).

Va nihoyat, soʻnggi nazariya shundan iboratki, old koʻmakchilar feʼllar sinfosti boʻlib, bogʻlovchilar esa soʻzning mustaqil sinfiga ajratiladi (Lyuy Shu Syang va Dju De Si hamkorligidagi ishi; “Zamonaviy xitoy tili grammatikasining ommabop kursi”).

U bogʻlovchi tushunchasini kiritadi – uning yordamida gaplarni oʻzaro bogʻlovchi yordamchi soʻz – “凡虚字用以为题延展转字句者，统曰连字。“富而可求也，虽执鞭之士，吾亦为之。如不可求，从吾所好。一此而字有假设意，所以展拓也。虽字跌进一层，兼展转两意。如字亦展转上意。皆为连字” – Agar siz pul ishlab topsangiz, hattoki qora ish boʻlsa ham oʻz vijdoningizdan kelib chiqib ishni bajarsangiz, bu ish sizni hech qachon yomon otliq qilmaydi. Agar boylik sari yetaklovchi ushbu ish vijdoningizga qarama-qarshi boʻlsa, u holda shunga muvofiq ish tuting. Ushbu gapda “而” bogʻlovchisi – shartli bogʻlovchi “agar”/ “u holda, agar” qatnashgan; “虽” “-sa ham” (garchi) bogʻlovchisi gapning ikki qismini (ikki fikrni) bogʻlovchi, “如”- oldingi gapning maʼnosini tugallovchi bogʻlovchi: “虽执鞭之士，吾亦为之。如不可求，从吾所好”; “而”, “如” bogʻlovchisi qatnashgan.

“助字” - *zhuzi* yordamchi soʻzlar\* (koʻmakchi) tushunchasini kiritadi. Unga qadar xitoy tilida 助字 *zhuzi* deyilganda 虚词 *xuci* yordamchi soʻz turkumlari tushunilgan, lekin Ma Zyan Djung bu terminni 语气词 *yuqici* yuklamaga

nisbatan qo‘llagan.<sup>1</sup> Muallif yana zamonaviy xitoy tilida 形容词 *xingrongci* sifat so‘z turkumini ifodalagan 象静司词 *xiangjing sici* terminini qo‘llaydi, 象静 *xiangjing* hozirgi xitoy tilidagi sifat so‘z turkumini ifodalagan, 司词 esa odatda yuklamadan keyin keladigan otga nisbatan qo‘llaniladi. Bu o‘rinda u sifatdan keyin keladigan otga nisbatan qo‘llanilgan. Bu ham xitoy tilining o‘ziga xos, xususiyatidan kelib chiqqan holda muallif tomonidan chiqarilgan xulosa. Ma Zyan Djung 系词 *xici* bog‘lamalarni 动词 *dongci* fe‘l so‘z turkumiga kiritmay, 断词 *duanci* deb nomlaydi va 静字 *jingzi*, ya‘ni sifat so‘z turkumiga kiritadi. Bunda lotin tilining ta‘siri sezilib turibdi. 系词 *xici* dan keyin kelgan ot yoki sifatni 表词 *biaoci* deb ataydi. Bunda lotin va fransuz grammatikalarining ta‘siri ko‘rinadi.<sup>2</sup> “凡虚字用以煞字与句读者，曰助字”- matnni sintagmalarga bo‘luvchi yuklama, yordamchi so‘zlar. Namuna: “也”- qadim xitoy tili yuklamasi, gapning oxirida qo‘llaniladi, gapni tugallovchi yuklama hisoblanadi.

“无伤也。是乃仁术也”- Odamlarga zarar yetkazmaslik – odamlarga insonparvarlik bilan yondashish san‘ati hisoblanadi. “三也字煞三句，皆以表决断口气也” – gap so‘nggidagi ikkita “也” fikrning yashirin ma‘nosini ochib beradi. Unga “矣” yuklamasi o‘xshash. “耳” yuklamasi, fikr ifodasini kuchaytirish uchun xizmat qiladi – (“辄”) “字有惟此之意焉” yuklamasi, kitob tilining yordamchi olmosh ma‘nosini saqlovchi, harakat joyini yoki gap oxiridagi yuklamani anglatuvchidir: “(焉) 代字也。若文此处 (焉) 字诬作为助字者，误矣”. “乎” so‘roq yuklamasi: Donishmand ham bundan xursand bo‘ldimi? – “贤者亦乐此乎?”.

<sup>1</sup> Мустафаева С. Хитойда яратилган илк назарий грамматикалар ҳамда соҳа терминологиясининг тадрижий тараққиёти // Шарқ машъали. - Т., 2016. - №3.

<sup>2</sup> 王力中国语言学史. - 山西, 1981. - 178 页.

Ma Zyan Djung 可 *ke* ‘mumkin’, 足 *zu* ‘yetarli’, 能 *neng* ‘qila olmoq’, 得 *dei* ‘kerak’ so‘zlarini 助动字 *zhudongzi*, ya‘ni ko‘makchi fe‘llar sirasiga kiritadi. Ko‘rinib turibdiki, bu g‘arb tillaridagi modal fe‘lar (*auxiliary verbs*)ga taqlid.

Va nihoyat, Ma Zyan Djung bularga undov so‘zlarni kiritadi: “凡虚字以鸣人心中不平之声者，曰叹字”- mustaqil bo‘lmagan ma‘noli so‘zlar, (so‘zlovchining) o‘z-o‘zidan kelib chiquvchi his-tuyg‘ulariga undov so‘zlar deyiladi. Tilda ushbu so‘zlar qisqa taqlidiy so‘zlar bilan qayg‘u yoki xursandchilikni ifoda etadi, masalan: “都”- shunday!, mayli! (ma‘qullash undov so‘zlari), “吁” - o! voh! Afsus!, “呜呼” - evoh, afsus! Dod!, “噫嘻”- ax! Oh! (ma‘qullash, tahsin, qo‘rquv undov so‘zlari). Undov so‘zlar ma‘noga ega emas, bu shunchaki his-tuyg‘uni, kayfiyatni ifodalovchi tovush, shuning uchun ularni shunday atashadi –“皆无义理，惟以鸣心中所发哀乐之声，故曰叹”。“叹”to‘g‘ridan-to‘g‘ri “zavq bilan nafas olish/oh urmoq/xo‘rsinmoq”.

Xitoy tilida old ko‘makchi va bog‘lovchilar farqlanishi borasidagi turli nazariyalarning paydo bo‘lishi ushbu tilning o‘ziga xos xususiyati (ularga yuqorida to‘xtalib o‘tdik) va uning xulosasi sifatida yevropa nazariyasini tatbiq qilish imkoniyati yo‘qligi bilan tushuntiriladi.

Xan davrida (mil.avv. 206-220) muayyan ma‘poni bildirmagan 叹词 taqlid so‘zlar aniqlangan, ular odatda qandaydir his-tuyg‘uni, inson qalbidagi holatni ifodalash uchun ishlatilgan. Bo‘g‘inlarning soniga ko‘ra, ularni bir bo‘g‘inli 单音叹辞(哉 *zāi undovni ifodalovchi*, 疑 *yí shubhani ifodalovchi*), ikki bo‘g‘inli 双音叹辞 (乌摩/呜呼 *wūhū afsuski, oh!, voy!*), 于嗟 *yújiē quvonch* yoki xafagarchilikni ifodalaydi. Foydalanilishiga ko‘ra, hayratlanishni ko‘rsatuvchi taqlid so‘zlar 惊怪叹辞(哉 *zāi voy!*, 吁 *xū/yū oh!, voh!, attang!*, 呀 *yā voy!, ohho!, eh!, ha...!* va shu kabilar), xafagarchilik 哀伤叹辞(嘻 *xī*



oh-ho!, 噫 yì, yī oh!, voh!, 嗟 jiē oh!, voy!, eh!, attang! va shu kabì) yoki maqtoq 赞美叹辞(哉 zāi oh!, 矣 yǐ axir, 都 dū shunday, mayli ! va sh. k.).

**Kelishiklar:**

Ma'lumki, xitoy tilida morfologik vositalarning miqdori chegaralangan va unda gaplardagi so'zlar tartibi aniq o'rnatilgan.

Kelishik "fikrning boshqa so'zlarga sintaktik munosabatini ifodalovchi ismning grammatik kategoriyasi, bundan tashqari, bu kategoriyaning alohida grammemasi"dir.<sup>1</sup> An'anaviy tushunchaga ko'ra, qadimgi davrdan boshlab kelishik morfologik kategoriya hisoblanadi. Har xil kelishiklar haqida biz faqatgina turli xil kelishikdagi so'zlarda formal farqlar bo'lsagina gapira olamiz.

Bizni "kelishik" atamasining aynan Fillmor Ch.ning "Kelishiklar haqida"gi asarida kelgan ta'riflari qiziqtiradi. Ushbu kitobda muallif morfologiyaning roli haqida emas, balki sintaksisning markaziy roli haqida aytib o'tgan.

Fillmorning fikriga ko'ra, kelishiklarni otning morfologik o'zgarishlariga (yuzaki tizim) emas, tuzilmaga asoslanib ajratish lozim. "Kelishik masalasiga yuzaki tuzilma pozitsiyasidan yondashish noto'g'ri deb tan olinishi lozim, kelishiklar tizimi turli tilga yaroqli bo'lishi darkor. An'anaviy grammatikaning kelishiklariga morfologik realizatsiyasining natijasi sifatida qarash taklif etilgan".<sup>2</sup> Fillmor Yelmslevning "agar kelishikning grammatik kategoriya xarakteristikasi ularning otlarda affikslar shaklida ifodalanishi haqidagi fikrdan voz kechilsa, kelishiklarni o'rganish yanada rivojlanishi mumkin"<sup>3</sup> degan fikriga qo'shiladi. Kelishik atamasi ostida muallif "chuqur sintaktik-semantik munosabat, kelishikli shakl atamasi ostida esa, aniq tildagi

<sup>1</sup> Ярцева В. Н. Лингвистический-энциклопедический словарь. – М., 1990. – С.35.

<sup>2</sup> Левицкий Ю.А., Боронникова Н.В. История лингвистических учений. – М.: Высш. шк., 2009. – С.254.

<sup>3</sup> Филлмор Ч. Дело о падеже // Зарубежная лингвистика. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1999. – С.50.

kelishik munosabati, buning uchun affiksatsiya ishlatilishi yoki ishlatilmasligi suppletivlik, enklitik yoki proklitik yuklamalar qoʻshilishining farqi yoʻq” deb tushuniladi.<sup>1</sup>

Fillmor 6 ta kelishikni ajratib bergan:

Agentiv – odatda, feʼlni aniqlab beruvchi jonli predmet yoki shaxs.

Istrumentalis- uning sababi sifatida feʼl deb ataluvchi harakat yoki holatni ifodalovchi jonsiz kuch yoki predmet kelishigi.

Dativ- feʼl deb ataluvchi harakat yoki holatni ifodalovchi jonli mavjudot kelishigi.

Faktiv- feʼl deb ataluvchi yoki feʼl maʼnosining qismini bildiruvchi harakat yoki holatning natijasida yuzaga keluvchi predmet yoki mavjudotning kelishigi.

Lokativ-feʼl deb ataluvchi, harakat yoki holatning makon yoki fazoviy yoʻnalishi.

Obʼyektiv - semantik jihatdan eng neytral kelishik,ot bilan ifodalanishi mumkin boʻlgan, harakat yoki holatda oʻz ahamiyatiga ega boʻlgan, feʼlni ifodalovchi narsa yoki ish kelishigi, feʼlning semantik belgilangan talqini bilan aniqlanadi.<sup>2</sup> Koʻrib turganimizdek, gaplarning yuzaki tuzilmalari Fillmorning Nazariyasiga koʻra chuqur sintaktik tuzilmalarning natijasi hisoblanadi.

Fillmorning ushbu asari 1967-yilda paydo boʻlgan, u ingliz tili materiali asosida bajarilgan edi. Shuni taʼkidlab oʻtamizki, 1898-yil Xitoyda 马建忠 Ma Zyan Djungning “马氏文通”- “Ma shi ven tung” asari chop etilgandi. Xitoy tili tarixida bu ilk xitoy tili grammatikasiga bagʻishlangan asar edi. Avvalgi grammatika sohasida yaratilgan kitoblar yordamchi soʻzlar lugʻatini tuzish

<sup>1</sup> Филлмор Ч. Дело о падеже // Зарубежная лингвистика. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1999. – С.51.

<sup>2</sup> Филлмор Ч. Дело о падеже // Зарубежная лингвистика. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1999. – С.50.

bilan kifoyalana edi. Olimlar xitoy tilining Grammatik tizimini yaratish bilan shug'ullanmas edilar. Mashhur xitoyshunos olim M.V.Sofronov Ma Zyan Djungni "xitoy grammatikasi yaratuvchisi va ilk zamonaviy tilshunosdir"<sup>1</sup> deb ataydi.

Ma Zyan Djung tilshunos bo'lmagan, ammo u Yevropada chet tillaridan tahsil olgan. Vataniga qaytgach, u Yevropada grammatika deb atalmish til bo'yicha o'quv qo'llanma yaratishga qaror qiladi. O'zining grammatikasida u o'ziga tanish chet tillarining grammatikasiga monand qadim xitoy tilida so'z turkumlarini ajratdi, gap bo'laklarini aniqladi (U paytlarda zamonaviy xitoy tili olimlar tomonidan tadqiq etishga noloyiq hisoblanardi, ular faqat qadimgi 文言 venyan tilini o'rganishar edi). U kelishiklarga ham o'zining diqqatini qaratdi. Kelishiklarni aniqlashda Ma Zyan Djung so'zlarning sintaktik vazifasiga asoslanar edi.

Ma Zyan Djung sintaktik tadqiqotlariga uning 次kelishikni tushuntirishi ham tegishli. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'zbek tiliga 次kelishik deb tarjima qilishimiz juda shartli. Bu termin tarjimasining boshqa variantlari ham mavjud, misol uchun "grammatik shakl, daraja". Ma Zyan Djung 次 kelishikni ot/olmosh gapda/iborada egallaydigan joyi deb ifodalaydi.

"Port-Royal grammatikasi"da esa kelishik narsalar orasida munosabatni belgilash uchun kerak deb aytilgan. Akkuzativ haqida fikrlashganda, mualliflar fransuz tilida akkuzativni nominativdan ajratish uchun formal ko'rsatkichlar yo'q deb aytishadi, shuning uchun ikki kelishikni ajratish uchun gapda so'zlar turish tartibiga qarash kerak, chunki "odatda nominativ fe'l oldida keladi, akkuzativ esa fe'ldan keyin". Shunday qilib, "umumiy" grammatika mualliflari kelishiklarni ajratishi uchun sintaktik mezondan foydalanish mumkinligining ehtimoliga qo'shiladi. Shuning uchun 次"kelishik" deb tarjima qilish o'rinli ko'rinadi.

<sup>1</sup> Софронов М. В. Китайское языкознание в 50 – 80-х гг. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 22. -М.: Прогресс, 1989. -С.5.



Umuman olganda, Ma Zyan Djung olti 次 kelishikni ajratadi, ular quyidagi oppozitsiyalarni anglatadi:

主次sub'yektli kelishik - 宾次ob'yektli kelishik,

偏次atributiv kelishik - 正次aniqlovchining kelishigi,

同次 bog'lovchi kelishik - 前次 ilgarigi kelishik.

次 kelishiklar ot/olmoshlar bir-biriga nisbatan (ikki so'nggi oppozitsiya) yoki fe'lga nisbatan (birinchi oppozitsiya) egallaydigan o'ringa bog'liq holda aniqlanadi. Bir so'zning o'zi bitta gap ichida turli 次 kelishiklarda turishi mumkin. Misol uchun:

(1) 公子姊为赵惠文王弟平原君夫人 - "Hukmdor merosxo'rining katta opasi - Pinyuan Djung, Djaolik Vang Huyven ukasining xotini.

公子姊 hukmdor merosxo'rining katta opasi - 前次 ilgari kelishik, 夫人 xotini - uning 同次 bog'lovchi kelishik. Ikkalasi ham - 主次 sub'yektli kelishik. 赵惠文王弟 Djaolik Huyven Vang ukasi - 前次 ilgarigi kelishik, 平原君 Pinyuan-chun - uning 同次 bog'lovchi kelishik. Ikkisi ham - 偏次 atributiv kelishik.

U kelishiklarni 次 ci so'zi bilan nomlab, unga quyidagicha ta'rif berdi: 凡名代诸字在句读中所序之位, 曰『次』.<sup>1</sup>

Gap yoki frazada ot yoki olmosh egallagan joy kelishik deb ataladi.

Ma Zyan Djung bunday kelishiklarning 6 tasini ajratib beradi: 主次 zhūci Bosh kelishik (Bosh, yo'naltiruvchi +kelishik=bosh kelishik), 宾次 bīnci tushum kelishigi (ob'yekt +kelishik=obyektiv kelishik), 正次 zhèngci aniqlovchi kelishik (to'g'ridan to'g'ri, markaziy+kelishik=to'g'ridan to'g'ri kelishik) 偏次 piānci aniqlovchi kelishik (qiyshiq, og'gan+kelishik=qiyshiq kelishik), 前次 old (ma'lum so'zdan avval keluvchi) kelishik va 同次 bog'lovchi kelishik.

<sup>1</sup>马建忠马氏文通校注上、下册.- 中华书局出版. 1954. - 14 页.

凡名代诸字为句读之起次者，其所处位曰“主次”。

*Ot yoki olmosh gapda ega vazifasida kelsa, uning bunday joylashuvi bosh kelishik deb ataladi.*

凡名代诸字为止词者，其所处位曰“宾次”。

*Ot yoki olmosh gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelsa, uning bunday holati tushum kelishigi deyiladi.*

Ushbu ikki kelishik bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Quyidagilar 主次 bosh kelishikka taalluqli: 赐也，非你所及也。 /Tsi, sen bu ishni qilishga qodir emassan. 赐也 – atoqli ot va albatta bosh kelishik; ushbu gap Konfutsiyning shogirdi Duanmu Tsiga qarata so'zlagan nutqi hisoblanadi. Tushum kelishigiga Janob Ma “司词” bilvosita to'ldiruvchisini kiritadi. Tushum kelishigiga u yana payt-zamonni bildiruvchi otlarni, joy, xarajat, uzunlik va boshqa o'lchov birliklarini kiritadi: 南荣出趁赢粮七日七夜/ Nan djun o'zi bilan yetarli miqdorda yemak olib, yetti kecha-yu yetti kunduz yurib Laotziga yetib bordi. Bosh kelishik 主次 hamda 宾词 obyektiv kelishikka tushuncha berib, Ma Zyandjung shunday deydi 主次 – bu avvalo,起词 ega, 宾词 esa 止词 to'ldiruvchi. Uning grammatikasida gap bo'laklari va kelishiklar o'zaro chambarchas bog'liq. Janob Ma o'z ishida semantik sintaksisga yaqin bo'lgan g'oyalarni aytib o'tgan.

正次 aniqlanmish kelishigi va 偏次 atributiv kelishik haqida gap ketganda, Ma Zyan Djung aytishi bo'yicha yozuvda bir necha otlar birgalikda qo'llanilsa, unda aniqlovchi so'z bosh so'zdan avval keladi. Gapimiz isboti etib quyidagi misolni ko'rsatamiz: 天时不如地利，地利不如人和 - Mo'tadil iqlim qulay joy bilan tenglashmas, qulay joy insonlarning birgalikdagi kuchi bilan. 天 osmon, 地 yer, 人 inson bosh kelishik shaklidagi ot. Ikkita ot 天 to'g'ri va 时 mavsum birgalikda qo'llaniladi (天时 so'zma-so'z to'g'ridan to'g'ri), bu yerda asosiy so'z 时 so'zni

aniqlab 天 soʻzini aniqlab keldi, shuning uchun u oldinga qoʻyilgan. 地利 soʻziga nisbatan ham shunday.

Odatda, atributiv yoʻl bilan bogʻlangan ikkita ot soʻz turkumiga oid soʻzlar 之 yordamida bogʻlanadi, masalan: 道千乘之国 - Minglab jang aravasi bilan davlatni boshqarish. Ikkita ot: 千乘 minglab jang aravasi va 国 davlat oʻzaro 之 soʻzi orqali bogʻlangan, qaysiki 千乘 minglab jang aravasi 国 davlat soʻziga tegishli. Bu yerda 千乘 soʻzi 国 ni aniqlab keladi.

Keyingi koʻrib oʻtadigan kelishiklar bu “前次” old kelishik va “同次” bogʻlovchi kelishiklardir: agar otlar yoki olmosh bir maʼnoni anglatssa va yonma-yon tursa, birinchisi old kelishik — “前次” va bogʻlovchi kelishikdir “同次”: “凡名代诸字，所指同而先后并置者，则先者曰前次，后者曰同次”. Namuna: “自子夏，人们之高第也” /Szisya Konfutsiyning eng yaxshi oʻquvchisi hisoblanadi. “子夏” “前次” funksiyani bajaradi, yaʼni old kelishikni, “高第” eng yaxshi oʻquvchi kesim “表次” sifatida keladi, “子夏” Szisyani koʻrsatadi, demak, “子夏” Szisyani xuddi oʻzi, shuning uchun “同次” bogʻlovchi kelishik hisoblanadi. Ushbu gapda Szisya “子夏” va eng yaxshi oʻquvchi “高第” bosh kelishik hamdir.

Ma Zyan Djung boʻyicha kelishik – bu otning grammatik shakli boʻlib, u gapda gapning boshqa aʼzolariga munosabati bilan aniqlanadi. Takrorlab oʻtamizki, bitta soʻz turli xil kelishikni ifodalashi mumkin, bu esa biz qaysi soʻzga asoslanib kelishikni aniqlashimizga bogʻliq.

XX asrning atoqli rus-amerikalik tilshunosi xitoy tili sohiblari uchun xitoy tilida kelishiklarni morfologik kategoriya sifatida muhokama qilish yot hodisadir deydi. U xitoy tilida gapning maʼnosini tushunish uchun morfologiya emas, balki sintaksisning oʻzi kerak deydi.



Janob Ma kelishikni morfologiyadan tashqarida kelishik munosabatlari modelini taklif qilgan holda ko'rib chiqadi. Ma Zyan Djung grammatikasi bo'yicha kelishiklar chuqur tuzilmaga emas, balki sirtqiga tegishli bo'lib, gap doirasidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Ma grammatikasining o'ziga xos xususiyati ham shundadir.

Bundan xulosa qilish mumkinki, birinchi xitoy grammatikasi qo'llanmasida kelishikni aniqlash uchun so'zlarning o'zaro sintaktik munosabati asos bo'ldi. Xitoy tilining o'ziga xos tuzilishi muallifni o'z qo'llanmasini yaratishida til morfologiyasidan to'liq voz kechishga majburladi.

Shunday qilib, tadqiqotchi-grammatist Ma Zyan Djung kelishiklarni so'z o'zgarishiga (tuslanishi)ga e'tibor bermay, ularning o'zaro sintaktik munosabatiga tayanib aniqladi. Bu esa shundan kelib chiqadiki, xitoy tili keng morfologik ko'rsatkich tizimiga ega emas, shuning uchun Ma Zyan Djung kelishikni aniqlash uchun unga Fransiyada olgan ta'limi jarayonida tanish yevropachadan farqli bo'lgan o'z tizimini ishlab chiqdi. Aynan xitoy tilining o'ziga xos tuzilishi xitoy tilshunoslik an'anasida sintaksis grammatik kategoriyalarni ishlab chiqishda asos bo'lishiga olib keldi.

## Bosh kelishikli gaplarga misollar 主次

Gap	Tarjima	Bosh kelishikda kelgan otlar 主次
(孟公下) 天时不如地利, 地利不如人和。	Mo'tadil iqlim qulay joy bilan tenglashmas, qulay joy insonlarning birgalikdagi kuchi bilan.	天 osmon, 地 yer, 人 inson bosh kelishik shaklidagi ot
(孟梁上) 仲尼之徒, 无道桓文之事者。	Konfutsiyning talabalari Chi Huangun va Chi Vengun hukmronligi haqida gapirmas edilar	之 ko'rsatadiki, 徒 izdoshtar 仲尼 ya'ni Konfutsiyga tegishli, 事 ish -桓 Huan va 文 Ven ismlariga tegishli
(又) 明足以察秋毫之末, 而不见舆薪。	Qilni ko'rib turib, ponani ko'rmaslik.	之 ko'rsatadiki, 毫 jun 末 biror bir narsaning uchini aniqlab keladi
(又离上) 离娄之公输子之巧。	Li Louning ko'z nuri o'tkirligi, Gun Shudzining qobiliyati	之 shunga ishora qilyaptiki 离娄 LiLou 明 ko'rish aniqlovchisi, 公输子 Gun Shudzi - 巧 bilishning aniqlovchisi.
(论学而) 道千乘之国。	Minglab jang aravasi bilan davlatni boshqarish.	Ikkita ot 千乘 minglab jang aravasi va 国 davlat o'zaro - 之 so'zi orqali bog'langan, qaysiki 千乘 minglab jang aravasi 国 davlat so'ziga tegishli
(又公下) 城民不以疆之界, 固国不以山溪之险, 威天下不以兵革之利。	Chegarani yopib Xalqni chegaralab bo'lmas, davlatni tog'lar bilan himoya qilib bo'lmas, buyuk Xitoyni faqat o'tkir qurol bilan ulug'lab bo'lmas.	之 uchta yordamchi so'zi 封疆 chegarni yopmoq 界 chegara so'zini aniqlab kelyapti, 山溪 tog'lar va daryolar-险 qiyinchi-liklarni, 兵革 qurol-yarog'-li o'tkir ga ishora qilyapti.

Gaplarda birinchi soʻz ikkinchisini aniqlab keluvchi atributiv soʻz birikmalari tez-tez uchrab turadi. Ularning oʻzaro munosabati 之 yordamchi soʻzi orqali ifodalanadi, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi.

凡数名连用而意有偏正者，则正意位后，谓之“正次”。<sup>1</sup>

Aniqlanmish kelishigi deb atributiv aloqali aniqlanmish soʻz shaklida kelgan otlarga aytiladi.

凡数名连用而意有偏正者，偏者居先，谓之“偏次”。

Aniqlovchi kelishigi deb atributiv aloqali aniqlovchi soʻz shaklida kelgan otlarga aytiladi.

2-jadval

**Aniqlanmish 正次 va aniqlovchi 偏次 kelishiklarga**

**misollar:**

Gap	Tarjma	Aniqlanmish 正次 va aniqlovchi 偏次 kelishiklar shaklidagi otlar
(汉霍光传) 霍氏之	Xo urugʻining omadsizliklari imperator ayol Syuuning oʻlimi rejalashtirilib fitna uyushtirilgandan keyin boshlandi.	祸 omadsizlik- bosh kelishik 主次, shu bilan birga 正次 sulolasi aniqlanmish, 霍氏 Xo urugʻi -偏次 aniqlovchi kelishigi

Aynan bitta soʻzning oʻzi boshqa soʻzlarga nisbatan turli xil kelishiklarda kelishi mumkin. Ikkinchi jadvalning birinchi misolida 事 ish 行事 ish bilan shugʻullanmoqqa nisbatan tushum kelishigida kelgan 宾次 va aniqlanmish 正次 周公之事 Jou Gunning ishlari soʻz birikmasining kelishigi boʻlib kelgan. Ikkinchi misolda 祸 omadsizlik bir vaqtning oʻzida bosh kelishik 主次 (祸萌于 soʻz birikmasida omadsizliklar quyidagilardan kelib chiqadi), undan tashqari aniqlanmishning kelishigi 正次 (霍氏之祸 Xo urugʻining omadsizliklari) boʻlib kelgan.

<sup>1</sup>马建忠《马氏文通》校注上、下册。- 中华书局出版, 1954. - 15 页。



Xulosa qilib aytganda, Ma Zyan Djung fikricha, kelishik gapda boshqa gap bo'laklariga nisbatan o'z ahamiyatiga ega bo'lgan ismning grammatik shakli hisoblanadi. Bitta so'z turli xil kelishiklarni ifodalab kelishi mumkin. Biz uni aynan qaysi so'zga qaratilganiga ahamiyat berishimiz lozim. Shunday qilib, bu yuqoridagilar xitoy grammatika ilmining bilimdoni Ma Zyan Djung (keyinroq amerikalik olim Fillmor ham) so'z o'zgarishlarini e'tiborga olmasdan (yuzaki tuzilma) gapdagi ishtirok etgan so'zlar orasidagi munosabatga qarab kelishiklarni ajratgan. Buning sababi shundaki, xitoy tili morfologik ko'rsatkichlarning rivojlangan tizimiga ega emas. Shuning uchun, Ma Zyan Djung Fransiyada tahsil olib yurgan kezlaridan o'ziga ma'lum bo'lgan yevropacha tizimdan farqli o'laroq o'ziga xos kelishiklarga ajratish tizimini yaratishga to'g'ri keldi. Shuni aytib o'tish joizki, xitoy tili tuzilishining alohida xususiyatlari xitoy tilshunoslik an'anasida sintaksis boshqa grammatik kategoriyalar ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. Ma Zyan Djung morfologiyadan ko'ra gapning tuzilishini o'rganish masalasini ustun qo'yishi haqida.
2. Tōngjiǎzì (通假字) deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
3. 古今字 gūjīnzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
4. 同源字 tóngyuánzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
5. 连绵字 liánmiánzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.

#### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1. "Ma Shi Wen Tong" grammatikasi.
2. Buddizm adabiyotidan "To'qqiz rangli jayron" matni.
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

1. "Bahor va kuz" solnomasi haqida ma'lumot to'plash va yierogliflarning qaysi usulda berilganligini o'rganish.
2. III-V asrlar matn xususiyatlari (tarjima).

**TEST**

1.选择合适的数字填空，完成成语。

( ) 湖 ( ) 海

光通

( ) ( )

色达

答案：五湖四海

光通

十八

色达

2. 即使是聪明能干的妇女，没米也做不出饭来。比喻做事缺少必要条件，很难做成。这个成语是。

答案：巧妇难为无米之炊

3. 看图猜一个成语



答案：无中生有

4. 汉语成语“胸有成竹”，原指“要画好竹子，在心里要有一幅竹子的形象”，后来比喻做事之前已作好充分准备，对事情的成功已有了十分的把握；又比喻遇事不慌，十分沉着。



答案：胸有成竹

5. 在下雪天给人送炭取暖。比喻在别人有困难时给予物质上或精神上的帮助。这个成语是。



答案：雪中送炭



6. 看图猜成语。这是。

得得  
举

答案：一举两得

7. 看图猜成语。这是。

五  
十

答案：一五一十

8. 看图猜成语。这是。

口√  
心×

答案：口是心非

9. 中国有十二生肖纪年的习俗，十二种动物代表不同的年份，所以每个人出生在某一年，就属某个生肖。二零一一年是兔年，请说出两个含有“兔”字的汉语成语。



答案（供参考）：守株待兔、狡兔三窟

10. 汉语中的谚语是人们口头流传长期习惯使用的固定语句，是用简单通俗的话来反映深刻的道理。如“一寸光阴一寸金，寸金难寸光阴”。这句谚语说明了时间是比金钱更为宝贵的东西，每个人都应该珍惜时间。

答案：买

## 5- MAVZU: XITOIY IYEROGLI FLARIGA TRANSKRIPSIYA BERISHNING DASTLABKI USULLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** Eramizning ikkinchi asriga qadar mavjud bo'lgan transkripsiya usullari haqida qisqacha ma'lumot. Transkripsiya berishning fanqie usuli. Xitoy tilshunosligida fanqie usulida yozib qoldirilgan lug'atlar. Fanqie usulining ijobiy va salbiy tomonlari. Fanqiening bugungi o'qilishidagi muammolar.

**Tayanch so'z va iboralar:** 直音, 反切, 注音字母, 拼音, 读书, usul, uslub, 说文解字, 王部, 汉书, 文艺, 史注篇, 汉子异义异读列, 辞海. 音书, 声韵, 四声谱, 沈约, 切韵, 唐韵, 广韵, 集韵, 中原音韵.

### Eramizning II asriga qadar mavjud bo'lgan transkripsiya usullari haqida qisqacha ma'lumot

Xitoyda iyerogliflarga transkripsiya berish hamda iyerogliflar o'qilishini yengillashtirish maqsadida to'rtta rasmiy qabul qilingan transkripsiya usullaridan foydalanganlar. Bu Ji in (直音), Fan chie (反切), Juin zimu (注音字母) va Pinin zimu (拼音) usullaridir. Qiziqarli jihati shuki, mavjud barcha usullarning hammasi ham bir davrda yaratilmagan, balki tarixiy taraqqiyot natijasida birin ketin yaratilgan. Bu rasmiy qabul

qilingan usullar keng miqyosda qo'llanilgan hamda xitoy tarixiy fonologiyasida chuqur iz qoldirgan. Xitoy tilshunosligida mazkur to'rt usul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan usullar hisoblanadi.

Xitoy iyerogliflariga transkripsiya berishning eng dastlabkisi 读若 (Duruo) usuli bo'lgan. Bu usulda talaffuz berilishi kerak bo'lgan iyeroglifga shu iyeroglif bilan talaffuzi o'xshash bo'lgan boshqa bir iyeroglif orqali berilgan, ya'ni o'xshatib o'qilgan. Masalan, "说文解字"ning "王部" bo'limida shunday keltiriladi: "珣读若宣", ya'ni 珣 (xin) iyeroglifiga 宣 (xuan) iyeroglifi orqali transkripsiya berilgan<sup>5</sup>, "部": bo'limida shunday keltiriladi: "宋, 从木, 读, ya'ni 宋(song) iyeroglifiga 送(song) iyeroglifi yordamida transkripsiya berilgan.

警况(pikuang) keyingi usul bo'lib, ushbu usulda tasviriy so'zlar orqali talaffuz berilayotgan iyerogliflarning talaffuz qilish xususiyati ko'rsatib berilgan. Masalan, "淮南子地刑训" kitobida shunday keltiriladi:

"高诱注(Gao Yo unga shunday izoh beradi): "旄读绸缪, 急气言异得之", ya'ni 旄(mao) iyeroglifi 绸缪(choumiao-ipak iplar) so'zidagi 缪(miao) iyeroglifi talaffuziga o'xshatib o'qiladi, bo'g'indagi "i" yunmusi talaffuzda tushib qoladi. Transkripsiya berishning uchinchi shakli bu Ji in (直音) usuli bo'lib, bu usul yordamida biror bir iyeroglifning talaffuzini berish uchun, talaffuzi shu iyeroglif bilan aynan o'xshash bo'lgan boshqa bir ko'p qo'llanadigan iyeroglif, ya'ni turdosh talaffuzdagi iyeroglif orqali berilar edi. Ji in usuli xitoy tilida "to'g'ridan to'g'ri talaffuz berish" degan ma'noni anglatadi. Xitoy tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana bir jihati, bir xil talaffuz qilinib, har xil yoziladigan iyerogliflar miqdorining ko'pligi bilan tasniflanadi.

To'g'ridan to'g'ri transkripsiya berish deganda, xitoy tilida bir xil talaffuz qilinadigan, ya'ni turdosh talaffuzdagi iyerogliflardan foydalanib, har xil yoziladigan iyerogliflar talaffuzini berish tushuniladi. Masalan, 逝(shi) "ketmoq, olamdan



o'tmoq" iyeroglifining talaffuzi 誓(shi) "qasam ichmoq" iyeroglifi orqali berilgan, 毕(bi) "bitirmoq, tugatmoq" so'zining talaffuzi 必(bi) "zarur" iyeroglifi orqali beriladi. Yuqoridagi misollardan, talaffuzi hosil qilinayotgan va talaffuz berayotgan iyerogliflar bir xil talaffuz qilinadi, lekin bu iyerogliflar har xil yoziladi.

Ji in usulining paydo bo'lishi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Manbalarning xabar berishicha, ya'ni Xan shu (汉书 -Xannoma)ning san'at 文艺 "wen yi" bo'limida Jou sulolasining Syuan Vang shohi hukumronligi davrida bosilib chiqqan Shi Jupyuan (史注篇)<sup>8</sup>, ya'ni "Iyerogliflar katalogi"da Ji in usulidan foydalangan. Keyinchalik, ushbu usul ommalashib, milodning II asrigacha, fanchie tizimi vujudga kelguniga qadar iyerogliflarga asosiy va yagona transkripsiya berish usuli bo'lib xizmat qilgan. Mazkur o'rinda bu usuldan hozirga qadar ba'zi bir adabiyotlarda foydalanilishini ta'kidlash joiz.

Masalan, 1958-yilda nashr etilgan "Iyerogliflarning bir xil yozilib, har xil o'qiladigan va har xil ma'no anglatadigan lug'ati"(汉子异义异读列), 1979-yil Pekinda chop etilgan "Si xay"(辞海) lug'atida qadimgi xitoy tilida qo'llanilgan, hozirgi kunda esa kam uchraydigan iyerogliflarga Ji in usulidan foydalangan holda transkripsiya berilgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Ji in usuli kamida 3 ming yillik tarixga ega bo'lib, taxminan 1000 yil davomida yagona transkripsiya berish usuli sifatida qo'llanib kelindi. Ta'kidlash joizki, ya'ni bu usulda doim ham iyerogliflarning talaffuzi aniq berilmay, aksincha, ba'zi hollarda ularning taxminiy talaffuzi berilar edi. Bu usul bilan transkripsiya berish jarayonida, agar iyeroglifning talaffuzini to'liq va aniq ravishda ifodalaydigan iyeroglif topilmasa, u holda shu iyeroglifning talaffuziga o'xshash yoki yaqinroq bo'lgan boshqa bir iyeroglifdan foydalanganlar. Ji in usulining shu kabi kamchiliklari xitoy tilshunoslarini yana bir mukammalroq transkripsiya berish usulini yaratishga majbur qildi va natijada Fanchie tizimi kashf qilindi.

## Transkripsiya berishning Fanchie usuli

Xan sulolasi hukumronligining oxirlariga kelib, xitoy tilshunosligida fonetikani jiddiy o'rganishga e'tibor qaratila boshlandi. Bu davrda fonetika fani xitoy tilida "Inshu" ("音书" - iyerogliflarning tovushlari) keyinchalik esa "Shengyun" ("声韵"-iyerogliflar bo'g'inlarining bosh va so'nggi tovushi) deb yuritilgan. Bu davrgacha esa xitoy tilshunoslari faqatgina iyeroglifning yozilishi, yozuv, ularning ma'nolari hamda mumtoz adabiyotlar izohi bilan qiziqishgan, fonetikaga esa favat II asrga kelib e'tibor bera boshlandi. Bunga quyidagi ikki hodisa sabab bo'lgan.

Birinchi sabab, eramizning I asrida Xitoyga kirib kelgan buddizm dini bilan birga, eramizning II-III asrlarida buddizm adabiyotlari ham kirib keldi. Bu adabiyotlarning barchasi sanskrit yozuvida yozilgan bo'lib, ularni o'qish, o'rganish, tarjima qilish va ularga transkripsiya berish jarayonida xitoy tilshunoslari bir iyeroglif bir bo'g'indan iborat ekanligi va bo'g'inning tovush tuzilishini tushunib yetdilar. Xitoy olimlari va din arboblari sanskrit yozuviga iyerogliflar orqali transkripsiya berish usulini amalga oshirgan edilar.

Ikkinchi sabab, III asrning oxiri va IV asr boshlarida Xitoy adabiyotida she'riyat sohasining tub negizi bo'lgan ohang va qofiyaning nazariyasini ishlab chiqish vazifasi olimlarning oldiga ko'ndalang qo'yilgan edi. Bu esa so'zlarning tovush tuzilish tarkibi va undagi ohanglarni o'rganishni talab qilardi. Natijada olimlar iyerogliflar to'rt ohang asosida talaffuz qilinishini ishlab chiqishdi: birinchi ohang, ikkinchi ohang, uchinchi ohang va to'rtinchi ohang.

Keyinchalik milodning IV-V asrlariga kelib, bo'g'in ikki tovush tizimiga bo'linishini mukammal ravishda kashf qildilar, ya'ni shenmu (声母) va yunmu(韵母).

Bu shundan iboratki, bir iyeroglif bir bo'g'indan iborat bo'lsa, bir bo'g'in esa ikki fonetik birlik shenmu va yunmuga ega bo'ladi.

Shenmu bu bo'g'in boshida keluvchi undosh tovush, yunmu esa bo'g'inning shenmudan keyin keluvchi tovushidir. Yunmular unli va undosh harflardan iborat. Masalan, suan 酸 so'zida "s" bu shenmu, "uan" esa yunmudir. Hua 花 so'zida esa "h" shenmu bo'lib, "ua" yunmudir. Ba'zi bo'g'inlarda shenmu bo'lmaydi, bunday bo'g'inlarning shenmusi "nol" deb ataladi. Masalan, "an", "en" bo'g'inlari. Yunmular o'zida nafaqat tovushni ifoda etadi, balki ular ohangni ham aks ettiradi. Bo'g'in tarkibiy jihatdan shenmu, yunmu va ohangdan tashkil topgan bo'ladi. Keyinchalik g'arb olimlari xitoy olimlarining bunday kashfiyotlari bilan tanishgandan so'ng, bu ikki atamaning birinchisiga, ya'ni shenmuga "inisial", yunmuga esa "final" deb nom berdilar. O'zbek tiliga tarjima qilsak, "inisial" – boshlang'ich tovush, "final" - so'nggi tovush ma'nolarini beradi.

Shu davrda, ya'ni milodning II-V asrlarida iyerogliflarga talaffuz berishning yangi usuli kashf qilindi va amalda qo'llana boshlandi. Bu usul "Fanchie" (反切), ya'ni "iyerogliflarni kesib biriktirish" usulidir.

"Fanchie"(反切) usuli bu "kesib biriktirish" usuli bo'lib, bu usulda bir iyeroglifning talaffuzi boshqa ikki iyeroglifning talaffuzi orqali beriladi. Ulardan birinchisi shu iyeroglifning shenmusini bergan, ikkinchi iyeroglif esa uning yunmusi hamda ohangini bergan. Masalan, 东 -(dong) so'zining talaffuzini berish uchun 都(dou) va 宗(zong) iyerogliflaridan foydalanganlar, ya'ni "都"iyeroglifi uning shenmusi "d ni, "宗" iyeroglifi esa uning yunmusi hamda ohangi "ong"ni ifodalagan (d+ ong = dong).

O'rta asr lug'atshunosligi, adabiyoti hamda fonologiyasi haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor, V asrda yaratilgan "To'rt ohang notasi 四声谱" kitobi haqida gapirib o'tishimiz lozim. Uning muallifi Shen Yue (沈约) madaniyat va san'at



sohasida yirik mutaffakir bo'lib, birinchi bo'lib xitoy tilining musiqiy ohangi borligini, ya'ni har bir xitoy bo'g'ini to'rtta ohang qofiyaga tushishini aniqlagan va isbotlab bergan.

Shu bilan birga, u bu ohanglarga belgi va nom bergan. Lekin bizda, olimning ohanglarni qanday belgilar asosida ifodalagani haqida ma'lumotlar yo'q. Biz faqatgina bu ohanglarni qanday nomlaganini bilamiz, xolos. U ohanglarni quyidagicha nomlagan: "pin sheng", "shang sheng", "chu sheng" va "ru sheng".

Talaffuzi bir xil bo'lgan, ammo har xil ma'no anglatadigan so'zlarni tinglaganda, ularni faqat ohang orqali ajratiladi. Masalan, "u" (惡) deb talaffuz qilinadigan so'z birinchi ohangda "qanday, qanday qilib" ma'nolarini bildiradi, to'rtinchi ohangda esa "qabih, iflos" ma'nolarini beradi. "ay" (埃) so'zi birinchi ohangda "yonida, yaqinida" ma'nolarini bersa, ikkinchi ohangda u "yo'liqmoq, duchor bo'lmoq" ma'nosini beradi.

Ko'rinib turibdiki, ikkita iyeroglif ham ikki ma'noga ega bo'lib, ularning ma'nolarini faqatgina ohang asosida farqlash mumkin.

Demak, bundan xitoy tilida so'zlarni farqlashda ohang masalasi muhim ahamiyat kasb etadi degan to'xtamga kelinadi.

Yuqorida zikr etilgan "To'rt ohang notasi" kitobi keyinchalik xitoyda ohang qofiyaga solingan lug'atlarning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Va bundan keyingi yaratilgan, iyerogliflar transkripsiyasi berilgan lug'atlarning barchasida ularning ohangi ham ko'rsatiladigan bo'ldi.

Quyida biz o'rta asr xitoytilshunosligida yaratilgan va bugungi kunga qadar qimmatli bo'lib qolayotgan ham iyerogliflarning transkripsiyasi, ham ohangi berilgan lug'atlardan ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ular quyidagi lug'atlardir:

- 1) Chieyun (切韵);
- 2) "Tang yun" (唐韵);
- 3) "Guang yun" (广韵);
- 4) "Jiyun" (集韵);
- 5) "Jungyuan inyun" (中原音韵).

## Xitoy tilshunosligida fanchie usulida yozib qoldirilgan lug'atlar

### “Chie yun”(切韵) lug'ati

Ulardan eng birinchisi “Chie yun” (切韵) lug'atidir. Bu lug'atning muallifi Suy sulolasi hukumatining marosimlar o'tkazish ishlari vazirligida yirik amaldor bo'lgan Lu Fayan (陆法眼)dir. “Chie yun”ni o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, u “talaffuzi berilgan xitoy iyerogliflari lug'ati” degan ma'noni anglatadi. Bu lug'at besh bobdan iborat bo'lib, uning asl nusxasi yo'qolgan, hozirgi vaqtda ishlatilayotgan “Chie yun” lug'ati XX asrning birinchi yarmida Tang sulolasi davrida chop etilgan “Chie yun”ning qayta bosilib chiqqan nusxasi hisoblanadi.

### “Tang yun”(唐韵) lug'ati

“Tang yun” (唐韵) lug'ati – “Tang sulolasi davrida tuzilgan ohangi va talaffuzi berilgan lug'at” degan ma'noni anglatadi. Ushbu lug'atning muallifi o'z davrining fonologiya sohasidagi yirik olimi Sun Myan (孙免) bo'lgan. Olimlar xulosasiga ko'ra, bu lug'at “Chie yun” lug'ati asosida tuzilgan bo'lib, ularning tuzilish tuzilmasi bir xildir. “Tang yun” lug'atining asl va keyinchalik chop etilgan to'liq nusxalari bizgacha yetib kelmagan.

### “Guang yun”(广韵) lug'ati

Ushbu lug'at Sung imperiyasi hukumatining maxsus qaroriga binoan 1008-yilda yozilgan va chop etilgan bo'lib, uning to'liq nomi “Dasung chung siyu guang yun” (大宋重修广韵) bo'lib, “Buyuk Sung imperiyasining qaytadan tahrir qilingan ohang va talaffuzi berilgan lugat” deganidir. Bu lug'atning “qayta tahrir qilingan” jumlasini shuni anglatadiki, “Guang yun” lug'ati “Tang yun” lug'ati negizida yaratilgan, ya'ni “Tang yun”

lugʻatini qayta koʻrib, xatolarini tuzatib, uni yangi soʻzlar bilan toʻldirganlar. “Guang yun” lugʻati besh bobdan iborat boʻlib, bu lugʻatda 26194 ta iyerogliflarning izohi, ohangi va transkripsiyasi aniq koʻrsatib berilgan. Bu lugʻat shu davrgacha yozilgan “iyeroglif lugʻatlari” orasida eng koʻp belgilarni oʻz ichiga olgan. Shuning uchun bu lugʻatni hozirgi olimlarimiz nafaqat xitoy fonologiyasidagi, hattoki iyeroglifshunoslikda ham eng katta yutuq deb hisoblashadi. Bu kitobning asl nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Mashhur xitoy tilshunos olimi Vang Li(王力) “Xitoy fonologiyasi” (汉语音韵学) kitobida, Guang yun lugʻatida Fanchie usuli boʻyicha iyerogliflarga tallaffuz berishning ikkita qoidasi koʻrsatilganligini aytib oʻtadi, ular quyidagilar:

1. Kesilayotgan birinchi iyeroglif bilan talaffuzi hosil qilinayotgan iyeroglif shenmusi bir xil boʻlishi lozim, hattoki shovqin va ovoznining ishtirokiga, jarangli va jarangsizligiga koʻra ham bir xil boʻlishi shart. Masalan, 东 (doʻng - dong) iyeroglifining transkripsiyasini 德 (de-de) va 红 (xoʻng-hong) iyerogliflarini kesib, shenmu va yunmularini birlashtirish orqali hosil qilar ekanmiz, hosil qilinayotgan 东 -doʻng iyeroglifi bilan kesilayotgan birinchi iyeroglif 德 -de ning shenmulari d hisoblanadi. 东 (dong) va 德 (de)lar shenmularining talaffuz holatlari bir xil boʻlib, jarangsiz tovushlardir. Bu esa ushbu qoidamizga toʻliq mos tushadi.

2. Kesilayotgan ikkinchi iyeroglif bilan hosil qilinayotgan iyeroglif yunmusi oʻxshash boʻlishi kerak, hattoki yunmularning talaffuz qilish holatlari ham mutanosib boʻlishi lozim.

Masalan, 知(zhi) iyeroglifining transkripsiyasi, 陟 (zhi) va 离 (li) iyerogliflarini kesib birlashtirish orqali hosil qilinadi. 离 (li) va 知 (zhi) iyerogliflarining yunmusi “i” ochiq yunmu hisoblanadi.



### **“Jiyun” (集韵) lug‘ati**

“Jiyun” (集韵) lug‘ati ham Sun imperiyasi hukumatining maxsus qaroriga binoan yaratilgan. Lug‘at 1037-39-yilgacha yozib bitirilgan va chop etilgan. Lug‘atni tuzish guruhiga Ding Du (丁度) va Li Jao (李赵)lar rahbarlik qilganlar. “Jiyun” lug‘ati “Guang yun” lug‘ati asosida tuzilgan bo‘lib, unda 53500 tadan ko‘proq iyeroglif jamlangan. Bu lug‘atda iyerogliflar soni ko‘payishining sababi “Guang yun” lug‘atiga kiritilmagan qadimiy iyerogliflar ham “Jiyun” lug‘atiga jamlangan. Shuning uchun ham bu lug‘atga “Jiyun”, ya‘ni “iyerogliflarning ohang va talaffuzi to‘plami” deb nomlashgan. Bu lug‘at 10 bobdan tashkil topgan bo‘lib, xitoy tilshunoslarining fonologiya va iyeroglifshunoslikda qo‘lga kiritgan ulkan yutuqlaridir.

### **“Jungyuan inyun”(中原音韵) lug‘ati**

“Jungyuan inyun (中原音韵) lug‘atini o‘z davrining taniqli dramaturgi Jou Dechiig 周德清 tuzgan. Bu lug‘at dramaturgiyada qo‘yiladigan pesalar hamda qo‘shiqlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida tuzilgan. Ushbu lug‘at ikki qismga bo‘lingan: birinchi qismda odatda, ko‘p ishlatiladigan 5866 ta iyeroglifning talaffuzi berilgan. Ikkinchi qism nazariy bo‘lib, bu qismda iyeroglif talaffuzlarining har xil muammolariga to‘xtalib o‘tilgan. Bu lug‘at nafaqat dramaturgiyada ishlatiladigan so‘zlarning to‘g‘ri talaffuziga mo‘ljallangan, balki iyerogliflarning ohang va talaffuzi shimoliy shevaga asoslanganligi uchun ham u bebaho lug‘atdir. Bu lug‘atning tarjimai “shimoliy xitoy tilining ohang va tovushlari” deganidir. Bu kitob 1324-yilda nashrdan chiqqan.

Yuqorida izohlab o‘tilgan lug‘at va kitoblarni iyerogliflarga tovush berish, ya‘ni transkripsiya bergan adabiyotlar deb atashdi. Bu adabiyotlar shu davrda she‘r va dostonlarni o‘qishda hamda ularning talaffuz me‘yorini belgilashda keng qo‘llanilgan.

O'rta asrlarda yaratilgan bu kitob va lug'atlar nafaqat xitoy fonologiyasida, balki umuman xitoy tilshunosligida ham bebahodir. Bu lug'at va kitoblar o'rta asrlarda xitoy tilshunosligining nechog'lik rivojlanganligini va taraqqiy etganligini isbotlab beradi. Fonologiya, umuman tilshunoslik shakllanishi va rivojlanishi bilan iyerogliflar yozilishi va talaffuzida ham ma'lum bir o'zgarishlar sodir bo'lgan. Biz ana shu o'zgarishlarni faqatgina o'rta asrlar manbalariga murojaat qilibgina bilishimiz mumkin.

### **Fanchie usulining ijobiy va salbiy tomonlari**

Fanchie usulida ba'zi bir kamchiliklar bo'lsa-da, lekin talaffuz berish bo'yicha aniq ekanligiga hech qanday shubha bo'lmagan. Ammo, Fanchie usuli ma'lum bir davr tilshunosligi uchun mo'ljallangan bo'lib, tilshunoslikda o'zgarishlar va rivojlanishlar bo'lishi natijasida fanchie usulining kamchiliklari yaqqol sezila boshladi. Fanchie usulida qanday kamchiliklar bor edi va bu usuldan nima sababdan bugungi kunimizgacha foydalanilmadi, degan savol paydo bo'lishi aniq.

Ma'lumki, xitoy tilida har bir iyeroglif shenmu va yunmulardan tashkil topgan, ya'ni bir xil talaffuz qilinib, har xil yozilib, har xil ma'no anglatadigan iyerogliflar son - sanoqsizdir. Fanchie usulida bu iyerogliflardan xohlaganini tanlab foydalanish mumkin edi. Ming yillardan beri bizgacha yetib kelgan barcha kitob va lug'atlarga fanchie usulidan foydalangan holda talaffuz berilgan. Lekin Fanchie usulida ishlatilgan iyerogliflarning miqdori belgilanmagan edi, shuning uchun har bir kishi o'zining talaffuz qilish qobiliyatiga qarab, iyeroglif tanlab talaffuz qilardi. Bir standart talaffuz qilish qoidasi, me'yori yo'q edi. Quyidagi misollardan Fanchie usulida qanday fonetik kamchiliklar bo'lganini ko'rishimiz mumkin: a) kesilayotgan iyeroglif hamda hosil bo'lgan iyerogliflarning talaffuz qilinishidagi, ya'ni yunmularni talaffuz qilishdagi



dalillar. Masalan, “郎” (lang) iyeroglifi 鲁(lu) hamda 当(dang) iyerogliflarini kesib, yunmu va shenmularini biriktirish natijasida hosil bo‘ladi.

Bu yerda “ang” ochiq yunmu, “u” esa yopiq yunmu. Ushbu misolimizda kesilayotgan iyeroglif bilan hosil bo‘layotgan iyeroglif yunmularining talaffuz qilinish holati bir-biridan farqlanadi.

Fanchie usuli bo‘yicha birinchi iyeroglif, hosil qilinayotgan iyeroglif talaffuzining shenmusini bergan, kesilayotgan birinchi iyeroglifning yunmusi hamda ohangi tashlab yuborilgan. Birinchi iyeroglifning yunmusi bilan hosil bo‘lgan iyeroglif yunmusi o‘xshash bo‘lmasligi mumkindir, lekin bu albatta, fonetik talaffuzga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. 鲁-(lu) iyeroglifining yunmusi “u” yopiq yunmudir, 当 (dang) iyeroglifining yunmusi “ang” esa ochiq yunmu. Bu ikki tovushni talaffuz qilishda nutq a‘zolarimiz turli holatda bo‘ladi va “lu” tovushidan “ang” tovushini talaffuz qilishga o‘tish qiyindir. Shuning uchun bu tovushlarni qo‘shib o‘qiyotganimizda o‘qish tezligini bir necha marotaba oshirish kerak bo‘ladi. Buning natijasida “lu” tovushi “le”ga aylanadi va ochiq yunmu hosil bo‘ladi. Shundagina “le” tovushi “ang” bilan hech bir to‘siqsiz birlashadi. Agar kesilayotgan iyeroglif hamda hosil bo‘lgan iyeroglif yunmularining talaffuz qilinish holati o‘xshash bo‘lsa, u holda biz talaffuz qilishda hech qanday muammoga duch kelmagan bo‘lar edik.

Min va Chin sulolalari davri tilshunoslari Fanchie usulidagi ushbu muammolarga o‘z e‘tiborlarini qaratganlar va Chin sulolasi davrida yashab ijod etgan fonolog olim Li Guangdi (李光地) fonetikaga oid bir kitob yaratadi. Uning bu kitobi “uun shanwei” “音韵阐微”(fonetikadagi nozik masalalarga izohlar) deb nomlanib, ushbu kitobida u birinchi kesilayotgan iyeroglif hamda hosil bo‘lgan iyerogliflarning yunmulari talaffuz qilinish holatiga ko‘ra farqlanadigan iyerogliflarni, talaffuz qilinish holati



bir xil bo'lgan iyerogliflar bilan almashtirib chiqdi. Va bu bilan Fanchie usulida yana ham qulay va aniqroq talaffuz qilish imkoniyatini yaratib berdi. Masalan, “郎” (lang) iyeroglifini “勒” (le) hamda 昂(ang) iyerogliflarini kesib biriktirish natijasida hosil qilgan. Bu yerda ang ochiq yunmu, ye ham ochiq yunmu va bu tovushlarni talaffuz qilganimizda nutq a'zolarimiz bir xil holatda bo'ladi. Shuning uchun “le” tovushi bilan “ang” tovushini qo'shib o'qiganimizda hech bir muammoga duch kelmaymiz.

b) kesilayotgan birinchi iyeroglifning undosh harfli yunmusi borligi muammosi. Masalan, “沸” (fei), 味(wei) iyeroglifning talaffuzini hosil qilish uchun biz “方” (fang) iyerogliflaridan foydalanamiz. Misolimizdan ko'rinib turibdiki, birinchi iyeroglifimizning yunmu oxiri “ng” undosh tovushidan tashkil topgan. Ushbu “ng” tovushi birinchi iyeroglif shenmusi bilan ikkinchi iyeroglif yunmusi birlashishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Agar birinchi iyeroglif yunmusi “n” va “ng” tovushlari bilan tugamagan bo'lsa, u holda hech qanday muammo kelib chiqmaydi.

c) ikkinchi iyeroglifning shenmusi natijasida kelib chiqqan muammo. Masalan, “嫂” (sao) iyeroglifi “苏”(su) va 老(lao) iyerogliflarini kesib biriktirish natijasida hosil bo'ladi. Misolimizdan ko'rinib turibdiki, kesilayotgan ikkinchi iyeroglifning shenmusi “l”dir. Fanchie usuliga binoan esa, ikkinchi iyeroglifdan faqat yunmu olinadi. Bu holda ikkinchi iyeroglifning shenmusi o'rtada joylashganligi sababli bu albatta, birinchi iyeroglifning shenmusi bilan ikkinchi iyeroglifning yunmusi birlashishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki iyeroglifni talaffuz qilganimizda ikkinchi iyeroglifning shenmusi kuchsiz talaffuz qilinadi va birinchi iyeroglifning shenmusi ikkinchi iyeroglifning shenmusi o'rniga o'tadi, ya'ni “l” tovushi reduksiyalanib “s”ga moyillashadi. Agar ikkinchi iyeroglifning

shenmusi “nol” bo‘lsa, u holda yuqoridagi muammolar kelib chiqmaydi hamda talaffuz qilish osonlashadi.

Tilshunos olim Chen Li(陈澧) o‘zining 切韵考(Chie yunni o‘rganish) kitobining 6-jildida ikki iyeroglifni birlashtirib bir tovush hosil qilish g‘oyasini ilgari suradi. Bu shundan iboratki, birinchi iyeroglifda undosh harfli yunmu bo‘lmaydi, ikkinchi iyeroglifda esa albatta, shenmusi “nol” bo‘lgan iyeroglif qo‘llaniladi. Misol qilib quyidagi iyerogliflarni keltirishimiz mumkin: undosh harfli yunmusi bo‘lmagan iyerogliflar: 基(ji), 鱼(uu), 歌(ge), 麻(ta) va h.k. Shenmusi “nol” bo‘lgan iyerogliflar: 昂(ang), 恩(yen), 按(ap), 爱(ai). Shundagina ikki iyeroglifni hech bir muammosiz birlashtirib o‘qish mumkin bo‘ladi. Ammo xitoy tilida undosh harfli yunmusi bo‘lmagan hamda shenmusi “nol” bo‘lgan iyerogliflar soni ko‘p emasdir. Chen Lining qarashlariga asoslanib Guang yun lug‘atida shenmularni ifodalagan iyerogliflar 40 ta (ba‘zi olimlar 41 ta yoki 47 ta, yana, shuningdek, 51 ta deb ham ko‘rsatadi), yunmular sifatida foydalanilgan iyerogliflar esa 206 ta bo‘lganligini ta’kidlaydi.

“Guang yun” lug‘atida Fanchie usuli bo‘yicha birinchi iyeroglif sifatida qo‘llanadigan iyerogliflar soni 452 ta, ikkinchi iyeroglif sifatida qo‘llanadigan iyerogliflar soni esa 1139 ta deb belgilangan. Hammasi bo‘lib, Fanchieda qo‘llanadigan iyerogliflar miqdori 1500 ta ekani ko‘rsatilgan.

Har bir boshqa iyerogliflar talaffuzi berilgan lug‘atlarda Fanchieda qo‘llaniladigan iyerogliflar miqdori bir-biridan ko‘p bo‘lgan. Asosiy sababi esa iyerogliflar bir tizim bo‘yicha emas, balki tarqoq holda ishlatilgan.

Fanchie usulida iyerogliflarni qo‘llashning ba‘zi qoidalari mavjud bo‘lib, ana shu barcha qonun-qoidalarini mukammal o‘zlashtirib olib va ularga amal qilibgina, iyerogliflarni talaffuzini hech bir qiyinchiliksiz aniq va to‘g‘ri hosil qilish mumkin.



### Fanchiening bugungi o'qilishidagi muammolar

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Fanchie usulida ba'zi bir kamchiliklar bo'lsa ham, lekin talaffuz berish aniqligida hech qanday shubha bo'lmagan. Ammo fanchie usuli ta'kidlanganidek, ma'lum bir davr tilshunosligi uchun mo'ljallangan edi, tilshunoslikda o'zgarishlar va rivojlanishlar bo'lishi bilan birga, fanchie usulining kamchiliklari sezila boshlandi. Masalan, "Chie yun" lug'ati yaratilishidan oldin lab-lab(b,p,m) va lab-tish(f) tovushlari farqlanmas edi, shuning uchun "Chie yun" lug'atida 俾(bi) iyeroglifining talaffuzi 府(fu) va 移(yi) iyerogliflarini kesib birlashtirish orqali yasalgan. Chunki shu davrda 府(fu) iyeroglifining shenmusi "f"- "b" deb talaffuz qilingan. Aslida esa, u "f" deb o'qilishi kerak. Sun sulolasi davriga kelibgina, "b" va "f" harflarining talaffuzlari farqlana boshladi, ya'ni lab-lab va lab-tish tovushlari farqlandi. Shuning uchun 俾(bi) va 府(fu) iyerogliflarining talaffuz holatlarida farqlar sezila bordi va 俾(bi) iyeroglifining talaffuzi 府(fu) va 移(yi) iyerogliflarini kesib, shenmu va yunmularini birlashtirish orqali hosil qilinmaydigan bo'ldi. Sun sulolasi davrida yashagan olimlar fonetikadagi bunday o'zgarishlarni tushunmas edi, shuning uchun bu holatni ular 类隔(Leyge-leige) deb atashdi. Ley ge bu fanchie usuli bo'yicha iyerogliflarga transkripsiya berishning qorishma shakli (ko'rinishi)dir, ya'ni qadimda talaffuz jihatidan shenmular jarangli va jarangsiz, sirg'aluvchi va portlovchiga bo'linishini farqlamaganliklari sababli ba'zi shenmularni boshqa shenmular bilan almashtirib qo'llashgan. Masalan, shenmusi jarangli bo'lgan iyeroglifga shenmusi jarangsiz bo'lgan iyeroglifdan foydalangan holda transkripsiya berishgan. Natijada esa iyerogliflar talaffuzida xatoliklar kelib chiqqan. Bunga yuqoridagi misollar dalil bo'la oladi.

Fanchie lug'ati yaratilgandan to bugungi kunga qadar xitoy tili fonetikasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Lekin Fanchie usulida qo'llanilgan iyerogliflarning talaffuzi lug'atlarda 1500 yildan beri o'zgarmasdan kelgan. Shuning uchun zamonaviy



Pekin shevasi asosida ularning talaffuzini tiklash qiyin ishdir. Ayrim iyerogliflarni zamonaviy Pekin shevasiga o'girish mumkin. Masalan:

忙 iyeroglifining talaffuzi 莫(o) va 郎(l) ang iyerogliflarini kesib, ularning shenmu va yunmularini kesib birlashtirish orqali hosil qilingan, ya'ni mang(mang) hosil bo'lmoqda. Bu hozirgi Pekin shevasi talaffuz me'yoriga butunlay to'g'ri keladi.

A) Kesib birlashtirish natijasida hosil bo'lgan iyeroglif talaffuz tizimi, Pekin shevasida mavjud bo'lgan fonetik tizim bilan mos kelmaydi. Masalan:

1) 鸡 iyeroglifining talaffuzi 古 g(u) va 奚(x) iyerogliflarini kesib birlashtirish natijasida hosil qilingan, ammo "ji" tovushi o'rniga "gi" tovushi hosil bo'lmoqda.

B) Fanchie usuli bo'yicha kesib hosil qilingan tovush bilan kesilayotgan iyeroglif shenmusi, yunmusi va ohangi Pekin shevasi fonetik tizimiga mos kelmaydi. Masalan: 1) 宝-(bao) iyeroglifi Pekin shevasida "ao" deb uchinchi ohangda o'qiladi. Lekin fanchie usuli bo'yicha ushbu iyeroglif transkripsiyasini 博 b(o) va 抱(b)ao iyerogliflarini kesib birlashtirish orqali hosil qilganlar, natijada uchinchi ohangdagi "bao" tovushi o'rniga to'rtinchi ohangdagi "bao" hosil bo'lmoqda.

Ushbu misolga izoh berib o'tilsa, 宝(bao) iyeroglifining talaffuzi 博(bo) va 抱(bao) iyerogliflarini kesib birlashtirish orqali hosil qilingan. Lekin 抱(bao)ning shenmusi "b" jarangli tovush bo'lgani uchun uning ohangi uchinchi ohangdan to'rtinchi ohangga aylanadi. Pekin shevasida esa 宝 (bao)ning ohangi o'zgarmaydi. Bu esa ohangi o'zgargan iyeroglif bilan ohangi o'zgarmagan iyeroglif talaffuzini berish mumkin emasligini va noto'g'ri ekanligini anglatadi.

C) Hosil bo'lgan iyeroglifning ikki yoki undan ortiq o'qilishi mavjudligi sababli ham ba'zi muammolar kelib chiqqan. Masalan, 药钥跃约 iyerogliflari ham "uao", ham "uie" deb o'qiladi.

Qadimda, fanchie usuli kashf qilingan ilk davrlarda, kesilayotgan birinchi iyeroglif bilan hosil bo'lgan iyeroglif shenmusi ham, kesilayotgan ikkinchi iyeroglif bilan hosil bo'lgan iyeroglif yunmusi ham o'xshash bo'lgan. Ammo keyinchalik kesilayotgan birinchi va ikkinchi iyerogliflar bilan hosil bo'lgan iyerogliflar fonetika rivojlanishi bilan o'zgarishga uchragan. Agar bu uch iyerogliflarning o'zgarishi bir vaqtda va bir-biriga o'zaro mos ravishda sodir bo'lgan bo'lsa, u holda u iyerogliflarni kesib, shenmu va yunmularini birlashtirib, iyeroglif transkripsiyasini hosil qilish mumkin bo'lgan. Agar bu uch iyeroglifdan birining o'zgarishi boshqalari bilan bir vaqtda va o'zaro mos ravishda sodir bo'lmagan bo'lsa, u holda talaffuzda noaniqliklar kelib chiqqan. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan “鸡ji” iyeroglifining talaffuzi “古” g(u) va 奚(x)i iyerogliflarini kesib birlashtirish natijasida hosil bo'lishi kerak. Ammo “ji” tovushi o'rniga “gi” tovushi hosil bo'lgan.

Chunki, qadimda “鸡” iyeroglifining shenmusi nafassiz til orqa portlovchi g(k) tovushi bo'lgan. Qadimgi davrdagi til orqa tovushi evolyutsiya (o'zgarish, rivojlanish) natijasida hozirgi Pekin shevasida “i” va “u” yunmulari bilan birlashishi natijasida yumshaydi va “g” tovushi “j”ga aylanadi. “鸡” iyeroglifining talaffuzini shu qoida asosida chiqaradigan bo'lsak, u holda uning talaffuzi hozirgi Pekin shevasi bilan butunlay mos tushadi. Ya'ni “鸡” iyeroglifining talaffuzi “古”g(u) va 奚(x)i iyerogliflarini kesib birlashtirish orqali hosil qilingan. Bu esa hozirgi Pekin shevasi talaffuzi me'yorlari bilan umuman to'g'ri kelmaydi. Agar “鸡ji” iyeroglifining talaffuzini yuqoridagi qoida asosida amalga oshiradigan bo'lsak, unda “gi” tovushi “ji” tovushiga aylanadi. Bu degani “g” shenmusi “i” yunmusi bilan birlashishi natijasida “ji” tovushi hosil bo'ladi.

Bu fonologiyadagi bir qoida edi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'zgarish sodir bo'lmagan birinchi iyeroglif shenmusi bilan o'zgarishga uchragan hosil qilinayotgan iyeroglif talaffuzi berilmaydi.

Yana bir misol, 包 (bao) iyeroglifining transkripsiyasini berish uchun 布 (bu) va 交 (jiao) iyerogliflarini kesib, shenmu va yunmulari birlashtirilgan. Qadimda 包 (bao) va 交 (jiao) iyerogliflarining yunmulari bir xil, ya'ni "ao" yunmusi bo'lgan. "j" shenmusidan so'ng "i" yunmusi bo'lmagan. 交 (jiao) iyeroglifining shenmusi "j" til orqa tovushidir, rivojlanish natijasida "j" shenmusi va "ao" yunmusi orasida "i" tovushi paydo bo'lgan, natijada esa "ao" ochiq yunmusi "iao" cho'ziq yunmuga aylangan. Shuning uchun 包 va 交 iyerogliflarining yunmulari farqlandi va 包 (bao) iyeroglifining talaffuzini berish uchun 交 (jiao) iyeroglifining yunmusidan foydalanish xato bo'ldi.

Qadimgi iyerogliflarning bugungi kun o'qilishidagi o'zgarishlari, yuqoridagi misollar bilan chegaralanib qolmaydi, bunday misollar juda ko'p. Yuqoridagi misollardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

**Birinchi**dan, fonologiyadagi rivojlanishlar natijasida talaffuzi hosil qilingan iyeroglif, shenmu va yunmulari olingan birinchi va ikkinchi iyerogliflar talaffuzida o'zgarishlar paydo bo'lgan, ammo bunday o'zgarishlar bir vaqtda va bir-biriga mos ravishda sodir bo'lmagan. Masalan, yunmusi olinayotgan ikkinchi iyeroglifda o'zgarish sodir bo'lganda, transkripsiyasi hosil qilinayotgan iyeroglif hech qanday o'zgarishga uchramagan, yoki ikkisida ham o'zgarish sodir bo'lgan-u, lekin bir vaqtda va o'zaro mos ravishda emas.

Bunday o'zgarishlar ko'pincha iyerogliflarni to'g'ri kesib, shenmu va yunmularini to'g'ri biriktirishga to'sqinlik qilgan va ba'zi noaniqliklar kelib chiqqan. Shuning uchun vaqt o'tishi bilan fanchie usuli asosida iyerogliflarga talaffuz berish qiyinlashib borgan.

**Ikkinchi**dan, fonetikadagi o'zgarishlar natijasida shenmu, yunmu va ohang bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan.

**Uchinchi**dan, fonetikada o'zgarishlar tizimli (tartibli) va ma'lum qoidalar asosida yuzaga kelgan. Lekin fonetikadagi



qoidalarga bo'ysunmaydigan kam miqdordagi iyerogliflar ham bor. Masalan, 盟(meng) iyeroglifining talaffuzi 莫m(o) va 兵(b) ning iyerogliflarini kesib, shenmu va yunmularini biriktirish orqali yasalgan. Bu misoldagi iyeroglif talaffuzining o'zgarish usuli o'xshash, lekin o'qilishi har xil. Bu kabi mustasnoqliklarni izohlash juda qiyindir.

Fanchiening bugungi o'qilishida paydo bo'lgan muammolar fonetikadagi o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan. Biz faqatgina qadimgi davrdan to bugungi kungacha fonetikada paydo bo'lgan qoidalarni va sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'rganibgina fanchiening zamonaviy o'qilishidagi muammolarni bartaraf etishimiz mumkin. Quyida biz, fonetikadagi o'zgarishlar qay tarzda fanchiening bugungi kun o'qilishiga ta'sir ko'rsatganligini misollar orqali tahlil qilamiz:

1) *Jarangli tovushlar jarangsizlashadi.* Zamonaviy Pekin shevasida faqatgina 4 ta jarangli tovush bordir, bular m, n, l, va r. Qadimgi xitoy tilidagi barcha jarangli tovushlar fonetikadagi rivojlanish va o'zgarishlar natijasida jarangsiz tovushga aylangan.

Bu o'zgarishlar quyidagi qoida asosida amalga oshgan: barcha jarangli tovushlar portlovchi va portlovchi-sirg'aluvchi tovushlardir. Birinchidan, shenmusi jarangli bo'lgan iyeroglif bilan birinchi ohangli yunmu birlashganda hosil bo'lgan iyeroglif shenmusi nafasli jarangsiz tovushga aylanadi. Bundan tashqari, yana shenmusi jarangli bo'lgan iyeroglif bilan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi ohangli yunmu birlashganda hosil bo'lgan iyeroglif shenmusi nafassiz jarangsiz tovushga aylanadi. Agar barcha jarangli tovushlar sirg'aluvchi bo'lsa, u holda mos ravishda jarangsiz tovushga aylanadi.

Fanchie usuli qo'llanilishdan umuman chiqib qoldi deb aytolmaymiz, chunki bu usuldan juda kam hollarda bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar ham foydalaniladi.

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. Eramizning ikkinchi asriga qadar mavjud bo'lgan transkripsiya usullari haqida qisqacha ma'lumot bering.
2. Transkripsiya berishning fanqie usuli.
3. Xitoy tikshunosligida fanqie usulida yozib qoldirilgan lugatlar.
4. Fanqie usulining ijobiy va salbiy tomonlari.
5. Fanqiening bugungi o'qilishidagi muammolar.

### **Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

1. Xitoy iyerogliflariga transkripsiya berishning dastlabki usullari.
2. Eramizning ikkinchi asriga qadar mavjud bo'lgan transkripsiya usullari haqida qisqacha ma'lumot.
3. Transkripsiya berishning fanqie usuli. Fanqiening bugungi o'qilishidagi muammolar.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

1. "Bahor va kuz" solnomasi haqida ma'lumot to'plash va iyerogliflarning qaysi usulda berilganligini o'rganish
2. III-V asrlar matn xususiyatlari (tarjima).

## **TEST**

1. 谚语中有些是中国人对生活的感悟，对经验的总结。如“良药苦口利于病，忠言逆利于行”。这句话是说：好药大多是带苦味的，但却有利于治病；而教人从善的语言多数是不太动听的，但有利于人们改正缺点。这句话旨在教育人们要勇于接受批评。

答案：耳

2. 下面斜向四字“一言一行”是一个成语，请在空格中填上合适的汉字，使每一横排的四个字都能组成一个汉语成语：

一  
言

一

行

答案(供参考): 一呼百应  
自言自语  
不可一世  
量力而行

3. “三山四水十万树。”这句话中声母是“sh”的汉字有 6 个。

答案: 错误。4 个(山、水、十、树)。

4. “喻”、“丰”、“懂”三个字音的韵母是一样的, 都是“ong”。

答案: 错误。喻: ueng; 丰: eng; 懂: ong。

5. “朋”、“爬”、“福”、“普”、“破”、“批”这些字音的声母都是一样的。

答案: 错误。“福”与其他的不同(f)。

6. “华夏”的韵母相同, 都是“a”。

答案: 错误。“华”的韵母是“ua”, “夏”的韵母则是“ia”。

7. “骏 jùn”和“顺 shùn”的韵母不同。

答案: 正确。

8. 现代汉语语音系统中一共有 21 个辅音声母。

答案: 正确。

9. “夹、掐、瞎”拼作 jā、qā、xā。

答案: 错误。应是 jiā、qiā、xiā

10. 汉字中, “灬”做偏旁而构成的字, 很多跟“火”有关, 如“烈、煮、煎、蒸、热”等。

答案: 正确。

了?”



## 6 - MAVZU: XITOIY TILI TARIXIDA LUG'ATLARNING O'RNI

**Darsning o'quv maqsadi:** "Gulyang juan" va uning tahlili. "Er ya". "Fangyan", "Sho ven jie zi". "Shi ming". Xitoy lug'atlar turlari, mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lish.

**Tayanch so'z va iboralar:** "To'rt muqaddas devon" (四书) va "Besh muqaddas to'plam" (五经).

Leksikografiya tarixi mukammal va funksional lug'atlarni tuzish jarayonida shart-sharoitning, leksikografik urf-odatlarining uzluksizligining tashkil etilishini taqozo etadi. So'zlarda aks etilgan vaqt, ijtimoiy jarayonlar, o'tgan va hozirgi avlod vakillarining hayoti va turmush tarzi, umumiy qarashlari va oqimlarining barchasi lug'atlarda o'zining umumiy aksini ifodalashi kerak. Lingvistik lug'atlar orasida izohli lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Izohli lug'atlarning asosiy maqsadi alohida iyerogliflar, so'zlar va frazeologizmlarning yozilishi va talaffuzini tog'ri ko'rsatib, shuningdek, ularning ma'nosi va qo'llanilishini izohlab berishdan iboratdir. Hozirgi zamon lug'atlarida iyerogliflarning yozilishi qisqa yoki to'liq variantlarda beriladi. Ayrim lug'atlarda faqat qisqartirilgan varianti berib o'tiladi.

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos- so'z, so'zga oid va grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifalariga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

- a) ilmiy leksikografiya lug'atshunoslikning nazariy masalalari bilan shug'ullansa;
- b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1) ona tili va boshqa tillarni o'rgatishga xizmat qiladi;  
2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish vazifasini o'taydi;

3) tillararo munosabatlarni ta'minlaydi;

4) til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi;

Lug'atlar, avvalo, maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) umumiy lug'atlar;

2) maxsus lug'atlar

Umumiy lug'atlar keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'atlar esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi. Har ikkala tur lug'atlar ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:

– ensiklopedik lug'atlar;

– filologik lug'atlar.

Demak, lug'atlarni umumiy ensiklopedik lug'atlar va maxsus entseklpedik lug'atlar, umumiy filologik lug'atlar va maxsus filologik lug'atlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Lug'atlar so'zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil tuzilmaviy tadqiqotlar lug'atni tartiblashtirishda muhim tayanch omil bo'lib, leksikografiyani cheksiz nutqiy ma'nolarni tartibga keltirish, lug'atlarga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos etadi. Bunda har bir voqealangan nutqiy lug'aviy ma'noda qorishgan o'zga hodisalar tajallilarini e'tibordan soqit qilish, ushbu birlik (leksemaning)ning asl zotiga daxldor bo'lgan unurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega.

Tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug'atshunoslik shug'ullanadi. Mukammal tuzilgan lug'at va so'zliklar u yoki bu tilning boyligini

o'zida to'playdi. O'zbek tilshunosligida ham lug'atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan "Devonu-lug'atit-turk", XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlari tarixdan bizga ma'lum. Lug'atlar ikki guruhga bo'linadi: **Qomusiy lug'atlarda** mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma'lumot beriladi. "O'zbek milliy ensiklopediyasi", "Salomatlik ensiklopediyasi", "U kim, bu nima" kabi lug'atlar shular jumlasidandir.

**Lingvistik (tilshunoslik) lug'atlar** bir tilli va ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lug'atlarga imlo lug'ati (so'zlarni to'g'ri yozishga yordam beradi), chappa (ters) lug'at (so'zlar oxirgi harfi bo'yicha alifbo tartibida joylashtiriladi), orfoepik lug'at (so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi), morfem lug'at (so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratishga yordam beradi), o'zlashma so'zlar lug'ati (chet tillardan kirgan so'zlarga ta'rif beriladi), frazeologik lug'at (iboralar lug'ati), terminologik lug'at (ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalarga izoh beriladi), chastotali lug'atlar (ma'lum asarlarda so'zlarning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beradi), paronimlar lug'ati (tilda mavjud bo'lgan talaffuzdosh so'zlar haqida ma'lumot beradi).

Xususan, o'zbek tilini misol qilib oladigan bo'lsak, 1981-yilda yaratilgan "**O'zbek tilining izohli lug'ati**" ikki jildidan iboratdir. Bu lug'at so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beradi. Bunday lug'atlar ma'lum bir ijodkor asarlari bo'yicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 jildlik lug'atda 60 000 dan ortiq so'z berilgan. Ko'p tilli lug'atlarga tarjima lug'atlari kiradi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan barcha so'zlar (shu jumladan, sheva so'zlari ham yig'ilsa, 100-120 ming so'zdan oshib ketadi).

Biz o'qiyotganimizda yoki yozayotganimizda, notanish yoki tushunarsiz iyerogliflarga duch kelib qolamiz yoki ularni qanday yozilishini yodimizdan chiqarib qo'yamiz, bu holatda



lugʻat bizga yordamga keladi. Iyerogliflar koʻrsatkichida xitoy grafik tizimi ketma-ketligi boʻyicha joylashgan boʻladi (agar bu xitoy tili lugʻati boʻlsa). Ularni quyidagi qoida asosida qidirish lozim:

1) kalitlar koʻrsatkichida kerakli kalit imlo chiziqlari soni boʻyicha topiladi va qidirilayotgan iyeroglif koʻrsatkichi betiga qaraladi;

2) qidirilayotgan iyeroglif imlo chiziqlari aniqlanadi, kalit imlo chiziqlari soni hisoblanmaydi;

3) qidirilayotgan iyeroglif koʻrsatkichidan koʻrsatilgan bet topiladi va imlo chiziqlari soni boʻyicha iyeroglif topiladi hamda koʻrsatilgan betdan kerakli iyeroglif topiladi.

Lugʻat - bu nafaqat maʼlumotnoma, balki milliy madaniyatning ajralmas qismi hamdir. Zero, bir soʻzning oʻzida maishiy hayotning aksariyat jabhalari qamrab olingan boʻladi. Tilning barcha leksik jilolari lugʻatda aks etadi. Lugʻat tuzish esa bu mashaqqatli va uzoq muddatli mehnatdir. Afsuski, bir lugʻatning oʻzida u yoki bu sohaning barcha yoʻnalishlarini qamrab oluvchi, til haqidagi barcha maʼlumotlarni mujassamlashtiruvchi lugʻatlar yoʻq. Shuning uchun ham barcha milliy leksikografiyalarda biz oʻnlab, hattoki yuzlab turli soha va yoʻnalishga oid lugʻatlarni uchratishimiz mumkin.

Lugʻatlarni ikki toifaga ajratishimiz mumkin: ensiklopedik va filologik (tilshunoslik) lugʻatlari. Ensiklopedik lugʻatlarda u yoki bu holat, hodisa, tushunchaning izohi beriladi. Ensiklopedik lugʻatlar orasiga ensiklopediyalar, ilmiy maʼlumotnomalar, terminologik lugʻatlar kiradi. Lingvistik lugʻatlarda esa soʻzlarning izohi (asosiy maʼno, toʻgʻridan toʻgʻri va koʻchma maʼnolar) berilgan. Lingvistik (filologik) lugʻatlar koʻp tillik, ikki tillik va bir tillik lugʻatlarga boʻlinadi. Ikki va koʻp tillik lugʻatlar tarjimali lugʻatlar boʻlib, ularda bir soʻzning maʼnosi ikkinchi til bilan solishtirilgan holda izohlanadi (masalan, inglizcha - ruscha, ruscha - inglizcha, ruscha-inglizcha - arabcha va hokazo). Bir tillik lugʻatlarda soʻzlar shu til doirasida

izohlanadi. Bir tillik lugʻatlar kompleks (masalan, izohli lugʻatlar) va aspektiv, yaʼni u yoki bu jihatni aks ettirishi mumkin (masalan, sinonimik, soʻz yasovchi va hokazo).

Ensiklopedik lugʻatlar dunyoni aks ettiradi, tushunchalarni, mashhurlar haqida biografik maʼlumotlar berib oʻtadi, mamlakatlar va shaharlar, diqqatga sazovor voqealar haqida maʼlumot beradi.

### **Lugʻatlarning asosiy turlari:**

1. Izohli lugʻatlar;
2. Izohli lugʻatlarning bir turi sifatidagi frazeologik

lugʻatlar;

3. Sinonimik lugʻatlar;
4. Antonimlar lugʻatlari;
5. Omonimlar lugʻatlari;
6. Ortologik lugʻatlar va ularning turlari;
7. Orfografik lugʻatlar;
8. Orfoepik lugʻatlar;
9. Dialektik lugʻatlar;
10. Tarixiy lugʻatlar (leksikaning vaqtlararo izohli lugʻati);
11. Etimologik lugʻatlar (soʻzning ilk tarkibi va uning

qadimdagi mazmun-mohiyatining elementlari haqida maʼlumot beradi);

12. Chet tili soʻzlari lugʻatlari;
13. Soʻz yasalishiga oid lugʻatlar va ularning turlari.

Filologik lugʻatlar soʻzlar haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Filologik lugʻatlarning har xil turlari mavjud. Koʻpchilikka ikki tillik lugʻatlar tanish: ularni chet tilini oʻrganayotganda, bir tildan ikkinchi tilga matn tarjima qilayotib foydalanishimiz mumkin. Ayniqsa, bir tillik lugʻatlar oʻziga xosdir: soʻzning toʻgʻri yozilishi haqidagi maʼlumotlar orfografik lugʻatlarda mavjud boʻlsa, soʻzning toʻgʻri talaffuzi haqida orfoepik lugʻatlar maʼlumot beradi.

Etimologik va tarixiy lugʻatlar soʻzning kelib chiqishi, tildagi rivojlanish bosqichlari, rivojlanish yoʻlida uchragan

o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi. Grammatik lug'atlar so'zning morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rgatadi. Chet tili so'zlarining lug'atlari ham mavjud, shuningdek, terminologik, dialektik, yozuvchilar tili lug'atlari ham bor. Lug'atlar til leksikasining barcha jabhalarini emas, balki bir guruh so'zlarini izohlab kelishi mumkin: sinonimlar, antonimlar, omonimlar va paronimlar lug'atlari shular jumlasidandir.

Bu ro'yxat nisbatan qadimiyroq leksikografik an'analarga ega ikki tur lug'atlarsiz to'liq bo'lmaydi, bular izohli va ideografik lug'atlardir. Har ikkisida ham so'z ma'nosi izohlanadi. Ammo ularning farqi shundaki, izohli lug'atlarda so'zlar ketma - ketligi alifbo bo'yicha bo'lsa, ideologik lug'atlarda narsa va tushunchalarning ayrim umumiy xususiyatlariga asosan ajratilgan guruhlar ketma-ketligidan iborat (masalan, "odam", "hayvon", "harakat" va hokazo).

Lug'at tuzish - juda mashaqqatli mehnatdir. So'zning umumlingvistik o'rni, so'zning ma'nolari va ularning qo'llanilishi, grammatik va fonetik xususiyatlaridan tashqari, lug'at tuzish usullari va texnikasini bilish va lug'at tarkibini o'rganish lozim.

Bizga ma'lumki, Xan davrida yig'ilgan iyerogliflar ro'yxati o'z ichiga ularning izohini olmas edi. Alohida belgilarning ma'nolarini izohlash maktab o'qituvchilarining ishi edi. Bunday belgilar miqdorining ortishi ularning ma'nolarini ham yozilishiga ehtiyoj uyg'otdi.

Xitoyda ilk lug'atlar eramizdan avvalgi III asrga oiddir. Masalan, eng qadimgi 尔雅 "Erya" lug'ati "siz, sizning, to'g'ri, oliy savodxonlikka yetayotgan" deb tarjima qilinadi. Xitoy filologi Lyu Ye Suyning fikricha, 尔雅 "Erya" lug'atining bosh maqsadi Djou sulolasi davri (eramizdan avvalgi 206 - eramizning 220-yil)da yozilgan matnlarga izoh berishdir. 尔雅 "Erya" - bizgacha yetib kelgan izohli lug'atlarning eng qadimiysi, "Erya" (尔雅) - Xitoy tarixida ilk yaratilgan izohli



lugʻat boʻlib, u bir necha yuz yilliklar davomida koʻplab olimlar tomonidan ishlab kelingan. Taxminan mil.avv. III-II asrda yozilgan. Zamonaviy nusxasi 19 boʻlim, 4300 soʻzdan iborat. Mazkur leksikografik asarda soʻzlar tematik guruhlarga ajratib beriladi. Masalan: togʻga oid soʻzlar, samoga oid soʻzlar, suvga oid soʻzlar va h.k. “Erya” asari Tan va Sun sulolalari davriga kelib, konfutsiyshunos olimlarning 13 muqaddas kitobidan biriga aylandi. “Erya” lugʻati Xitoy xalqiga qoldirilgan bebaho madaniy boylik hisoblanadi, shuningdek, xitoy ensiklopediyasi deb ham eʼtirof etiladi. Shuning bilan birga, “Erya” lugʻatini xitoy leksikografiyasining asosi deb aytiladi. Ushbu lugʻat eramizdan avvalgi III - II asrlarda qadimgi Xitoy olimlarining jamoaviy mehnati bilan paydo boʻlgan. Boshqa variantlarda bu lugʻatlarning muallifi sifatida Konfutsiy yoki Djou Gun eʼtirof etiladi. Tsin 秦 sulolasi davrida lugʻat yoʻq qilingan, Han 汉 sulolasi davrida qayta tiklangan. Han davri boshlarida lugʻat juda mashhur edi, ayrim adabiyotlarda hatto unga sharhlar ham keltirilgan. Oʻsha davrda iyerogliflar maʼnosini izohlovchi usul va ularning joylashuv tizimi paydo boʻlgan. Iyerogliflarning maʼnosi faqatgina ularning sinonimlari yordamida tushuntiriladi. Konfutsiylikning “Oʻn uchtalik kitob”i orasidan oʻrin egallagan. Xitoy iyerogliflarini izohlashdan tashqari orfografiya va grammatika boʻyicha maʼlumotlar, ensiklopedik maʼlumotlarni ham oʻz ichiga olgan. Lugʻat tarkibidan kelib chiqib, ularning nomini “Maʼrifat sari” deb tarjima qilish mumkin.

Qadimgi matnlarda uchraydigan iyeroglifning maʼnosini izohlash “释诂” leksikani tushuntirish:<sup>1</sup>

1. “释言”i yan soʻzlar tushuntirish (qadimgi matnlarda uchraydigan feʼl va sifatlarni izohlash);

2. “释训” I Syun Glosslarni tushuntirish (soʻz birikmalari va turgʻun soʻzlar izohi);

<sup>1</sup>ГореловВ.И. Лексикология китайского языка. – М., 1984. – С. 18.

3. “释亲” I Chin Qarindoshlik tushunchalari (qarindoshlik terminlarining izohi);

4. “释宫” I Gun Uy-joy tushunchalari (binolar va ularning elementlari);

5. “释器” I Chi Kundalik - maishiy mahsulotlarga oid tushunchalar (idish tovoq, oziq - ovqat mahsulotlari, kiyim - kechak);

6. “释乐” I yue Musiqa asboblariga oid tushunchalar;

7. “释天” I Tyen Samoviy elementlarga oid tushunchalar (astronomik ob’jekt va hodisalar);

8. “释地” I Di Hududlarga oid tushunchalar (administrativ bo’linish);

9. “释丘” I Bin Tepaliklarga oid tushunchalar (tepalik va adirlar);

10. “释山” I Shan Tog’larga oid tushunchalar;

11. “释水” I Shuy Suvga oid tushunchalar;

12. “释草” I Tsao O’tlarga oid tushunchalar;

13. “释木” I Mu Daraxtlarga oid tushunchalar;

14. “释虫” I Chung Hasharotlarga oid tushunchalar;

15. “释鱼” I Yuy Baliqlarga oid tushunchalar;

16. “释鸟” I Nyao Qushlarga oid tushunchalar;

17. “释兽” I ShouYovvoyi hayvonlarga oid tushunchalar;

“释畜” I Chu Xonaki hayvonlarga oid tushunchalar.

Rus olimi Yu.V.Rojdestvenskiy 尔雅 “Erya” lug’atini oddiy lug’at deb emas, balki o’z davrining mukammal lug’atlar toifasiga kiritadi. Uning fikrini xitoy olimlari, shu bilan birga, ingliz tilshunosi S.Kuling ham ma’qulladi. Kuling 尔雅 “Erya” lug’atini uch jildga bo’ladi. Har jildda 19 toifadan iborat sohalarga izoh berib ketiladi. Bu toifalarga: qarindoshlik,

musiqa, osmon, yer, suv, o'simliklar, baliqlar, hasharotlar, daraxtlar va boshqalardir.<sup>1</sup>

尔雅“Erya” lug'ati o'zaro uyg'unlashgan ikki iyeroglifni o'qish orqali amalga oshirilgan. Bu usulda iyerogliflarni o'qish tizimi xitoy olimi Suy Yan tomonidan kiritilgan. Boshida bu o'qish usuli 反“fan” deb nomlangan, keyinchalik unga 切“qie” belgisini qo'shishgan. 反切“Fan tsie” usuli bilan iyefogliflarni transkripsiya qilish qiyin bo'lmasa-da, vaqt o'tgan sari bu muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Asosiy muammolar iyeroglifning aytilishi va transkripsiyasining farqlanib qolgani bilan izohlanadi. Albatta, 尔雅“Erya” lug'ati o'sha zamonning bor leksik boyligini o'zida mujassam etgan. Lekin vaqt o'tgan sari, xitoyliklarning so'z boyligi ham, yashash sharoiti ham o'zgara borgan. Eski qarash va eski so'zlarni zamonaviy leksika bilan uyg'unlashtirish qiyinchilik tug'dira boshladi. Fikrimizcha, qadimda ham xitoy xalqi o'z yozuvi va uning an'analarini saqlab qolishga harakati natijasida vujudga kelgan 尔雅“Erya” lug'ati o'z davrining mukammal va funksional lug'atlari toifasiga kiradi. Shu davrning o'ziga xos xususiyatlari va iyerogliflarning tuzilishi hamda asl ma'nosini yetkazib bergan lug'atlar toifasiga kiritisa bo'ladi. Shuningdek, 尔雅“Erya” lug'ati iyerogliflarning to'g'ri talaffuz qilish tizimi ishlab chiqilgan ilk lug'atdir. Keng ko'lamli so'zlar dunyosi moddiy narsalar va g'oyalar dunyosi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lum, tilning so'z boyligini tasvirlashda kitobxon yoki o'quvchining ko'z o'ngida so'z bilan ifoda etilgan ma'lum davrning moddiy madaniyati, iqtisodi, g'oyasi, fan va san'at sohasi namoyon bo'lishi zarur. Tushunchalarning o'zgarishi leksikada ham o'zgarishlarni taqozo etadi. Leksik tarkibni o'zgartirish mavjud va yangi lug'atlarni solishtirish bilan amalga oshirilish zarur. Lug'atlar tarkibiga

<sup>1</sup> Ким В.С., Фаткулин Б.Г. Словари китайского языка и современность // Вестник Челябинского государственного университета. – М., 2011. - № 21. – С.110.



kirgan soʻzlardan lugʻatning dolzarb va funkcionalligini aniqlash mumkin. Mualliflar har doim maxsus terminlar, turli neologizmlar (yangi soʻz, shu bilan birga, yangi maʼnoga ega boʻlgan eski soʻzlar)ning paydo boʻlishi ona tili leksikasining doimiy ravishda yangilanib turishini yodda saqlash lozim.

Xitoy lugʻatlari tarixida 说文解字 “*Shuowen jiezi*” lugʻati (eramizdan avvalgi 121-yilda tuzilgan) bu shartlarga javob bera olgan. 说文解字 “*Shuoven jiezi*” (oddiy iyerogliflarni izohlash va eskilarini sharhlash) lugʻatining muallifi Sharqiy Xan (er. 25-220 yillari) sulolasining mashhur olimi Suy Shen (eramizdan avvalgi 121-yilda lugʻatni uning oʻgʻli Suy Chin tugatgan)dir.

Xitoy leksikografiyasi tarixida bu lugʻat xitoy lugʻatshunosligidagi ilk toʻliq lugʻat hisoblangan, lugʻatda soʻzlar maʼnosiga qarab emas, balki belgining shakliga qarab tuzildi. Iyerogliflar “kalitlar”ga qarab turkumlarga ajratildi. Suy Shen ularni 部 “bu”deb atadi. Bu tizim esa 部首检字法 “*Bushou jianzifa*”deb nomlandi. “说文解字” “*Shuoven jiezi*” lugʻatida darajalarga ajratilgan 540 ta asosiy toifa iyerogliflari bor edi. Kalitli tizimga ega lugʻatlardan iyeroglifni oʻqilishi va maʼnosini bilmasdan turib ham topish mumkin boʻlgan. Suy Shen ilk bor iyerogliflarni 6 toifaga ajratgan:

1. 象形子 *Xiangxingzi*. Tasviriy piktogramma. Belgi rasmlar – eng qadimgi iyerogliflar sanaladi. Masalan: oy 月 “yue” va kun 日 “ri”ning uygʻunligi 明 “ming”, yaʼni, “yorugʻ” maʼnosini beradi.

2. 指事子 *Zhishizi*. Yoʻnaltiruvchi iyerogliflar narsa hodisani koʻrsatmaydi, balki uni izohlaydi. Masalan: 上 “shang”, 下 “xia”.<sup>1</sup>

3. 转住子 *Zhuanzhuzi*. Koʻrinishi oʻzgargan bu iyerogliflar turkumi mavjud iyerogliflarning koʻrinishini

<sup>1</sup>Китайско - русский словарь. – М., 2008. Т.3. – С.3.

o'zgartirish orqali unga yangi ma'no berish yo'li bilan paydo bo'ladi. Masalan: 老 "lao" (qari, hurmatli) iyeroglifining pastki qismi o'zgarganda 考 "kao" (imtihon, sinov) iyeroglifi kelib chiqadi.

4. 假借子 *Jiajiezi*. Bir xil o'qiladigan iyerogliflar turkumi bo'lib, ularni kontekst (matnning to'la ma'noni anglatuvchi bir butun qismi)ga qarab ajratish mumkin bo'ladi.

5. 会意子 *Huyizi*. Oddiy iyerogliflardan tashkil topgan murakkab iyerogliflar turkumi. Murakkab iyeroglif tarkibidagi har bir oddiy iyeroglif o'z ma'nosini saqlab qoladi. Masalan: 休 "xiu" (dam olmoq) iyeroglifi 人 "ren" (odam) va 木 "mu" (daraxt) iyerogliflaridan iborat. Bunda daraxtga suyanib turgan odam ko'rinishini aks ettiradi.

形声子 *Xingshengzi*. Tasviriy - fonetik turkum bo'lib, murakkab iyeroglifning bir qismi ma'nosini, ikkinchi qismi o'qilishini izohlab keladi. Masalan: 铜 "tong" (mis) iyeroglifi 钅 "zin" (metall) va 同 "tong" fonetik kalitlaridan iborat.

Suy Shen kiritgan bu tizim hozirgi iyerogliflar, terminlar, neologizmlarning paydo bo'lishiga ham asos bo'lib xizmat qildi. Hozirgi zamonaviy iyerogliflarning aksariyat qismi tasviriy-fonetik toifaga xosdir.<sup>1</sup> Yangi iyerogliflar ham shu toifalarga xos bo'lgan. Lekin Suy Shen tuzgan lug'atda iyerogliflarni o'qish tizimi mukammal ishlab chiqilmagan. 说文解字 "*Shuowen jiezi*" lug'atida iyerogliflarni o'qish 读若 *duruo* va 值音 *zhiyin* orqali amalga oshirilgan. Iyeroglif o'qishning ushbu usullari iyeroglifni aniq talaffuz qilish imkoniyatini bermasdi. 说文解字 "*Shuowen jiezi*" tuzilish davri Xitoy hududida kichik shohliklarga bo'linib ketgan davrga tog'ri keladi. Ularning har birida iyeroglif o'qilishining o'z usuli mavjud edi. Bu o'z navbatida, iyeroglif

<sup>1</sup>Ким В.С., Фаткуллин Б.Г. Словари китайского языка и современность // Вестник Челябинского государственного университета. – М., 2011. - № 21. – С.111.



o'qish uchun yagona usul kerakligini bildirardi. 说文解字 “*Shuowen jiezi*” buning asosi bo'lib xizmat qildi. Lekin Xitoyda o'ndan ortiq shevalar mavjud bo'lganini ham inobatga olish lozim edi. Kichik shohliklar va ma'lum sheva vakillari tomonidan bir xil tushunilsa-da, har xil o'qilardi. 说文解字 “*Shuowen jiezi*” dan keyin kalit tizimiga asoslangan bir nechta lug'atlar tuzib chiqilgan. 说文解字 “*Shuowen jiezi*” lug'ati hozirgi zamon lug'atlaridagi kalitlar tizimiga asoslanganligining ilk ko'rinishi desa bo'ladi. O'z davrining mashhur lug'ati hisoblangan 说文解字 “*Shuowen jiezi*” hozirgi zamon iyerogliflari, neologizmlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Kalit tizimiga asoslangan bir nechta lug'atlar orasida mashhurlaridan biri 1761-yilda nashr qilingan 康熙字典 *kangxi zidian* lug'atidir. Bu lug'at ustida 20 yil davomida 35 ta leksikograf ish olib borgan. Bu lug'at 清 Tsin sulolasi imperatori Kangsining buyrug'iga asosan tuzilganligi uchun 康熙字典 “*kangxi zidian*” deb atalgan. 4700 ta iyeroglifni o'z ichiga olgan bo'lib, hozirgi kungacha o'z kuchini yo'qotmagan lug'atlar toifasiga kiradi. 康熙字典 “*kangxi zidian*” dan bor “lug'at” ma'nosini ifodalovchi so'zlar kiritilgan. 康熙字典 *kangxi zidian* dan keyingi lug'atlarda bu so'zlar qo'llanila boshlagan. Bu lug'at, o'z navbatida, xitoylarga xos 214 kalit emas, balki 542 ta kalitlar majmuidan iborat. 康熙字典 *kangxi zidian* dan oldin 214 kalitlar tizimidan iborat, 1651-yilda xitoy olimi Mey Inzuo tomonidan tuzilgan kichkina, lekin juda qulay “字彙” *Zihuy* lug'ati tuzilgan. Keyingi pog'ona lug'atlari iyeroglifni tashkil etuvchi kombinatsiyalangan grafik elementlarga asoslangan edi. Tizim 笔形检字法 *Bixing jian zi fa* *Bising zyan zifa* deb nomlangan. Grafik tizim 3 variantdan iborat:

1. Birinchi variantda iyerogliflar bir iyeroglifni tashkil etadigan grafik elementlar, ya'ni 笔画 *bihua* chiziqlar soniga qarab aniqlanadi. Ya'ni, iyeroglifni tashkil etuvchi qaysi chiziq bosh bo'lib kelsa, iyeroglif shunga qarab tasnif qilinadi. Bunday



chiziqlarning bizga yettitasi ma'lum bo'lib, ular 横 héng – gorizontal, 撇 – pie chap tepaga yo'nalgan, 竖 - shù vertikal, 点 diǎn - nuqta; qolgan uch 笔画 bihualar turli nuqtalardir.

2. Rus xitoyshunos olimi V.I.Gorelov o'zining olib borgan ilmiy izlanishlari oqibatida lug'atlarda to'laqonli yetti 笔画 bihuadan faqatgina to'rtta 笔画 bihua qo'llanilishini aniqladi. Bular yuqorida ta'kidlab o'tilgan 横 héng - gorizontal, 撇 - piē chap tepaga yo'nalgan, 竖 – shù vertikal, 点 diǎn – nuqtalaridir. Bu grafik tizimning ikkinchi varianti hisoblanadi.

3. Grafik tizimning uchinchi varianti “to'rtburchak tizim”deb nom olgan. Uning muallifi xitoy filologi Van Yun U hisoblanadi. Bu tizimga oid lug'at ilk bor 1928-yilda tuzib chiqilgan. Agar boshqa lug'atlarda iyeroglif 笔画 larning murakabligiga qarab topilgan bo'lsa, bu lug'atda iyeroglif elementlari 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarga bo'lib chiqilib, to'rtburchak hosil qilgan kombinatsion elementlar to'rttalik son bilan ifoda etilgan. To'rttalik son iyeroglif ma'nosini anglatgan. Afzalliklaridan biri bu 214 ta kalitni esda tutish shart emasligi bo'lsa, uni ma'nosi esa, o'z navbatida, qator noqulayliklarni keltirib chiqarardi. “字彙”*Zihuy* lug'ati iyeroglifni o'qish va uning ma'nosini tahlil qilishda qator noqulayliklar keltirib chiqargan bo'lsa-da, shunga qaramasdan o'ziga xos tizimga ega bo'lgan. Ya'ni, iyerogliflarni yozish va o'qishda leksikografiyada yangilikka intilganlar. Ushbu lug'atning tarixiy yo'li keyingi avlod lug'atlari uchun izlanishlar olib borish uchun turtki bo'lib xizmat qildi<sup>1</sup>.

王云五大辞典 *Wángyún wǔdà cídiǎn lug'ati* Vangyun vuda tsi dyan ham aynan shu tizim asosida tuzilgan lug'atlardandir. Bu tizimdagi lug'atlar xitoy lug'atlari uchun optimal bo'lgan variant topish yo'lida uzoq yo'l bosib o'tdi. Lekin o'rniga fonetik tizimga asoslangan lug'atlar kirib keldi.

<sup>1</sup>Ким В.С., Фаткулин Б.Г. Словари китайского языка и современность // Вестник Челябинского государственного университета. –М., 2011. - № 21. – С.112.

Grafik va fonetik tizimga asoslangan lugʻatlar shartli ravishda uzoq muddatli rivojlanishni boshidan oʻtkazdi. Fonetik tizimga asoslangan lugʻatlar bir necha bosqichda turli koʻrinishlarda taqdim etildi. Bu tizimga asoslangan ilk lugʻatlar XII asrga tegishli boʻlib, qofiyalarga tushirilgan va toʻrtta qadimgi tonga qarab joylashgan edi. 廣韻 *Guǎng yùn* **Guangyun lugʻati** bizgacha yetib kelgan fonetik tizimga asoslangan yagona lugʻatdir. U eramizning 1007-yilida nashr ettirilgan. Lekin bu lugʻat ham kamchiliklardan holi emasdi. Jumladan, 东 iyeroglifi lugʻatning turli betida aks ettirilgan boʻlib, turlicha tonlarga ega boʻlsa-da, lekin maʼno jihatdan oʻzgarmagan. Bu toifadagi lugʻatlar xitoy tilini lugʻatlashtirish va uni aniq tizimga solish yoʻlidagi eng uzoq muddatli yoʻl bosib oʻtgan va turli oʻzgarishlarga uchragan lugʻatlar tizimi deb taʼkidlab oʻtish lozim. Djao Kechinning “Qadimgi xitoy tili leksikologiyasi” (古代汉语词汇学) kitobining 15-betida yozilishicha: “Xitoy yozuvi – belgili yozuv turiga kiradi. Har bir iyeroglif maʼlum bir shakl, oʻqilish va maʼnoga ega. Aytish mumkinki, nazariy jihatdan, iyeroglif soʻzga teng boʻlishi mumkin”. Milodiy 121-yilda 许慎 Xūshèn<sup>1</sup> “Shuowen jiezi” (说文解字)<sup>2</sup> lugʻatini tuzadi. Olim 10000 ga yaqin iyerogliflarni oʻrganib chiqib, iyeroglif shakli asosida uning maʼnosi va kelib chiqishini tushuntirdi. “Shuo ven zie zi” – Qadimgi Xitoyda yaratilgan eng yirik filologik asar hisoblanadi. Bu lugʻatda soʻzning faqatgina bitta maʼnosi keltiriladi, yaʼni asl maʼnosi (本义). Demak, bu leksikografik asar Xitoyda yaratilgan eng dastlabki lugʻat koʻrinishi, desak xato boʻlmaydi. Albatta, “Suho ven zie zi” lugʻatida qayd qilingan soʻz maʼnolari xatoliklardan holi emas. Oʻsha paytlarda

<sup>1</sup>许慎 Xūshèn (58-147) Sharqiy Xan davri iyeroglifshunos, tilshunos, adabiyotshunos olimi.

<sup>2</sup>“Soʻzlar tahlili va belgilar izohi”. Unda 10000 ga yaqin iyeroglif 540 ta kalit (部) boʻyicha tizimga keltirilib, tahlil qilingan.

tushunchalar ko‘p, iyerogliflar esa kam bo‘lgan. Ba’zi tushunchalarga nisbatan alohida iyerogliflar kashf qilinmagan bir paytda, shu tushunchani ifodalash uchun boshqa iyerogliflardan foydalanilgan. Masalan: “Shuowen jiezi” lug‘atida “易” (yì – onson) iyeroglifi tushunchasini ifodalash uchun “蜥蜴” (xīyì – kaltakesak) tasviriy-rasm turkumiga (象形字 xiàngxíngzì) tegishli iyeroglifdan foydalanilgan. Qadimgi xitoy tili 2-shaxs olmoshi dastlab “女” (nǚ – ayol) iyeroglifi bilan ifodalangan. Keyinchalik suv kaliti<sup>1</sup> bilan yoziladigan “汝” (rǔ)ga o‘zgardi. Oxir-oqibat zamonaviy shakl, ya’ni 你 (nǐ) tarzida shakllandi. Asrlar mobaynida iyeroglifning ma’nolari ko‘paydi, shakl hamda ma’no bir-biridan ajraldi, iyeroglif va so‘z har xil ko‘rinishga keldi. Iyerogliflarning rivojlanishi va o‘zgarishi oqibatida leksik tizimda ham o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bu esa, o‘z navbatida, qadimgi xitoy tili leksikasida quyidagi to‘rt hodisani keltirib chiqardi:

1) 通假字 tōngjiǎzì – o‘zlashtirilgan iyerogliflar (公 gōng o‘rniga 功 gōng, 果 guǒ o‘rniga 敢 gǎn);

2) 古今字 gǔjīnzì – qadimgi zamonaviy iyerogliflar (莫 mò va 暮 mù, 两 liǎng va 辆 liàng, 原 yuán va 源 yuán, 要 yào va 腰 yāo);

3) 同源字 tóngyuánzì – qardosh iyerogliflar<sup>2</sup> (浓 nóng va 农 nóng, 张 zhāng va 涨 zhǎng);

4) 连绵字 liánmiánzì - juft (birikmali) iyerogliflar<sup>3</sup> (玲 líng 珑 lóng, 参 cān 差 chā, 蜈 wú 蚣 gōng, 媼 zhōu 媪 lǐ, 匆 cōng 匆 cōng, 津 jīn 津 jīn).

<sup>1</sup> “Bihua, ya’ni nuqta va chiziqalar – iyerogliflarni tashkil qiluvchi va eng kichik birlikdir, kalit esa bihualardan tashkil topgan kattaroq birlikdir”.

<sup>2</sup> Dublet, ya’ni o‘qiliishi o‘xshash yoki yaqin, ma’nosi o‘xshash va kelib chiqishi bir bo‘lgan iyerogliflar. Bir xil tushunchani kasb etuvchi iyerogliflar.

<sup>3</sup> Ikki bo‘g‘inli, ajralmas so‘zlar. Ular bir xil tovushli (匆匆 cōngcōng), o‘xshash tovushli (玲珑 línglóng), va har xil tovushli (蜈蚣 wúgōng) uch ko‘rinishga ega.



1. Xulosa qilib aytganda, qadimdan boshlab tuzilgan lugʻatlar shajarasi taxminan quyidagi koʻrinishga ega boʻladi: 尔雅 “Erya” “Klassikaga yaqinlashish” (eramizdan avvalgi III - II asr).

2. Fang yan 方言 “Mahalliy soʻzlar” (shevalar leksikasiga oid birinchi lugʻat). Gʻarbiy Han (西漢) (eramizdan avvalgi 206-9-yillar), taxmin qilingan muallif - Yan Sun (楊雄, eramizdan avvalgi 53-eramizning 18-yillari). 9000 iyeroglifni oʻz ichiga olgan. Toʻliq nomi “輶軒使者絕代語釋別國方言”.

3. “Shuowen jiezi” 说文解字.

Fikrimizcha, qadimda ham xitoy xalqi oʻz yozuvi va uning anʼanalarini saqlab qolishga harakati natijasida vujudga kelgan 尔雅 “Erya” lugʻati oʻz davrining mukammal va funksional lugʻatlari toifasiga kiradi. Shu davrning oʻziga xos xususiyatlari va iyerogliflarning tuzilishi hamda asl maʼnosini yetkazib bergan lugʻatlar orasiga kiritsa boʻladi. Shuningdek, 尔雅 “Erya” lugʻati iyerogliflarning toʻgʻri talaffuz qilish tizimi ishlab chiqilgan ilk lugʻatdir. Agar xitoy yozuvining rivojlanish tarixiga ahamiyat berib qaralsa, xitoy xalqi har bir iyeroglifning maʼnosiga alohida eʼtibor berilgani, uning yetkazib beradigan maʼno tushunchasi aniq yetib borishini taʼminlash va uni yozma shaklda aks ettirish harakati hurmatga sazovor.

说文解字 “Shuowen jiezi” lugʻati hozirgi zamon lugʻatlaridagi kalitlar tizimiga asoslanganligining ilk koʻrinishi desa boʻladi. Oʻz davrining mashhur lugʻati hisoblangan 说文解字 “Shuowen jiezi” hozirgi zamon iyerogliflari, neologizmlariga asos boʻlib xizmat qiladi. Shu qatorda, to hozirgi kungacha amalda boʻlgan iyerogliflarni turkumlash ham ushbu lugʻatning yanada funksional va ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi.

Iyerogliflarning talaffuzi turli usullar orqali berib oʻtiladi. Ularga misol qilib, omonimik iyerogliflar, 反切 “Fan qie” usuli bilan transkripsiya qilish, shuningdek, fonetik alifbo harflari orqali hamda 注音字母 *Zhùyīn zìmǔ* *Djuyin zimu* alifbo yordamida

talaffuz qilish usuli mavjud. Shuningdek, iyerogliflar ma'nosi va mohiyati ular bildirib keladigan tushunchalar izohi orqali aniqlanadi. Ba'zida sinonim yoki antonimlar yordamida tushuntirib o'tiladi. Masalan, 负 : 背 *bei* bilan bir xil ma'no ifodalaydi. Masalan, 浮 *fu*, 漂 *piao*, 沉 *chen* bilan qarama-qarshi ma'noga ega.<sup>1</sup> Alohida iyerogliflar orqali ifodalanadigan morfemalar murakkab so'zlar misolida izoh berib o'tiladi. So'zlarning ma'nosini ifodalashga kelsak, ularni so'z birikmalari va qisqa iboralar orqali aks ettiriladi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlab o'tish joizki, izohli lug'atlar so'zlarning funksional - uslubiy xususiyatlari aks etgan ko'rsatmalar (so'zning qaysi uslubga tegishligi, uning o'g'zaki yoki adabiy - kitobiy uslubga tegishligi, terminologiya yoki sheva leksikasiga oidligi) ham mavjud.

Xitoy tili bilan bog'lagan holda xitoy tilining leksikografik amaliyotiga asoslanib, izohli lug'atlarning ikki toifaga oid turlarini ko'rsatib o'tish lozim. Ular iyerogliflar va so'zlar (ya'ni, leksikonlar) lug'atidir.

**Iyerogliflar lug'ati (字典 *zidian*)** o'zida iyerogliflarni tashkil etuvchi belgilarning birikishini mujassamlashtiradi. Bu turdagi lug'atlar uzoq vaqt davomida kalit tizimiga asoslangan. XX asrda o'zida ham grafik, ham fonetik tizimini aks ettirgan lug'atlar paydo bo'ldi. Bu lug'atlarning asosiy maqsadi alohida iyerogliflarning ma'nosini izohlashdan iboratdir. Ba'zida bu turdagi lug'atlarda alohida so'zlar izohi ham berib o'tiladi. Bunga misol qilib 新华字典 *Sinhua zidyanni* keltirib o'tishimiz mumkin. Iyerogliflar lug'ati (ham qadimiy, ham zamonaviy) o'z zamonasiga xos va mos ravishda iyeroglif belgilarining yozilishi va talaffuzi ko'rsatiladi. O'z navbatida, lug'atlarda orfografiya va orfoepiya bo'yicha ma'lumot berilib o'tilishini ham ta'kidlab o'tish lozim.

<sup>1</sup> Ким В.С., Фаткулин Б.Г. Словари китайского языка и современность // Вестник Челябинского государственного университета. –М., 2011. - № 21.

### Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. "Gulyang juan" va uning tahlili.
2. "Er ya". "Fangyan".
3. "Sho ven jie zi".
4. "Shi ming".

### Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:

1. Xitoy tilshunosligida fanqie usulida yozib qoldirilgan lug'atlar.
2. Fanqie usulining ijobiy va salbiy tomonlari.
3. Buddizm adabiyotidan. "To'qqiz rangli jayron" matni.
4. Matnni Grammatik tahlilini amalga oshiring, Tōngjiāzi (通假字) hodisasi qo'llanilishiga ahamiyat bering.

### Mustaqil ta'lim topshiriqlar:

1. "Bahor va kuz" solnomasi haqida ma'lumot to'plash va iyerogliflarning qaysi usulda berilganligini o'rganish.
2. "Jungxua da zidyan (中华大字典) lug'ati haqida ma'lumot bering.
3. "Xanyuy da zidyan" (汉语大字典) lug'ati haqida ma'lumot bering.

### TEST

1. 现代汉语中许多双音节动词 AB 的重叠方式是 ABAB, 一些双音节形容词 AB 的重叠方式是 AABB, 请写出下列动词, 形容词的重叠方式:

清楚: \_\_\_\_\_

商量: \_\_\_\_\_

研究: \_\_\_\_\_

马虎: \_\_\_\_\_

答案: 清清楚楚、商量商量、研究研究、马马虎虎



2.“在恶劣的气候条件，我们必须更加小心地驾驶汽车”。

答案：下

3.“一高速列车从站内开出来，飞快地向南方驶去”。

答案：列

4.有的格言教给人们做人的准则，比如：使人进步，骄傲

使人落后。

答案：虚心/谦虚

5.“在我看来，时间如同海绵吸的水，只要挤一挤总会有的！”

答案：在

6.“冬天来，春天还会远吗？”

答案：了

7.“直到孩子全退烧了，妈妈这放下心来。”

答案：才

8.“才四点半，你怎么这么早下班回家了？”

答案：就

9.“能在下个月的 HSK 考试中取得理想的成绩，她这段时间一直很努力”。

答案：为了

10.“火车站到我们大学，大概需要坐四十分钟的公共汽车，真不近！”

答案：从

## 7- MAVZU: XITOIY TILI TARIXIDA TARIXIY MANBALARNING O‘RNI

**Darsning o‘quv maqsadi:** “Shi jing”. “I jing”. “Li jing”. “Shu jing”. Xitoy tarixiy manbalari turlari, mohiyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** “To‘rt muqaddas devon” (四书) va “Besh muqaddas to‘plam” (五经)

### Venyanada yozilgan qomusiy yodgorliklar

Klassik venyan davri adabiy yodgorliklari ichida konfutsiyshunoslar to‘plami tarkibiga kirgan kitoblar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu to‘plam 13 kitobni o‘z ichiga oladi.<sup>1</sup>

Konfutsiyshunos olimlarning 2 xil to‘plami mavjud:

“To‘rt muqaddas devon” (四书) va “Besh muqaddas to‘plam” (五经).<sup>2</sup>

“To‘rt devon” Konfutsiy ta’limotini o‘rganuvchilar uchun birlamchi o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu manba

---

<sup>1</sup>Janubiy Song (1127-1270) davrida to‘plam shakliga keltirilgan 十三经:

1. “周易” (m.a. XI-VIII asr)
2. “周礼” (m.a. XI-III asr)
3. “诗经” (m.a. X-V asr)
4. “孝经” (m.a. VIII-V asr)
5. “尚书” (m.a. VI-V asr)
6. “左传” (m.a. VI-V asr)
7. “论语” (m.a. V asr)
8. “公羊传” (m.a. V-III asr)
9. “谷梁传” (m.a. V-III asr)
10. “仪礼” (m.a. V-III asr)
11. “尔雅” (m.a. V-II asr)
12. “礼记” (m.a. IV-I asr)
13. “孟子” (m.a. III asr)

<sup>2</sup>“Sishu” nomlanishi Song davrida (960-1270), “Ujing” esa Xan davrida (m.a. 206- yil va eramizning 220-yili) yuzaga keldi.

majburiy o'quv materiali sifatida qabul qilinib, ilmiy daraja bo'yicha imtihonlarda foydalanilgan. O'sha davr talablariga ko'ra, ilmiy daraja nomzodi qadimgi faylasuflar tilida o'z fikr-g'oyalarini ifoda etishi hamda "To'rt devon"ni yoddan bilishi shart edi. "Besh muqaddas to'plam" esa rasmiy g'oya va ta'lim tizimining asosi deb tan olingan.

"Sishu" (四书) quyidagi kitoblarni o'z ichiga oladi:

1. "大学" Dàxué (Buyuk ta'limot)
2. "中庸" Zhōngyōng (Bilim o'chog'i)
3. "论语" Lùnyǔ (Suhbat va mulohazalar)
4. "孟子" Mèngzǐ (Meng-zi)

"Ujing" (五经) quyidagi kitoblardan iborat:

- 1) "诗" Shī (She'rlar);
- 2) "书" Shū (Tarix);
- 3) "礼" Lǐ (Marosimlar);
- 4) "易" Yì (O'zgarishlar kitobi);
- 5) "春秋" Chūnqiū (Bahor va Kuzlar).

Bulardan tashqari quyidagi to'rt asar ham 13 muqaddas devon tarkibiga kiritilgan:

- 1) "左传" Zuǒzhuàn (Zo Chyuming solnomasi);
- 2) "公羊传" Gōngyángzhuàn (Gongyang solnomasi);
- 3) "穀梁传" Gǔliángzhuàn (Gulyang solnomasi);
- 4) "尔雅" ěryǎ ("Erya" lug'ati).

### "Chie yun"(切韵) lug'ati

Ulardan eng birinchisi "Chie yun" (切韵) lug'atidir. Bu lug'atning muallifi Suy sulolasi hukumatining marosimlar o'tkazish ishlari vazirligida yirik amaldor bo'lgan Lu Fayan (陆法眼)dir. "Chie yun"ni o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, u "talaffuzi berilgan xitoy iyerogliflari lug'ati" degan ma'noni anglatadi. Bu lug'at besh bobdan iborat bo'lib, uning asl nusxasi



yo'qolgan, hozirgi vaqtda ishlatilayotgan "Chie yun" lug'ati XX asrning birinchi yarmida Tang sulolasi davrida chop etilgan "Chie yun"ning qayta bosilib chiqqan nusxasi hisoblanadi.

### **"Tang yun" (唐韵) lug'ati**

"Tang yun" (唐韵) lug'ati – "Tang sulolasi davrida tuzilgan ohangi va talaffuzi berilgan lug'at" degan ma'noni anglatadi. Ushbu lug'atning muallifi o'z davrining fonologiya sohasidagi yirik olimi Sun Myan (孙旻) bo'lgan. Olimlar xulosasiga ko'ra, bu lug'at "Chie yun" lug'ati asosida tuzilgan bo'lib, ularning tuzilish strukturasi bir xildir. "Tang yun" lug'atining asl va keyinchalik chop etilgan to'liq nusxalari bizgacha yetib kelmagan.

### **"Guang yun" (广韵) lug'ati**

Ushbu lug'at Sung imperiyasi hukumatining maxsus qaroriga binoan 1008- yilda yozilgan va chop etilgan bo'lib, uning to'liq, nomi "Dasung chung siyu guang yun" (大宋重修广韵) bo'lib, "Buyuk Sung imperiyasining qaytadan tahrir qilingan ohang va talaffuzi berilgan lug'at" deganidir. Bu lug'atning "qayta tahrir qilingan" jumlasini shuni anglatadiki, "Guang yun" lug'ati "Tang yun" lug'ati negizida yaratilgan, ya'ni "Tang yun" lug'atini qayta ko'rib, xatolarini tuzatib, uni yangi so'zlar bilan to'ldirganlar. "Guang yun" lug'ati besh bobdan iborat bo'lib, bu lug'atda 26194 ta iyerogliflarning izohi, ohangi va transkripsiyasi aniq ko'rsatib berilgan. Bu lug'at shu davrgacha yozilgan "iyeroglif lug'atlari" orasida eng ko'p belgilarni o'z ichiga olgandir. Shuning uchun bu lug'atni hozirgi olimlarimiz nafaqat xitoy fonologiyasidagi, hattoki iyeroglifshunoslikda ham eng katta yutuq deb hisoblaydilar. Bu kitobning asl nusxasi bizgacha yetib kelgan.

### “Jungyuan inyun”(中原音韵)lug‘ati

“Jungyuan inyun (中原音韵) lug‘atini o‘z davrining taniqli dramaturgi Jou *Dechiig* 周德清 tuzgan. Bu lugat dramaturgiyada quyiladigan pesalar hamda qo‘shiqlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida tuzilgan. Ushbu lug‘at ikki qismga bo‘lingan: birinchi qismda odatda ko‘p ishlatiladigan 5866 ta iyeroglifning talaffuzi berilgan. Ikkinchi qism nazariy bo‘lib, bu qismda iyeroglif talaffuzlarining har xil muammolariga to‘xtalib o‘tilgan. Bu lug‘at nafaqat dramaturgiyada ishlatiladigan so‘zlarning to‘g‘ri talaffuziga mo‘ljallangan, balki iyerogliflarning ohang va talaffuzi shimoliy shevaga asoslanganligi uchun ham u bebaho lug‘atdir. Bu lug‘atning tarjimai “shimoliy xitoy tilining ohang va tovushlari” deganidir. Bu kitob 1324-yili nashrdan chiqqan.<sup>25</sup>

Yuqorida izohlab o‘tilgan lug‘at va kitoblarni iyerogliflarga tovush berish, ya‘ni transkripsiya bergan adabiyotlar deb atashdi. Bu adabiyotlar shu davrda she‘r va dostonlarni o‘qishda hamda ularning talaffuz me‘yorini belgilashda keng qo‘llanilgan.

O‘rta asrlarda yaratilgan bu kitob va lug‘atlar nafaqat xitoy fonologiyasida, balki umuman xitoy tilshunosligida ham bebahodir. Bu lug‘at va kitoblar o‘rta asrlarda xitoy tilshunosligining nechog‘lik rivojlanganligini va taraqqiy etganligini isbotlab beradi. Fonologiya, umuman tilshunoslik shakllanishi va rivojlanishi bilan iyerogliflar yozilishi va talaffuzida ham ma‘lum bir o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Biz ana shu o‘zgarishlarni faqatgina o‘rta asrlar manbalariga murojaat qilibgina bilishimiz mumkin.

### “Dasyue”

“Dasyue” to‘qqiz muqaddas kitobdan biri bo‘lib, dastlab “Li”(礼) tarkibiga kirgan. Taxminan Chin va Xan sulolalari arafasida (mil.avv.III-milodiy III asri) konfutsiyshunoslar tomonidan yozilgan.

Manbalarga ko‘ra, bu kitobni Zengzi<sup>1</sup> yozgan. “Dasyue” 3 ta bo‘limdan iborat: bir jing (经) va ikki juan (传).

Song sulolasi davrida (960-1270)“Dasyue”,“Lijing”dan yozib olingan. O‘sha davrda “Dasyue”, “Lunyuy”, “Meng-zi” hamda “Chjungyung” bilan bir qatorda o‘qitilgan. Janubiy Song (1127-1270) davri imperatori Chunsi<sup>2</sup> hukmronligi davrida Chjusi<sup>3</sup> “To‘rt devon devoni”ni yaratib, “Dasyue”, “Chjungyung”, “Lunyuy”, “Meng-zi”ni birgalikda “Sishu” (To‘rt devon) deb ataydi.

### “Chjungyung”

9 muqaddas kitobdan biri. Dastlab “Liszi” tarkibiga kirgan. An’anaga ko‘ra, Kurashuvchi podshohliklar davrida (mil.avv.403-221) Zisi<sup>4</sup> tomonidan yozilgan. Zamonaviy olimlarning fikricha, “Chjungyung” Chin davrida (mil.avv. 221-207) Meng-zi maktabi namoyandalari tomonidan tuzilgan. “Chjungyung”da o‘sha davrdagi ilm-fan taraqqiyotiga mos holda axloq qoidalari va tabiat qoidalari yoritilgan. Song sulolasi (960-1270) davriga kelib, u “Dasyue”, “Lunyuy”, “Meng-zi” bilan birgalikda “Sishu” deb nomlana boshladi.

### “Lunyuy”

<sup>1</sup> 曾子 (m.a.505-436) – Chunsuy sulolasi davrida yashagan, Konfutsiy (孔夫子) shogirdlaridan biri. Yirik mutafakkir olim. Davomchilari tomonidan “zongsheng” (宗圣) - “avliyo” nomi berilgan (Sixay, 4-jild, 2669-b.).

<sup>2</sup> Chunsi (淳熙) 1174-1189-yillarda hukmronlik qilgan.

<sup>3</sup> Chjusi (朱熹) – (1130 - 1200) Xitoy faylasufi va tarixchisi,neokonfutsiychilik ta’limoti asoschilaridan biri (Sixay, 4-jild 2812-b).

<sup>4</sup> Zisi (子思) - (m.av. 483-402) Chjango davri faylasufi. Asl ismi – 孔伋 (Kōngji), Konfutsiy nabirasi hisoblanadi (Sixay, 4-jild, 2847-b).



“Lunyuy” ham to‘qqiz kitobdan biri bo‘lib, Konfutsiy fikr-mulohazalarining to‘plamidir. 20 bo‘lim, 492 banddan iborat. Konfutsiy shogirdlari tomonidan Konfutsiyning to‘g‘ridan to‘g‘ri nutqi hamda ularning eshitganlari asosida tartibga solinib, yozilgan. Unda Konfutsiyning suhbatlari, shogirdlarining savollariga javoblar hamda ular orasidagi bahs-munozaralar aks ettirilgan. Bu kitob 80 yil davomida yozilgan, ilk bor mil.avv. 4000-yilda paydo bo‘lgan.

Janubiy Song sulolasi imperatori Chunsi davrida (1174-1189) Chjusi uni “Dasyue”, “Chjunyun” va “Meng-zi” bilan birlashtirib, “To‘rt devon” deb nomlaydi.

### “Meng-zi”

“Meng-zi” to‘qqiz kitobdan biri bo‘lib, Kurashuvchi podshohliklar (mil.avv. 403-221) hukmronligining o‘rtalarida Meng-zi va uning shogirdlari Van Chjang (万章), Gong Songchou (公孙丑) va boshqalar tomonidan yozilgan. “Meng-zi”da Qadimgi Xitoy buyuk faylasufi Meng-zining<sup>1</sup> qarashlari aks etgan. “Xan kitobi”ning “Adabiyot va san’at” bo‘limida (汉书: 艺文志) “Meng-zi”ning 11 bobi kiritilgan bo‘lib, hozirgi kungacha 4 bobi saqlanib qolgan. An’anaga ko‘ra, bulardan tashqari “Meng-zining begona kitobi” nomli to‘rt kitobi ham bor. Bu kitob hozirgacha yetib kelmagan.<sup>2</sup>

Kitobda Meng-zi va shogirdlarining hayotdagi turli vaziyatlarda; siyosat, ta’lim, falsafa sohalarida fikr va mulohazalari berilgan. Janubiy Song imperatori Chunsi hukmronligi (1174-1189) davrida Chjusi uni va “Lunyuy”, “Dasyue” va “Chjungyung”ni birlashtirib, “Sishu”ga aylantirgan.

<sup>1</sup>Asl ismi Meng Ke (孟轲), (m.a. 372-289) yashagan qadimgi Xitoy faylasufi (Sixay, 2-jild 1460-b).

<sup>2</sup>Bugungi kunda “Mengzi begona kitobi” (孟子外书)ning Ming Taoshi tomonidan yozilgan soxta nusxasi mavjud(22,683).

### “Shijing”

“Shijing” (She’rlar devoni) – to‘qqiz muqaddas kitobdan biri. Mil.avv. XI-VII asrlarda shakllanib, VI-V asrlarda Konfutsiy tomonidan tahrir qilinib, to‘plam sifatida nashr etilgan. 3000 dan ortiq xalq qo‘shiqlarini o‘z ichiga olgan. Eng dastlabki she’r va qo‘shiqlar to‘plami hisoblanadi. Xalq, saroy va ibodat bilan bog‘liq she’riyatni o‘z ichiga oladi. Qadimda “Shi” deb nomlangan, konfutsiyshunoslarning muqaddas devoni sirasiga kiradi. Hammasi bo‘lib 305 bo‘limdan iborat. “Shijing” quyidagi katta uch qismga bo‘linadi:

1. “Feng” (风 Urflar);
2. “Ya” (雅 Odalar);
3. “Song” (颂 Qo‘shiqlar).

“Feng” tarkibiga 15 ta Gofeng (国风 Davlat urflari); “Ya” tarkibiga “Daya” (大雅 Katta Ya) va “Syaoya” (小雅 Kichik Ya); “Song” tarkibiga “Chjou Song” (周颂), “Lu Song” (鲁颂) va “Shang Song” (商颂) kiradi.

Shensi, Shansi, Xenan, Shandong va Xubey provinsiyalari hududlarida yaratilgan, deb taxmin qilinadi.

### “Shujing”

“Shujing” (“Naqllar devoni” yoki “Tarix devoni”). Boshqacha nomlanishi – “Shangshu” (尚书). Unda eng qadimgi, ya’ni mil.avv. XXIV-VIII asrlar tarixi aks ettirilgan. An’anaga ko‘ra, Konfutsiy tomonidan mil.avv. V asrda yozilgan. Chin Shixuang (mil.avv.259-210)<sup>1</sup> tomonidan mil.avv. 213-yilda yondirib tashlangan, mil.avv. 178-yilda esa, bu asarni yoddan bilgan mashhur olim Fu Sheng tomonidan qisman tiklangan.

---

<sup>1</sup>秦始皇帝 asl ismi –Ing Chjeng (嬴政). Chin sulolasi asoschisi. Hukmronlik yillari(mil.avv. 246 – 210) (Sixay, 3-jild, 1700-b).

## “Shangshu”

“Shangshu” (“Tarix devoni”) ning yana bir nomi “Shu” va “Shujing”dir. “Shangshu” 9 muqaddas kitobdan biri hisoblanadi. Bu kitobda Xitoydagi qadimiy tarixiy hujjatlar va qadimda mashhur bo‘lgan kitoblarning to‘plami berilgan. An’anaga ko‘ra, Konfutsiy tomonidan tahrir qilingan. Aslida esa ayrim qismlari, jumladan, “Yaodyan” (尧典), “Gaotaomou” (皋陶谟), “YuyGong” (禹贡), “Xongfan” (洪范) kabilar konfutsiyshunos olimlar tomonidan to‘ldirilgan. “Shangshu”ning qadimgi va zamonaviy tilda yozilgan nusxalari mavjud:<sup>1</sup>

### “Shangshu”ning zamonaviy nusxasi

28 bobdan iborat. Ma’lumotlarga ko‘ra, Konfutsiy tomonidan tuzilgan, lekin “Yaodyan”, “Gaotaomou”, “YuyGong”, “Xungfan” kabi boblarning barchasi keyinchalik konfutsiyshunoslar tomonidan to‘ldirilgan. G‘arbiy Xan sulolasi davrida<sup>2</sup> eng dastlabki nusxasi Fu Sheng tomonidan yozib qoldirilgan, iyerogliflar lishu<sup>3</sup> husnixat turida yozilgan.

### “Shangshu”ning qadimgi nusxasi

Yana bir nomi “Ishu” (逸书) bo‘lib, “Shangshu”ning turlaridan biridir. “Xanshu”da yozilishicha, Xan davri imperatori Udi<sup>4</sup> hukmronligining oxirgi yillarida Lyuyuy degan odam Konfutsiy yashagan xonadonning devoridan bu kitobni topib olgan. “Shangshu”ning qadimgi nusxasi zamonaviy nusxasiga qaraganda 16 bobga ko‘proq. Buning sababi Chin va Xan davridan oldin foy-

<sup>1</sup> 22,683

<sup>2</sup> M.a. 206 – eramizning 25-yillari.

<sup>3</sup> 隶书 Lishu – 4 asosiy husnixat uslublaridan biri. Rasmiy yozuv. O‘ziga xosligi – iyerogliflarning kvadrat ko‘rinishida bo‘lishi.

<sup>4</sup> 汉武帝 (m.a.156-87) – G‘arbiy Xan sulolasi imperatori. Hukmronlik yillari – mil.avv.140-87-tillar.



dalanilgan “Guven”(古文<sup>1</sup>)da yozilganidir. Sharqiy Xan sulolasi olimi Dulinning<sup>2</sup> ta’kidlashicha, Zeng Dechi (曾得漆) ning kitobi “Qadimgi Shangshu”ning asl nusxalaridan biridir. Barcha mumtoz konfutsiyshunos olimlar buni asl nusxa sifatida tan olganlar, zamonaviy konfutsiyshunoslardan Veyyuan (魏源)<sup>3</sup>, Gongzi Chjen (龚自珍)<sup>4</sup>, Kang Yuvey (康有为)<sup>5</sup> va boshqalar bu nusxani qalbaki deb hisoblashadi.

“Li” (“礼”) 3 qismdan iborat:

1. “Ili” (“仪礼”<sup>6</sup>);
2. “Chjouli” (“周礼”);
3. “Liszi” (“礼记”).

### “Liji”

“Liji” (礼记) -“Marosimlar” yoki “Nizomlar” haqidagi qaydlar. M.a. IV-I asrlar davomida turli mualliflar tomonidan yozilgan. Turli marosimlar va jamiyatda o’zini tutish qoidalari haqida bayon qilingan. “Liji”ni bilmagan kishi hech qanday lavozimga tayinlanishi mumkin bo’lmagan va madaniyatli hisoblanmagan. Keyinchalik neokonfutsiyshunoslar davrida (XII asr) “To’rt devon” (四书) muallifi Chju Si unga “Liji”ning ikki bo’limi: “Chjungyung” (中庸) va “Dasyue” (大学) ni kiritgan.

<sup>1</sup>Qadimgi In yozuvi. Xitoy yozuvining eng qadimgi ko’rinishi bo’lib, toshbaqa kosasi va hayvonlar suyaklarida aks ettirilgan (iyaguven). Ular orqali qadimgi odamlar turli ma’bud, ajdodlar ruhiga murojaat qilishgan, fol ochishgan.

<sup>2</sup>杜林(?-47) –Sharqiy Xan davri taniqli adabiyotshunos olimi. Asl ismi – Boshan (伯山) (Sixay, 1-jild, 478-b).

<sup>3</sup>Veyyuan (1794-1857)

<sup>4</sup>Gongzi Chjen(1792-1841)

<sup>5</sup>Kangyu Vey(1858-1927)

<sup>6</sup>Bu asarni Konfutsiy yaratgan deb taxmin qilinadi.

## “Ijing”

“Ijing”(易经) ning yana bir nomi – “Chjoui”, qisqartirilgan nomi – “i”. “O‘zgarishlar kitobi” deb ham ataladi. To‘qqiz muqaddas kitobdan biri. G‘arbiy Chjou sulolasi davrida (mil.avv. XI-VIII asr) yozilgan deb taxmin qilinadi. Tarkibida “Jing” (经) va “Juan” (传) ikki bo‘lim aks etgan. “Jing” asosan 64 ta trigrama<sup>1</sup> va 384 izohdan iborat. Har bir izoh va trigrammaga sharh ilova qilinadi, ular fol ochish uchun ishlatilgan.

Qadimgi an‘anaga ko‘ra, Fusi<sup>2</sup> trigrammani chizadi, Venvang<sup>3</sup> esa ularga izoh beradi. Bu kitobning ilk ko‘rinishi In davlatining tugatilishi va Chjou sulolasi arafasida yaratilgan. “Juan” (传) bo‘limi “Jing”ga berilgan ilk izoh hisoblanadi, 10

bo‘limdan iborat, shu sababli umumiy nomi “O‘nlik” (“十翼<sup>shiyi</sup>”)dir. Ilk manbalarga ko‘ra, bu kitobni Konfutsiy yaratgan. Hozirgi zamon olimlarining izlanishlariga ko‘ra, bu kitob Kurashuvchi podshohliklar davri oxirgi yillari yoki Chin va Xan sulolalari arafasida konfutsiyshunos olimlar tomonidan yozilgan. “Chjoui” ilk Xan davrida uning ikki xil qo‘lyozma nusxasi bo‘lgan.

<sup>1</sup>卦 guà – trigrama. Uchta yao (爻) dan iborat alohida belgi [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

<sup>2</sup>伏羲 Fúxī – Xitoyning eng birinchi afsonaviy imperatori, Sharq hukumdori. Paosi (庖牺), Tayxao (太昊) deb ham atalgan. Afsonalarga ko‘ra, inson boshli va ajdaho Tangali mavjudot tarzida tasvirlangan. Konfutsiyshunoslik hisobi bo‘yicha mil.avv. 2852-2737-yillari (hammasi bo‘lib 115-yil) hukmronlik qilgan. Uning turmush o‘rtog‘i – ma‘buda Nyuyva (Sixay, 1-jild, 599-b.).

<sup>3</sup>文王 Wénwáng (周文王 Zhōu Wén Wáng – O‘qimishlilar Qirol) tug‘ilganda berilgan nomi – Chjou Zichan. Mil.avv. XII asrda yashab o‘tgan. Chjou viloyati (udal) hokimi bo‘lgan. Afsonaga ko‘ra, Xitoyda intelegensiyani boshlab bergan inson (Sixay, 4-jild, 2221-b.).

### “Chunchyu”

“Chunchyu” (春秋) - Qadimgi Xitoyning ensiklopedik yodgorligi. Lu mamlakati (鲁国) yilnomasi bo‘lib, Xitoyda ilk yaratilgan solnoma asar hisoblanadi. Mil.avv. III asrda Chin podsholigi davrida yaratilgan. Xitoy tarixi va falsafasi bo‘yicha qimmatbaho manba hisoblanadi.

“Chūnqiū”dagi matnlar o‘ta ixchamlashtirilganligi sababli (matn hajmi 16257 iyeroglif), bularga izohlar uning “左传” (Zuǒzhuàn), “公羊传”(Gōngyángzhuàn), “穀梁传” (Gūliángzhuàn) nomli bo‘limlarida berib o‘tilgan.

### “Zojuan”

“Zojuan” (左传) (“Zo Chyuming solnomasi”) ma’lumotlarga ko‘ra, Zo Chyuming(左丘明)<sup>1</sup> tomonidan yozilgan. Asarda mil.avv. 722-468-yillardagi voqealar tafsiloti berilgan. Asar matnlari esa asosan mil.avv. IV asrda tuzilgan, keyinchalik qayta to‘ldirilgan va tahrir qilingan. Shundan keyin “Zojuan” konfutsiyshunos olimlar tomonidan muqaddas kitoblardan biri, ya’ni “春秋” (Chunchyu)<sup>2</sup> kitobiga sharh deb tan olingan va konfutsiyshunoslar manbalaridan biriga aylandi.

### “Gongyang juan”

“Gongyang juan” (公羊传) yoki “Chunchyu Gongyang juan”, “Gongyang Chunchyu” (“Gongyang Gao solnomasi”) - konfutsiyshunos olimlarning muqaddas devonidan biri. “Chunchyu” kitobiga sharh bo‘lib, Kurashuvchi podsholiklar

<sup>1</sup> Tzo Tzyuming - Chuntsyu (m.a. 722-481) davrida yashagan tarixshunos olim. An’anaga ko‘ra, ikki ko‘zi ojiz bo‘lgan. Konfutsiy shogirdlaridan biri, hamda uning zamondoshi (Sixay, Shanxay, 2008, 4-jild, 2878-bet).

<sup>2</sup>Qadimgi Lu podsholigi solnomasi (m.a.722-479-yillar).



davrida (mil.avv. 403-221) Gongyang Gao<sup>1</sup> tomonidan yozilgan. Dastlab faqat og‘zaki tarzda tarqatilgan, Xan sulolasi (mil.avv. 206-yil milodiy 220-yil) boshlariga kelib, kitob shakliga aylantirilgan. Lu Ingong<sup>2</sup> hukmronligining 14-yilidan boshlab (mil.avv.722-yil), to Lu Aygong<sup>3</sup> hukmronligining 14-yiligacha (mil.avv. 481-yil) bo‘lgan tarixiy jarayondagi voqealar tafsilotlari bayon etilgan.

### “Gulyang juan”

“Gulyang juan” (穀梁傳) yoki “Chunchyu Gulyang juan”, “Gulyang Chunchyu” (“Gulyang Chi solnomasi”) – bu ham konfutsiyshunos olimlarning muqaddas devonidan biri. Kurashuvchi podshohliklar davrida (mil.avv.403-221) Gulyang Chi<sup>4</sup> tomonidan yozilgan. Dastlab faqat og‘zaki tarzda tarqatilgan, G‘arbiy Xan sulolasi (m.a.206-milodiy 25) davriga kelib, kitob shakliga aylantirilgan. Lu Ingong hukmronligining 14-yilidan boshlab (mil.avv.722-yil), to Lu Aygong hukmronligining 14-yiligacha (mil.avv. 481-yil) bo‘lgan tarixiy jarayondagi voqealar tafsilotlari bayon etilgan. Kitobdagi sharhlar savol-javob ko‘rinishida bo‘lib, “Chunchyu”ning “prinsipial mohiyati”ni ochib berishga qaratilgan. Mazmunan “Gongyang juan” sharhiga yaqin.

<sup>1</sup>公羊高 Gōng Yánggāo – Kurashuvchi podshohliklar davri (mil.avv.V-III asr), Chi mamlakati yozuvchisi. An‘anaga ko‘ra, Zisya (Konfutsiy nabirasi)ning shogirdi (Sixay, 1-jild, 683-b.).

<sup>2</sup>魯隱公

<sup>3</sup>魯哀公

<sup>4</sup>穀梁赤 Gǔ Liángchì –Kurashuvchi podshohliklar davri (mil.avv. V-III asr) Lu mamlakati olimi. An‘anaga ko‘ra, Zisya (Konfutsiy nabirasi)ning shogirdi (Sixay, 1-jild, 708-b.).

### “Erya”

“Erya” (尔雅) – Xitoy tarixida ilk yaratilgan izohli lug‘at bo‘lib, u bir necha yuz yilliklar davomida ko‘plab olimlar tomonidan ishlanib kelingan.<sup>1</sup> Taxminan mil.avv. V-II asrda yozilgan. Zamonaviy nusxasi 19 bo‘lim, 4300 so‘zdan iborat. Mazkur leksikografik asarda so‘zlar tematik guruhlariga ajratib beriladi. Masalan: tog‘ga oid so‘zlar, samoga oid so‘zlar, suvga oid so‘zlar va h.k.

“Erya” asari Tang va Song sulolalari<sup>2</sup> davriga kelib, konfutsiyshunos olimlarning 13 muqaddas kitobidan biriga aylandi. “Erya” lug‘ati Xitoy xalqiga qoldirilgan bebaho madaniy boylik hisoblanadi.

#### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. “Shi jing” lug‘atining o‘rni.
2. “I jing” lug‘atining o‘rni.
3. “Li jing” lug‘atining o‘rni.
4. “Shu jing” lug‘atining o‘rni.

#### Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari:

1. Eramizning ikkinchi asriga qadar mavjud bo‘lgan transkripsiya usullari haqida qisqacha ma‘lumot.
2. Venyanda yozilgan qomusiy yodgorliklar.
3. Buddizm adabiyotidan. “To‘qqiz rangli jayron” matni.
4. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, Tōngjiǎzi (通假字) hodisasini qo‘llanilishiga ahamiyat bering.

#### Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:

V asrda yaratilgan “To‘rt ohang notasi” va zamonaviy ohangning o‘xshash va farqli tomonlari.

<sup>1</sup>32,509

<sup>2</sup>Tang 唐 (618-907), Song 宋 (960-1279).

## TEST

1. 汉字中，“灬”做偏旁而构成的字，很多跟“火”有关，如“烈，煮，煎，蒸，热”等。


答案：正确。

2. 根据汉字的造字法来判断，“人”和“木”是象形字，像“人”和“树”的形状。它们合起来就是个“休”字，意会成“人依傍大树休息”，所以它的本义是“休息”。



答案：正确。

3. 根据汉字的造字法来判断，“本末”都是指事字。本义就是指“树根”和“树梢”，后指“事物的根本”和“事物的末尾”。



答案：正确。

4. 看看“企鹅”的模样，我们可以明白汉字中“企”本来的意思了。“企”是个会意字，表示一个人在踮起后脚跟望向远处。



答案：正确。



5.“忿、念、思、急、愁、志、忒”等汉字中的偏旁都有“心”，表示这些词都和“心”的意思有关系。

答案：正确。

6.“衣”在“依”中和在“袋”中都是表示读音的。

答案：错误。“衣”在“袋”中是会意成分。

7.现代汉字中，从造字法来看，会意字是最多的。

答案：错误，应该是形声字。

8.“冰凉”、“火红”、“雪白”这些词的内部结构方式都是一样的。

答案：正确。

9.汉语中有些词“儿化”以后，词义会产生变化，往往能表示“少、小、轻”等状态和性质。如“门缝儿”，“米粒儿”，“瓶盖儿”等。

答案：正确。

10.现代汉语中，“老”，“阿”可以充当前缀，不表达具体的词义，如“老师、老虎、老板”和“阿姨、阿哥、阿婆”。

答 案 : 正 确 。

## 8- MAVZU: QADIMGI XITOIY TILSHUNOSLIGIDA VENYAN TILINING O‘RNI

**Darsning o‘quv maqsadi:** Xitoy tilining tarixiy davrlarga bo‘linishi. Venyan va bayxua masalasi, Venyan tilida yozilgan qomusiy yodgorliklar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** arxaik, ilk arxaik, so‘nggi arxaik, 上古期 (shànggǔqī), 入声, 中古期 (zhōnggǔqī), 去声, 近代期 (jìndàiqī), 浊声母, 现代期 xiàndàiqī, 雅言, 文言, 白话, 文言文, 四书, 五经.

Xitoy tili tarixi 3000 ming yildan ko‘proq davrni qamrab oladi. Ammo Xitoy tili tarixi haqidagi manbalarning kamligi va davrlashtirishdagi qiyinchiliklar sababli hozirgi paytgacha umumqabul qilingan xitoy tili tarixining tasnifi mavjud emas. Ba‘zi xitoyshunos olimlar bu borada izlanishlar olib borgan bo‘lib, ular tomonidan taklif etilgan davrlashtirish shartli bo‘lib, qadimdan bizgacha yetib kelganlari ham adabiy yodgorliklar asosida amalga oshirilgan.

Qadimgi xitoy tili ikkiga bo‘linadi:

1. Qadimgi og‘zaki til – 雅言 (yǎyán)
2. Qadimgi yozma til - 文言 (wényán). 白话 (báihuà)

**Yayan** – qadimgi davrlarda shunday atalgan qonun va me‘yorlarga solingan og‘zaki til hisoblanadi. Yayan miloddan avvalgi VII-VI asridan to milodiy III asrgacha (hammasi bo‘lib 10 asr atrofida) muomalada bo‘lgan. Kong Ingda (孔颖达) ning “Chjengven” kitobida quyidagicha yoziladi:

“雅言，正言也”。<sup>1</sup> (Uǎyán, zhèng yán yě) – ya tili Xitoyda ishlatilgan eng dastlabki og‘zaki til, zamonaviy putunxuaga

<sup>1</sup>Sixay (辞海), Shanxay, 2008, 1-jild, 509-b.

to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, ya tili Chjou sulolasi davri mahalliy lahja asosida yuzaga kelgan.<sup>1</sup>

Konfutsiy<sup>2</sup> Lu davlatida o'z maktabini ochgan va ilm o'rgatgan. Uning 3000 nafar shogirdi Xitoyning turli tomonlaridan kelgan edilar. Darslarni Konfutsiy ya tilida olib borar edi. Gaplarimiz dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

“子所雅言, “诗”, “书”, 执礼, 皆雅言也”(Zi suǒ yǎyán, “Shī”, “Shū”, zhǐlǐ, jiē yǎyán yě) – Konfutsiy ma'ruzalarni ya tilida o'qirdi, qolganlar ham ya tilida gapirardi; “Shijing”, “Shujing”<sup>3</sup> ham shu tilda yozilgan.<sup>4</sup>

*Qadimiy xitoy tili* – “zamonaviy xitoy tili”ning ota-bobosi bo'lib, 1919-yil 4-may harakatidan<sup>5</sup> oldingi tarixiy jarayondagi Xan millatining umummilliy tili hisoblanadi.

Bu til zamonaviy xitoy tili bilan umumiy til asosiga ega, lug'atshunoslik va grammatika tuzilishi ham o'zaro moslashadi; biroq leksik tizim va og'zaki til nuqtayi nazaridan zamonaviy xitoy tilidan katta farq qiladi. Qadimgi xitoy tili odatda qadimgi yozma tilni ifodalaydi, “venyan” va “qadimgi bayxua”<sup>6</sup>ni o'z

<sup>1</sup>Chjou sulolasi (mil.avv. XI asr – mil.avv. 221-yil). Poytaxti – Fengao shahri (丰镐) (hozirgi Sian shahrining shimoli-g'arbi).

<sup>2</sup> Konfutsiy - 孔子 (m.a.551-479) – Xitoy buyuk mutafakkir olimi, donishmandi, siyosatshunos, pedagog. “Rujya” faksafiy maktabi hamda konfutsiychilik ta'limotining asoschisi. Uning asosiy g'oya va qarashlari “Lunyuy” (Mulohazalar va suhbatlar) asarida o'z aksini topgan (Sixay, 2-jild, 1176-b.).

<sup>3</sup> Bu asarlar haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun mazkur ishning 23-betiga qarang.

<sup>4</sup>“Lunyuy Shuer” (22,56)

<sup>5</sup> 4-may harakati (五四运动) – Xitoy tarixida imperiyaga qarshi qaratilgan yirik qo'zg'olon harakati. 1919-yil 4-may Pekinda talabalar namoyishi bilan boshlangan. Bu harakat Xitoyda marksizm g'oyasini tarqalishini tezlashtirdi.

<sup>6</sup>Qadimgi bayxua – VII-VIIIasrdan hozirgi paytga qadar (13 asr atrofida) muomalada bo'lgan. Doimo venyan bilan kurashib kelgan: 5 asr passiv, 8 asr faol kurash olib borgan. Bayxua asosan, ommabop adabiyot asarlari yozilgan, ya'ni u oddiy xalq uchun mo'ljallangan mazmunan oson, sodda, omma tushunadigan tildir. 1919-yil 4-may harakatidan keyin venyan o'rmini bayxua egallagan. Bayxua – shimoliy lahja asosida shakllangan bo'lib, og'zaki nutqqa yaqin bo'lgan yozma tildir. 白话文 báihuàwén – “sodda tilda maqola yozmoq” ma'nosini anglatadi.



ichiga oladi. U avvalgi davrlar tillari xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib, gohida o'ta murakkab g'oyalar yozma bayonining turli til usullarini ishlab chiqqan.

**Venyan** – miloddan avvalgi VII-VI asrdan to 1919-yil 4-may harakatigacha (hammasi bo'lib 27 asr atrofida) ishlatilgan. Chin (er.avv III asr), Xan (er.avv. 206-eramiz 220) sulolalari davrigacha og'zaki nutqda ishlatilgan va bu sulolalardan keyin olimlar tomonidan shu til qofiyasida yozma shaklga keltirilgan tildir. Venyan Yayan (雅言) asosida vujudga kelgan.

Bahor va Kuz (Chunchyu), Jang qiluvchi podshohliklar (Chjango)<sup>1</sup> davrida qog'oz hali kashf etilmagan, yozuv bambuk taxtachalar, ipak va boshqa buyumlarga aks ettirilgan. O'sha paytlarda ham (hozirgidek) ipak juda qimmat bo'lgan. Bambuk taxtachalariga esa ko'p iyerogliflarni sig'dirib bo'lmasdi. Shuning uchun bir o'ramga yanada ko'proq ma'lumotni sig'dirish uchun, unchalik muhim bo'lmagan qaydlarni o'chirib tashlashga to'g'ri kelardi.

Aytish mumkinki, venyan dunyodagi eng qadimgi *ixchamlashtirilgan yozuv turidir*. Keyinchalik “qog'ozdan” keng ko'lamda foydalanish boshlangandan so'ng, rasmiy hujjatlarni venyanda yozish odatiy tusga kirdi, bu esa o'sha davr odamlarini venyanni yanada yaxshiroq o'rganishiga turtki bo'ldi. Buning ustiga venyanda qo'lyozmalar yozish ancha tejamkor edi.

**文言文 wényánwén so'zining leksik-semantik tahlili.** Bu so'zdagi birinchi 文 wén - “yozma tilda yozilgan maqola” ma'nosini bildiradi. 言 yán - yozmoq, aks ettirmoq ma'nosini beradi. Oxirgi 文 wén – asar, maqola kabi ma'nolarni bildiradi.

文言文 – bu yozma tilda maqola yozmoq tarzida tarjima qilinadi. Demak, 文言文 – bu xitoy yozma adabiy tili.

<sup>1</sup>Sharqiy Chjou (m.a.771-221-yillar) davri ikkiga bo'linadi: 春秋 (Chunsyu) va 战国 (Chjango).

Venyan ogʻzaki til va yozuvning madaniyat, tarix bilan bogʻliqligini ham oʻzida aks ettiradi. Til koʻpincha ogʻzaki muloqot vositasi boʻlgani uchun real hayot bilan chambarchas bogʻliq. Til hali madaniyat holatiga kirmagan ekan, u hayot anʼanalarini davom ettirish vazifasini bajarolmaydi. Venyan esa allaqachon madaniyatga aylangan, desak adashmaymiz.

Venyanni oʻrganish jarayonida bizda xato fikr paydo boʻlishi mumkin: qadimgi odamlar soʻzlashganda ham xuddi shunday, yaʼni venyan matnlarida yozilgandek muloqot qilishganmi?

Aslida qadimgi xitoyliklar oʻz fikrini ifoda etishganda, bu fikrning yozuvda aks ettirilgan shakli va talaffuz qilingan shakli bir-biridan katta farq qilgan. Masalan, biror odamdan ovqat yegani haqida soʻralganda, ogʻzaki tilda: “吃饭了吗?” chī fàn le ma? (“Ovqat yedingmi?”) tarzida ifodalansa, xuddi shu savol yozma tilda (venyan): “饭否?” fàn fǒu? (“Ovqatlandingmi?”) koʻrinishida boʻlgan.

Xitoyda qadimda yozilgan barcha asarlar yozma tilda bitilgan. Shuning uchun hozirda qadimgi xitoy tili “文言文” deb ataladi.

Venyan xitoy madaniyatining durdonasi, ota-bobolar xitoy xalqiga qoldirgan beqiyos boylikdir. Xitoy taʼlim tizimi boʻyicha oʻquvchilar oʻrta maktabdan boshlab venyanni oʻrganishadi. Bu esa xitoy xalqining oʻz tarixi va madaniyatiga boʻlgan katta hurmati va qiziqishidan dalolat beradi.

Venyan juda rang-barang tildir. Xitoy anʼnaviy madaniyatining asosiy qismi venyanda bitilgan. Bu esa 3000-yillik tarixni oʻz ichiga oladi.

**Venyanni oʻrganishning ahamiyati.** Venyan allaqachon muomaladan chiqqan, faqat yozuvda saqlanib qolgan, xolos. Ammo venyan yozuvi hali ham oʻrganiladi. Nima uchun?

Sababi esa venyanni bilish orqali Xitoy qadimgi va klassik davr badiiy yodgorliklarini haqiqiy koʻrinishida mutolaa qilish

va ushbu manbalarning asl qadr-qimmatini his etish mumkin bo'ladi.

Venyan ham bilim hisoblanadi. Xitoy tilini aks ettirish, tasvirlash, uning ichki tuzilishi, xususiyatlari venyanni o'rgangan inson uchun yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Venyanda yozilgan matnlarni o'qib mutolaa qilinganda xitoy tilining nafisligi, o'ziga xosligi, Xitoy an'nalari, madaniyati, tarixi his qilinadi.

Venyanni ichki tuzilishini o'rganish orqali esa zamonaviy xitoy tilini yanada chuqurroq anglash, grammatik tuzilish va ba'zi jumboqlar o'z-o'zidan yechimini topadi.

**Venyan xususiyatlari.** Venyan matnlarini o'qish jarayonida ilmning o'zgacha sehrini his etish mumkin. Sababi venyanda maksimal kam belgilar (iyerogliflar) orqali katta ko'lamdagi tushunchalar aks ettirilgan. Zero ko'rib chiqilganidek, u – dunyodagi eng dastlabki vujudga kelgan ixchamlashtirilgan yozuv turi.

*Venyan:* 不者，若属皆且为所虏。 Fǒu<sup>1</sup> zhě, ruò shǔ jiē qiě wéi suǒ lǔ.<sup>2</sup>

*Bayxua:* 不这样的话，你们这一班人都将被他们俘虏。  
Bú zhèyàng de huà, nǐmen zhè yì bān rén dōu jiāng bèi tāmen fúlǔ.

*Tarjimasi:* Agar shunday yo'l tutmasangiz, barchangiz ularning quliga aylanasiz.

Yuqoridagi ikki til matnining tahlili quyidagicha. Fikrni yozuvda aks ettirish uchun venyanda 9 ta belgi ishlatilgan bo'lib, gap ixcham va qisqaligi bilan farq qiladi. Bayxuada esa analogik g'oyani ochib berish uchun 18 ta (ikki barobar ko'proq!) belgi ishlatilgan.

Zero, tilda venyan matnlarining tarjimasi o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bir qator venyanda yozilgan manbalarda tarixiy matnga bayxuadagi sharh ilova qilinadi.

<sup>1</sup>不 inkor so'zi qadimgi xitoy tilida fǒutarzida talaffuz qilingan. Zamonaviy xitoy tilida bù tarzida o'qiladi.

<sup>2</sup>“Tarixnoma. Syanyuy faoliyati bo'limi”.



Quyida venyanni zamonaviy tilga tarjima qilganda qaysi jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozimligi haqida fikr boradi.

- avval butun matnni ko'zdan kechirib chiqish;
- asosiy g'oyani tushunib olish;
- tartib bo'yicha tarjimani boshlash;
- har bir gapni tarjima qilayotganimizda, u gapdan oldingi va keyingi gaplar mazmunini hisobga olgan holda tarjima qilish;
- ijodiy yondashish zarur, aks holda tarjima quruq va ma'nosiz chiqadi;
- odam, geografik nomlar tarjimasini.

Zamonaviy Xitoyda qadimgi xitoy tili uslubidagi aforizm va shiorlar juda ommabop. Yuqorida Jinmen oroli qoyalaridan birida (XXR, Tayvan hududi) Chan Kay-shi<sup>1</sup> chaqirig'i venyanda aks ettirilgan: “毋忘在莒” (Wúwàngzài Jǔ), “Yodingizdan chiqarmang, - (biz) Jyuy (shahri)damiz!”<sup>2</sup>.

Qadimgi xitoy tilida ham so'z turkumlari ikkiga bo'lingan: mustaqil so'z turkumlari (实词 shící) va yordamchi so'z turkumlari (虚词 xūcí).

Xitoy tilida aniq bir (real) ma'no ifoda etuvchi so'zlarga mustaqil so'z turkumlari deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi mustaqil so'z turkumlari 5 guruhga bo'lingan:

1. Ot – 名词 míngcí.
2. Fe'l – 动词 dòngcí.
3. Sifat – 形容词 xíngróngcí.
4. Son – 数量词 shùliàngcí.
5. Olmosh – 代词 dàicí.

<sup>1</sup> 蒋介石 (Jiǎng Jièshí) Tzyang Tzeshi (1887–1975) – Xitoy qurolli kuchlari qo'mondoni, generalissimus, mutafakkir davlat arbobi. 1925-yili Song Yatsen (孙逸仙 Sūn Yìxiān) o'limidan keyin Gomintang partiyasiga boshchilik qilgan. Umrining oxirgi 26-yilini Tayvanda o'tkazib, shu yerda vafot etgan.

<sup>2</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

**Yordamchi soʻz turkumlari** – yakka holda maʼno anglatmaydigan, gap boʻlagi boʻla olmaydigan, Grammatik maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan soʻzlardir. Ular mustaqil soʻzlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, soʻzga va gapning mazmuniga turli qoʻshimcha maʼnolar qoʻshadi. Qadimgi xitoy tilidagi yordamchi soʻz turkumlari 6 guruhga boʻlingan:

1. Ravish – 副词 fùcí.
2. Koʻmakchi – 介词 jiècí.
3. Bogʻlovchi – 连词 liáncí.
4. Yordamchi soʻzlar – 助词 zhùcí.
5. Yuklama – 语气词 yǔqìcí.
6. Undov soʻzlar – 叹词 tàncí.

Koʻrishimiz mumkinki, qadimgi xitoy tilida son va hisob soʻzlar bir turkumga kiritilgan. Zamonaviy xitoy tilida esa ular alohida soʻz turkumlari hisoblanadi. Ravish soʻz turkumi qadimgi xitoy tilida yordamchi soʻz turkumi boʻlgan, hozir esa mustaqil soʻz turkumiga aylangan.

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson, narsa-buyum, vaqt, joy nomini bildiruvchi soʻzlar turkumi **ot** deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi otlarga quyidagilar misol boʻla oladi:

孔子 kǒngzǐ – Konfutsiy;

孟子 mèngzǐ – Meng-zi;

民 mín – xalq;

人 rén – odam;

天下 tiānxià – Osmon osti (Xitoy);

君子 jūnzǐ – oliyjanob inson;

江 jiāng – Yanzi daryosi;

河 hé – Xuangxe daryosi;

东 dōng – Sharq;

南 nán – Janub;

西 xī – G‘arb;  
北 běi – Shimol;  
牛 niú – sigir;  
羊 yáng – qo‘y;  
车 chē – arava.

Qadimgi xitoy tilidagi ot so‘z turkumi grammatik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan deyarli o‘xshash. Gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘lib kelgan. Zamonaviy xitoy tilidan farqli tomoni – ba’zida hol gap bo‘lagi vazifasini bajargan, fe‘l o‘rnida qo‘llanilgan. Quyida ushbu hodisalarni tahlilini o‘tkazamiz:

I. *Ot hol vazifasida.* Qadimgi xitoy tilida ot quyidagi o‘rinlarda hol bo‘lib kelgan:

(1) *Qiyoslash ma’nosini bildirganda.* Ot orqali kimsa yoki narsa-buyumning ish-harakat belgisi, uslubi hamda holati tasvirlanadi. Bunda ot “像 ... 一样” xiàng ... yíyàng, “像... 的” xiàng ... shìde (... –ga o‘xshab) ma’nosini beradi.

“Lyaochjay g‘aroyibotlari” “Bo‘ri hikoyasi” bo‘limida (聊斋志异·狼 Liáozhāi zhìyì • láng)<sup>1</sup> hikoya qilinishicha:

“其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián (Bo‘ri go‘yo it kabi tizzasida o‘tirar edi).

Bu gapda 犬 quǎn (it) ot so‘z turkumiga oid, gapda hol vazifasini bajargan. Qiyoslash ma’nosini bildirgan.

---

<sup>1</sup>Ching davri (清 1644-1911). Taniqli nasrshunos yozuvchisi Pu Songlin (蒲松龄 Pú Sōnglín 1640-1715) qalamiga mansub asar. Lyaochjay taxallusi ostida ijod qilgan bu yozuvchi 400 dan ortiq novellar yaratgan. “Lyaochjay g‘aroyibotlari” syujeti turli fantastik voqealarga limo-lim.





**Pu Songlin (1640-1715)**

(2) *Ish-harakatning uslubi, holatini bildirganda*

“Tarixnoma”ning “Syangyuy tarjimayi holi” (史记·项羽本纪 shǐjì • Xiàngyǔ běnji) bo‘limida yozilishicha:

“吴得兄事之” Wú dé xiōng shì zhī (Men unga xuddi akasi kabi g‘amxo‘rlik qilishim kerak).

Bu gapda “兄” (xiōng – aka) hol vazifasini bajargan ot bo‘lib, “事” (shì – g‘amxo‘rlik qilmoq) fe‘lining holatini bildirmoqda. “Akasidek g‘amxo‘rlik qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

(3) *Jihoz nomini bildirganda*

“Yuygun tog‘ni surdi” hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān):

“用箕畚把土石运到渤海边上”. Yòng jībēn bǎ tǔ shí yùndào bóhǎi biān shang (U xokandozdan foydalanib, toshlarni dengiz qirg‘og‘iga olib borib tashladi).

“箕畚” (jībēn – hokandoz) oti hol bo‘lib kelgan, ishlatilgan jihozni ifodalaydi. Gapda hol vazifasini bajargan.

Ot hol bo‘lib keladigan bu holatda, qadimgi xitoy tilidan zamonaviy xitoy tiliga tarjima qilganimizda eng yaxshisi otdan oldin “用” (yòng – foydalanmoq), “拿” (ná – olmoq) yoki “在” (zài - da, joylashmoq) kabi so‘zlarni qo‘shish kerak. Ot hol

vazifasini bajarganda hech qanday alohida ko'rsatkich mavjud emas, asosiysi ikkala til ma'nosidan kelib chiqqan holda o'rganishimiz lozim.

*II. Otning fe'l o'rnida kelishi.* Qadimgi xitoy tilida ko'pgina otlar fe'l sifatida ishlatilib, gapda kesim vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan. Ot fe'l vazifasini bajarganda, otning ma'nosi butunlay yo'qolmaydi, balki qo'shimcha ma'no qo'shiladi.

“Zojuan” “Tzaoguy munozarasi” (左传·曹刿论战 zuǒzhuàn·Cáo guì lùnzhàn) bo'limida:

“齐人三鼓”。Qí rén sān gǔ (Chi askarlari uch marotaba do'mbira chalishdi).

“鼓” (gǔ – do'mbira) oti fe'l sifatida ishlatilgan, “do'mbiraga urmoq” ma'nosini beradi, kesim vazifasini bajargan.

Otning qo'llanilish usullari

● Ot fe'l o'rnida kelganida, o'zidan keyin to'ldiruvchini oladi. Masalan:

1) “Tarixnoma” “Syangyuy tarjimai holi” bo'limi (史记·项羽本纪 shǐjì·Xiàngyǔ běnji):

“先破秦入咸阳者王之”。Xiān pò qín rù xián yáng zhě wáng zhī (Avval Chin qo'shiniga hujum qilib, Syanyangni bu yerga olib kelamiz, keyin uni taxtga o'tqazamiz).

“王” (wáng – qirol): ot so'z turkumiga kiradi, bu gapda “之” to'ldiruvchisidan oldin kelib, “qirol qilmoq, taxtga o'tqazmoq” ma'nosini beradi. “王之” - “uni taxtga o'tqazish” deb tarjima qilinadi.

● Ot fe'l ma'nosini bildirganda, o'zidan keyin to'ldiruvchi olib, sub'yektiv “hisoblamoq” ma'nosini bildiradi. Masalan:

“Syun-zi” “Fu” bo'limida (荀子·赋 Xúnzǐ·fù):

“友风而子雨”。Yǒu fēng ér zǐ yǔ (Shimolni o'z do'stim, yomg'irni esa farzandim deb bilaman).

“友” yǒu (дѣст) “子” zǐ (farzand) asli ot so‘z turkumiga oid, bu gapda fe‘l ma‘nosini ifodalagan: “... do‘st deb bilmog‘, “farzand deb hisoblamoq” deb tarjima qilinadi.

III. Yo‘nalish otlarining ishlatilishi. Qadimgi xitoy tilida, yo‘nalish otlari odatda quyidagi hollarda ishlatilgan:

1) odatda boshqa otlar bilan birga qo‘llaniladi (shuningdek, “之”, “以” kabi so‘zlar orqali yasaladi), bunda joy nomini ifodalaydi. Zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Masalan:

(1) “Mulan she‘ri” (木兰诗 Mùlánshī)da yoziladi:

“东市买骏马”. Dōngshì mǎi jùn mǎ (Sharqiy bozorda yaxshi ot sotiladi).

“东” dōng (sharq) yo‘nalishni bildiruvchi ot “市” shì (bozor) bilan birikib, joy nomini bildirgan.

2) fe‘ldan oldin kelib, bu ish-harakat qilingan joy yoki yo‘nalishni ko‘rsatadi.

“Uzun ma‘yus kuy” (长恨歌 cháng hèn gē) she‘rida<sup>1</sup>:

“上穷碧落下(穷)黄泉”. Shàng qióng bì luò xià (qióng) huáng quán (Yuqoriga chiqsang osmonni ko‘rasan, pastga tushsang yer ostiga duch kelasan).

Bu gapda “上” shàng, “下” xià so‘zlari “穷” qióng (tugamoq, nihoyasiga yetmoq) fe‘lining yo‘nalishini ko‘rsatmoqda.

3) “于” yú (old ko‘makchisi)ni fe‘ldan keyin qo‘yib, joylashuvni bildirish mumkin.

“Lyzochjay g‘aroyibotlari” “Bo‘ri hikoyasi” bo‘limida (聊斋志异·狼 Liáozhāi zhìyì • láng):

“其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián (Bitta bo‘ri go‘yo it kabi old tomonda o‘tirardi).

<sup>1</sup> Bay Jyui (白居易 772-846) – Tang davri (唐 618-907) shoiri qalamiga mansub asar (Sixay, 1-jild, 72-b.).



“于” (old ko‘makchi) va “前” (ot) birikib, “old tomonda” ma’nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.

*IV. Vaqt otlarining qo‘llanilishi.* Qadimgi xitoy tilida vaqt otlari 3 turga bo‘linadi:

(1) fe‘ldan oldin kelib, ish-harakat sodir bo‘lgan vaqtni ifodalaydi. Masalan: Li Dao Yuanning “Uch tog‘ darasi” (三峡 sānxiá):

“朝发白帝, 暮到江陵”. Zhāo fā Báidì, mù dào Jiānglíng (Biz ertalab Baydi shahridan chiqib ketib, kechqurun Jyanlingga yetib bordik).

Bu gapda ot so‘z turkumiga oid 朝 (ertalab), 暮 (kechqurun) 发 (yo‘lga chiqmoq), 到 (yetib bormoq) fe‘llariga bog‘lanib, gapda hol vazifasini bajargan.

(2) kun, oy, yil kabi so‘zlar fe‘ldan oldin ishlatilib, “har kuni” (每日 měirì, 日日 rìrì), “har oy” (每月 měiyuè, 月月 yuèyuè), “har yil” (每岁 měisui, 岁岁 suìsuì) degan ma’nolarni bildiradi.

Masalan: “Syun-zi”ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子·劝学):

“君子博学而日参省乎己”. Jūnzǐ bó xué ér rì cān shěng hū jǐ (Buyuk hukmdor ko‘pgina ilmlarni o‘rganadi hamda har kuni o‘z-o‘zini imtihon qiladi).

Bu gapda 日 rì (kun) oti “har kuni” ma’nosini anglatib, 参省 cān shěng (imtihon qilmoq) fe‘liga bog‘langan. Gapda vaqt holi bo‘lib kelgan.

(3) “日” rì (kun) so‘zi sifatdan oldin kelib, ish-harakatning rivojlanish jarayonini bildiradi. “一天比天” yì tiān bǐ tiān (kundan kunga, brogan sari) ma’nosini anglatadi.

“Uchpodsholik” “Chju Ge-Lyang” hikoyasi (三国志·诸葛亮传 sānguózhì· Zhūgēliàng zhuán):

“于是与亮情好日密” - Yúshì yǔ liàng qíng hǎo rì mì (ChjuGe-lyang va men o‘rtamizdagi do‘stlik kundun kunga ortib borardi).

Ushbu gapda 日 (kun) so‘zi 密 (yaqin) sifatidan oldin kelgan, “kundun kunga”, “borgun sari” ma‘nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyum ish-harakati, psixologik kechinmalari, rivojlanishi, o‘zgarishi va boshqa harakatni bildiruvchi so‘zlar fe‘l deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi fe‘l grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Gapda kesim, hol gap bo‘laklari vazifasini bajargan. Quyidagicha o‘ziga xosliklari mavjud:

I. Fe‘l gapda hol bo‘lib kelishi. Qadimgi xitoy tilida fe‘l gapda ko‘pincha hol vazifasini bajarib, ish-harakat holati yoki bajarilishi usulini bildirgan. Bunda fe‘l kesimdan oldin joylashgan. Ko‘pincha ikki fe‘l orasiga “而” ér bog‘lovchisi qo‘yilgan.

“Syun-zi”ning “Ta‘lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子·劝学):

“吾跂而望矣” - Wú qí ér wàng yǐ (Men oyoq uchida turib, olislarga boqardim).

“跂” qí (oyoq turmoq) fe‘li “望” wàng (nazar solmoq, qaramoq) fe‘lining holatini bildirib, gapda hol vazifasini bajargan.

II. Fe‘lning gapda kesim bo‘lib kelishi. Fe‘l gapda kesim vazifasini bajarganda, u ifoda etgan ish-harakat ega tomonidan bevosita bajarilmaydi, balki bu vazifa to‘ldiruvchiga yuklatiladi. Bunda fe‘lning orttirma nisbati<sup>1</sup> yasaladi.

“Tarixnoma” “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi (史记·项羽本纪 shǐjì·Xiàngyǔ běnjì):

<sup>1</sup> Orttirma nisbatdagi fe‘llar ish-harakatning boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi.

“项伯杀人，臣活之” - Xiàngbó shā rén, chén huó zhī.  
(Syangbo odamlarni o‘ldirib, jinoyat qildi, men esa uning hayotini saqlab qoldim).

Bu gapda “活” (yashamoq, tirik bo‘lmoq) “之” (unga) to‘ldiruvchisi bilan birikib, “unga hayot baxsh etmoq” ma’nosini bildirgan.

### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Anri Masperoning xitoy tilini davrlashtirish nazariyasi haqidagi fikringiz?
2. Vanlining xitoy tilini davrlashtirish haqidagi qarashlarini izohlang?
3. S.Ya. Yaxontovning xitoy tilini davrlashtirish nazariyasi? Quyida ko‘rsatilgan uchta nazariyasining qaysi biri to‘g‘ri asoslang?
4. Venyaning ma’nosi nima, ushbu yozuv xitoyda necha ming yillik tarixga ega?
5. Xitoyda venyan yozuv sifatida qaysi asrda to‘la to‘kis shakllandi?
6. Qadimgi xitoy solnomalar, qo‘lyozma manbalari qaysi tilda yozilgan?

### Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari:

1. Transkripsiya berishning fanqie usuli. Fanqiening bugungi o‘qilishidagi muammolar.
2. Buddizm adabiyotidan. “To‘qqiz rangli jayron” matni.
3. Matnning Grammatik tahlilini amalga oshiring.

### Mustaqil ta‘lim topshiriqlari:

1. V asrda yaratilgan “To‘rt ohang notasi” va zamonaviy ohangning o‘xshash va farqli tomonlari.  
Venyan va bayxua yozuvning farqli tomonlarini asoslang.



## TEST

1. 西施是中国古代传说中的“四大美女”之一，有心痛的毛病。犯病时手扶住胸口，皱着眉头，比平时更美丽。同村女孩东施学着西施的样子扶住胸口，皱着眉头，因其本来就长得丑，再加上刻意地模仿西施的动作，装腔作势的怪样子，让人更加厌恶。这就是成语“东施效颦”，一般用来比喻胡乱模仿，效果极坏。

答案：正确。

2. 成语“千里送鹅毛”比喻礼物虽然微薄，却含有深厚的情谊，所以人们常常会接着说一句“礼轻情意重”。

答案：正确。

3. 成语“亡羊补牢”是说“羊已经死亡了，再去补牢房。”用来比喻“马后炮”、“白干了”的行为。

答案：错误。亡：逃亡，丢失；牢：关牲口的圈。羊逃跑了再去修补羊圈，还不算晚。比喻出了问题以后想办法补救，可以防止继续受损失。



4. 惯用语“跑龙套”来源于中国传统戏曲，原指戏曲中拿着旗子做兵卒的角色。后比喻在人手下做无关紧要的事。

答案：正确。

5. “三天打鱼，两天晒网”是形容渔民的日常工作状态。

答案：错误。比喻对学习、工作没有恒心，经常中断，不能长期坚持。

6. “家有一老，如有一宝”说明家里如果有古董，就会发财。

答案：错误。是说老年人有丰富的生活经验,可以做年轻人的生活指导。

7. “刻舟求剑”比喻不懂事物已发展变化而仍静止地看问题。

答案：正确。



8. 根据汉字的造字法来判断，“上”是：

- A. 形声字 B. 象形字  
C. 会意字 D. 指事字



答案：D

9. 下列汉字中，字义表示“早晨太阳从地平线上升起”的是：

- A. 早 B. 旦  
C. 暮 D. 晨



答案：B

10. 根据汉字的造字法，“狮”是：

- A. 形声字 B. 象形字  
C. 会意字 D. 指事字

答案：A

## 9 - MAVZU. VENYAN TILI XUSUSIYATLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** Gap bo'laklari. So'z ma'nosining o'zgarishi. Qadimgi xitoy tilining leksikasi, so'z ma'nosi va uning o'zgarishi, Venyanda polisemiya hodisasi, ehtirom va kamtarlikni bildiruvchi so'zlar.

**Tayanch so'z va iboralar:** 古代汉语词汇学, 说文解字, 通假字, 诸侯, 冯婉贞, 战国策, 古今字, 同源字, 连绵字, 长江, 春秋, 金属, 黄金, 史记, 敬称, 尊称, 谦称.

Chjao Kechinning "Qadimgi xitoy tili leksikologiyasi" (古代汉语词汇学) kitobi 15-betida yozilishicha: "Xitoy yozuvi – belgili yozuv turiga kiradi. Har bir iyeroglif ma'lum bir shakl, o'qilish va ma'noga ega. Aytish mumkinki, nazariy jihatdan, iyeroglif so'zga teng bo'lishi mumkin".

Milodiy 121-yilida Syuy Shen<sup>1</sup> "Sho ven sze szi" (说文解字)<sup>2</sup> lug'atini tuzadi.

Olim 10000ga yaqin iyerogliflarni o'rganib chiqib, iyeroglif shakli asosida uning ma'nosi va kelib chiqishini tushuntirdi. "Sho ven sze zi" – Qadimgi Xi'toyda yaratilgan eng yirik filologik asar hisoblanadi. Bu lug'atda so'zning faqatgina bitta ma'nosi keltiriladi, ya'ni asl ma'nosi (本义).

Demak, bu leksikografik asar Xitoyda yaratilgan eng dastlabki lug'at ko'rinishi, desak xato bo'lmaydi. Albatta, "Sho ven sze zi" lug'atida qayd qilingan so'z ma'nolari xatoliklardan holi emas. O'sha paytlarda tushunchalar ko'p, iyerogliflar esa kam bo'lgan. Ba'zi tushunchalarga nisbatan alohida iyerogliflar

<sup>1</sup>许慎 Xūshèn (58—147) Sharqiy Xan davri iyeroglifshunos, tilshunos, adabiyotshunos olimi (Sixay, 4-jild, 2413-b)

<sup>2</sup>"So'zlar tahlili va belgilar izohi". Unda 10000ga yaqin iyeroglif 540 ta kalit (部) bo'yicha tizimga keltirilib, tahlil qilingan (Sixay, 3-jild, 1977-b.).



kashf qilinmagan bir paytda, shu tushunchani ifodalash uchun boshqa iyerogliflardan foydalanilgan. Masalan: “Sho ven sze zi” lugʻatida “易” (yì – oson) iyeroglifi tushunchasini ifodalash uchun “蜥蜴” (xīyì – kaltakesak) tasviriy-rasm turkumiga (象形字 xiàngxíngzì) tegishli iyeroglifdan foydalanilgan.

Qadimgi xitoy tili II shaxs olmoshi dastlab “女” (nǚ – ayol) iyeroglifi bilan ifodalangan. Keyinchalik suv kaliti <sup>1</sup> bilan yoziladigan “汝” (rǔ)ga oʻzgardi. Oxir-oqibat zamonaviy shakl, yaʼni 你(nǐ) tarzida shakllandi.



“Sho ven sze zi” (说文解字) lugʻati

Asrlar mobaynida iyeroglifning maʼnolari koʻpaydi, shakl hamda maʼno bir-biridan ajraldi, iyeroglif va soʻz har xil koʻrinishga keldi. Iyerogliflarning rivojlanishi va oʻzgarishi oqibatida leksik tizimda ham oʻzgarishlar yuzaga keldi.

Bu esa oʻz navbatida, qadimgi xitoy tili leksikasida quyidagi toʻrt hodisani keltirib chiqardi:

- 1) 通假字 tōngjiǎzì – oʻzlashtirilgan iyerogliflar (公 oʻrniga gōng guǒ 功, 果 oʻrniga gǎn 敢);

<sup>1</sup> “Bixua, yaʼni nuqta va chiziqalar – iyerogliflarni tashkil qiluvchi eng kichik birlikda, kalit esa bixualardan tashkil topgan kattaroq birlikdir”. (5,74)

2) 古今字 gǔjīnzi – qadimgi zamonaviy iyerogliflar (莫 va  
liǎng liàng yuán yuán yào yāo  
两 va 辆, 原 va 源, 要 va 腰);

3) 同源字 tóngyuánzi – qardosh iyerogliflar<sup>1</sup>(浓 va 农,  
zhāng  
va 涨);

4) 连绵字 liánmiánzi – juft (birikmali) iyerogliflar(玲珑,  
línglóng  
cī wú gōng zhōu lǐ cōng cōng jīn jīn  
差, 蜈蚣, 妯娌, 匆匆, 津津).

### “Tōngjiǎzì” hodisasi

Syu Shen “Sodda yozuv va murakkab belgilar sharhi”  
yuy” (叙) bo‘limida yozadi: “本无其字, 依声托事, 令长是  
(Běn wú qí zì, yī shēng tuō shì, lìng zhǎng shì yě.) – Aslida  
hodisani anglatuvchi yozuv (iyeroglif) mavjud emas, shuning  
un bu so‘zga tovushdosh yoki o‘xshash tovushli boshqa  
roglifni olib, u yordamida aloqador so‘z ifodalangan.

**Tōngjiǎzì** (通假字)<sup>2</sup> – qadimgi yozma tilda ba’zi  
rogliflarni yozish jarayonida ularning o‘rniga shu iyerogliflar  
an talaffuzi bir xil yoki o‘xshash bo‘lgan boshqa iyeroglifni  
ish.Qadimgi yozma tilda tovushi bir xil yoki o‘xshash  
lgan iyerogliflar boshlang‘ich iyeroglifni o‘rniga ishlatilishi,  
xil tovushli so‘zlar yoki yaqin tovushli so‘zlar yozma  
gilari orasidagi almashinish hodisasidir.

Masalan, “蚤”zǎo (burga) iyeroglifidan foydalanib “早”  
o) ya’ni “tong” ma’nosi ifodalangan. Bu yerda “蚤”qarzga  
ngan yoki o‘zlashtirilgan iyeroglif deb ataladi; almashilgan  
” esa boshlang‘ich iyeroglif deyiladi.

plet, ya’ni o‘qilishi o‘xshash va kelib chiqishi bir bo‘lgan iyerogliflar. Bir xil  
unchani kasb etuvchi iyerogliflar (29,261).  
ōngjièzì”(通借字)deb ham ataladi.

Tōngjièzì usulining quyidagi turlari mavjud:

1) **Tovushdoshlar almashinuvi** (o'zlashtirilgan soʻz va boshlangʻich soʻz bir xil oʻqiladi). Masalan “蚤”zǎo orqali “早”ni ifodalash; 堂 táng (joy) orqali 棠 táng (familiya)ni ifodalash;

2) **Shengmudoshlar almashinuvi** (o'zlashtirilgan va boshlangʻich soʻz yunmusi har xil, lekin shengmusi o'xshash<sup>1</sup>). Masalan, “培”péi (tarbiyalamoq) orqali “憑”píng (suyanmoq, asoslanmoq) maʼnosini ifodalash; “果”guǒ (meva) orqali “敢”gǎn (jurʼat qilmoq) ni ifodalash;

3) **Qofiyadosh boʻgʻinlar almashinuvi** (oʻzlashtirilgan va boshlangʻich soʻz shengmusi har xil, lekin yunmusi oʻxshash). Masalan, “伶”líng (sanʼatkor) orqali “伸”shēn (chiqarmoq) maʼnosi, “崇”chóng (eʼzozlamoq) orqali “终”zhōng (oxirat) maʼnosi ifodalanishi.

Bunday soʻzlar qadimgi yozma tilda koʻp uchraydi, ammo keyingi davrga borib asta-sekin kamaygan. Zamonaviy xitoy tilida umuman uchramaydi.

### Venyanda gap boʻlaklari

#### Sifat soʻz turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyumning shakli, xusuiyati va u ish-harakatining holatini bildiruvchi soʻzlar **sifat** deyiladi. Ularga quyidagilar misol boʻla oladi:

大 dà – katta;

小 xiǎo – kichik;

长 cháng – uzun;

短 duǎn – kalta;

高 gāo – baland;

低 dī – past;

红 hóng – qizil;

<sup>1</sup>Xitoy tilida boʻgʻin ikkiga boʻlinadi: 1. Shengmu (声母) – boʻgʻin boshida keluvchi undosh tovush. 2. Yunmu (韵母) – boʻgʻinning shengmudan keyingi boʻlagi.



白 bái – oq;  
富 fù – boy;  
贵 guì – qimmat;  
美 měi – nafis;  
恶 è – xunuk;  
从容 cóngróng – sekin;  
仓皇 cānghuáng – hovliqqan;

Venyandagi sifat Grammatik va sintaktik xususiyatlari jihatidan zamonaviy xitoy tili (bayxua)dagi sifat bilan deyarli bir xil. Gapda asosan aniqlovchi, hol, kesim bo‘lib kelgan. Ba’zida ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi ham mumkin bo‘lgan, ammo bunday sifatlar sifatlik xususiyatlarini allaqachon yo‘qotgan, otlashgan sifatga aylangan. Quyida bu holatni ko‘rib chiqamiz:

*I. Sifatning otlashish hodisasi.* Qadimgi xitoy tilida sifat gapda ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi mumkin bo‘lgan, ya’ni sifat otlashish xususiyatiga ega bo‘lgan.

“Zojuan” “Nang Gong hukmronligining 19-yili” (左传·襄公十九年 zuǒzhuàn·Nānggōng shíjiǔ nián):

“大母侵小”. Dà wú qīn xiǎo. (Katta mamlakat kichik mamlakatni bosib olishi kerak emas).

“大”, “小”: asli sifatlar, ammo bu gapda “katta mamlakat”, “kichik mamlakat” ma’nosida kelgan, “侵” (bosib olmoq) fe’lning egasi va to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan.

*II. Sifatning fe’llashish hodisasi.* Qadimgi xitoy tilida sifatning fe’llashish hodisasi ko‘p uchraydi. Bunda sifat o‘zidan keyin to‘ldiruvchi oladi.

TsaoTsaoning<sup>1</sup>“Chjitun tyanling” (置屯田令 zhìtúntiánling) asarida:

<sup>1</sup>Tsao Tsao (曹操 Cáocao 155-220) – Uch podsholik davri davlat arbobi, sarkardasi, shoir, harbiy mahorat haqidagi asarlar muallifi. Mil.avv. III asr boshiga qadar Xan davri (mil.avv.206-eramiz 220) hukmdori va bu sulolani tugatgan shaxs sifatida tarixga kirgan (Sixay, 1-jild, 212-b.).

“夫定国之术，在于强兵足食”。Fū dìng guó zhī shù, zài yú qiáng bīng zú shí (Mamlakatda tinchlik-barqarorlikni oʻrnatish uchun qurolli kuchlarni yanada kuchaytirish, xalqni esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻla taʼminlash lozim).

“强” (qudratli, kuchli), “足” (yetarli) sifatlari bu gapda “使。。。强盛” shǐ。。。qiángshèng – “kuchaytirmoq”, “使。。。充足” shǐ。。。chōngzú – “yetarli darajada taʼminlamoq” maʼnolarini bildirgan. Demak, sifat maʼnosi feʼlga oʻzgargan.

Sifat gapda feʼl vazifasini bajarib, oʻzidan keyin toʻldiruvchini olganda, ega tomonidan toʻldiruvchini sifat ifoda etgan xususiyatga egaligi subʼyektiv ravishda eʼtirof etiladi.

Masalan: Tao Chyaning<sup>1</sup>“Shaftoli guli bitiklari” (桃花源记 táohuā yuánjì):

“渔人甚异之” - Yú rén shèn yì zhī (Baliqchiga bu holat juda gʻalati tuyuldi).

“异” (gʻalati) soʻzi asli sifat boʻlib, bu gapda maʼnosi feʼlga koʻchishini kuzatamiz: “认为。。。异” rènwéi。。。yì – “birror holatni gʻalati deb hisoblamoq” maʼnosini anglatadi.

### Son

Xitoy tilshunoslarining fikricha, narsa-buyum yoki ish-harakatning sanogʻini bildiruvchi soʻzlar *son* deb ataladi. Venyandagi son soʻz turkumi *son* va *hisob* soʻzlarni oʻz ichiga olgan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Tao Chyan (陶潜 365-427) – Sharqiy Jin davri (317-420) shoiri. Tao Yuan-ming (陶渊明 táo yuānmíng) taxallusi bilan koʻproq mashhur. 160 ta sheʼri bizgacha yetib kelgan. Sheʼrlarida bir qator axloqiy masalalarni koʻtargan (Sixay, 3-jild, 2074-b).

<sup>2</sup>Zamonaviy xitoy tilida hisob soʻzlar alohida soʻz turkumi hisoblanadi.

## Son

Qadimgi xitoy tilidagi sonning qoʻllanilishi zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi, quyidagi xususiyatlarga ega:

*I. Gapda aniqlovch ihol vazifasini bajargan, bunga odatda hisob soʻz ishlatilmagan.*

### 1. Son+Ot

“Yuygun togʻni surdi” hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān):

“太山王屋二山”. Tàishān Wángwū èr shān (Tayshan va Vangu bu ikki togʻ).

“二” èr (ikki): son boʻlib, “山” shān (togʻ) otini aniqlab kelgan, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan.

### 2. Son+Feʼl

“Uchpodsholik” “ChjuGe-Lyang hikoyasi” (三国志· 诸葛亮传 sānguózhì· Zhūgěliàng zhuán) boʻlimida:

“由是先主遂诸亮，凡三往，乃见”。 Yóu shì xiān zhǔ suì Zhūliàng, fán sān wǎng, nǎi jiàn (Shu sababli Chju Ge-lyang huzuriga hammasi boʻlib, uch marta tashrif buyurdim, shundagina uni koʻrish baxtiga muyassar boʻldim).

“三” (uch) son soʻz turkumi, “往” (bormoq) feʼlini holatini bildirmoqda, gapda hol vazifasini bajargan.

*II. Son predmetning sanogʻini bildirganda, baʼzida otdan keyin joylashgan.*

### Ot+Son

Vey Syue-I<sup>1</sup>“Xechjouji” (核舟记):

<sup>1</sup> 魏学洵 Wèi Xuéyī (taxminan 1596-1625) – Ming (1368-1644) davri taniqli yozuvchisi. (32,2214-b).



“通计一舟，为人五，为窗八”。 Tōngjì yī zhōu, wéi rén wǔ, wéi chuāng bā (Bitta qayiqda hammasi bo‘lib, beshta odam, sakkizta deraza bor).

“一” (bir) soni otdan oldin kelgan, “五” (besh), “八” (sakkiz) esa aksincha otdan keyin kelgan.

III. Kasr, chama, noaniq sonlar ifodalaniishi zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi:

a) kasr son

1) **Maxraj+Surat=Kasr son**

“Tarixnoma”ning “Chenshe shijya” (史记·陈涉世家) bo‘limida:

“而戍死者固十六七”. Ér xū sǐ zhě gù shí liù qī (Chegara posbonlaridan halok bo‘lganlar soni 10 dan 6, 7 ni tashkil qiladi<sup>1</sup>).

b) chama son odatda “可” kě, “所” suǒ, “许” xǔ so‘zlari orqali yasaladi.

2) **“可” (“所”, “许”)+Son=Chama son**

“Xan kitobi” “Qirol Chjang hikoyasi” (汉书·王章传) bo‘limida:

“年可十二” - Nián kě shí èr (U chamasi 12 yoshlarda edi).

c) noaniq son

Qadimgi xitoy tilidagi son ba’zida shakl jihatdan aniq son bo‘lsa-da, aslida noaniq bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan. Odatda, “三” (3), “九” (9), “百” (100), “千” (1000), “万” (10000) singari sonlar shular sirasiga kirgan. Shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin emas, balki “ko‘p” tarzida tarjima qilinadi.

Masalan: “Lunyuy”:

<sup>1</sup> 60-70% ga to‘g‘ri keladi.

“季文子三思后行”. Ji Wénzǐ sān sī hòu xíng (ji Venzi har bir ishni yetti o‘lchlab, keyin kesadi).

*IV. Sonning fe‘llashishi.*

Masalan: “Tarixnoma” “ChinShi-xuang faoliyati” (史记·秦始皇本纪) bo‘limida:

“古时，天下散乱，莫之能一”. Gǔshí, tiānxià sǎnlùn, mò zhī néng yī. (Qadim zamonlarda Xitoyda tartibsizlik va parokandalik hukm surardi, hech kim bu davlatni birlashtirishning uddasidan chiqolmadi).

Bu gapda “一”: “bir” ma’nosini beruvchi son, “统一” tǒngyī (birlashtirmoq) fe‘l ma’nosini bildirgan.

### Hisob so‘zlar

Qadimgi xitoy tilidagi hisob so‘zlar zamonaviy xitoy tiliga nisbatan kamroq ishlatilgan, biroq ularning mavjudligini hech kim inkor qilolmaydi. Hozirgi zamon xitoy tiliga o‘xshab qadimgi xitoy tilining hisob so‘zlari ham ikki katta guruhga bo‘linishi mumkin:

1. 名量词 míngliàngcí (物量词 wùliàngcí) – nom hisob so‘zlari;

2. 动量词 dòngliàngcí – harakat hisob so‘zlari;

Nom hisob so‘zlari – ot so‘z turkumi bilan qo‘llanadigan hisob so‘zlar (dona, sop va h.k.).

Harakat hisob so‘zlari – fe‘l so‘z turkumi bilan qo‘llanadigan hisob so‘zlar (marta, mahal va h.k.).

Qadimgi xitoy tilidagi hisob so‘zlar son bilan birikib, son hisob so‘zlarini hosil qilgan. Quyidagi ikki modelni ko‘rib chiqaylik:

### 1) Son+Hisob soʻz+Ot

“吾不能为五斗米而折腰”. Wú bùnéng wéi wǔ dòu mǐ ér zhéyāo (5 dou<sup>1</sup> guruch uchun ular oldida oʻzimni bunchalik yerga urmayman).<sup>2</sup>

### 2) Ot+Son+Hisob soʻz

“我持白璧一双，欲献项王”. Wǒ chí bái bì yì shuāng, yù xiàn Xiàng wáng. (Oʻzim bilan bir juft nefrit toshini olib keldim, Syang qiroliga taqdim etmoqchiman).<sup>3</sup>

Venyanda quyidagi hisob soʻzlar koʻp uchraydi: “钩”<sup>4</sup>, “<sup>rèn</sup> 仞”<sup>5</sup>, “<sup>zhōng</sup> 钟”<sup>6</sup>, “<sup>yì</sup> 镒”<sup>7</sup>, “<sup>dòu</sup> 斗”<sup>8</sup>. Ular zamonaviy xitoy tilida allaqachon muomaladan chiqqan.<sup>9</sup>

## Olmosh

Ot, sifat, son, ravish oʻrnida qoʻllaniladigan soʻz turkumi **olmosh** deyiladi. Uning asosiy vazifasi nutqdagi takrorlanishlarni oldini olish, uni loʻnda va sodda boʻlishini taʼminlash. Qadimgi xitoy tilidagi olmoshlar uch turga boʻlinadi:

- 1) kishilik olmoshlari (称代词 chēng dài cí)
- 2) koʻrsatish olmoshlari (指示代词 zhǐ shì dài cí)
- 3) soʻroq olmoshlari (疑问代词 yí wèn dài cí)

<sup>1</sup>Qadimgi Xitoyda ishlatilgan ogʻirlik birligi. 1 dou 10 litrga teng keladi.

<sup>2</sup>“Pu kitobi” “Tao Tsyang hikoyasi” boʻlimi (普书·陶潜传 pǔ shū·Táo Qián zhuán)

<sup>3</sup>“Tarixnoma” “Syangyuy tarjimai holi” boʻlimi (史记·项羽本纪 shǐ jì·Xiàngyǔ běn jì)

<sup>4</sup>Qadimgi ogʻirlik birligi. 15 kilogrammga teng.

<sup>5</sup>Uzunlik birligi. 8 (7) chí (1 = 10 tsun = 32 sm); 2,5 metrga teng.

<sup>6</sup>Hajm birligi, 640 litrga teng.

<sup>7</sup>Ogʻirlik birligi, 1000 gramm, yaʼni 1 kg (20 lyang)ga teng.

<sup>8</sup>Hajm birligi, 10 litrga teng.

<sup>9</sup>Bu hisob soʻzlarning maʼnosi “Guday xanyuy sidyan” (古代汉语词典 – Qadimgi xitoy tili lugʻati)dan olindi.



**I. Kishilik olmoshlari** – shaxsni bildiradigan olmoshlar, ya'ni ushbu olmoshlar faqatgina otlarni o'rnida qo'llaniladi. Kishilik olmoshlari o'z o'rnida birinchi shaxs olmoshlari, ikkinchi shaxs olmoshlari va uchunchi shaxs olmoshlariga bo'linadi.

*Birinchi shaxs kishilik olmoshlari.* Venyanda quyidagilar birinchi shaxs olmoshlari hisoblangan:

- 1) “余” yú;
- 2) “予” yú;
- 3) “我” wǒ;
- 4) “吾” wú;
- 5) “朕” zhèn;
- 6) “印” àng;
- 7) “台” yí.

Odatda, “予”, “余”<sup>1</sup> va “我” gapda ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi bo'lib kelgan.

(1) 我非爱其财而易之以羊. Wǒ fēi ài qí cái ér yì zhī yǐ yáng – Men boylik orttirish maqsadida buni qo'yga almashtirayotganim yo'q (“Meng-zi” “Lyangxoy vang shang” bo'limi).

(2) 尔为尔, 我为我. Ěr wéi ěr, wǒ wéi wǒ – Sen – busen, men – bu men (“Meng-zi” “Gong Song choushang” bo'limi).

Birinchi misolda “我” olmoshi gapda ega vazifasini bajargan, ikkinchi misolda avval kelgan 我 - ega, keyingisi esa - kesim bo'lib, “men”ma'nosini bildiradi.

吾 birinchi shaxs kishilik olmoshi dastlabki Chin (221-207) davri xitoy tilida ega va aniqlovchi vazifasini bajara olgan.

---

<sup>1</sup>“予” hamda “余” qadimgi xitoy tilida bir xil talaffuz qilingan, lekin har xil yozilgan va bir xil ishlatilgan. Ba'zi manbalarda “予” (“Shangshu 尚书”), ayrimlarida esa “余” (“Zojuan 左传”)dan foydalanilgan.

Bundan tashqari, bo'lishsiz gaplarda to'ldiruvchi vazifasini bajargan, gapdagi tartibi fe'ldan oldin bo'lgan.

(3) 吾妻之美我者私。Wú qī zhī měi wǒ zhě sī – Rafiqam meni qaddi-qomati kelishgan deb o'yladi, meni juda yaxshi ko'radi (“Kurashuvchi shohliklar” “Chi strategiyasi” bo'limi).

Uchinchi misoldagi 吾 olmoshi “妻” (rafiqa, ot so'z turkumi)ning aniqlovchisi vazifasini bajargan, “mening” tarzida tarjima qilinadi.

“朕” kishilik olmoshi dastlabki Chin davrida asosan gapda aniqlovchi va ega vazifasini bajargan.

(4) 朕皇考曰伯庸。Zhèn huáng kǎo yuē Bó Yōng – Mening rahmatli otamning ismi Bo Yung edi (Chyu Yuan“Lisao”).

To'rtinchi misolda 朕 olmoshi “皇考” (rahmatli ota, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “mening”.

“台” olmoshi ko'pincha gapda ega va aniqlovchi vazifasini bajargan.

(5) 朝夕纳诲,以辅台德。Zhāoxīnàhuì,yǐfùyídé – Butun kunimni ilm o'rgatishga bag'ishlayman, davlat boshqaruvi muammolarini bartaraf etish – men uchun eng oqilona vazifadir (“Shangshu”- “Shoming shang” bo'limi).

Beshinchi gapda 台 kishilik olmoshi “德” (axloq, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “mening”.

“印” birinchi shaxs kishilik olmoshi ko'pchilik hollarda gapda ega vazifasini bajargan.

(6) 人涉印否,印须我友。Rén shè áng fǒu, áng xū wǒ yǒu – Boshqalar daryoning narigi qirg'og'iga o'tishdi, men esa o'tmadim, sababi men do'stimni kutishim kerak edi (“Shijing”- “Beyfing” bo'limi).

Oltinchi gapdagi ikkala 印 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajargan, “men” tarzida tarjima qilinadi.

Qadimgi xitoy tilida “台” va “印” nisbatan kam ishlatilgan. Qadimgi tarixiy manbalarni koʻzdan kechirar ekanmiz, bu soʻzlarning tarjimasiga alohida ahamiyat berishimiz kerak.

*Ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari.* Venyanda ikkinchi shaxs kishilik olmoshlaridan koʻpincha quyidagilar ishlatilgan:

- 1) “女” nǚ (“汝” rǔ);
- 2) “尔” ěr;
- 3) “若” ruò;
- 4) “乃” nǎi;
- 5) “而” ér.

Ushbu ikkinchi shaxs olmoshlari ham oʻz oʻrnida ikki guruhga boʻlinadi:

**Birinchi guruh** “女” (“汝”), “尔”, “若” bu 3 ta olmosh gapda ega, toʻldiruvchi va aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin.

(1) 居, 吾语女。 Jū wú yǔ nǚ – (Sen) Biroz qʻtirib tur, men senga hammasini gapirib beraman (“Lunyuy” “Yangxo” boʻlimi).

Birinchi gapda 女 olmoshi “语” (gapirib bermoq, feʻl)ning toʻldiruvchisi boʻlib kelgan, tarjimasi – “senga”.

(2) 若虽长大, 好带刀剑, 中情怯耳。 Ruò suī zhǎng dà, hǎo dài dāojiàn, zhōng qíng qiè ěr – Garchand sen boʻying baland, qaddi-qomating kelishgan yigit boʻlsang-da, oʻzing bilan doim qurol olib yurasan, aslida sen qoʻrqoqsan (“Tarixnoma” - “Inxou tarjimai holi” boʻlimi).

Ikkinchi gapdagi 若 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajarib, “sen” tarzida tarjima qilinadi.

**Ikkinchi guruh** “乃”, “而” olmoshlari gapda asosan aniqlovchi, baʼzi paytlarda ega vazifasini bajargan, toʻldiruvchi boʻlmagan.



(3) 若归，试私从容问而父。 Ruò guī, shì sī cóngróng wèn ér fù – Sen uyga qaytgach, bu haqda sekin otangdan so‘rab ko‘r (“Tarixnoma” “Tsao Syanggo tarjimayi holi” bo‘limi).

Uchinchi gapda 而 “父” (ota, ot so‘z tur)dan oldin kelib, aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “sening”.

*Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari.* Qadimgi xitoy tilida uchinchi shaxs olmoshlaridan ko‘pincha quyidagilar ishlatilgan:

- 1) “其” qí;
- 2) “之” zhī;
- 3) “厥” jué;
- 4) “彼” bǐ.

*Kishilik olmoshlarining ko‘plik shakli.* Zamonaviy xitoy tilida kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari mavjud va ular shakl jihatidan har xil:

- 1) birlik shakli: 我 wǒ, 你 nǐ, 他 tā;
- 2) ko‘plik shakli: 我们 wǒmen, 你们 nǐmen, 他们 tāmen.

Qadimgi xitoy tilida esa kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari farqlanmagan. U holda ko‘plik va birlikdagi ma‘noni qanday ajratish mumkin degan savol tug‘iladi. Buning ikki yo‘li bor:

a) **matn bo‘yicha**, ya‘ni venyan matni tarjimasi qoidalariga binoan, bu gapdan oldingi gaplarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri ma‘no chiqariladi;

b) **ayrim ko‘plik bildiruvchi so‘zlar orqali.** Xan sulolasi (mil.avv. 206-milodiy 220) dan keyingi davrlarda, Venyanda kishilik olmoshlari bilan birga qo‘llanilib, ko‘plik ma‘nosini bildiruvchi quyidagi so‘zlarni uchratishimiz mumkin:

bèi cáo shǔ dēng chái  
“辈”, “曹”, “属”, “等”, “侪”

Bu so‘zlar mustaqil leksik ma‘noga ega, shuning uchun ularni ko‘plik qo‘shimchasi deb bo‘lmaydi, zamonaviy xitoy tilidagi “们” (men-kimsalarga nisbatan ko‘plik suffiksi)dan farq

qiladi. Ular “bir guruh, bir turkum” degan ma’nomlarni bildirib, aniq matn tarkibida olmoshlarning ko’plik ma’nosini yasaydi.

“Zojuan” - “Jao Gonghukmronligining 24-yili” (左传·昭公二十四年) bo’limidan quyidagi misolni keltiramiz:

“吾侪何知焉？”Wú chái hé zhī yān? (Biz buni qayerdan bilamiz?)

Qadimgi yozma manbalarni ko’zdan kechirayotganimizda quyidagilarni ko’plikdagi kishilik olmoshlari deb qabul qilishimiz kerak:

w ó b è i      w ó sh ū      w ū sh ū      w ū chái  
“biz” – 我 辈, 我 属, 吾 属, 吾 侪;

ru ó c áo      r ū c áo      g ō ng d ē ng      ru ò sh ū  
“siz” – 若 曹, 汝 曹, 公 等, 若 属;

b ĩ d ē ng  
“ular” – 彼 等.

**II. Ko’rsatish olmoshlari.** Narsa-buyum, kimsani ko’rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlardir. Qadimgi xitoy tilida ko’rsatish olmoshlari o’z o’rnida 5 guruhga bo’lingan:

1. *Yaqinni ko’rsatuvchi olmoshlar (近指)*
2. *Uzoqni ko’rsatuvchi olmoshlar (远指)*
3. *Gumon olmoshlari (虚指)*
4. *Bo’lishsizlik olmoshlari (无指)*
5. *Belgilash olmoshlari (旁指)*

1. Venyanda asosan “<sup>shì</sup>是” “<sup>cǐ</sup>此” “<sup>sī</sup>斯” “<sup>zī</sup>兹” “<sup>zhī</sup>之” yaqin masofani ko’rsatuvchi olmoshlar bo’lib, “**bu**”; “**bu yer**”; “**bu yerda**”; “**bunday**” kabi tarjima qilingan.

● 之子于归, 宜其室家。Zhī zǐ yú guī, yí qí shì jiā – Bunday qiz turmushga chiqsa, borgan xonadonini baxtli qiladi (“Shijing” “Jounan” bo’limi).

2. Venyanda asosan “<sup>fū</sup>夫” “<sup>bǐ</sup>彼” “<sup>qí</sup>其” olmoshlari uzoq masofani ko’rsatuvchi olmoshlar sifatida qo’llanilgan, “**ana u**”, “**ana u yer**”, “**unday**” kabi ma’nomlarni anglatgan.

3. Qadimgi xitoy tilida asosan “<sup>móu</sup>某”, “<sup>huò</sup>或” bu ikki gumon olmoshlari ishlatilgan bo‘lib, “**kimdir**”, “**nimadir**” kabi ma‘nolarni anglatgan. “<sup>mòu</sup>某” gapda aniqlovchi va ega, “<sup>huò</sup>或” esa asosan ega vazifasini bajara olgan.

●项燕为楚将，数有功，爱士卒，楚人怜之。或以为死，或以为亡。Xiàngyàn wèi chǔ jiāng, shuò yǒu gōng, àishìzú, chǔ rén lián zhī. huò yǐ wéi sǐ, huò yǐ wéi wáng – Syangyan Chu davlatining buyuk sarkardasi bo‘lib, ko‘p marotaba qahramonlik ko‘rsatgan, askarlarni himoya qilgan, Chu xalqi uni qadrlaydi. Ba‘zilar u uchun xalok bo‘lgan, ba‘zilar esa qochib ketishgan (“Tarixnoma”- “Chenshe shijya”).

4. Bo‘lishsizlik olmoshlaridan qadimgi Venyanda “<sup>mò</sup>莫” “<sup>wú</sup>无” ishlatilgan. “**Hech kim**”, “**hech narsa**” tarzida tarjima qilinadi.

●子曰：“莫我知也夫！” Zǐ yuē: “mò wǒ zhī yě fū!” – Konfutsiy dedi: “Hech kim meni tushunmaydi!” (“Lunyuy” “Syunven” bo‘limi).

5. Qadimgi xitoy tilida belgilash olmoshi vazifasini asosan “<sup>tā</sup>他” olmoshi bajargan. Dastlab “<sup>tā</sup>他” kishilik olmoshi emas, balki belgilash ma‘nosini bildiruvchi olmosh sifatida qo‘llanilgan. “**Boshqa**”, “**boshqalar**” tarzida tarjima qilinadi.

●无他故焉。Wú tā gù yān – Bu yerda boshqa sabab yo‘q (“Syun-zi” “Vang chji” bo‘limi).

**III. So‘roq olmoshlar** biror kimsa, narsa-buyum, belgi yoki son haqidagi so‘roqni bildiradigan olmoshlardir. Qadimgi xitoy tilidagi so‘roq olmoshlari ikki turga bo‘lingan:

- 1) kishi haqidagi so‘roq olmoshlari;
- 2) narsa-buyum haqidagi olmoshlar.



Venyanda kishi haqidagi so‘roqni yasash uchun asosan “<sup>shuí</sup>谁”, “<sup>shú</sup>孰” ishlatilgan, “kim”, “qay biri” ma’nolarini anglatgan.

(1) 此谁也? Cǐ shuí yě? – Bu kim? (“Kurashuvchi podshohliklar” “Chistrategiyasi”);

(2) 父与夫孰亲? Fù yǔ fū shú qīn? Ota bilan er qaysi biri yaqinroq? (“Zojuan” “Xuan Gong hukmronligining 15-yili”).

Venyanda narsa-buyum haqidagi so‘roqni yasash uchun ko‘pincha “<sup>hé</sup>何”, “<sup>hé</sup>曷”, “<sup>hú</sup>胡”, “<sup>xī</sup>奚”, “<sup>ān</sup>恶”, “<sup>shú</sup>安”, “孰” kabilar qo‘llanilgan. Quyida har birini alohida ko‘rib chiqamiz:

1. “何” (hé) narsa-buyum va joy nomi haqidagi so‘roqni bildirishi mumkin. Grammatik vazifalari:

- to‘ldiruvchi (“qayerga”);
- aniqlovchi (“qanday”);
- hol (“qanday qilib”);
- kesim (“nima uchun”).

軫不之楚，何归乎? Zhěn bú zhī chǔ, hé guī hū? – Jen Chu mamlakatiga bormas ekan, unda qayerga boradi? (“Tarixnoma” “Jang I tarjimayi holi” bo‘limi).

2. “曷” (hé) so‘roq olmoshi bo‘lib kelganida, asosan narsa-buyumni bildiradi. Uning grammatik vazifalari quyidagilardan iborat:

- ega (“nima”);
- to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”);
- hol (“nima uchun”, “qanday qilib”);
- aniqlovchi (“qaysi”, “qanday”).

庄王怒曰：“吾使子往视之，子曷为告之?” Zhuāng wáng nù yuē: “wú shǐ zǐ wǎng shì zhī, zǐ hé wéi gào zhī?” – Chu mamlakati qiroli Juang g‘azab ila dedi: “Men sizni Song mamlakatidagi ahvol haqida bilib kelish uchun jo‘natgandim, siz

nima uchun ularga bizning ahvol haqida aytdingiz?" ("Gongyangjuan" "Syuan Gong hukmronligining 15-yili").

3. “胡” (hú) so‘roq olmoshi asosan narsa-buyum haqidagi so‘roqni bildiradi. Grammatik vazifalari:

- a) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”);
- b) to‘ldiruvchi (“nima”).

4. “安” (ān) so‘roq olmoshi qadimgi xitoy tilida ko‘pincha joy nomi haqidagi so‘roqni anglatgan, ba’zida narsa-buyumni ham bildirgan. Grammatik vazifalari:

- a) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”);
- b) to‘ldiruvchi (“qayerda”, “nima”).

沛公安在? Pèi gōng ān zài? – Peygong qayerda? ("Tarixnoma" "Syangyuy tarjimayi holi" bo‘limi).

5. “奚” (xī) odatda, joy nomi va narsa-buyumni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, gapdagi grammatik vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);
- b) to‘ldiruvchi (“nima”).

6. “恶”<sup>1</sup> (wū) odatda, joy nomi va narsa-buyumni, holni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, gapdagi grammatik vazifalari quyidagichadir:

- a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);
- b) to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”).

敢问夫子恶乎长? Gǎn wèn fūzǐ wū hū zhǎng? – Iltimos ayting-chi, ustoz qaysi sohani mukammal egallagan? ("Meng-zi" "Gong Song choushang" bo‘limi).

## 2. So‘z ma‘nosining o‘zgarishi

---

<sup>1</sup>Venyanda “恶” ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lib, 1) fe‘l (wù): “yomon ko‘rmoq”; 2) sifat (è): “yomon”; 3) ot (è): “yomon odam”, “yomonlik” 4) so‘roq olmoshi (wū) ma‘nolariga ega.

Xitoy tilidagi soʻzlarning qadimgi va zamonaviy maʼno tushunchalari.

Qadimgi xitoy tilida shunday soʻzlar borki, ular hozirgi kunga qadar maʼnosi oʻzgarmagan. Misol uchun, 人 rén – odam, 大 dà – katta, 小 xiǎo – kichik, 飞 fēi – uchmoq va hokazo, bu xitoy tilining asosiy lugʻat boyligidir. Baʼzi soʻzlar qadimda mavjud, baʼzi hodisalarning yoʻqolishi va nomi oʻzgarishi sababli hozirga kelib, allaqachon muomaladan chiqib ketgan, masalan, “甬” yǒng (Chjeszyan provinsiyasi, Ninbo shahrining qadimdagi nomlanishi), “诸侯” zhūhóu (knyazlar, feodallar) kabilar. Bu hodisa **soʻzlar moslashuvi** deb ataladi. Baʼzi soʻzlar esa qadimda va hozirda ishlatilib, biroq soʻz maʼnosi oʻzgarishga uchragan, shuning uchun agar ularni zamonaviy xitoy tiliga asoslanib tarjima qilsak, baʼzi xatoliklar kelib chiqishi muqarrar. Soʻz maʼnolari oʻzgarishini tahlil qilib chiqib, quyidagi xususiyatlarni ajratdik:

1) *soʻz maʼnosining kengayishi.*

1. “江” jiāng

Qadimgi xitoy tilida Changjyan – Yanzi (长江 Chángjiāng) daryosini ifodalagan. Masalan, “Chunchyu” (春秋) asarida yozilishicha: “楚人有涉江者”. Shǔ rén yǒu shè jiāng zhě (Chu mamlakatida bir odam qayiqqa oʻtirib, Yanzi (Chanjyan) daryosidan suzib oʻtdi).

Zamonaviy xitoy tilida “江” keng maʼnoda daryo va daryolar maʼnosida qoʻllaniladi.

2. “脸” liǎn

Qadimgi xitoy tilida chehraning yonoq suyaklari qismi (颧骨部分 quángǔ bùfen) maʼnosini anglatgan. Masalan, “Po Chjen-zi” (破阵子 pòzhènzǐ) asarida keltiriladi: “笑从双脸生”.



Xiào cóng shuāng liǎn shēng (Uning ikki yonog‘idan tabassum taralardi).

Hozirgi paytda “脸” so‘zi ma‘nosi kengayib, chehra(面部 miànbù) ma‘nosida keng qo‘llaniladi.

3. “响” xiǎng

Qadimgi xitoy tilida aks-sado (回声 huíshēng) ma‘nosini ifodalagan. Masalan, “Shuyjing chju” (水经注)<sup>1</sup> nomli asarda quyidagi satrlarni o‘qishimiz mumkin: “常有高猿长啸，属引凄异，空谷传响，哀转久绝”。 Sháng yǒu gāo yuán cháng xiào, shǔ yǐn qī yì, kōng gǔ chuánxiǎng, āi zhuǎn jiǔ jué (Bu yerda maymunning qichqirishi tez-tez eshitilib turadi, tovushi juda o‘tkir va g‘amgin, Kong tog‘lari orasida aks-sadoni eshitish mumkin, bu ma‘yus ohang ancha vaqtgacha davom etadi).

Zamonaviy xitoy tilida “响” keng ma‘noda tovush(声音 shēngyīn) ma‘nosini anglatadi.

2) so‘z ma‘nosining torayishi.

1. “金” jīn

Qadimgi xitoy tilida barcha metallarning (金属 jīnshǔ) nomlanishini bergan. “Syun-zi”ning “Ta‘lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子. 劝学)<sup>2</sup> shunday deyiladi: “金就砺则利”. Jīn jiù lì zé lì (“Metallni chax toshida chaxlasa, u o‘tkir bo‘ladi”).

Zamonaviy xitoy tilida oltin (黄金 huángjīn) ma‘nosida ishlatiladi.

---

<sup>1</sup>Shimoliy Vey sulolasi (386-557) geografshunos olimi, yozuvchisi Li Daoyuan 郦道元 (taxminan 470-527) qalamiga mansub asar (Sixay, 2-jild, 1272-b.). “Shuyjing chju” (Suvlar to‘g‘risidagi kitob) – eng qadimgi geografik asarlardan biri. Xitoy suv tizimlari (daryolar) haqida yozilgan.

<sup>2</sup>“Xúnzǐ” (荀子) – Chjango davri taniqli mutafakkiri, faylasufi, pedagogi Syun-zi (taxminan mil.avv.313-238) qalamiga mansub falsafiy asar (32,2435).

2. “宫” gōng - qadimgi xitoy tilida uy-joy, xonadon (房屋 fāngwū) ma'nosini anglatgan. Masalan, “Chjango se”(战国策)<sup>1</sup> asarida yozilishicha: “父母闻之, 青宫除道”. Fùmǔ wén zhī, qīng gōng chú dào (Uning ota-onasi bu xabarni eshitgach, xonadon hamda hovlini tartibga keltirishdi). Zamonaviy xitoy tilida 宫殿 gōngdiàn, ya'ni saroy ma'nosida ishlatiladi.

### 3. “臭” xiù

Qadimgi xitoy tilida hid, is (各种气味 gèzhǒng qìwèi) ma'nosini anglatgan. Masalan,

(1) “Ijing” (易经): “同心之言, 其臭如兰”. Tóng xīn zhī yán, qí xiù rú lán. (Rost gap go'yoki xushbo'y orxideya kabi yoqimlidir).

(2) Dufu (712-770)<sup>2</sup> she'ridan misol keltiramiz:

朱门酒肉臭 Zhū mén jiǔ ròu xiù,

路有冻死骨 Lù yǒu dòng sǐ gǔ.

Boy uyidan go'sht-u sharob hidi taralar,

Yo'l bo'yida muzlab qotgan suyak murdalar.

Zamonaviy xitoy tilida “臭” yoqimsiz hidli, badbo'y ma'nosini bildirib, sifat so'z turkumiga oid va ko'pincha **chòu** tarzida o'qiladi.

3 so'z ma'nosining ko'chishi.

### 1. “去” qù

Qadimgi xitoy tilida “离去”lìqù (tashlab ketmoq, tark etmoq) ma'nosini bildirgan. Misol uchun, “Shijing”ning “Veyfeng Shoshu” bo'limida (诗经·魏风·硕鼠) yozilishicha:

<sup>1</sup> “Kurashuvchi podsholiklar” solnomasida ushbu davr (mil.avv.V asr -221-yil) voqealari aks etgan (32,2678).

<sup>2</sup> 杜甫 Dùfū - Tang davri (唐代) taniqli shoiri. Asl ismi Zimey (子美).

“逝将去女，适彼乐土”。Shì jiāng qù nǚ, shì bǐ lè tǔ (“Men qasam ichib aytamanki, seni tashlab, obod yerlarga ko‘chib ketaman”).

Zamonaviy xitoy tilida “往” wǎng, ya’ni bormoq ma’nosini ifodalaydi.

2. “涕” tì

Qadimda “眼泪” yǎnlèi (ko‘z yoshlari) ma’nosini anglatgan. Masalan,

“Zojuan” (左传)da yozilishicha: “藏叔入，哭甚哀，多涕”。Záng shū rù, kū shèn āi, duō tì (Zang amaki kirib keldi, u juda g‘amgin edi, ko‘zlaridan daryo-daryo yosh oqardi).

Zamonaviy xitoy tilida 鼻涕 bítì (burun suyugligi) ma’nosida keladi.

3. “盗” dào

Qadimgi xitoy tilida o‘g‘ri (小偷 xiǎotōu), o‘g‘irlamoq (偷窃 tōuqiè) ma’nolarini bildirgan. Masalan, “Zojuan”da hikoya qilinadi: “窃人之财，犹谓之盗”。Qiè rén zhī cái, yóu wèi zhī dào (Birovlarning boyligini o‘g‘irlaydigan odam o‘g‘ri deyiladi).

Hozir qaroqchi, bosqinchi (强盗 qiángdào) ma’nosida qo‘llaniladi.

**Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Gap bo‘laklari. So‘z ma’nosining o‘zgarishi.
2. Qadimgi xitoy tilida mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari qanday farqlangan? Ularning turlarini aytib bering.
3. Qadimgi xitoy tilida ot va fe’lning ifodalanishiga misollar keltiring.
4. Qadimgi xitoy tilida olmoshlar turlari haqida gapiring.
5. Qadimgi xitoy tilida son kategoriyasi qanday ifodalangan?



### Amaliy mashg'ulot vazifalari:

1. Venyanda yozilgan qomusiy yodgorliklar.
2. Buddizm adabiyotidan. "To'qqiz rangli jayron" matni.
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Sun Min haqida ma'lumotlar yig'ish va tarjima qilish.

### TEST

1. "我还能穿!"

- A. 爸爸的那件旧羊毛大衣
- B. 那件爸爸的羊毛旧大衣
- C. 羊毛那件爸爸的旧大衣
- D. 爸爸的羊毛旧那件大衣

答案: A

2. "夜空飘小雨, 路灯暗暗的, 路上很久也看不到一个行人".

- A. 上
- B. 着
- C. 去
- D. 到

答案: B

3. "黑化肥发灰, 灰化肥发黑。黑化肥发灰会挥发, 灰化肥挥发会发, 灰化肥发黑挥发会发灰。"这是汉语发音练习常用的。

- A. 歇后语
- B. 谚语
- C. 绕口令
- D. 成语

答案: C

4. 下面的图, 是在中国年轻人中流行了很长时间的“”字。



- A.哈  
C.耶  
B.囧  
D.分  
答案：B

5. 汉字中，“灺”做偏旁而构成的字，很多跟“火”有关，如“烈、煮、煎、蒸、热”等。  
答案：正确。

6. 根据汉字的造字法来判断，“人”和“木”是象形字，像“人”和“树”的形状。它们合起来就是个“休”字，意会成“人依傍大树休息”，所以它的本义是“休息”。



答案：正确。

7. 根据汉字的造字法来判断，“本末”都是指事字。本义就是指“树根”和“树梢”，后指“事物的根本”和“事物的末尾”。



答案：正确。

7. “忪、念、思、急、愁、志、恚”等汉字中的偏旁都有“心”，表示这些词都和“心”的意思有关系。  
答案：正确。

8. “衣”在“依”中和在“袋”中都是表示读音的。

---

答案：错误。“衣”在“袋”中是会意成分。

9.现代汉字中，从造字法来看，会意字是最多的。

答案：错误，应该是形声字。

10.“冰凉”、“火红”、“雪白”这些词的内部结构方式都是一样的。

答案：正确。



## 10 - MAVZU. VENYANDA POLISEMIYA HODISASI

**Darsning o'quv maqsadi:** Sinonimlar, omofonlar, omograflar masalasi. Venyanda polisemiya hodisasi, ehtirom va kamtarlikni bildiruvchi so'zlar.

**Tayanch so'z va iboralar:** polisemiya, ehtirom so'zlari, kamtarlikni bildiruvchi so'zlar.

Xitoy tilida bir so'z ko'pincha bir qancha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi paytda polisemiyaga uchragan so'zlarning o'qilishi ham turlicha bo'ladi. Bu holat qadimgi xitoy tilida nisbatan ko'p uchraydi.<sup>1</sup>

### 1. “予” iyeroglifi:

1) yú - “men”;

“Feng Vanchjen” (冯婉贞 féngwǎnzhēn)<sup>2</sup> asaridan quyidagi iqtibosni keltiramiz:

“瞻予马首可也” Zhān yú mǎ shǒu kě yě - “Mening otimning harakatlariga qara” (ma'nosi “Mendan aslo ko'zingni uzma, buyruqlarimni bajar”).

2) yǔ - “bermoq”.

“Tarixnoma” “Linsyang Ju faoliyati”<sup>3</sup> bo'limida (史记·蔣相如列传 shǐjì • Lìn Xiàngú lièzhuàn) yozilishicha:

<sup>1</sup>Ushbu paragrafda keltirilgan barcha misollar “Guday xanyuy sidyan” (古代汉语词典 – Qadimgi xitoy tili lug'ati), Nankin (南京) 2007 dan olingan.

<sup>2</sup>Ching (清) davri (1644-1911) shoiri Syuyke (徐珂 1869-1928) tomonidan yozilgan asar.

<sup>3</sup>“Shiji” (Tarixnoma) – Xan sulolasi 汉代 (m.a. 206-eramizning 220) tarixshunos olimi Sima Chyan (司马迁 Sīmǎ Qiān taxminan m.a.145 (135)-90) qalamiga mansub asar. M.a. 109-91-yillar davomida yozilgan bu kitobda yarim afsonaviy Sariq imperator 黄帝 (m.a.2600)dan to Xan sulolasi davrigacha bo'lgan tarix aks etgan. 5 bob, 130 bo'limdan iborat. Bu boblar quyidagilar: 1. Benji (本纪 běn-jì) – hukmdorlar tarjimayi holi (12 bo'lim). 2. Shi-jya (世家 shì-jiā) – oqsuyak va amaldorlar tarjimayi holi (30 bo'lim). 3. Le-juan (列传 liè-zhuàn) – buyuk shaxslar tarjimayi holi (Lao-zi,

“欲予秦，秦城恐不可得”Yù yǔ qín, qín chéng kǒng bù kě dé (“Biz o‘ylaymizki, Chinlar bizdan talab qilgan nefritni ularga topshirgan taqdirda ham, ular o‘z va’dasi ustidan chiqmay, bizga shaharni qaytarib berishmaydi”).

### Ehtirom va kamtarlikni bildiruvchi so‘zlar

Qadimgi xitoy tilida o‘zgalarni atash uchun mo‘ljallangan so‘zlar guruhi – ehtirom so‘zlari (敬称 jìngchēng yoki 尊称 zūnchēng) deb ataladi. Inson o‘z-o‘zini atash uchun qo‘llaydigan so‘zlar guruhi esa – kamtarlik so‘zlari (谦称 qiānchēng) deyiladi. Bu ikki guruh so‘zlari qadimda keng ishlatilgan, lekin keyinchalik ancha kamaygan.

**Ehtirom so‘zlari.** Xitoy tilida 敬称 jìngchēng (ba’zida 敬语 jìngyǔ) deb ataladi. Bunday so‘zlar o‘zgalarga nisbatan qo‘llaniladi. Qadimgi xitoy tilida II shaxs kishilik olmoshi “汝”rǔ, “尔”ěr bo‘lgan, III shaxs kishilik olmoshlari “彼”bǐ, “其”qí, “之”zhī kabilar bo‘lgan.

Biroq hurmat, iltifotni ifodalaganda ko‘pincha ehtirom so‘zlaridan foydalanilgan. Bunda hurmat quyidagicha ifodalangan:

1) hukmdorga: “王”wáng – qirol;

“君”jūn – hukmdor;

“陛下”bìxià – janobi oliylari.

2) yuqori lavozim egalariga<sup>1</sup>:

“将军”jiāngjūn – qo‘mondon;

“大夫”dàifu – vazir va boshqalar;

Mo-zi, Syun-zi) (70 bo‘lim). 4. Shu (书 shū) – marosimlar, musiqa, iqtisod kabi o‘sha davr dolzarb mavzulari (8 bo‘lim). 5. Byao (表 biǎo) – xronologik jadvallar (10 bo‘lim).

<sup>1</sup> Yuqori lavozimni egallagan shaxslarga nisbatan ularning lavozim nomlari ishlatilgan.

“卿”qīng – amaldor;

“大夫”<sup>1</sup>dàfu – ziyoli, ulamolar.

3) yoshi kattaroq va obro‘-e‘tiborli odamlarga:

“夫子”fūzi – er;

“先生”xiānshēng – janob.

4) oddiy odamlarga:“子”zǐ.<sup>2</sup>

Kimsani atashning yana bir usuli bu – hurmatni ifodalovchi ravishlardan foydalanish, ya‘ni fe‘ldan oldin hurmat-ehtirom bildiruvchi sifatlashlar (epitet) qo‘llanilgan. Bulardan ko‘p uchraydiganlari quyidagilar: “敬”jìng – sharafiga ega bo‘lmoq; “谨”jǐn – ehtirom ila. Masalan: “Tarixnoma”ning “Chenshe shijya” (史记·陈涉世家) bo‘limida yozilishicha: “敬受命”.Jìng shòu mìng (Buyrug‘ingizni qabul qilish baxtiga muyassarman).

“Tarixnoma”ning “Syangyuy tarjimayi holi” (史记·项羽本纪) bo‘limida: “谨诺”Jǐnnuò! (Labbay!).

Bundan tashqari, “请”qǐng – iltimos, “幸”xìng – umid qilmoq, “辱”rǔ – xorlamoq, yerga urmoq, “惠”huì – saxovat ko‘rsatmoq kabi so‘zlar hurmat ma‘nosini kuchaytirishda xizmat qilgan.

“请” o‘zgalardan biror ishni qilishga ruxsat so‘ralganda ishlatilgan. “幸”, “惠” qarama-qarshi tomondan ezgulik, rozilik olmoqni ifodalaydi. “辱” esa kamsitishni eshitmoq, ranjimoqni ifodalaydi.

---

<sup>1</sup> Xitoyda Bahor va Kuz (Chuntsyu er.avv 770-476) davrida jamiyat ijtimoiy qatlamlariga bo‘lingan bo‘lib, oqsuyaklar sinfiga kiruvchi 3 qatlamdan biri - 大夫 bo‘lgan (诸侯 chjuxou (knyaz) → 大夫 dàfu (ulamolar) → 士 shì (ziyoli). Zamonaviy xitoy tilida 大夫 dàfu o‘qilib, “shifokor” ma‘nosida qo‘llaniladi.

<sup>2</sup> 子 qadimda erkaklarga nisbatan ishlatilgan ehtirom so‘zi, o‘zbek tilidagi – jon suffiksiga to‘g‘ri keladi.



**Kamtarlikni bildiruvchi soʻzlar** shuningdek, (谦称 qiānchēng) kamtarin atamalar deb ham ataladi. Ular inson oʻz-oʻzini ifodalaganida ishlatilgan.

Odatda, yoshi ulugʻ insonlar yoki tengdoshlar bilan murojaatda kamtarlikni bildiruvchi soʻzlardan koʻp foydalanilgan. Quyidagi usullar orqali ifodalangan:

**Birinchi usul:** I shaxs kishilik olmoshlari oʻrniga kamtarlikni ifodalovchi maxsus atamalarni qoʻyish. Masalan:

a) hukmdor oʻzini “寡人”guǎrén – biz, “孤”gū – yolgʻiz, gʻarib kabi nomlar bilan atagan.

b) hukmdorga nisbatan yoshi ulugʻ insonlar yoki uning tengdoshlari oʻzini “臣”chén – sizning qulingiz, “愚”yú – tentak, “仆”pú – xizmatkoringiz, “小人”xiǎorén – pastkash, “鄙人”bǐrén – qulingiz deb atashgan. Baʼzi birlar oʻzini ismi bilan ham atashgan.

**Ikkinchi usul:** kamtarlikni bildiruvchi ravishlardan foydalanish, yaʼni feʼldan oldin kamtarlikni ifodalovchi maxsus soʻzlarni ishlatish, koʻpincha “窃”qiè – pinhona, “敢”gǎn – jurʼat etmoq. “窃” pinhona fikrni ifodalaydi, bu fikr notoʻgʻri boʻlishi ham mumkin.

Masalan, Li Sining (?-m.a.208) <sup>1</sup>“Jyanchju keshu” (谏逐客书) asarida yozishicha:

“臣闻史议逐客卿，窃以为过矣”。Shén wén shǐ yì zhú kè qīng, qiè yǐ wéi guò yǐ (Eshitishimcha, saroy ayonlari muhojirlarni mamlakatdan chiqarib yuborishni taklif qilishibdi, mening (pinhona) fikrimcha, bunday chora qoʻllash notoʻgʻri).

“敢”gǎn – oʻz munosabatining erkinligini bildiradi. Masalan, “Zojuan”ning “Ingong<sup>1</sup> hukmronligining birinchi yili” (左传·隐公元年) boʻlimida yozilishicha:

<sup>1</sup>李斯 LI SI – Chin davri davlat arbobi, Chin Shixuangning birinchi vaziri (32,1252).

“敢问何谓也” Gǎn wèn hé wèi yě (So‘rashga ijozat bersangiz, bu nima degani?).

Qadimgi xitoy tilida bitilgan matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatuvchi ifoda shakllari – murojaat so‘zlaridir. Qadimgi Venyan tilida murojaatning ifoda shakllari xilma-xil va hozirgi xitoy tiliga nisbatan ancha ko‘p bo‘lganligi ilmiy asarlarda keltiriladi.<sup>2</sup>

Murojaat shakllarini tanlashda ko‘plab ham obyektiv omillar: ijtimoiy kelib chiqish, yosh, so‘zlovchi va tinglovchining jinsi; ham sub’yektiv omillar: so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan yondashuvi (neytral, hurmat, yuqori darajadagi hurmat, ataylab insonning g‘ururiga, nafsoniyatiga tegish, insonni kamsitish, xafa qilish)ga amal qilingan. Shu munosabat ila, subyektiv omillardan kelib chiqib, murojaatning neytral, hurmat, kamsitish shakllari mavjud bo‘lgan. Bir xil shakldagi ibora, murojaat so‘zi har xil vaziyatlarda ham hurmat ham hurmatsizlik tarzida, hattoki kamsitish shaklida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan. Masalan,汝<sup>3</sup> rusen murojaat shakli lavozimi bir xil insonga yoki yoshroq insonga nisbatan qo‘llanilishi neytral murojaat sifatida qabul qilingan, ushbu murojaat shaklining lavozimi yuqoriroq insonga nisbatan qo‘llanilishi esa kamsitish, bepisandlik ma’nosini bildirgan. Agar inson suhbat davomida o‘zini yoshlikdagi ismi bilan atab o‘zga kishi bilan gaplashsa – bu so‘zlashuvning hurmat turini bildirgan, lekin shuvaqtning o‘zida suhbat qurayotgan insonni ismi bilan chaqirish yuqori darajadagi hurmatsizlik belgisi hisoblangan. Shuning uchun ham qadimgi venyan tilida bitilgan matnlarni tarjima qilishda avvalambor so‘zlashuv shakli,

---

<sup>1</sup>隱公 Yīngōng (722-712) Chunsyu davri, Lu podshohligida (魯, hozirgi Shandong) hukmronlik qilgan.

<sup>2</sup>簡明唐詩本。- 北京、1990.- 97 頁

<sup>3</sup>(书)你。现代汉语词典，2002 年，1076 页。

so‘zlashuv vaziyati haqida tushuncha bo‘lishi shart – darajasi teng lavozimdagi insonlar suhbatimi, quyi daraja lavozimidagi inson yuqori daraja lavozimdagi insonga qarata murojaat qilinayaptimi, yoki aksincha, bu sohadagi ma’lumotlar tarjima jarayonida birlamchi omillar sifatida gavdalanadi. Kishilik olmoshlaridan tashqari murojaat shakllari ma’nosida lavozim, unvon, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi so‘zlar ham qo‘llanilgan.

Inson so‘zlashuv jarayonida o‘zini atash uchun ishlatiladigan shakllar ham turlicha bo‘lgan: masalan, atoqli otlar va ayrim o‘ziga xos ot so‘z turkumidagi so‘zlardan keng foydalanilgan: 巨<sup>1</sup> *chen xizmatchi*, 亲<sup>2</sup> *qie kanizak*, 贫<sup>3</sup> *pu faqir*, *xizmatkor* va h. Ba’zi murojaat shakllari universal xarakterda bo‘lgan. Masalan, inson har qanday vaziyatda o‘zini kishilik olmoshi bilan atashi urf bo‘lgan. Ba’zi murojaat shakllari faqat ma’lum bir jamiyat guruhi doirasida qo‘llanilgan. Masalan, faqatgina knyaz o‘zini 寡人 *gua ren man*, *yolg‘izman*; imperator o‘zini 朕<sup>4</sup> *zhen Tanho men* kabi so‘zlar bilan atashi mumkin bo‘lgan. Ba’zi bir sifatlarning murojaat shaklida birikib kelishi murojaatning hurmat darajasini yanada oshirgan (大 *da buyuk*, 明 *ming ziyoli*). O‘zini atashga qaratilgan so‘zlar ko‘pincha kamsitish xarakteriga ega bo‘lgan sifat bilan ishlatilgan: 遇 *yu aqlsiz*, 不肖 *hech narsaga yaramaydigan*. Bu kabi o‘rnida yoki suhbat jarayonida so‘zlovchining o‘zini-o‘zi nomlashi uchun xizmat qilgan va ko‘pincha bunday murojaat shakllarida ot so‘z turkumidagi so‘zlar tushirib qoldirilgan.

O‘zini atash shakllari (suhbat jarayonida). Har qanday inson boshqa-bir inson bilan so‘zlashganda o‘zini 五 *wu men*, 我 *wo*

<sup>1</sup>官使对皇帝上书或说话的自称。现代汉语词典，2002年，152页

<sup>2</sup>古时女子谦称自己。现代汉语词典，2002年，1023页

<sup>3</sup>古时男子谦称自己。现代汉语词典，2002年，987页

<sup>4</sup>“我”专用做皇帝自称。现代汉语词典，2002年，1601页



men, 子 *zi sen* kabi kishilik olmoshlari bilan atagan. Bu soʻzlashuvning neytral shakllari hisoblangan. Hurmat maʼnosidagi soʻzlashuvda soʻzlovchi odatda, oʻzini yoshlikdagi ismi bilan yoki “hurmatni ifodalovchi” ot soʻz turkumidagi soʻzlar bilan atagan 巨<sup>1</sup> *chen menkim, Sizning qulingiz*. Bunda tinglovchining qaysi lavozimda ekanligi ahamiyatsiz edi.

Ayol kishi lavozim jihatdan oʻzidan yuqori va hattoki, teng mansabdagi kishi bilan soʻzlashganda oʻzini 亲<sup>2</sup> *qie kanizak* deb aytdan – bu shakl hurmat turidagi shakl boʻlgan. Imperator oʻzini 朕<sup>3</sup> *zhen Tanho* soʻzi bilan atagan.

Har qanday kishi soʻzlashuvda oʻzini 小人 *xiaoren kichik odam* yoki oʻqimagan, oddiy fuqaro soʻzi bilan atagan (antonim sifatida 君子 *junzi ziyoli, yuqori madaniyatli* soʻzi ishlatilgan). Oʻzini atash soʻzlarining aksariyati kamsitish maʼnosiga ega boʻlgan. Masalan, 不才 *bucai iqtidorsiz, 不佞 buning aqlsiz, 賤 jianzoti past*.

Murojaat shakllarining neytral turlariga 汝 *ru sen, 若 ruo sen, 而* kabi kishilik olmoshlari, qadimgi Venyan tilida ot soʻz turkumiga oid 子 *zi sen* soʻzi keng qoʻllanilgan. Ikkinchi shaxsni ifodalashda qoʻllaniladigan kishilik olmoshlari oʻrniga ham 子 *zi* bemalol ishlatilavergan. Lekin oʻzidan yuqori mansabdagi inson bilan soʻzlashuvda oʻsha insonni kishilik olmoshi bilan atash oʻta hurmatsizlik hisoblangan. Hurmat maʼnosida insonni uning lavozimi bilan atash, darajasi, unvoni maʼnosidagi soʻzlarni qoʻllash odat tusiga kirgan (王 *wang knyaz, 公子 gongzi shahzoda, 将军 jiangjun general, 太子 taizi merosxoʻr, 相 xiang maslahatchi, vazir* va b.). Shogirdga nisbatan 弟子 *dizi* soʻzi, mehmonga nisbatan 客 *ke, 先生 xiansheng janob*

<sup>1</sup>官使对皇帝上书或说话的自称。现代汉语词典，2002年，152页

<sup>2</sup>古时女子谦称自己。现代汉语词典，2002年，1023页

<sup>3</sup>“我”专用做皇帝自称。现代汉语词典，2002年，1601页

ma'nosida (*oldin tug'ilgan*), ustozga 夫子 *fuzi* deb murojaat etilgan. Oxirgi ikki shakl ustoz bilan muomalada ishlatilgan. Yoshi ulug' kishilarga nisbatan 叟 *sou qariya* so'zi ishlatilgan. Turmushga chiqqan ayolga nisbatan 婦 *fu rafiqqa* so'zi qo'llanilgan. Keng tarqalgan hurmat ma'nosidagi murojaat shakli sifatida 君 *jun janob*, o'ta hurmat ma'nosida 足下 *zuxia oyoq ostidagi* so'zi qo'llanilgan.

Ko'rinib turibdiki, qadimgi Xitoy Venyan tilida murojaat shakllari va o'zini atash shakllari xilma-xilligi kuzatiladi. Biron-bir murojaat shaklini tanlashda so'zlashuvchilarning yoshi, jinsi, so'zlashuvning payti, vaziyati kabi ob'yektiv, so'zlashuvchi va tinglovchining bir-biriga munosabati kabi sub'yektiv omillar ta'sir ko'rsatishini inobatga olsak, talabalarda qadimgi Venyan tilidagi matnlarni to'g'ri tarjima qilish ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish vazifasi nihoyatda dolzarbdir.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoy tilida polisemiya hodisasiga misollar keltiring va izohlang.
2. Qadimgi xitoy tilida qaysi so'z turkumlari, qaysi iyerogliflarda polisemiya hodisasi yaqqol ko'zga tashlanadi?
3. Qadimgi xitoy tili matnlarida qanday ehtirom va kamtarlik ma'nosidagi so'zlarni uchratish mumkin?
4. Qadimgi xitoy tilida murojaat shakllari
5. Neytral hurmatni bildiruvchi so'zlar haqida yuqori hurmat so'zlari va o'zini atash so'zlariga misollar keltiring.
6. Venyan tilida matnlarni tarjima qilishda murojaat shakllarining xilma-xilligi qay vositalarda aks topadi?

### **Amaliy mashg'ulot vazifalar:**

1. Gan Bao. "Ruhlarni izlash qaydnomalari" matni
2. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring, polisemiya hodisasi qo'llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. V asrda yaratilgan "To'rt ohang notasi" va zamonaviy ohangning o'xshash va farqli tomonlari.
2. Sun Min haqida ma'lumotlar yig'ish va tarjima qilish.

TEST

1. "妈妈今天好像特别开心呢，家里有啥喜事了？"

- A. 看上去                      B. 看过来  
C. 看下去                      D. 看出来

答案：A

2. "把羽绒服穿吧，外面风大，可不是一般的冷啊！"

- A. 点儿                      B. 上  
C. 下                          D. 过

答案：B

3. "大家都加班加点地干，在七月以前按时完成这项工作".

- A. 所以                      B. 因而  
C. 为的是                      D. 因为

答案：C

4. "我渴极了！现在就是有一条河的水我都能喝光！"这句话使用的修辞手法是.

- A. 夸张                      B. 比喻  
C. 对比                      D. 递进

答案：A

5. 下面四个词语都表示"事情来得很急，没有预料到"的意思. 其中有一个词可以放在"这事来得太了！"中，它是：

- A. 忽然                      B. 骤然  
C. 猛然                      D. 突然

答案：D



6. “小李老师就是显得年轻，穿什么都合身，比你精神多了！”

- A. 谁                      B. 哪个  
C. 人家                    D. 他人

答案：C

7. “呵呵，下午来了好几个朋友，咱家的冰箱都吃空了”。

- A. 从                        B. 由  
C. 为                        D. 被

答案：D

8. “我从上海刚一回到家就让几个朋友拉出去吃饭了。”

- A. 被                        B. 给  
C. 由                        D. 把

答案：B

9. “一个当代大学生，竟然一点都不会用电脑，太落伍了吧？”

- A. 难道                      B. 为什么  
C. 未免                      D. 难得

答案：C

10. “每次考试成绩都是优秀，这结果对于他这样一个勤奋努力又聪明好问的学生而言，简直是太了”。

- A. 正常                      B. 常常  
C. 通常                      D. 往常

答案：A

## 11-MAVZU: YOZUV HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**Darsning o'quv maqsadi:** Xitoyda yozuv takomili masalasi. Yozuv qurollarining takomillashuvi. Xitoyda yozuv haqidagi afsonalar; Iyeroglifik yozuvining tarixiy bosqichlari; iyeroglifik yozuvning turlari; sillabik va fonetik yozuvlar; Xitoyda fan sifatida yozuvshunoslik va iyeroglifshunoslik masalasi; Xitoy tili yozuvi turkumlari; Shan – In davri yozuvlari va ularning xususiyatlari; yozuv qurollarining taomil masalasini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** Yozuv, sillabik, alifbo, fonetik, yozuvshunoslik, iyeroglifshunoslik, grafik, harf, kalit, kalitli belgi, o'lik tillar, trigramma, piktografiya, Shan – In, Chju, Fu Si, Ba gua, Chin, Ching Shixuang, Gu ven, Sze gu ven, Syao Juan, Da juan, Chjou ven.

### Iyeroglifik yozuv va yozuvlar haqida umumiy ma'lumot

Hozirgacha fanda yozuvning 3 asosiy ko'rinishi ma'lum.

I - iyeroglif yozuvi, ushbu yozuvda, bir grafik belgi bitta so'zga yoki uning ahamiyatli turkumiga-morfemaga muvofiq bo'ladi.

II - sillabik yoki bo'g'inli yozuv, ushbu yozuvda bir grafik belgi, mazmun jihatdan yaqin bo'lmagan fonetik birlikdagi bo'g'inga muvofiqlik masalasi ko'zda tutiladi.

III - fonetik yozuv – mazkur yozuvda, bir belgi (harf) bitta tovushning yozilishi ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Xitoyda yozuv bilan bog'liq jarayonlar o'ziga xos shaklda kechgan. Bu holatni xitoyning o'z til taraqqiyotida iyeroglifik yozuv yo'lidan borganligi bilan tasniflash mumkin. Xitoyda

---

<sup>1</sup> Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. – М.: "Наука", 1965.

qadimdan fan sifatida iyeroglifshunoslikni o'rganish masalalari erta uyg'ondi. Tarixan, xitoyda iyeroglifshunoslik quyidagi atamalar bilan nomlanib kelingan.

1. Eng qadimgi zamonda bu atama -(小学) maktab davrida o'rganilgan yozuv.

2. Keyinchalik (文字学) yozuvshunoslik.

3. Bugungi zamonaviy nomlanishi esa (汉字学) deb nomlanadi.

Xitoyshunos olimlarning fikricha, "xitoyliklarning bo'g'inli yoki fonetik yozuvga o'tmaganligining sababi tovush yozuvni yarata olmaganligida emas, balki tarixiy talabning bo'lmaganligi va iyeroglifik yozuvning xitoy tili tuzulmaviy xususiyatlariga javob berishi, yozilish tartiblariga ko'ra kerakli vosita hisoblanishi edi". Natijada xitoy tili iyeroglifik yozuv sifatida o'zining mukammallashuv takomiliga yetdi.

Iyeroglifik yozuvda har bir belgi o'z mazmuniga ko'ra alohida bir turkumli so'zning yozilishiga xizmat qiladi. Zamonaviy xitoy tilidagi ko'pgina so'zlar asosan ko'p (ikki, uch) turkumli hisoblanadi. Hozirgi davrda iyerogliflar alohida bir turkumli so'zlarni yozishda qo'llaniladi.

Xitoy tili yozuvining o'ziga xos jihati "yozuv"ning erta uyg'onganligi bilan tasniflanadi. Va bunday holat qadimgi Xitoyda yozuvning an'ana sifatida erta shakllanishiga olib keldi. Ushbu o'rinda "yozuv va iyeroglifshunoslik"ning mohiyatan bir-biridan farq jihatlari borligini ta'kidlash joiz. Manbalarda e'tirof etilishicha, "Yozuvshunoslik-qadimgi, hozirgi, Xitoy va boshqa chet elning turli xil yozuvini o'rganuvchi ta'limot".

Iyeroglifik – tasviriy - shakl yozuv hozirda faqat Xitoyga xos bo'lib, yozuvdan farq qiladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Shunday ekan, qadimgi va bugungi Xitoy tilida iyeroglifikaga oid muammolar faqat iyeroglif ta'limotida o'rganiladi. Ko'pchilik o'rinlarda esa ushbu mezonlarga amal qilinmagan holda "Xitoy iyerogliflarini o'rganish jarayonida odatda iyeroglifshunoslikka nisbatan "yozuvshunoslik" deb ham murojaat etiladi.



Bundan tashqari, Xitoyda fonetik yozuv ham mavjud. Shizang (Tibet millati), mangol, uygʻur, qozoq, qirgʻiz, tojik, rus, koreys, Juang (Xitoy janubida yashab kelayotgan kam sonli mayda millatlar) ni misol tariqasida taʼkidlab oʻtish mumkin. Ushbu millatlar yozuvi til “taʼlimoti yozuvi”ga mansubdir.

Xitoyda hozir til va yozuvi isteʼmolidan chiqib ketgan oʻlik tillar ham mavjud boʻlib, ular asosan, oʻz davrida mashhur boʻlgan turkiyga kiruvchi ayrim tillar, dungan, qadimgi sugʻd, basra, sisya, dong ba, man yozuvlarini aytib oʻtish mumkin.

Iyeroglifik yozuvning xususiyati shundaki, oʻzga tillarni yutib yuborishda oʻzini namoyon etadi.

Iyeroglifik yozuvning tarixan paydo boʻlishi va uning shakllanish bosqichlari haqida gap ketganda, bunda dastlab odamlarning tovush nutqi, sxematik rasmlar va grafik belgilarning vujudga kelish davrlari eʼtiborga olinishi kerak boʻladi. Iyerogliflar maʼlum bir belgilarning paydo boʻlishi, ularning alohida olingan u yoki bu soʻz birikmalariga muvofiq kelishi bilan tasniflanadi. Zero, yozuvning tashkil topishi taraqqiyotning muhim shartlaridan boʻlib, ilmiy nuqtayi nazardan, yozuv bu inson ogʻzaki nutqi, til soʻzlarini qayd qilishda ifodalanadigan grafik belgilar tizimidir. “Shuning uchun jamiyatga kirib keluvchi, oʻy va nutqning rivojlanishi, mumkin qadar tartib berilgan yozishmalarga boʻlgan talabning vujudga kelishi, kutilmagan piktografik surʼatlar va shu kabilarning barchasi borgan sari aniq alohida tasviriy belgilarga boʻlinib ketgan; ushbu belgilar, oʻz navbatida, maʼnosi hamda shakli boʻyicha barqarorlashib kelgan”.<sup>1</sup>


Sekin - asta har bir tasviriy belgi u yoki bu soʻzga yoxud semantik maʼno jihatdan yaqin soʻzlar guruhlariga muvofiq mustaqil maʼno anglatuvchi tovushlar doirasi kengayib, til talablariga javob beruvchi belgining aniq shakli mustahkamlanib borgan. Ushbu tilda belgilar qoʻyib borish ketma-ketligi ham

<sup>1</sup>Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. – М.: “Наука”, 1965. – С. 142.

“sintaktik soʻzlar ketma - ketligi bilan mos tusha boshlagan”. Shunday qilib, piktografik asosda murakkab, ammo mukammal uzoq oʻrganishni talab qiluvchi iyeroglifik yozuvlar tizimi rivojlana boshladi.

### **Xitoy iyeroglifik yozuvi haqidagi afsonalar**

Xitoy yozuvining kelib chiqishi haqidagi birinchi maʼlumotlar uzoq asrlarga borib taqaladi. Rivoyatlarning birida iyerogliflarning yaratilishida afsonaviy imperator Fu Si ning hissasi katta boʻlgan. U 5000 yil avval Xuanxe daryosi boʻyida sayr qilayotgan paytda, suvdan chiqqan ajdarhoni uchratadi. Ajdarhoning belida qandaydir gʻalati chiziqlar boʻladi. Fu Si ularni chizib, keyinchalik ushbu chiziqlar bilan hayvon va qushlarning oʻxashashligini sezadi va shuning asosida 8 trigrammalarni yaratadi.



*Qadimgi xitoyning “ba gua”sehrli trigrammalari*

Qadimgi xitoyning sehrli trigrammalar “ba gua” sehrli trigrammalar tizimi butun yoki teng oʻrtasidan boʻlingan 3 gorizontl chiziqdan iborat 8 kombinatsiyani mujassam etadi. Ushbu trigrammalar oʻziga xos nom va maʼnoga ega boʻlib, undan fol ochish uchun foydalanganlar.


Afsonalarda dastlabki iyerogliflar yaratuvchilar – San Sze va Szyuy Sun nomlari ham qayd etiladi. San Szega iyerogliflarni yaratganligi bois unga hattoki, “yozuv xudosi” degan nom berilgan.

Albatta, bu rivoyatlardan xitoy iyeroglif yozuvlarining qanchalar uzoq va mashaqqatli shakllanish bosqichini boshdan kechirganligini faqat his etish mumkin, xolos. Umuman, fanda tilning paydo bo‘lganligini aytish qiyin bo‘lgani kabi iyeroglif yozuvining paydo bo‘lishi haqida aniq bir sanani aytish ham murakkab. Xitoy iyeroglifik yozuvlari deyarli 4000 yillik tarixga ega.

Mazkur, ma’umotlar arxeologlarning Xenan provinsiyasidagi XIX asrning oxirlarida kashf etilgan topilmalariga asosan hayvon suyaklari va toshbaqa suyaklari yozuvlarida o‘z aksini topgan. Deyarli ularning barchasi “bagua” kabi fol ochishga xizmat qilgan. Suyaklar belgilar bilan qoplangan, ular esa qadimgi xitoy yozuvining namunalari deb ta’kidlangan. Oxir oqibat ushbu belgilarga xitoy olimlari tomonidan aniqliklar kiritilgan.


### **Xitoy iyeroglifik yozuvning dastlabki ko‘rinishlari**


Dastlabki, iyerogliflar o‘zining shakllanish bosqichida rasm (piktogramma) lar ko‘rinishida bo‘lgan. Masalan, “odam”

so‘zi  ko‘rinishda bo‘lgan bo‘lsa, ammo bu ko‘rinish vaqt o‘tib borishi, yozuvning takomillashib borish oqibatida



shaklga keltirilgan. Qadimda “bosh” so‘zini bildiruvchi yozuv

belgilari  ko‘rinishda bo‘lgan. Bu rasmda yana sochlar, ko‘z, qoshni ko‘rish mumkin. So‘ngra asta-sekin qismlari yo‘qoladi va iyerogliflar bugungi zamonaviy tusga ega bo‘ladi. Bu

ierogliflarning tadrijiy rivojlanishi  shaklda kechgan.



Eramizdan avvalgi asr oxirlarida ham toshbaqa kosalari va suyaklaridagi sirli yozuvlar haqida eslatmalar uchrab turgan.

Ammo, bu davrgacha iyerogliflar shakli qattiq o'zgargani sababli, suyaklardagi In yozuvlari hattoki, savodli xitoyliklarga ham tushunarsiz bo'lgan. Shuning oqibatida suyaklardagi yozuvlar sirli naqshlar deb anglangan. Qazilmalardan topilgan suyaklar esa kukunga aylanib "ajdarho suyaklari" degan nom olgan va dori – darmon tayyorlash uchun ishlatilgan.

In davrining suyak va toshbaqa kosalaridagi yozuvlar hozirgi yozuvlardan farq qilgan. Ushbu farqlar quyidagilarda o'z aksini topgan:

I. In yozuvlari narsa, hayvon, o'simlik yoki ularning xarakterli tomonlarining sur'atlarini eslatib, juda oddiy iyeroglif shaklini olgan.

II. In yozuvida kamdan kam hollarda semantik "ma'no anglatuvchi"<sup>1</sup> belgilar uchragan, ya'ni keltirilgan iyerogliflarga tegishli so'zning ma'noviy turlari to'g'ri kelmagan.

III. In yozuvida umumiy belgilar soni 2,5 ming dan oshmagan.

In yozuvining xarakterli namunalaridan biri qadimgi xitoy yozuvidagi "buqa kuragi" edi.



Asosiy e'tibor suyaklar va toshbaqa qobig'idagi yozuvlar tadqiqotiga qaratilgani uchun boshqa qadimgi yodgorliklar

<sup>1</sup> Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. – М., 1957. – С.196.

guruhi kamroq miqdorda o'rganilgan. Bunda marosimlarda ishlatiladigan bronza idishlar (vazalar), toshlar nazarda tutiladi<sup>1</sup>.

Bunday yodgorliklarning kam sonliligi esa ularning nisbatan ancha kech yaratilganligidan dalolat beradi. Marosimlarda ishlatiladigan kumush idishlardagi yozuvlarda iyeroglifik matnlar bilan bir qatorda qurbonlik qilish jarayonining xarakterli mazmuni uning rasmlarda yoritib berilganligi bilan izohlanishi mumkin.



Toshlardagi yozuvlar (Chjou d.)




Toshlardagi surat (Chjou d.)

Mazkur rasmlarning xitoy haykaltaroshlik tasviriy san'atidan farqli tomoni ularning sxematik ko'rinishda ekanidir.

Ularning asosiy yo'nalishi memorial kommunikativ maqsadlarni egallashdan iborat edi.

<sup>1</sup> 朱完莱 "Iyeroglifshunoslikda shakl va mazmun". – Pekin, 1985. 85-b.



*Chjou davriga tegishli Xitoyning marosim idishlarda tasvirlangan piktografik surati*

Bronza idishlar va toshlardagi yozuvlarni o‘qilish prinsipi bo‘yicha iyeroglif yozuvlarni o‘qiy olish xarakterlari hozirgacha o‘zining ijobiy natijalarini berganicha yo‘q, ya‘ni bir-biriga ulangan ma‘noli matnlarni alohida holda ajratib bo‘lmaydi.

Zamonaviy iyerogliflarning kelib chiqish taxminiga ko‘ra, qadimgi marosimlarda ishlatiladigan idishlar va toshlarda saqlanib qolgan piktogrammalardan iyeroglifik yozuv kelib chiqqan va rivojlangan degan qarashlar tasdqilangan. Masalan, “文” iyeroglifi “Wen” deb o‘qiluvchi hozirgi davrda “yozuv”, “madaniyat”, “matn”, “naqsh”, “bezak” degan ma‘nolarga ega. Mazkur iyeroglifning kelib chiqishi va evolyutsiya tarixi ham qiziq bo‘lib quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lgan;



Qadimgi zamonlarda bu belgi, rasmlarda ma‘lum bo‘lishicha, ko‘kragida chandig‘i bor odam shakliga ega bo‘lib, u “bezak”, “naqsh” ma‘nosida kelgan. So‘ngra esa evolyutsiya jarayonida o‘zining tasviriy shaklini yo‘qotib tom ma‘nodagi bugundagi yangi “yozuv” ma‘nosiga ega bo‘ldi. Xitoyda iyeroglifik yozuvning paydo bo‘lishi In davriga tegishli degan xulosaga kelish mumkin (er. avv 2000 yil). In va Chjou davridagi eski yozuvlari qattiq materiallarga toshbaqa kosalari va suyaklar, bronza idishlar va toshlarga tushirilgan. Bunda aniq piktografik





xarakterni namoyon etuvchi, chiziqli - sxematik shakldagi qadimgi iyerogliflar tushuniladi. Masalan, “yo‘lbars”, “虎” (xu)<sup>1</sup> iyeroglifi o‘sha davrda quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lgan.



“Xitoyliklarning iyeroglifik yozuvlari” – I.M. Oshaninning ta’kidlashicha, o‘ziga xosdir. Er.av. XV asrlardayoq In qabilalari rivojlangan iyeroglifik yozuvga ega edilar, bu esa iyeroglifik yozuv uchun uzoq rivojlanish davri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Marosimlarda ishlatiladigan idishlardagi yozuvlarga keladigan bo‘lsak, I.M.Oshanin - “Marosimda ishlatiladigan bronza idishlardagi ba’zi yozuvlar eramizdan avval XV-XII asrlarda, iyeroglifik yozuv, boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi majmuaviy rasmlı yozuvlardan kelib chiqqan va rivojlangan - degan taxmin borligini ta’kidlaydi”.<sup>2</sup>

“Bagua” sehrli trigrommalarining tizimi, shuningdek, ipli tugunlar tizimi mohiyati barcha xitoy yozuvining rivojlanishiga kerakli ta’sir ko‘rsatmagan.

“Trigrammalar tizimi”, bir unsurga mansub, qardosh munosabatlarni anglatishga xizmat qiluvchi iyerogliflar tuzilishiga sharoit yaratdi (Misol uchun, “suv”, “olov”, iyerogliflar). Unday iyerogliflar tuzilishini tasvirlash uchun quydagilarni misol sifatida keltirib o‘tamiz.

Masalan,  “oqim”,  “olov”<sup>3</sup>.

Xitoy yozuvining asosiy prinsiplarini o‘rnatilishi davlat maqsadlari uchun iyerogliflarni tizimlashtirish “Chjou” davrida (er. av. 770-256-yil) boshlandi.

<sup>1</sup> 高明. 中国古文字学通论 北京大学出版社 1996-yil. 53-b.

<sup>2</sup> Ошанин И.М. Китайский язык. Изд.2. Т. 21. – М.: БСЭ, 1953. – С.320.

<sup>3</sup> Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. – М.: “Наука”, 1965. – С.142.

Sin sulolasining birinchi imperatori Sin Shi Xuangdi Xitoyni markaziy davlatga birlashtirishdan avval, iyerogliflar o'z mohiyati bo'yicha, har xil xonliklarda har xil shakllarga ega edi. Mamlakat yagona markazlashgan davlatga bo'ysundirilgandan keyin iyeroglifik yozuvlarni "bixillastirish" talabi vujudga keldi. Aynan ana shu vazifa Sin Shi Xuangdi tomonidan amalga oshirildi. "Barcha iyeroglif yozuvlarning – bir shaklda bo'lishi" hamma joyda majburiyligi haqidagi yangi iyeroglif yozuvlarining shakli ishlab chiqildi va Xitoy tarixida birinchi "San chjuan" iyerogliflar katalogi tuzildi.

Keyingi, to'liq iyerogliflar yozuv katalogi "说文解字" (er.av. II asr) navbatdagi "Xan sulolasi davridagi mamlakatlar birlashuvi yillarida vujudga keldi". Shu bilan qadimgi Xitoyda iyeroglifik yozuviga asos solindi.

### **Qadimgi Xitoyda yozuv takomili masalasi**

Xitoy yozuvining rivoji asosan 4 yo'nalishda sodir bo'lgan.

Birinchidan, har xil iyerogliflarning umumiy soni asta - sekin ko'payib borgan. Natijada yangi so'zlarni yetkazish uchun yangi iyerogliflar yaratilgan. In yozuvlarida 2,5 mingga yaqin iyerogliflar soni 3,3 mingdan oshgan. "Shoven szeszi" lug'atida va "Kansi Tzidyen"da (XVIII asr boshi) ularning soni 10,5 martaga ko'payib 49 mingni tashkil etgan. Juda ko'p iyerogliflar Tan (618 - 906) va Sun (960 - 1279) sulolalari hukmronligi davrida ijod qilingan<sup>1</sup>.

Iyerogliflar sonining o'sishi xitoy adabiyotining gullab yashnashiga olib keldi. Buni cheklash uchun imperator Kansining (XVII asr oxiri -XVIII asr boshi) aralashuviga talab paydo bo'ldi. U o'lim jazosini qo'llash bilan qo'rqitib yangi iyerogliflar yaratilishiga chek qo'ydi.

<sup>1</sup>高明。中国古文字学通论/ 北京大学出版社 1996, 53-b.

Ikkinchidan, iyerogliflarning har xil tuzilmaviy qismlarga – kalitlar va fonetikalarga o‘zgartirishlar kiritish mo‘ljallandi.

Uchinchidan, iyerogliflarni ketma – ketligini tizimlashtirish yo‘lida kalitlar sonini qisqartirilishi ko‘rib chiqildi.

To‘rtinchidan, iyerogliflarni o‘z tasviriy shaklini yo‘qotish tendensiyasi vujudga keldi va shu bilan birga, ko‘p sonli kalligrafik xatlar paydo bo‘ldi.<sup>1</sup>

Iyerogliflar yozuvining rivojlanishini namoyon etuvchi muhim xitoy xatlari quyidagilar:

*1-jadval*

							Iyerogliflar mazmuni
"Gu вэнь"	"Да жуэнь"	"Сяо чуэнь"	"Лишу"	"Кей шу"	"Син шу"	"Цзо шу"	
							Arava, stanok
							O‘zi, shaxsan
							Poytaxt, buyuk

I. "Gu ven" qadimgi yozuv 古文 In davrida vujudga kelib, xitoy yozuvining dastlabki shakli bo‘lgan – "Tze gu ven" iyeroglif yozuvining keyingi rivojlanish bosqichi hisoblanadi. U suyak va toshbaqa qobig‘idagi yozuvlar uchun ishlatilgan.

II. "Da juan" "大篆" katta belgilar tamg‘asi. Chjou davrida vujudga kelib, "Chjou ven" "周文" deb nomlanadi. Ushbu xat yozuvni mukammallashtirish va uni fikatsiyalash bo‘yicha islohot natijasi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Шер А.Я. Что нужно знать о китайской письменности. – М.: "Наука", 1968.



III. “Syao Chjuan” “小篆” kichik belgilar tamg‘asi. Sin Shixuangdi tomonidan er.av. 26-yilda yozuvni yangi tartibga solish jarayoni ro‘y berdi. Sin Shixuangdi vaziri Li Si, ancha keng tarqalgan iyerogliflarni jamlab yozuv grafikasini mukammallashtirdi. U yaratgan xat “Syao Chjuan” deb nomlandi.

“Da Chjuan” va “Syao Chjuan” xatlaridan tamg‘alar tayyorlashda hozir ham ishlatiladi.

IV. “Li shu” “李书” rasmiy yozuvi. Xan davriga kelib, yozuvlarni soddalashtirish kechadi. Bu Chen Myao tomonidan kashf etilgan bo‘lib, ushbu o‘rinda iyerogliflarning soddalashtirish va belgilarda chiziqlar sonining kamaytirish yo‘lidan boradi.<sup>1</sup>

V. “Kayshu” 楷书 “kalligrafik namunaviy yozuv”. IV asrning o‘rtalarida vujudga keladi. Bunda Van Sichji va uning o‘g‘li Van Syan chjilarning hissasi katta bo‘lgan. Kayshu hozirda keng ko‘lamda qo‘llaniladi va shriflar majmuyi asosiga kiritilgan.

VI. “Sinshu” 行书 va “Sao shu” 草书- “yarim tez yozuv” va “tez yozuv”. II asr oxiri Vey sulolasi hukmronligi davrida vujudga kelgan. Yarim tez yozuvi ancha tushunarli hisoblanib, hozirda ham xitoyliklarning xatida keng qo‘llaniladi.

“Sao shu” yozuvi eramizdan avvalgi 200-yillarda vujudga kelgan. Uning yozuv sifatida farqli tomoni iyerogliflarni qog‘ozdan qalamni uzmasdan yozish, ya‘ni har bir chiziqni alohida yozmasdan va alohida iyerogliflarni bo‘laklarga ajratmasdan yozish muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>2</sup>

Iyeroglifshunos olimlar xitoy iyeroglifik yozuvni o‘rganar ekan, ularning fikricha, xitoy iyeroglifikasida boshqa xatlar tizimi kabi, iyerogliflar yaratuvchanligini yo‘qotish hisobiga ularning belgi shakllarini ixchamlashtirish jarayonlari sekinlik bilan kechdi.

<sup>1</sup> Mahmudxo‘jaev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: Matbuot, 1990. 5-10-betlar.


<sup>2</sup> 李家祥 “说文解字省声类子疑误析辨”/ 贵州文史丛刊 1991. № 3.

Iyerogliflarni soddalashtirishning asosiy sababi uni qo'llash sohalari va odamlar doirasi kengayganligi munosabati bilan yozuvni tezlashtirishga bo'lgan talabning oshganligidir.

### **Qadimgi Xitoyda yozuv qurollarining takomillashuvi**

Chjou davriga kelib, yozuvda bambukdan qilingan silliq taxtachalar keng ishlatila boshlandi. Asosan uchli yog'och qalamlardan foydalanilgan. Taxtachalarga yirik matnlar yozilganidan so'ng, tepa qismi teshilib, bir-biriga bog'lab yelpig'ich ko'rinishga keltirilgan, shu yo'l bilan kitoblar barpo etila boshlangan. Ushbu jarayon Sin sulolasi (er. av 221y.), ya'ni Xitoyni markaziy davlatga birlashuvi yillarining oxirigacha yakunlandi.

Eramizdan avvalgi III asrda tarqalgan mo'yqalam va ipaklar asta-sekin bambukdan tayyorlangan qalamlarni siqib chiqara boshladi. Uning yaratilishi yozuv texikasining keyingi mukammallashuviga zamin hozirladi. Iyeroglif chiziqlari har xil yo'g'onlikka, ancha to'g'ri chiziqqa ega bo'ldi, shuningdek, ularning ayrim elementlari nuqta va vergul ko'rinishini oldi. Masalan, “水” (shui) suv iyeroglifi va uning yozilish turi qadimda quyidagi ko'rinishda yozilgan.



Keyingi xitoy yozuvi grafikasining, shuningdek, yozuvli haykallarni rivojlanishi to'g'ridan to'g'ri taxminan er. av. 105-yillarda qog'oz barpo etilishi bilan bog'liq. Ushbu kashfiyotni tarix Say Lunyuga tegishli deb ta'kidlaydi.

Qog'ozning paydo bo'lishi kitoblar chiqarilishining arzonlashuvi va ularning shaklini o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Yangi shakldagi kitoblarning uzun varag'ini ustma – ust taxlab qo'yish uslubiga amal qilingan. Lekin qo'lyozma yo'li bilan bajarilgan kitoblarning ko'payishi sezilarli darajada pul va mablag' bilan bog'liq moddiy chiqimlarni ham talab qilgan. Kitobni chop etish kashfiyoti mamlakatning madaniy hayotida

tub burilish nuqtasini qo'ydi. Mazkur o'rinda yog'ochli taxtachalardan kitoblarni bosib chiqarilishi nazarda tutiladi. Xitoyda ushbu usulda 868-yilda birinchi kitob bosmadan chiqdi va omma hukmiga havola etildi.

1050-yil Bi Shen ismli xitoylik tomonidan kuydirilgan loydan tayyorlanadigan harakatlanuvchi bosma harflar kashf etildi. Lekin u texnologiyaning mukammallashmaganligi munosabati bilan iste'molda keng qo'llanilmadi. Zamonaviy kitoblarni chop etish texnikasi sirlarini esa xitoyliklar faqat XIX asrga kelib Yevropadan o'zlashtirishni boshladi.

Xitoyda taxtachalardan iste'molda foydalanish usullaridan XIX asr o'rtalarida voz kechildi va uning o'rnini zamonaviy bosmadan chiqarish texnikasi egalladi. Zamonaviy usulda chop etish texnikasi asosan uchiga letografik o'rnatilgan va umuman mashinkali chop etishlar kiradi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, miloddan avval Xitoyda hukmronlik qilgan Sya hukmronligi davridayoq paydo bo'lgan belgili yozuvlar Shan In davri yozuvi uchun asos bo'lib xizmat qilgan ekan;

Ikkinchidan, iyeroglifik yozuvni takomillashtirish va uni ixchamlashtirish yo'lidagi olib borilgan doimiy izlanishlar o'z davri bilan iyerogliflarni soddalashtirish imkoniyatlarini paydo qildi;

Uchinchidan, Xitoy imperiyasiga asos solinishi bilan Xitoy iyeroglifik yozuvi takomilida hal qiluvchi bosqich bo'ldi;

To'rtinchidan, Xitoy iyeroglifik yozuvini takomillashtirishdagi sa'yi-harakatlar iyeroglifik yozuvni o'z davri bilan bog'liq tadrijiy taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishda muhim bosqich bo'ldi deyish mumkin.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoyda yozuv takomili masalasi.
2. Yozuv qurollarining takomillashuvi.
3. Qadimgi Xitoy yozuvi haqida nimalarni bilasiz?



4. Xitoy yozuvi taraqqiyoti bosqichida necha davrni bosib o'tdi?
5. Sillabik yozuv nima?
6. Bo'g'in yozuv haqida nimalarni bilasiz?
7. Xitoyda iyeroglifik yozuv qachondan paydo bo'la boshladi?
8. Shan -In davri yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Guv en yozuvi qachon paydo bo'ldi?
10. Sya Juan va Da Juan yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?

### Amaliy mashg'ulot vazifalari:

1. Xitoy iyerogliflari kategoriyalari.
2. Xitoyning liushu yozuvi tarixi haqida.
3. Gan Bao. "Ruhlarini izlash qaydnomalari" matni.
4. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, polisemiya hodisasi qo'llanilishiga ahamiyat bering.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. V asrda yaratilgan "To'rt ohang notasi" va zamonaviy ohangning o'xshash va farqli tomonlari.
2. Sun Min haqida ma'lumotlar yig'ish va tarjima qilish.

### TEST

1. 下列汉字中，不是形声字的是：

- A. 招                      B. 呼                      C. 粮                      D. 中

答案：D

2. 下列汉字中，不是会意字的是：

- A. 众                      B. 体                      C. 诗                      D. 尖

答案：C

3. 下列短语中加点的词都表示动物，含褒义的是：

- A. 狼子野心                      B. 虎头虎脑  
C. 狐朋狗友                      D. 小肚鸡肠

答案：B

4.下列简称中错误的是:

- A.中国农业银行——农行.                      B.艺术作品——艺术品  
C.奥林匹克运动会——奥运会.                D.清华大学——清华

答案: B

5.下列成语中,加点的字不是一对反义词的成语是:

- A.不闻不问                      B.畏首畏尾  
C.同甘共苦                      D.瞻前顾后

答案: A

6.“这是我们厂的拳头产品。”这句话中的“拳头产品”意思是:

- A.拳击手套.                      B.保暖手套  
C.护手产品.                      D.特有的而无人能及的产品

答案: D

7.“在我们学校后面的山上,有很多叫名字的花草”。

- A.不到    B.不出                      C.不动                      D.不够

答案: B

8.“你看看你,都急出一汗了”。

- A.次                      B.个                      C.人                      D.头

答案: D

9.下面各词语中,两个字声调不一样的是:

- A.人情                      B.美好  
C.晚年                      D.地震

答案: C

10.下列四组词语中,加点汉字读音相同的一组是:

- A.家长长虹                      B.唐朝朝东走  
C.计数数钱                      D.内行自行车

答案: B

## 12-MAVZU: XITOIY IYEROGFLIFLARINING TOIFALARI

**Darsning o'quv maqsadi:** Lyu shu yozuvi, Xan davri yozuvi, Shuovenjiezi lug'atida berilgan iyeroglif turkumlarini o'rganish, iyeroglif imlo chiziqlari, Xitoy yozuvi haqidagi nazariy qarashlarni o'rganish. O'zbekistonda xitoy yozuvining o'ragnilishi va ahamiyati.

**Tayanch so'z va iboralar:** Lyu shu, Xu Puan, Chjou guan, Xan shu, Ban gu tizimi, tovush va tovush belgilari.

### Ideografik iyerogliflarning tarkibiy qismlari bo'yicha tasniflash

Ideogrammalar xitoy tilida 会意字 [huiyizi] deb ataladi. Xitoy tilidagi barcha iyerogliflar lug'atlarda imlo chiziqlarining soni bo'yicha tartibga keltirilgan. Ushbu tizim yordamida iyerogliflarni lug'atlarda izlab topish qulaylik yaratadi.

Iyerogliflarning ideografik turini ham ana shu tizim bo'yicha bo'lib chiqamiz, ya'ni hozirgi zamonaviy xitoy yozuvida foydalanish holigacha yetib kelish tarixi va jarayonini ko'rib chiqamiz.

三画 Uch imlo chiziqli ideogrammalar.

千[qian]<sup>1</sup>

甲骨文 [jiägüwén] da 十 o'n va 人 odamning birgalikdagi tasviri bo'lgan. 金文 [jīnwén] da biroz noaniqroq xato tasvirlangan. 篆文 [zhuànwén] da umumiy lashib bitta chiziq qo'shilib, uning ilk ma'nosini ko'rib bo'lmay qoldi. 隶书 [lishū] imlo yozuvi 楷书 [kǎishū] ga o'zgargandan so'ng 千 ko'rinishida yozila boshladi. Aslida juda aniq, odamning uzoq umr ko'rishi yuz yildir, biroz boshqacharoq nazar tashlaydigan bo'lsak, bir odamga yuzta sanasak, o'nta odamda albatta, mingta

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京: "华夏出版社", 2003. 26 页



bo‘ladi. Hozirgi kunda ham mustaqil ham 偏旁 [piānpáng] sifatida qo‘llana oladi, lekin 部首 [bùshǒu] emas.

Bundan tashqari, uchta imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko‘plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 井[gōng] (yon bo‘lak) birlashgan ikki qo‘llar, 文[zhàng] uzunlik o‘lchov belgisi, 与[yū] va, [yù] ishtirok etmoq, 及[jí] va, erishmoq, ulgurmoq, 义[yì] ma‘no, 子[jié] yolg‘iz va boshqalar hamda bir qancha yon bo‘laklarni kiritishimiz mumkin.

四画 to‘rt imlo chiziqli ideogrammalar.

开[kāi]<sup>1</sup>

古文 [gǔwén]da eshik 門, ikki qo‘l 双手 va bir elementlaridan iborat. Ikki qo‘l bilan eshikning bandini ushlamoq, eshikni ochmoq ma‘nolarini anglatadi. 篆文 [zhuànwén] ga kelib, eshik bandini ochish va ikki qo‘l elementi ochish 开 ga almashdi. 隶书 [lìshū] imlo yozuvi 楷书 [kǎishū]ga almashgandan so‘ng 開 ko‘rinishida yozila boshladi. Hozirda osonlashgan 开 ko‘rinishiga kelgan. Yon bo‘lak bo‘lganida 開 ning soddalashtirilgan ko‘rinishidan foydalaniladi. Uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma‘nosi “eshikni ochish”dir. Hozirda mustaqil qo‘llana oladi, hamda 偏旁[piānpáng] bo‘lib ham kela oladi. 部首 [bùshǒu] vazifasini o‘tamaydi.

Bundan tashqari, to‘rtta imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko‘plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 韦[zhuān] mayin teri, 专[zhī] yagona, maxsus, 支[zhī] qo‘llab-quvvatlamoq, 卅[sà] o‘ttiz, 仄[zè] buzilgan ohang, 友[yǒu] do‘st, 区[qū] hudud, 巨[jù] bahaybat, 比[bǐ] solishtirmoq, 内[nèi] ichki, ichida, 见[jiàn] ko‘rmoq, uchrashmoq, 化[huà] o‘zlashtirmoq, o‘zgarimoq, vaqt sarf qilmoq, 反[fǎn] qarama-qarshi, 介[jiè] tanishtirmoq, 从[cóng] – dan, ergashmoq, 分[fēn]

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京: “华更出版社”, 2003. 42 页

bo'lmoq, bo'linmoq, [fèn] qism, component, 乏[fǎ] charchamoq, yetarli bo'lmaslik, 公[gōng] jamoaviy, umumiy, 匀[yún] teng, teng taqsimlamoq, 卞[biàn] o'zini tuta olmaslik, 冂[shuān]eshik bandi, 为[wéi] qilmoq, bo'lmoq, [wèi] ...uchun, 计[jì] hisoblamoq, rejalashtirmoq, 尹[yǐn] boshqarmoq, 夬[guài] hal qiluvchi, 引[yǐn] tortmoq, yo'naltirmoq, 队[duì] guruh, jamoa, 双[shuāng] juft, 予[yú] men, [yǔ] bermoq, 书[shū] kitob kabi iyerogliflar hamda qator yon bo'laklarni kiritishimiz mumkin.

五画 Besh imlo chiziqli ideogrammalar.

平[píng]<sup>1</sup>

金文 [jīnwén] da 亏 ( musiqa tovushining xush eshitilishini bildiradi ) va 八 (bo'linishni ifodalaydi)ning qo'shilishi, musiqaning sekinlik ma'nosini ifodalaydi. 篆文 [zhuànwén]da “于”ning rivojlanishi ta'sirida pastki qismi bukilgan ko'rinishga keldi. 隶书 [lìshū] imlo yozuvi 楷书 [kǎishū] ga o'zgartirandan keyin 平 ko'rinishiga keldi.

平 hozirgi kunda mustaqil qo'llanishi ham mumkin, 偏旁 [piānpáng] bo'lib kelishi ham mumkin. 部首 [bùshǒu] vazifasini o'tamaydi.

Bundan tashqari, besh imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko'plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 戈[jiān] tor, kichkina, 正[zhèng] toza, aniq, ayni vaqtida, 卉[huì] dekorativ o'simlik, 去[qù] bormoq, 古[gǔ] qadimiy, 左[zǔ] chap tomon, 右[yòu] o'ng tomon, 夨[tāo] shiddatli harakat, 叵[pǒ] mumkin emas, 匜[yā] guruh, jamoa, yon-atrof, 卡[kǎ] kartochka, to'smoq, 北[běi] shimol, shimoliy, 占[zhān] bashorat qilmoq, [zhàn] band qilmoq, ega bo'lmoq, 帅[shuài] lashkarboshi, ortidan ergashtirmoq, 电[diàn] elektr toki, telegramma, chaqmoq, 号[háo] uvillamoq, [hào] belgi, raqam, 史

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京:“华更出版社”, 2003. 109 页

[shǐ] tarix, 央[yāng] so‘ramoq, markaz, 囚[qiú] band qilmoq, mahbus, 生[shēng] tug‘ilmoq, 失[shī] yoqotmoq, boy bermoq, 乍[zhà] avvaliga, to‘satdan, 付[fù] to‘lamoq, 仔[zǎi] o‘g‘il, [zǐ] go‘dak, 令[lìng] buyruq bermoq, majbur qilmoq, 孕[yùn] homilador, 外[wài] tashqi, begona, 冬[dōng] qish, 用[yòng] foydalanmoq, 刍[chú] xashak, 印[yìn] bosma, bosmoq, 玄[xuán] sirli, 半[bàn] yarim, 冗[rǒng] ortiqcha, 宁[níng] tinch, [nìng] afzalroq, 讨[tǎo] jazolamoq, 讯[xùn] so‘ramoq, surishtirmoq, 永[yǒng] umrbod, uzoq muddatli, 司[sī] boshqarmoq, 尼[ní] monarxiya, 出[chū] chiqmoq, 奴[nú] qul, kanizak, 加[jiā] qo‘shmoq, 召[zhào] chaqirmoq, taklif qilmoq, 皮[pí] teri, 对[duì] to‘g‘ri, tasdiqlamoq, 台[tái] qal‘a, 幼[yòu] yosh, yoshlik kabi iyerogliflar hamda qator yon bo‘laklarni kiritishimiz mumkin.

六画 Besh imlo chiziqli ideogrammalar

死[sǐ]<sup>1</sup>

甲骨文 [jiǎgǔwén]da 𣦵(yomon, yoqimsiz, yomonlik)ning qadimgi ko‘rinishi va 人(odam) elementlarining birlashuvidan iborat ideogramma. Odam elementining cho‘kkalab o‘tirgan ko‘rinishida yonida esa suyaklarning tasviri ifodalangan, bu esa o‘limdan darak beradi. 金文 [jīnwén]da bu ko‘rinish o‘zgarmagan. 篆文 [zhuànwén]da to‘liq shakllanib bo‘lgan. 隶书 [lìshū] yozuv ko‘rinishi 楷书[kǎishū]ga o‘zgargandan so‘ng esa 死 ko‘rinishida yozila boshlangan. Hozirgi kunda mustaqil bo‘lib keladi, 部首 [bùshǒu] vazifasini ham o‘taydi, ammo bu vaziyatda 𣦵 ko‘rinishi ishlatiladi.

Bundan tashqari, olti imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko‘plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 邦[bāng] hukumat, yurt, 刑[xíng] jazo, 巩[gǒng] mahkam, 吉[jí]

<sup>1</sup>汉字源流字典/谷衍奎编. 北京:“华更出版社”, 2003. 171 页



baxtli, baxt, 共[gòng] umumiy, 再[zài] qayta, keyin, 吏[lì] amaldor, 百[bǎi] yuz, 灰[huī] kul, chang, 戍[shù] garnizon, 成[chéng] bo'lmoq, 夹[jiā] bosmoq, qismoq, 过[guò] o'tgan zamon suffiksi, 匠[jiàng] mutaxassis, kasbni yasovchi suffiks, 扬[yáng] ko'tarmoq, 尧[yáo] qadimgi Xitoyning afsonaviy imperatori, 此[cǐ] bu, shu, [shī] ustoz, 尘[chén] chang, 光[guāng] yorug'lik, yaltiroq, 吊[diào] osmoq, 同[tóng] bir xil, birgalikda, 帆[fān] yelkan, 岁[suì] yosh, 则[zé] shunda, bu holda, 年[nián] yil, 先[xiān] avval, 丢[diū] tashlamoq, 乔[qiáo] baland, 休[xiū] dam olmoq, 伏[fú] yerga qarab yotmoq, bekinmoq, 件[jiàn] hisob so'z, 伊[yī] u, uni, 血[xuè] qon, 后[hòu] orqa, keyin, 会[huì] yig'ilmoq, qila olmoq, [kuài] hisobga olmoq (buxgalteriya), 合[hé] yopmoq, birlashmoq, 众[zhòng] olamon, 夙[sù] azalgi, 负[fù] javobgar bo'lmoq, muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, 降[jiàng] pastga tushmoq, 各[gè] har bir, 名[míng] ism, mashhur, 多[duō] ko'p, 争[zhēng] kurashmoq, erishmoq, 色[sè] rang, yuz ifodasi, 庄[zhuāng] qishloq, do'kon, 刘[liú] familiya, 闭[bì] yopmoq, 闯[chuǎng] bostirib kirmoq, 关[guān] yopmoq, 决[jué] hal qilmoq, hal qiluvchi, 守[shǒu] qo'riqlamoq, 安[ān] tinch, 设[shè] tashkil qilmoq, 农[nóng] dehqonchilik, dehqon, 寻[xún] qidirmoq, 如[rú]...ga asosan, 妃[fēi] imperatorning ikkinchi ayoli, malika, 好[hǎo] yaxshi, [hào] yoqtirmoq, 买[mǎi] sotib olmoq, 孙[sūn] nevara kabi iyerogliflar hamda qator yon bo'laklarni kiritishimiz mumkin.

七画 Yetti imlo chiziqli ideogrammalar

医[yī]<sup>1</sup>

甲骨文 [jiǎgǔwén] da 匚 va 矢 elementlarini qamrab olgan, o'qni to'suvchi moslama hisoblangan. 金文[jīnwén]da 匚

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京: "华夏出版社", 2003. 260 页

va 矢 elementlari kamon va o'q quroliga aylandi. 篆文 [zhuàn wén] da to'liq shakllandi. 隶书 [lì shū] imlo yozuvi 楷书 [kǎi shū] ga o'tgandan so'ng 医 ko'rinishida yozila boshlandi. Qadimdagi 醫 iyeroglifining soddalashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Uning ilk ma'nosida to'smoq, panalamoq, panasiga olmoq degan ma'nolar ifodalangan. 医 hozirda mustaqil ham qo'llaniladi, 偏旁 [piān páng] ham bo'lib keladi. 部首 [bù shǒu] vazifasini o'tamaydi.

Bundan tashqari, yetti imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko'plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 弄 [nòng] o'ynamoq, ermak qilmoq, 麦 [mài] bug'doy, 戒 [jiè] ehtiyot bo'lmoq, 赤 [chì] sodiq, 孝 [xiào] ota-onani hurmat qilmoq, aza, 壳 [ké] po'stloq, [qiào] qobiq, 劳 [láo] mehnat, 束 [shù] bog'lamoq, 折 [shé] sindirmoq, [zhē] ag'darilmoq, [zhé] sindirmoq, bukilmoq, 报 [bào] xabardor qilmoq, xabar, gazeta, telegramma, 连 [lián] qo'shilmoq, 步 [bù] qadam, bosqich, holat, 吠 [fèi] vovullamoq, 听 [tīng] eshitmoq, 吹 [chuī] puflamoq, 别 [bié] ajralmoq, boshqa, 困 [kùn] qurshab olmoq, charchamoq, 里 [lǐ] uzunlik o'lchov belgisi, ichki qism, 男 [nán] erkak kishi, 邮 [yóu] pochta, 告 [gào] yetkazmoq, e'lon qilmoq, 牡 [mǔ] erkak (hayvon), 利 [lì] foyda, daromad, 秀 [xiù] boshoqlamoq, chiroyli, iqtidorli, 兵 [bīng] askar, 何 [hé] nima, qanday, nima uchun, 作 [zuò] qilmoq, 役 [yì] majburiy mehnat, 希 [xī] umid qilmoq, 坐 [zuò] o'tirmoq, 谷 [gǔ] dara, adir, 妥 [tuǒ] mos, 肘 [zhǒu] tirsak, 甸 [diàn] maysazor, 删 [shān] qisqartirmoq, 系 [jì] bog'lamoq, [xì] tizim, fakultet, 言 [yán] so'z, nutq, 库 [kù] omborxonona, 闰 [rùn] kabisa yili, 闲 [xián] bo'sh bo'lmoq, 间 [jiān] ort ko'makchi – orasida, xona hisob so'z, 兑 [duì] almashtirmoq, 弟 [dì] uka, 冶 [yě] eritmoq, 沙 [shā] qum, 牢 [láo] mahkam, qamoq, 启 [qǐ] ochmoq, 初 [chū] boshi, ilk bor, 君 [jūn] xo'jayin, 尾 [wěi] dum,

改 [gǎi] o'zgartirmoq, to'g'rilamoq, 陈 [chén] eski kabi iyerogliflar hamda qator yon bo'laklarni kiritishimiz mumkin.

八画 Sakkiz imlo chiziqli ideogrammalar

事 [shì]<sup>1</sup>

史, 吏 va 事 iyerogliflarining kelib chiqishi bir xildir. 甲骨文 [jiägūwén] da qo'li bilan sanchqi ushlab turgan ko'rinishi tasvirlangan. Qadim zamonlarda ov qilmoq mushkul ish hisoblangan bo'lib, qadimda bunday ov qilish ish ma'nosini ifodalagan. 金文 [jīnwén] da ko'rinishi deyarli o'zgarmagan. 篆文 [zhuànwén] da esa iyeroglif to'liq shakllandi. 隶书 [lìshū] imlo yozuvi 楷书 [kāishū] ga almashgandan so'ng 事 ko'rinishida yozila boshlandi. Hozirgi kunda mustaqil qo'llaniladi, hamda 偏旁 [piānpáng] bo'lib ham kelishi mumkin. 部首 [bùshǒu] vazifasini o'tamaydi.

Bundan tashqari, sakkiz imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko'plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 奉 [fèng] qabul qilmoq, 表 [biǎo] ifodalamoq, 规 [guī] sirkul, qoida, 武 [wǔ] harbiy, 者 [zhě] qaysi, qaysiki, 幸 [xìng] baxt, qarorgoh, 取 [qǔ] olmoq, qabul qilmoq, 直 [zhí] to'g'ri, vertikal, to'g'rilamoq, to'xtovsiz, 昔 [xī] avval, 苗 [miáo] yangi ko'karib chiqqan ekin, 苟 [gǒu] baribir, 林 [lín] o'rmon, 析 [xī] ajratmoq, tahlil qilmoq, 或 [huò] yoki, 画 [huà] surat, rasm chizmoq, 枣 [zǎo] xurmo, 卖 [mài] sotuvchi, sotmoq, 奔 [bēn] yeldek uchmoq, [bèn] otilmoq, tashlanmoq, 奈 [nài] qanday qilib, 奇 [qí] toq son, [qí] qadimiy, nodir, 奄 [yǎn] qoplamoq, to'satdan, 卧 [wò] yotmoq, yotoqxona, 妻 [qī] rafiqqa, 顷 [qǐng] maydon o'lchov belgisi, 斩 [zhǎn] kesmoq, chopmoq, 轰 [hōng] gumburlash, bomba tashlamoq, 到 [dào] yetmoq, 叔 [shū] amaki - otaning ukasi, 肯 [kěn] rozi bo'lmoq, 些 [xiē] ozgina, bir qancha,

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京: “华夏出版社”, 2003. 336 页



卓[zhuō] ajratmoq, 明[míng] yorugʻ, ochiq-oydin, 昌[chāng] gullab-yashnamoq, 易[yì] yengil, oson, 昆[kūn] aka, avlod, 国[guó] davlat, vatan, 具[jù] qurol, uskuna, 典[diǎn] qonun, kodeks, 罗[luó] elak, 败[bài] muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, 制[zhì] tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq, 知[zhī] bilmoq, bilim, 牧[mù] boqmoq, 秉[bǐng] qoʻlda ushlamoq, 委[wěi] topshirmoq, 佰[bǎi] yuz, 侃[kǎn] behuda gapirmoq, 佩[pèi] belbogʻida osib yurmoq, 卑[bēi] qabih, 质[zhì] sifatli, 采[cǎi] termoq, izlab topmoq, kavlab olmoq, 受[shòu] olmoq, qabul qilmoq, 贫[pín] kambagʻal, 肥[féi] yogʻli taom, 服[fú] kiyim, 昏[hūn] xushini yoqotmoq, 咎[jiù] ayb, xato, ayblamoq, 备[bèi] ega boʻlmoq, 卒[zú] askar, 闹[nào] shovqin qilmoq, 法[fǎ] qonun-qoida, 泪[lèi] koʻz yosh, 学[xué] oʻqimoq, oʻrganmoq, 宝[bǎo] qimmatbaho buyum, 宜[yí] kerak, 审[shěn] tekshirmoq, koʻzdan kechirmoq, 实[shí] butunligicha, asl, 官[guān] amaldor, 肃[sù] hurmat bilan, 隶[lì] boʻysunmoq, 居[jū] yashamoq, uy-joy, 弦[xián] kamalak ipi, 参[cān] ishtirok etmoq, 承[chéng] tiramoq, 沓[tà] koʻp, koʻplab kabi iyerogliflar hamda qator yon boʻlaklarni kiritishimiz mumkin.

九画 toʻqqiz imlo chiziqli ideogrammalar

看[kān] [kàn]<sup>1</sup>

篆文[zhuànwén] da 手 – qoʻl va 目 koʻz elementlarining birikishidan hosil qilingan. Qoʻlni koʻzning ustiga qoʻyib yorugʻlikdan toʻsish yoki, uzoqlarga qarash maʼnolarini anglatadi. 隶书 [lìshū] imlo yozuvi 楷书 [kǎishū] ga oʻzgargandan keyin 看 koʻrinishida yozila boshladi. Hozirda 看 mustaqil qoʻllanila oladi, odatda 偏旁 [piānpáng] boʻlib kelmaydi. 部首 [bùshǒu] vazifasini oʻtamaydi.

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京:“华更出版社”, 2003. 463 页

Bundan tashqari, to‘qqiz imlo chiziqli ideogrammalar qatoriga ko‘plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 奏[zòu] o‘ynamoq (musiqa asbobida), 某[mǒu] birov, allakim, qandaydir, 甚[shèn] juda, o‘ta, haddan tashqari, 巷[xiàng] tor ko‘cha, 荐[jiàn] tafsiya qilmoq, 茧[jiǎn] ipak pilla, 故[gù] sabab, hodisa, qadimiy, 相[xiāng] ikki tomonlama, o‘zaro, 刺[lá] kesmoq, 富[fù] boy, 要[yāo] talab qilmoq, [yāo] istamoq, kerak, talab qilmoq, 甬[béng] kerak emas, 耍[shuǎ] vaqtni chog‘ o‘tkazmoq, 咸[xián] tuzlangan, 威[wēi] kuch-qudrat, qo‘rqitmoq, 厘[lí] uzunlik o‘lchov belgisi, 皆[jiē] barcha, hamma, 战[zhàn] urush, jang, zirillamoq, titramoq, 临[lín] yaqinlashmoq, arafasida, 虐[nüè] qahri qattiq, shafqatsiz, 是[shì] bo‘lmoq, bor bo‘lmoq, 冒[mào] tashqariga chiqmoq, ... qaramasdan, 品[pǐn] predmet, narsa, 囿[yòu] qo‘riqxon, 畏[wèi] qo‘rqmoq, 罚[fá] jazolamoq, jarima solmoq, jazo, 骨[gú] suyak, 拜[bài] tazim qilmoq, tabrikلامoq, tashrif buyurmoq, 矩[jǔ] qoida, 香[xiāng] xushbo‘y hid, mazali, 科[kē] bo‘lim, 复[fù] tiklamoq, qaytadan, takrorlamoq, 段[duàn] bo‘lak, 便[biàn] qulay, qulay vaziyat, 保[bǎo] himoya qilmoq, qo‘riqlamoq, 信[xìn] ishonmoq, xat, 侵[qīn] bostirib kirmoq, 顺[shùn] ... bo‘ylab, maqbul, 追[zhuī] quvlab yetmoq, nimadirning ortidan quvmoq, 衍[yǎn] tarqalmoq, rivojlanmoq, ortiqcha, 律[lù] qonun-qoida, nazorat qilmoq, 食[shí] yemoq, ovqatlanmoq, 狱[yù] qamoqxon, 脉[mài] qon tomirlari, tomir, urishi, 亮[liàng] yorqin, yorug‘, yaltiramoq, 音[yīn] tovush, ovoz, 闻[wén] eshitib qolmoq, hidlamoq, 差[chā] farq, [chà] farqlanmoq, xato, [chāi] jo‘natmoq, yo‘naltirmoq, 养[yǎng] boqmoq, tug‘moq, 兹[zī] bu, ushbu, 染[rǎn] bo‘yamoq, 宦[huàn] amaldor, 突[tū] birdaniga, to‘satdan, 穿[chuān] kiymoq, 扁[biǎn] yassi, tekis, 祝[zhù] tilamoq, tabrikلامoq, 退[tuì] ortga yurmoq, 既[jì] allaqachon, 昼

[zhòu] kun, kunduzi kabi ko‘plab iyerogliflar hamda qator yon bo‘laklarni kiritishimiz mumkin.

十画 O‘n imlo chiziqli ideogrammlar

家 [jiā]<sup>1</sup>

甲骨文 [jiǎgǔwén]da 宀 uning ostida erkak cho‘chqa elementlari tasvirlangan bo‘lib, cho‘chqa boqadigan hovlisi bor degan ma‘noni anglatadi. Cho‘chqa boqish qo‘shimcha ish bilan shug‘ullanish demakdir. 金文 [jīnwén] da uning ko‘rinishi o‘zgaragan. 篆文 [zhuànwén]da erkak cho‘chqa elementi 豕 ko‘rinishiga almashdi. 隶书 [lìshū] imlo yozuvi 楷书 [kǎishū] ga almashgandan so‘ng 家 ko‘rinishida yozila boshladi. 家 hozirgi kunda mustaqil qo‘llaniladi hamda 偏旁 [piānpáng] bo‘lib keladi. 部首 [bùshǒu] vazifasini o‘tamaydi.

Bundan tashqari, o‘n imlo chiziqli ideogrammlar qatoriga ko‘plab iyerogliflar kiritiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 艳 [yàn] yorug‘, yaltiroq, 泰 [tài] tinch, osoyishta, 秦 [qín] Chin sulolasi, 班 [bān] guruh, jamoa, 素 [sù] avvaliga, bo‘yoqsiz, 耿 [gěng] haqqoniy, sodiq, 晋 [jìn] Tsin sulolasi, 索 [suǒ] arqon, kanat, 哥 [gē] aka, 辱 [rǔ] uyat, sharmanda, tahqirlanish, 套 [tào] g‘ilof, kiymoq, 原 [yuán] azaldan, birlamchi, 致 [zhì] nomiga yo‘llamoq, 监 [jiān] nazorat qilmoq, 晕 [yūn] boshi aylanmoq, hushidan ketmoq, 哭 [kū] yig‘lamoq, 崇 [suì] yomon ruh, 微 [wēi] kichkina, 罢 [bà] to‘xtatmoq, 贼 [zéi] o‘g‘ri, firibgar, 乘 [chéng] nimadadir yurmoq, foydalanmoq, 笔 [bǐ] mo‘yqalam, ruchka, qalam, 笑 [xiào] kulmoq, jilmaymoq, 息 [xī] dam olmoq, 臭 [chòu] badbo‘y hid, [xiù] hid, 射 [shè] otmoq, urmoq, 躬 [gōng] o‘zi, egilmoq, 殷 [yīn] xursand, samimiy, chuqur hissiyot, 般 [bān] tur, muvofiq, bir xil, 舀 [yǎo] botirib olmoq, 留 [liú] qolmoq, 离 [lí] oraliq masofa, ...dan, 疾 [jí] nafratlanmoq, 旅 [lǚ]

<sup>1</sup> 汉字源流字典/谷衍奎编. 北京: “华更出版社”, 2003. 598 页



brigada, qo'shilma, 畜 [chù] uy jonivori, [xù] o'stirmoq, ko'paytirmoq, 羔 [gāo] qo'zichoq, 料 [liào] taxmin qilmoq, 益 [yì] foyda, foydali, 兼 [jiān] birlashtirmoq, 烦 [fán] zerikarli, 涉 [shè] kechib o'tmoq, munosabatda bo'lmoq, 浴 [yù] yuvinmoq, cho'milmoq, 浸 [jìn] suvga botirmoq, 寒 [hán] sovuq, muzdek, 宾 [bīn] mehmon, 容 [róng] o'zida mujassamlamoq, 宰 [zǎi] so'ymoq, 扇 [shān] yelpimoq, [shàn] yelpig'ich, 冥 [míng] chuqur (o'ylanmoq), oxiratdagi dunyo, 冤 [yuān] adolatsizlik, 继 [jì] davom etmoq, ergashmoq kabi ko'plab iyerogliflar hamda qator yon bo'laklarni kiritishimiz mumkin.

E'tibor berganimizdek, bir va ikki imlo chiziqli ideogrammalarni kiritmaganmiz. Chunki bir va ikki chiziqli ideogrammalar mavjud emas. Buning sababi esa bir va ikki imlo chiziqli iyerogliflar piktogrammalar hisoblanadi. Yuqorida qator ideogrammalar uch imlo chiziqli ideogrammalardan o'n imlo chiziqli ideogrammalargacha sanab o'tildi. Bu faqatgina o'ntagacha bo'lgan imlo chiziqli ideogrammalar mavjud degani emas. Tadqiqotimiz davomida o'n bir, o'n ikki, o'n uch, o'n to'rt, o'n besh, o'n olti, o'n yetti, o'n sakkiz, o'n to'qqiz va hatto, o'ttiz imlo chiziqli ideogrammalarni ajratib oldik. Ammo ularning aksariyati hozirgi kunda eskirgan ideogrammalar bo'lib, muomaladan chiqib ketgan hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga alohida to'xtalib o'tmadik.

### Eng ko'p qo'llaniladigan ideogrammalarning tarkibiy tahlili

Xitoy iyerogliflarining ko'pchiligi iyerogliflarning fonetik toifalari – fonogrammalar hisoblanadi. Ushbu toifadagi iyerogliflarning ko'pchiligi ikki qismdan iborat: ulardan biri iyeroglifning ma'nosiga ishora qilsa, ikkinchisi esa, talaffuziga ishora qilib keladi. Ma'noni anglatuvchi qismi kalit deb ataladi. Agar iyeroglif o'zining qadimiy ma'nosini yoqotgan bo'lsa,

uning tarkibidagi u yoki bu elementning ma'noqa qanday aloqasi borligini tushuntirib berish qiyin kechadi.

Ideogrammalar ham shular jumlasidandir. Agar u o'zining qadimgi ma'nosini yo'qotgan, yoki imlo yozuvlarining rivojlanishi ta'sirida shakl o'zgarishiga duch kelgan bo'lsa, uning tarkibidagi elementlarning nima sababdan bir iyeroglifga jam bo'lganini izohlab berish qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ushbu muammoga biroz bo'lsa-da oydinlik kiritish maqsadida hozirgi zamonaviy xitoy tili yozuvidagi ideogrammalarni kalitlari bo'yicha tahlil qilamiz. Garchi ideogrammalar tarkibidagi elementlar ma'no jihatdan birlashgan bo'lsa-da, aksariyat sodda elementlari hozirgi zamonaviy xitoy tili yozuvida kalit deb qabul qilingan. Qilinadigan tahlilga mana shu tomonlarini hisobga olgan holda yondashamiz.

Xitoyda dong'i ketgan oliy bilim yurtlaridan biri bo'lgan Shanxay shahridagi Fudan universitetida ishlovchi tilshunos Chen Abao iyerogliflar ustidan olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida, hozirgi davrda keng qo'llaniladigan iyerogliflar orasida eng ko'p qo'llaniladigan iyerogliflar soni 560 ta degan xulosaga keladi.<sup>1</sup> Quyidagi jadvalda ana shu iyerogliflar orasidan ajratib olingan ideogrammalarni tarkibiy tahlil etamiz.

2-jadval

No	笔画	整会意字	部首
1.	三画	千[qiān] ming	十[shí]
2.	三画	义[yì] ma'no	义[ài]
3.	四画	开[kāi] ochmoq	井[gōng]
4.	四画	专[zhuān] yagona, maxsus	二[èr]
5.	四画	支[zhī] qo'llab-quvvatlamog	十[shí]
6.	四画	区[qū] hudud	匚[fāng]

<sup>1</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: "Matbuot", 1990. 27-b.

7.	四画	内[nèi] ichki, ichida	冂[tóng]
8.	四画	化[huà] o'zlashtirmoq	亻[dān]
9.	四画	反[fǎn] qarama-qarshi	厂[ān]
10.	四画	从[cóng] – dan, ergashmoq	人[rén]
11.	四画	公[gōng] jamoaviy, umumiy	八[bā]
12.	四画	为[wéi] qilmoq, bo'lmoq	丶[diàn]
13.	四画	计[jì] hisoblamoq, rejalashtirmoq	讠[yán]
14.	四画	引[yǐn] tortmoq, yo'naltirmoq	弓[gōng]
15.	四画	队[duì] guruh, jamoa	阝[zuǒ]
16.	四画	书[shū] kitob	丨[shù]
17.	五画	正[zhèng] toza, aniq, ayni vaqtida	止[zhǐ]
18.	五画	北[běi] shimol, shimoliy	匕[bǐ]
19.	五画	电[diàn] elektr toki, telegramma, chaqmoq	曰[yuē]
20.	五画	号[háo] uvillamoq	口[kǒu]
21.	五画	生[shēng] tug'ilmoq	丿[piē]
22.	五画	外[wài] tashqi, begona	夕[xī]
23.	五画	半[bàn] yarim	丨[shù]
24.	五画	加[jiā] qo'shmoq	力[lì]
25.	五画	对[duì] to'g'ri, tasdiqlamoq	又[yòu]
26.	五画	台[tái] qal'a	厶[sī]
27.	六画	共[gòng] umumiy	八[bā]
28.	六画	再[zài] qayta, keyin	一[yī]
29.	六画	百[bǎi] yuz	白[bái]
30.	六画	成[chéng] bo'lmoq	戈[gē]
31.	六画	过[chéng] bo'lmoq	辶[zuǒ]
32.	六画	此[cǐ] bu, shu	止[zhǐ]
33.	六画	光[guāng] yorug'lik, yaltiroq	儿[ér]
34.	六画	同[tóng] bir xil, birgalikda	冂[tóng]



55.	六画	则[zé] shunda, bu holda	贝[bèi]
56.	六画	年[nián] yil	丿 [piě]
57.	六画	先[xiān] avval	儿[ér]
58.	六画	件[jiàn] hisob soʻz	亻 [dān]
59.	六画	后[hòu] orqa, keyin	厂[ān]
60.	六画	会[huì] yigʻilmoq, qila olmoq, [kuài] hisobga olmoq (buxgalteriya)	人[rén]
61.	六画	合[hé] yopmoq, birlashmoq	人[rén]
62.	六画	众[zhòng] olamon	人[rén]
63.	六画	各[gè] har bir	夕[dōng]
64.	六画	名[míng] ism, mashhur	夕[xī]
65.	六画	多[duō] koʻp	夕[xī]
66.	六画	争[zhēng] kurashmoq, erishmoq	刀[lì]
67.	六画	色[sè] rang, yuz ifodasi	刀[lì]
68.	六画	关[guān] yopmoq	丿[bā]
69.	六画	决[jué] hal qilmoq, hal qiluvchi	冫 [liǎng]
70.	六画	安[ān] tinch	宀[bǎo]
71.	六画	设[shè] tashkil qilmoq	讠 [yán]
72.	六画	农[nóng] dehqonchilik, dehqon	冫[tū]
73.	六画	如[rú] ...ga asosan	女[nǚ]
74.	六画	好[hǎo] yaxshi, [hào] yoqtirmoq	女[nǚ]
75.	七画	劳[láo] mehnat	艹[cǎo]
76.	七画	报[bào] xabardor qilmoq, xabar, gazeta, telegramma	扌[tí]
77.	七画	连[lián] qoʻshilmoq	辶[zuǒ]
78.	七画	步[bù] qadam, bosqich, holat	止[zhǐ]
79.	七画	别[bié] ajralmoq, boshqa	刂[lì]
80.	七画	利[lì] foyda, daromad	禾[hé]
81.	七画	兵[bīng] askar	八[bā]

Xitoy tili tarixi

62.	七画	何[hé] nima, qanday, nima uchun	亻[dān]
63.	七画	作[zuò] qilmoq	亻[dān]
64.	七画	间[jiān] ort ko'makchi – orasida, xona, hisob so'z	门[mén]
65.	七画	弟[dì] uka	ㄩ[bā]
66.	七画	冶[yě] eritmoq	冫[liǎng]
67.	七画	改[gǎi] o'zgartirmoq, to'g'rilamoq	攴[fǎn]
68.	八画	表[biǎo] ifodalamoq	衣[yī]
69.	八画	规[guī] sirkul, qoida	见[jiàn]
70.	八画	者[zhě] qaysi, qaysiki	耂[lǎo]
71.	八画	取[qǔ] olmoq, qabul qilmoq	耳[ěr]
72.	八画	直[zhi] to'g'ri, vertikal, to'g'rilamoq, to'xtovsiz	十[shí]
73.	八画	林[lín] o'rmon	木[mù]
74.	八画	或[huò] yoki	戈[gē]
75.	八画	事[shì] ish, mashg'ulot	一[yī]
76.	八画	到[dào] yetmoq	至[zhì]
77.	八画	明[míng] yorug', ochiq, oydin	日[rì]
78.	八画	国[guó] davlat, vatan	口[wéi]
79.	八画	具[jù] qurol, uskuna	八[bā]
80.	八画	制[zhì] tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq	刂[lì]
81.	八画	知[zhī] bilmoq, bilim	矢[shǐ]
82.	八画	委[wěi] topshirmoq	禾[hé]
83.	八画	采[cǎi] termoq, izlab topmoq, kavlab olmoq	采[zhǎo]
84.	八画	受[shòu] olmoq, qabul qilmoq	又[yòu]
85.	八画	肥[féi] yog'li taom	月[yuè]
86.	八画	服[fú] kiyim	月[yuè]

87.	八画	备[bèi] ega bo'lmoq	久[dōng]
88.	八画	法[fǎ] qonun-qoida	彳[sān]
89.	八画	学[xué] o'qimoq	子[zǐ]
90.	八画	实[shí] butunligicha, asl	宀[bǎo]
91.	九画	相[xiāng] ikki tomonlama, o'zaro	木[mù]
92.	九画	要[yāo] talab qilmoq, [yāo] istamoq, kerak, talab qilmoq	西[xī]
93.	九画	战[zhàn] urush, jang, zirillamoq, titramoq	戈[gē]
94.	九画	品[pǐn] predmet, narsa	口[kǒu]
95.	九画	看[kān] ko'rmoq, qaramoq	手[shǒu]
96.	九画	科[kē] bo'lim	禾[hé]
97.	九画	段[duàn] bo'lak	殳[shū]
98.	九画	便[biàn] qulay, qulay vaziyat	亻[dān]
99.	九画	保[bǎo] himoya qilmoq, qo'riqlamoq	亻[dān]
100.	九画	信[xìn] ishonmoq, xat	亻[dān]
101.	九画	差[chā] farq, [chà] farqlanmoq, xato, [chāi] jo'natmoq, yo'naltirmoq	羊[yáng]
102.	九画	养[yǎng] boqmoq, tug'moq	羊[yáng]
103.	九画	既[jì] allaqachon	艮[gèn]
104.	十画	班[bān] guruh, jamoa	王[wáng]
105.	十画	素[sù] avvaliga, bo'yoqsiz	糸[jiǎo]
106.	十画	原[yuán] azaldan, birlamchi	厂[ān]
107.	十画	致[zhì] nomiga yo'llamoq	至[zhì]
108.	十画	般[bān] tur, muvofiq, bir xil	舟[zhōu]
109.	十画	料[liào] taxmin qilmoq	米[mǐ]
110.	十画	家[jiā] oila	宀[bǎo]
111.	十画	容[róng] o'zida mujassamlamoq	宀[bǎo]
112.	十画	继[jì] davom etmoq, ergashmoq	彳[jiǎo]



Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni alohida aytib o'tishimiz kerakki, zamonaviy xitoy tilidagi iyerogliflarning soni ko'pchilikni tashkil etsa-da, ideogrammalarning soni kamchilikni tashkil etar ekan.

Ularni kalitlari asosida tahlil qilganimizda umumiy hisobda eng ko'p qo'llaniladigan iyerogliflarning oltmish beshta kalit bilan kelishini kuzatdik. Ularni esa quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. 十 [shí] kalitida uchragan ideogrammalar soni 3 ta: 千, 支, 直; 2. 又 [ài] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 义; 3. 升 [gōng] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 开; 4. 二 [èr] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 专; 5. 匚 [fāng] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 区; 6. 冂 [tóng] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 内, 同; 7. 亠 [dān] kalitida uchragan ideogrammalar soni 7 ta: 化, 件, 何, 作, 便, 保, 信; 8. 厂 [ān] kalitida uchragan ideogrammalar soni 3 ta: 反, 后, 原; 9. 人 [rén] kalitida uchragan ideogrammalar soni 4 ta: 从, 会, 合, 众; 10. 八 [bā] kalitida uchragan ideogrammalar soni 3 ta: 公, 共, 具; 11. 丷 [bā] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 关, 弟. 八 hamda 丷 aslida bitta kalitning ikki xil ko'rinishidir; 12. 冫 [diàn] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 为; 13. 讠 [yán] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 计, 设; 14. 弓 [gōng] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 引; 15. 阝 [zuǒ] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 队; 16. 丨 [shù] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 书, 半; 17. 止 [zhǐ] kalitida uchragan ideogrammalar soni 3 ta: 正, 此, 步; 18. 匕 [bǐ] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 北; 19. 日 [yuē] kalitida uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 电; 20. 口 [kǒu] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 号, 品; 21. 丿 [piě] kalitida uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 生, 年; 22. 夕 [xī] kalitida uchragan ideogrammalar soni 3 ta: 外, 名, 多; 23. 力 [lì] kalitida

uchragan ideogrammlar soni 3 ta: 加, 争, 色; 24. 又 [yòu] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 对, 受; 25. 厶 [sī] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 台; 26. 一 [yī] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 再, 事; 27. 白 [bái] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 百; 28. 戈 [gē] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 成, 或; 29. 辶 [zuǒ] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 过, 连; 30. 儿 [ér] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 光, 先; 31. 贝 [bèi] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 则; 32. 夂 [dōng] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 各; 33. 冫 [liǎng] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 决, 治; 34. 宀 [bǎo] kalitida uchragan ideogrammlar soni 3 ta: 安, 家, 容; 35. 宀 [tū] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 农; 36. 女 [nǚ] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 如, 好; 37. 艹 [cǎo] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 劳; 38. 手 [shǒu] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 看; 39. 才 [tí] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 报. 手 hamda 才 kalitlari bir kalitning ikki xil koʻrinishidir; 40. 卩 [lì] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 别, 制; 41. 禾 [hé] kalitida uchragan ideogrammlar soni 3 ta: 利, 委, 科; 42. 门 [mén] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 间; 43. 夂 [fǎn] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 改; 44. 衣 [yī] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 表; 45. 见 [jiàn] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 规; 46. 耂 [lǎo] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 者; 47. 耳 [ěr] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 取; 48. 木 [mù] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 林, 相; 49. 至 [zhì] kalitida uchragan ideogrammlar soni 2 ta: 到, 致; 50. 日 [rì] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 明; 51. 口 [wéi] kalitida uchragan ideogrammlar soni 1 ta: 国; 52. 矢 [shǐ] kalitida

uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 知; 53. 㒹 [zhǎo] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 采; 54. 月 [yuè] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 肥, 服; 55. 彳 [sān] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 法; 56. 子 [zǐ] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 学; 57. 西 [xī] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 要; 58. 爻 [shū] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 段; 59. 羊 [yáng] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 2 ta: 差, 养; 60. 艮 [gě] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 既; 61. 王 [wáng] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 班; 62. 糸 [jiǎo] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 素; 63. 舟 [zhōu] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 般; 64. 米 [mǐ] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 料; 65. 彡 [jiǎo] kalitida  
uchragan ideogrammalar soni 1 ta: 继.

### **Ideogrammalar ishtirokida hosil qilingan soʻzlarning morfologik tahlili**

Maʼlumki, morfologik xususiyatlarga koʻra, xitoy tili izolyatsiyalangan tillar qatori (xitoy tili, vetnam tili, tay tili, kxmer tili) ga kiradi.<sup>1</sup> Bu kabi tillarga flektiv tillar (rus tili, belorus tili, lotin tili, grek tili, letov tili) dan farqli ravishda soʻz yasashining oʻziga xos turi xosdir. Xitoy tilida soʻz yasashi ikki maʼnoli birlikning birikishidan hosil boʻladi.

Xitoy yozuvini tahlil qilish uni boʻgʻinlarga – yaʼni alohida iyerogliflarga ajratishdan boshlanadi. Iyeroglif yozuvda fonetik va maʼnoviy eng kichik birlik hisoblanadi. Misol uchun 事 [shì] “ish, voqea, hodisa” (voqelik). Zamonaviy xitoy tilida shunday deyish mumkin:

军事 jūnshì “harbiy masalalar”

<sup>1</sup> Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.: “Муравей”, 2000. – С.26.



同事 tóngshì “hamkasb, birga ishlovchi”

刑事 xíngshì “jinoyat ishi”

民事 mínshì “fuqarolik ishi”

Ushbu misollarda 事 shì leksik tahlilining birlamchi birligi hisoblanadi. Birlamchi birlik grammatik aniqlikka ega bo‘lishi mumkin: ot, fe‘l, sifat va h.k bo‘lib kelishi mumkin.<sup>1</sup>

Odatda, nutqimiz alohida gaplardan tashkil topadi. Shuning uchun “gap” (句 jù)ni tildagi ma‘no anglatuvchi oddiy mustaqil birlik bo‘lib xizmat qiladi.<sup>2</sup> Xitoy tilida gaplar talaffuz jihatidan qator tovushlardan iborat; yozuvda esa iyerogliflar yordamida bayon qilinadi; va nihoyat u o‘zida ma‘lum ma‘noni jamlaydi.

U yoki bu iyeroglif bilan ifodalanadigan bo‘g‘in xitoy tilida 字 zì deb ataladi. Bu nafaqat yozma nutqqa, balki og‘zaki nutqqa ham xosdir. Boshqacha qilib aytganda, iyerogliflar og‘zaki nutqdagi bo‘g‘inlarni yozma nutqdagi bayonidir.<sup>3</sup>

So‘z xitoy tilida 词 cí deb ataladi. So‘z bu tilning ma‘noli birligidir. Xitoy tilidagi so‘zlar faqatgina bir bo‘g‘indan emas, ikki, uchta yoki to‘rtta bo‘g‘inni ham o‘zida jamlashi mumkin. Qadimgi xitoy tilida esa faqatgina bitta bo‘g‘inli so‘zlar mavjud bo‘lgan. Ikki bog‘inli so‘zlar deyarli uchramagan. Hozirgi kunga kelib esa, tilni osonlashtirish maqsadida so‘zlar ikki bo‘g‘inlashtirilgan. Uch yoki to‘rt bo‘g‘inli so‘zlar esa asosan so‘z birikmalari hisoblanadi. So‘z birikmalari esa ikki yoki ko‘p so‘zlarning birikishi bo‘lib, ular gapni hosil qilmaydi.<sup>4</sup>

Quyida yuqorida keltirilgan har bir imlo chiziqli ideogrammalar ishtirok etgan gaplarni morfologik tahlil qilamiz.

<sup>1</sup> Ko‘rsatilgan manba, 27-b.

<sup>2</sup> ЛуйШу-сян. Очерк грамматики китайского языка. Слова и предложение. – М.: “Восточная литература”, 1961. – С.28.

<sup>3</sup> Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. – М.: “Иностранная литература”, 1954. – С.21.

<sup>4</sup> Ko‘rsatilgan manba, o‘sha bet.

1) 金色的阳光投射到平静的海面上。

Jinsè de yángguāng tóushè dào píngjìng de hǎimiàn shàng.

Quyosh oltin nurlarini sokin dengiz uzra sochmoqda.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni oltitani tashkil etdi: 色 sè, 阳 yáng, 光 guāng, 投 tóu, 射 shè hamda 平 píng.

Yuqoridagi gapni tahlil qiladigan bo'lsak:

Iyerogliflar soni esa o'n to'rttani tashkil etadi; o'n to'rtta bo'g'in (音节 yīnjié) mavjud; hamda to'qqizta so'zdan tashkil topgan - 金色|的|阳光|投射|到|平静|的|海面|上.

2) 万千注意行车安全。

Wànqiān zhùyì xíngchē ānquán.

Avtomobilda xavfsiz harakatlanish kerak.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni ikkitani tashkil etdi: 千 qiān hamda 安 ān.

Yuqoridagi gapni tahlil qiladigan bo'lsak:

Iyerogliflar soni esa o'n sakkiztani tashkil etadi; to'rtta bo'g'in mavjud; hamda sakkizta so'zdan tashkil topgan - 万|千|注意|行|车|安全.

3) 住在这儿开销不大。

Zhù zài zhèr kāixiao bù dà.

Bu yerda yashashning to'lovi katta emas.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni bittani tashkil etdi: 开 kāi.

Yuqoridagi gapni tahlil qiladigan bo'lsak:

Iyerogliflar soni sakkiztani tashkil etadi; beshta bo'g'in mavjud; hamda beshta so'zdan tashkil topgan - 住|在|这儿|开销|不大.

4) 原来是你呀，差点儿没把人家吓死!

Yuánlái shì nǐ ya, chàdiǎnr méi bǎ rénjiā xià sǐ!

Senmiding, o'lguday qo'rqitib yubodingku!

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni oltitani tashkil etadi: 原 yuán, 是 shì, 差 chà, 没 méi, 家 jiā, 死 sǐ.

Iyerogliflar soni o'n to'rttani tashkil etadi; o'nta bo'g'in mavjud; hamda o'nta so'zdan tashkil topgan - 原来|是|你|呀, 差点儿|没|把|人家|吓|死! .

5) 这家医院医生不够, 病人太多。

Zhè jiā yīyuàn yīsheng bùgòu, bìngrén tài duō.

Bu kasalxonada shifokorlar yetishmaydi, kasallar esa juda ko'p.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni yettitani tashkil etadi: 家 jiā, 医 yī, 生 sheng (ikki martta takrorlangan), 病 bìng, 太 tài, 多 duō.

Iyerogliflar soni o'n ikkitani tashkil etadi; sakkizta bo'g'in mavjud; hamda sakkizta so'zdan tashkil topgan - 这|家|医院|医生|不够|, 病人|太|多.

6) 这事不简单, 需要进一步调查。

Zhè shì bù jiǎndān, xūyào jìnyībù diàochá.

Bu ish oson emas, qayta tekshirib ko'rish kerak.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni beshtani tashkil etdi: 事 shì, 需 xū, 要 yào, 进 jìn, 步 bù.

Iyerogliflar soni o'n ikkitani tashkil etadi; o'n ikkita bo'g'in mavjud; hamda yettita so'zdan tashkil topgan - 这|事|不|简单|, 需要|进一步|调查.

7) 我明天就走, 这次演出我看不到了。

Wǒ míngtiān jiù zǒu, zhè cì yǎnchū wǒ kàn bù dào le.

Ertaga men ketaman, bu namoyishni ko'ra olmayman.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammlar soni to'rttani tashkil etdi: 明 míng, 出 chū, 看 kàn, 到 dào.



Iyerogliflar soni o'n to'rttani tashkil etadi; o'n to'rtta bo'g'in mavjud; hamda o'n ikkita so'zdan tashkil topgan - 我明天就走, 这次演出我看不到。

8) 我回家要晚, 你先睡, 别等我。

Wǒ huíjiā yào wǎn, nǐ xiān shuì, bié děng wǒ.

Men uyga kech qaytaman, sen uxlayver, meni kutma.

Ushbu keltirilgan misoldagi ishtirok etgan ideogrammalar soni beshtani tashkil etadi: 家 jiā, 要 yào, 先 xiān, 别 bié, 等 děng.

Iyerogliflar soni o'n bittani tashkil etadi; o'n bitta bo'g'in mavjud; hamda o'n bitta so'zdan tashkil topgan - 我回家要晚, 你先睡, 别等我。

Yuqoridagi berilgan misollar undagi iyerogliflar soni va ideogrammalar soni, bo'g'inlarning soni va so'zlarning soni ko'rsatilgan holda ta'lim qilindi.

Ularga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, berilgan misollarning soni yettita gaplardan iborat bo'lib, undagi ishtirok etgan iyerogliflarning umumiy soni yetmish to'qqiztani tashkil etdi. Ulardan ideogrammalarning umumiy soni o'ttiz ikkitani tashkil etdi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ideogrammalar umumiy matnning taxminan qirq foizini tashkil etadi.

### Xitoyning lyushu yozuvi tarixi haqida

An'anaviy yozuv ta'limotida "六书" nazariyasi muhim o'rin egallaydi. Xu Puan (胡朴安) lyu shu haqida fikr bildirib, "lyu". Lyu shuata sifatida g'arbiy Xan sulolasi so'nggi yillarida (206-208) paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo uning ancha erta paydo bo'lganligi haqidagi fikrlar ham uchraydi. Masalan, "周官" (Chjou guan) da keltirilishicha: "Lyu shu atamasi Xan davrigacha mavjud bo'lgan, faqat uning ichiga nimalar kirishi noma'lum bo'lgan".

“汉书” (Xan shu)ning san’atnoma bo‘limida “六书 lyu shuning ijod qilinishining sababi u iyerogliflarni turkumlarga ajratib ularga nom bergan. Shuning uchun ham lyushu tushuncha sifatida iyeroglifshunoslik haqidagi atama”degan fikr bildiriladi”.<sup>1</sup>

Xan sulolasi hukmronligi davrida lyushu 3 xil tarzda nomlangan.

1. Qadimiy 班固 tizimi bo‘yicha Xan sulolasi tarixi haqida hikoya qiluvchi asarning san’atnoma bo‘limida keltirilgan. Bular: 象形, 象事, 象声, 转注, 假借;

2. Suyshenning shuo ven jie zi asarida ko‘rsatkich 指事, rasm-tasviriy 象形, rasm –talaffuz 形声, ma’naviy birlashish 会意, shaklan o‘zgaruvchi 转注 va o‘zlashtiruvchi 假借;

3. Jeng Syuanning Jou li asarida yozgan sharhida tasviriy rasm 象形, ma’naviy birlashish 会意, shaklan o‘zgaruvchi 转注, ish yuritish 处事, o‘zlashtiruvchi turkum 假借, fonogramma 谐声 nomlariga bo‘linadi.

Ching<sup>2</sup> sulolasi davriga kelib, Lyu shu Syuy Shen tomonidan tuzilgan turkum iyerogliflar bangu ketma-ketligi tartibida nomlanadigan bo‘ldi.

Tzin<sup>3</sup>Vey Xeng<sup>4</sup>; Tang<sup>5</sup>Gu Gongyan<sup>6</sup> va boshqalar bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda lyushuga aniqlik kiritganlar. Ammo bu haqida bir qator fikrlar mavjud bo‘lib, bir – biridan farqli ravishda chalkash va murakkabdir.<sup>7</sup>

<sup>1</sup>胡朴安: “Xitoy yozuvshunoslik tarixi”. Pekin: Xitoy nashriyoti, 1983. 21-22-b.

<sup>2</sup>清 1644–1912-yillar Xitoyda hukmronlik qilgan sulola nomi.

<sup>3</sup>晋 265-420-yillar Xitoyda hukmronlik qilgan sulola.

<sup>4</sup>卫衡 – Tzin sulolasi hukmronlik davrida yashagan tilshunos olim.

<sup>5</sup>唐 618-907-yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan sulola nomi.

<sup>6</sup>贾公彦 Tang sulolasi davrida yashab ijod etgan tilshunos olim.

<sup>7</sup>胡朴安: “Xitoy yozuvshunoslik tarixi”. – Pekin: Xitoy nashriyoti, 1983. 191-223-betlar.

Ushbu masalani faqat Xitoy Respublikasi (1912-1949) tashkil topgach iyushuni turli jabhalarda o'rganishni boshladi. Masalan: Ju Vansayning <sup>1</sup> "iyeroglifshunoslikda shakl va mazmun" asarida iyushuni 19 turga bo'ladi".

Yang Shuda<sup>2</sup> ning "iyerogliflarning shakl va mazmunini o'rganish" asarida ma'naviy birlashish (会意) 2 tovushli bo'lib, ma'naviy birlashish (会意), tasviriy – rasm (象形), ko'rsatkich (指事), rasm -talaffuz (形声) turkumlari bilan yonma-yon turadi. Har bir iyeroglif ko'rinishdagi shakllarni birlashtiradi.

Turli davr olimlari nazariyasida iyushu nomi o'z ma'nosida saqlangan lekin iyerogliflarni turkumlarga bo'lishda yangi uslublar ko'payib turli xil fikrlar yuzaga keldi.

Imlo chiziqlarining ortib borishida masalaning ikki muhim jihati e'tiborni o'ziga tortadi:

1. Iyerogliflarda shakl ortib borishi bilan ma'no jihatdan farqlanishi, ya'ni omonimli yoki ko'chma ma'noli iyerogiliflardan foydalanish natijasida bir qator shakli bir xil turli ma'noni anglatuvchi iyerogliflar paydo bo'ldi. Bu turdagi iyerogliflarning ko'payishi natijasida shakllarni osongina turkumlarga ajratish boshlandi.

2. Shakl ortishi bilan iyerogliflar taraqqiyotida noaniq shakllar vujudga keldi. Bunday iyerogliflar o'z ma'nosini yo'qotdi. Lekin aniq ko'rinishga ega bo'lgan iyerogliflarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida hozirga kelib, noaniq, shakl ma'nosini to'liq ifodalamaydigan iyerogliflar paydo bo'lishiga olib keldi.

Ayrim rasm talaffuz iyerogliflarni shaklga qarab ma'nosini o'rganish mumkin. Chi Syanjyunning <sup>3</sup> "Rasm talaffuzli iyerogliflarni tadqiqi" nomli maqolasida Shuo ven jie zi lug'ati asosida rasm talaffuzli turkum iyerogliflarni o'rganish natijasida

---

<sup>1</sup>朱完菜.

<sup>2</sup>杨树达.

<sup>3</sup>车先俊.



“rasm talaffuz turkumiga oid qiyosiy ma’nodagi ideogrammaning uch yuzdan ortiq turini aniqladi”. Bu esa “ko’pgina rasm talaffuz iyerogliflarining ko’rinishi, ideogram-maga tayangan holda, to’g’ridan to’g’ri uning ma’nosini ajratib ko’rsatadi.

Ideogrammaning qiyosiy ma’nosidan tuzilgan rasm talaffuzi iyeroglif turkum qo’llanilsa-da, ammo iyeroglifning to’g’ri ma’nosi bo’lgan ideogramma bilan bog’liq ravishd achalkash va mavhumlikni” keltirib chiqarish ehtimoli ham yo’q emas.

Yan Jimingni<sup>1</sup> “Rasm talaffuz toifasidagi iyerogliflarning tuzilish uslublari haqida” nomli maqolasida shunday yozadi: “Talaffuzni ifodalovchi iyeroglif ma’nosi rasm talaffuz turkumining tuzilish asosida yuzaga keladi. Chunki talaffuz etimologik ma’nosiga ko’ra, rasm talaffuz turkumiga kiruvchi iyerogliflarda, talaffuz turkum bilan shakl tuzilishi tomondan bir xil tarzda saqlanib qolgan. Shuningdek, talaffuz turkumda turli ko’rinishdagi, ammo o’xshash tovushlar shaklan saqlangan. Shuningdek, ularning bir xil bo’lmagan iyerogliflar turkumi orasida keng tarqalganligini ko’rish mumkin”.<sup>2</sup>

Tabiiyki, talaffuz turkumiga kiruvchi iyerogliflar xitoy tilining uzoq rivojlanish tarixi davomida bosqichma – bosqich yaratilgan. Xitoy iyerogliflari tabiatiga ko’ra, tovush, ko’rinish kabi ma’no xususiyatlarga asoslanadi.

Qadimgi xitoy tilida ma’no anglatuvchi bir bo’g’inli so’zlar ko’pchilikni tashkil qilib, unda rasm talaffuz turkumidagi talaffuz belgilari tovush (ohang) katta ahamiyatga egadir. Ba’zi holatlarda tasviriy shakl belgilarda ham etimologik jihatdan talaffuz qismini ifoda qiladi. Bu esa o’z navbatida, rasm talaffuz turkumining tuzilish uslubining eng muhim jihatlaridan hisoblanadi.

<sup>1</sup>殷奇明 “论形声字的一种重要构成方式”，“南京师大学报”，1992年，2期。

<sup>2</sup>殷奇明。“论形声字的一种重要构成方式”，“南京师大学报”，1992。

Gao Minning<sup>1</sup> fikriga ko'ra, "Shakl qo'llanilishi ham talaffuz kabi bir xil. Ikkisi ham yozuv qonuniyatining rivoji mahsuli. Yozuv (iyeroglif)ning to'liq shakllanishiga qadar ko'proq tovush belgilarini qisqartirib talaffuz qilish yoki ko'rinish belgilaridagi tuzilish tamoyillarini qisqartirishga asoslangan. Bu haqiqat bo'lib, Xitoy yozuv rivojining asosiy yo'nalishlaridan biridir".

Fan Tyanle<sup>2</sup> "说文 da shaklni qisqartirish haqidagi boshlang'ich muhokama" nomli asarida shaklan qisqartirilgan vaziyatni statistik tahlil qilgan.

"说文" ning "省形" (shaklan qisqartma) uslubidan ko'rish mumkinki, ham "篆" dan kelib chiqib, ham "重文" asosiy bo'limdan kelib chiqib qaraganda, bu turkumga tegishli iyerogliflarning barchasi anchayin keng tarqalgan, cheklanmagan tarzda rasm talaffuz turkum ideogramma imlo chiziqlari qisqartirilgan.

Bunda har bir iyeroglif shaklan qisqartirilgan imlo chiziqlarining barchasi "省形" (qisqartirilgan shakl) dir.

"省形" (qisqartirilgan shakl) uslubida an'anaviy mazmundan tashqari yana bir qator ma'nosiga ega bo'lib, bular:

1. Yozuv ko'rinishining shakllanish uslubi tushunchasi;
2. Xitoy yozuvining to'g'ri ma'nosini aniqlab berish;
3. Asosiy bo'limdagi qisqartirilgan iyerogliflarning tovushini qayta ko'rib chiqish" masalasi.

Li Jyayang<sup>3</sup> "说文" dan kelib chiqib, undagi qisqartirilgan tovush iyerogliflarini, toshbaqa suyaklardagi yozuv shakli va yozma ijodiy hujjatlarning guvohligi asosida 56 ta iyerogliflarni tahlil qilgan.

---

<sup>1</sup>高明.

<sup>2</sup>潘天烈.

<sup>3</sup>李家祥.

Qisqartirilgan tovush iyerogliflar (省声) Suy Shen tomonidan o‘ylab topilgan “noto‘g‘ri, asossiz, fikrlar inkor qilinishi kerak”, yana Suy Shenning xatosi shuki, iyeroglifning birinchi bo‘lagi bo‘lgan tovush tasviriy rasm turkumi iyeroglifining **bir qismini ko‘rsatgan** va mazkur o‘rinda yo‘l qo‘yilgan xato tushunchalarini ko‘rsatib o‘tgan.

Masalan, 鼎 uch oyoq, 梁 to‘sin (balka) va boshqalar. Ikkinchi, Ibo‘lagi ma‘naviy birlashish turkumining qisqartirilgan tovush 省声 iyerogliflariga nisbatan bergan yanglish tushunchasi bo‘lib, 事, 哭 bunga misol bo‘lishi mumkin. Uchinchi, bir bo‘lagi barcha rasm talaffuz turkumining qisqartirilgan tovush iyerogliflarga 省声字 bergan yanglish fikri”<sup>1</sup>. Masalan: 觥 kabi.

何九盈 fikricha: “Umumiy 310 ta iyeroglif qisqartirilgan tovushni tashkil qiladi. Ulardan 158 tasi noaniq (noto‘g‘ri)”.

Ayrim olimlar Suy Shen yaratgan yozuv (turkum) qoidalari asosida tadqiqot o‘tkazib qisqartirilgan tovush haqida berilgan ma‘lumotlarni tan oladilar.

Masalan, Cheng Shiguang<sup>2</sup> “Shovenjiezida iyerogliflarni qisqartirish haqida” nomli asarida qisqartirilgan tovush haqidagi fikrlarni yuksak baholaydi. Nazariy yozuv bo‘limini hamda Lyu Shu nazariyasi bilan bog‘liqlik vaziyatni ko‘rsatadi.

Toshbaqa suyaklaridagi yozuv bronza metallardagi yozuv hamda 小篆 (kichik juan) va boshqa qadimgi Xitoy yozuvlaridan qolgan namunalar, manbalar deyarli o‘rganilib tahlil qilingan, shuning uchun qisqartirilgan tovush qadimgi Xitoy yozuvidagi rasm talaffuz turkum o‘zining hozirgi ko‘rinishini saqlab qolganligini tan olish mumkin.

Ven Jibenning<sup>3</sup> “Shakl talaffuz iyerogliflar tovushini belgilashda ularning tuzilishi va talaffuz me‘yori” nomli

<sup>1</sup>李家焯:《说文解字》省声类字疑误析辨,“贵州文史丛刊”1991年第3期.

<sup>2</sup>陈世光.

<sup>3</sup>温知本.



maqolasida tovush belgilarining qisqartirish sabablarini, murakkab imlo chiziqclarini soddalashtirish, iyerogliflarni ketma-ketlikda tartiblash, iyeroglif tuzilishi masalasini muhokama qilgan.

U qisqartirilgan tovushning 3 ko'rinishini tavsiflaydi:

1. Tovush belgilari 2 yoki 3 shaklga mos kelishi bilan ma'naviy birlashish turkumining vujudga kelishi bir xil shakldagi tartib bilan bir yoki ikkitaga qisqartirilib umumlashtirish masalasi;

1. Tovush belgilari agar ikki qisimdan iborat rasm talaffuz turkumiga mansub bo'lsa, qoidada ko'rsatilgan iyeroglifning shakl belgilari qisqarib talaffuz qismini saqlagan holda ifodalanadi;

2. Butun tovush belgilarining bir qismi qisqartiriladi, qisqartirilganlar o'rnini esa shakl belgilari egallaydi".<sup>1</sup>

Shuoven jiezi lug'atiga kiruvchi 10,5 % iyerogliflarning 73 % oltinchi; 8 % ga yaqini to'rtinchi; 11 %ga yaqini uchinchi toifaga tegishli. Birinchi, ikkinchi va beshinchi toifalarga kiruvchi iyerogliflar ulushi 8 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, Suy Shen tomonidan taklif etilgan iyerogliflar bugungi tasnifiga ko'ra, ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, ammo amaldagi ta'sirini saqlab qolganligini e'tirof etish kerak.

### **O'zbekistonda xitoy yozuvining o'rganilishi**

O'zbek xitoyshunosligi maktabida xitoy yozuvini o'rganish masalasiga M.X.Mahmudxodjaev va I.N.Bekmuratovlar birinchilardan bo'lib e'tiborni qaratdilar. Xususan, ularning hammuallifligida "Xitoy yozuvi haqida" nomli risolasi (1990) nashr etildi. Risolada iyerogliflar oilasi quyidagicha turkumlanadi. Bular: 1) tasviriy - rasm turkum 象形字; 2) ko'rsatkich turkum 指事字; 3) ma'naviy turkum 会意字;

<sup>1</sup>桃孝遂: "许慎 yoki 说文解字", 中华 nashriyoti, 1983.

4) shaklan o'zgaruvchi turkum 转注字; 5) o'zlashtiruvchi turkum 假借字; 6) rasm – talaffuz 形声字 kabi turkum yozuvlar bo'lib, ilmiy tomondan to'g'ri asoslashga harakat qilingan<sup>1</sup>.

Ushbu risolada qayd etilishicha, Xitoy yozuvini o'rganishda Suy Shen tomonidan asos solingan Shuoven jieze yagona manba bo'lib kelgan.<sup>2</sup>

Qo'shimcha manbalarni o'rganar ekanmiz, Syu Shengacha, Ban Guning "Xan sulolasi tarixi" hamda Jen Syuanning "Jou li"ga ta'rifda yozuv turkumlar haqida ma'lumotlar beriladi. Ular ishidagi kamchilik, iyerogliflarni turkumga ajratish masalalari chetda qolganligi edi. Nazarimizda, O'zbekistonda xitoy yozuvi haqida nomli risolaning yaratilishi o'zbek tilida xitoy yozuvini o'rganishdagi yaxshigina manba bo'lib, o'tgan davr ichida qimmatini saqlab qolmoqda.

#### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Qadimgi Xitoyda yozuvni standartlashtirish masalasi qaysi davrdan boshlanadi?
2. Lyu shuning ma'nosini tushuntirib bering?
3. Qadimgi Xitoyda lyu shu atama sifatida qachondan boshlab qo'llanila boshlandi?
4. Xitoy yozuvi tarixida lyu shuning ahamiyatini nimalarda ko'rasiz?
5. Suy Shen ijodi haqida gapirib bering?
6. Xitoy yozuvi haqida yaratilgan qanday manbalarni bilasiz, aytib bering?
7. O'zbekistonda xitoy yozuvi haqida qanday manbalar bor?
8. Xitoy yozuvini o'zlashtirishda qanday muammolar mavjud?

<sup>1</sup> Mahmudxo'jaev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: Matbuot, 1990. 10-b.

<sup>2</sup> Ko'rsatilgan manba, 13-b.







### 13 - MAVZU: XITOIY TILIDA YOZUV TURKUMLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** Tasviriy rasm turkumi 象形.

Ko'rsatkich turkum 指事. Tasviriy rasm turkum, ko'rsatkich turkum, ma'naviy birlashish turkum, rasm talaffuz turkumi, o'zlashtiruvchi turkum, shaklan o'zgaruvchi turkum yozuv turlarini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 象形, 指事, 会意, 形声字, 假借字, 转注字.

#### Kalligrafiya san'atining yuzaga kelishi, uning mazmun-mohiyati

Noyob kalligrafiya yozuvi, haqli suratda, Xitoyning milliy boyligi hisoblanadi. Ko'hna zamonlardan buyon to hozirga qadar bo'lgan uzoq muddatli tadrijiy rivojlanishida insoniyat necha-necha husnixat turini o'ylab topgan. Yozuvning asosiy vazifasi nutqni zamon va makonda qayd etish bo'lsa-da, insoniyat yozuvni chiroyli va hatto, ma'lum bir davrda san'at darajasigacha ko'tarishga uringan. Buning sharofatida jimjimador va tasviriy shriftlar yuzaga kelgan. Lekin mana shu xilma-xillikdagi yozuv turlari orasida faqatgina xitoy iyeroglifikasi kundalik yozma muloqot orasidan mustaqil san'at turi – kalligrafiya darajasiga qadar o'sishga muvaffaq bo'ldi. Kalligrafiya tarixi necha ming yillarga borib taqaladi, lekin hozirda ham u o'zining yoshligi va hayotiy quvvatini saqlab qolgan. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, she'riyat, musiqa, raqs, drama bilan bir qatorda kalligrafiya ham Xitoy san'atining katta oilasiga kiradi.

书 *shu* va 法 *fa* xitoy iyeroglifidan tashkil topgan so'z tilimizga yunon tilidan olingan va har qanday yozuvning fasohatli ijodiy grafikasining sinonimiga aylangan "kalligrafiya" deb tarjima qilinadi. "Kalligraphia" so'zi yunon tilida "kallos" – chiroyli, "graphō" – yozaman, ya'ni "chiroyli yozaman" degan

a'noni anglatadi. O'zbek tilida mazkur so'z "xattotlik" deya  
rjima qilinishi ham mumkin. Lekin "xattotlik" so'zi ham  
osan arab tili yozuvi uchun qo'llanilib, O'zbekiston Milliy  
nsiklopediyasida quyidagicha zaruriy ma'lumot keltirilgan:  
**Xattotlik** (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya –yozuv(xat)  
n'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy  
yumlarning kitoblarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo  
b'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng  
r'qalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Xattotlik  
n'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat  
lublari (*naxs, kufiy, muxakkak, nasta'lik, suls, tavqe, ta'liq,*  
*voniy, riko, rik'iy*) mavjudligi haqida darak beradi. O'rta  
siyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari  
b'lgan [sug'diy, urxun-enisey (qad. turkiy xoqon yozuvlar) va  
]. Qadimiy yozuvlardan bo'lgan kufiy yozuvi ko'pgina  
e'moriy va boshqa yodgorlik obidalarining bezagida, saqlanib  
b'lgan"<sup>1</sup>.

Bevosita xitoy tilidagi 书法 *shufa* atamasining tahlilini  
alga oshirsak, 书 *shu* va 法 *fa* iyeroglifini alohida-alohida  
b'rib chiqamiz.

书 *shu* iyeroglifi 4 ta imlo chiziqdan tashkil topgan bo'lib,  
netik tizimda birinchi ohangga ega. "说文解字" *Shuo wen jie*  
asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: "書  
u1 箸也。从聿者聲。商魚切"<sup>2</sup>. *Zhu ye. Cong yu zhe sheng.*  
*shang yu qie*. Tarjimasi: "Ovqat yeyish uchun bambuk yog'ochli  
yoqchalar. Ma'nosi 聿 *yu* "bambuk yog'ochli qalam", talaffuzi  
*zhe* dan olingan. Tovushi 商 *shang* va 魚 *yu* bo'g'inlarining  
silishi bilan hosil qilingan". Izohdan ko'rib turganimizdek, 书  
*shu*, ya'ni murakkab iyeroglifik shakldagi 書 *shu* iyeroglifining

<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.403-b.

<sup>2</sup>玉裁. 说文解字注. – 杭州: 浙江古籍出版社, 1999年. 编号: 1933.



yasalishiga ko'ra 形声字 *xingshengzi* "rasm-talaffuz turkumi" ga kiritishimiz mumkin.

书 *shu* iyeroglifining quyidagi leksik-semantik ma'nolari mavjud:

I. *Ot so'z turkumida 8 ta ma'noga ega:*

1) Kitob; 一本书 *yi ben shu* – bitta kitob; 看书 *kan shu* – kitob o'qimoq.

2) Xat, maktub, noma;

适得家书 *shi de jiashu* – uydan ayni damda maktub olib turgan edim;

3) Hujjat, yozma buyruq, rasmiy hujjat;

戴书 *daishu* – hujjatga rasmiylashtirish;

4) (*arxaizm*) solnoma, bitiklar; qaydnoma

司书 *sishu* – hisob-kitob qaydnomasi.

5) yozuv; kalligrafiya; husnixat

楷书 *kaishu* – "namunali yozuv".

6) Iyeroglif kategoriyalari

六书 *liushu* – iyerogliflarning olti turi.

7) *konfutsiychilikda*. qonun kitoblari; kanon

8) *qisqartma* (书记 *shuji*) – kotib.

II. *Fe'iso'z turkumida 2 ta ma'noga ega:*

1) bayonnoma qilmoq; yozib olmoq; tasvirlamoq

大书特书 *dashu teshu* – o'zgacha tasvirlamoq;

2) (*biror-narsaga*) yozmoq; chizmoq

书空 *shukong* – (*barmoq bilan*) havoda yozmoq.

III. *Atoqli ot:*

1) (*qisqartma*. 书经 *shujing*) "Shujing" (davlat hujjatlari va bayonotlarining kanonik kitobi, konfutsiychilikning "Besh to'plam"ining ikkinchi kitobi)

书疏 *shushu* – "Shujing"ga sharh.

2) Familiya *Shu*<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь. Т. II. – М.: "Наука", 1983.

法 *fa* iyeroglifi 8 ta imlo chiziqdan tashkil topgan bo'lib, fonetik tizimda fǎ; fā; fá; fà; -fa shaklli beshta ohangga ega. “说文解字” *Shuo wen jie zi* asarida mazkur iyeroglifga quyidagicha izoh keltirilgan: “灋——刑也。平之如水，从水；廌之，所以觸不直者；去之，从去。方乏切”<sup>1</sup> *Fa - xing ye. Pingzhirushui, congshui; zhuzhi, suoyichubuzhizhi; quzhi, congqu. Fang fa qie.* Tarjimasi: “灋 – Jazolashdir. Suv kabi tekis, suv kalitidan tuzilgan. Yakka shox, narval (yomon kishilarga jazo beruvchi afsonaviy hayvon)dir, shu sababli unga teginmaydi. Surgun (olim) jazosini berish. 方 *fang* va 乏 *fa* iyerogliflari talaffuzining kesilishidan yasalgan”.

Quyidagi leksik-semantik ma'nolari mavjud:

I. *Otso 'z turkumida 10 ta ma'noga ega:*

1) fǎ. qonun; qoida; me'yor; reglament  
婚姻法 *hunyingfa* – nikoh to'g'risidagi qonun

2) fā, fā namuna; etalon; (tasviriy san'at yoki kalligrafiya) uslubi

不足为法 *buzu wei fa* – namuna sifatida olib bo'lmaydi;

3) fǎ, fā. uslub; usul; yo'l;

4) fǎ. *budd.* dxarma (Dharma);

5) dxarma haqidagi ma'lumot, buddaparastlik

鸟聚疑闻法 *niao ju yi wen fa* – qushlar Buddaning ta'limotini tinglash uchun jamlanadilar;

6) fǎ. *mat.* qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish usullari;

7) fǎ. sehr-jodu, afsun, duo

作起法来 *zuoqi falai* – afsun qilmoq;

8) fǎ. legizm; legist

儒法争 *rufazheng* – konfusiychilar bilan legistlarning kurashi;

9) fǎ. *qisqartma.* frank; farting;

<sup>1</sup>段玉裁。说文解字注。 – 杭州：浙江古籍出版社，1999年。编号：6227。

10) fà. farada (elektr sig'imi birligi);

II. fǎ. *Fe'l so'z turkumida 1 ta ma'noga ega.*  
amal qilmoq; birovdan o'rnak (namuna) olmoq

儒者法先王 *ruzhe fa xianwang* – olim (konfusiychi)lar  
sobiq hukmdorlardan namuna oladilar.

III. *Atoqli ot*

1) fà. *qisqartma.* Fransiya, fransuzcha;

2) fǎ. Fa familiyasi.

IV. *So'z yasalishida quyidagi funksiyalarni bajaradi:*

1) predmetli yoki sifat xususiyatiga ega asoslardan  
so'ng: uslub; usul; yo'l.

他们用的新法 *tamen yong de xin fa* – ular qo'llaydigan  
yangi usul

2) bir bo'g'inli fe'l asosli morfema *yondashuv,*  
*munosabat, nuqtayi, sulukat* ma'nosidagi otlarni hosil qiladi

说法 *shuofa* – talqin qilish, izohlash; 办法 *banfa* – harakat  
uslubi, (ishga) yondashuv<sup>1</sup>.

Bu yerda 书 *shu* – yozuv, yozmoq, 法 *fa* esa “namuna”,  
“standart”, “qoida” ma'nolarini olib, “kalligrafiya” turg'un so'z  
birikmasini hosil qiladi.

书法 *shufa* birikmasi ostida mo'yqalam bilan ishlashning  
法捷 *fajie* – namunasi, qoidasi va 方法 *fangfa* usuli tushuniladi.  
Shu tufayli 书法 *shufa* birikmasi quyidagi mahoratlarni nazarda  
tutadi:

Mo'yqalamni ushlash – 执笔 *zhibi*;

Mo'yqalam harakatlari usullarini egallash – 用笔 *yongbi*;

Nuqta va chiziqlarni chizish – 点画 *dianhua*;

Belgi strukturasi – 结构 *jiegou* ni his qilish va uni egallash;

分部 *fenbu* belgi kompozitsiyalarini qog'ozda joylash-  
tirish.

<sup>1</sup> Ошанин И.М. Большой китайско-русский словарь. Т. IV. – М.: “Наука”, 1983. – С. 952.



Qoidaga ko'ra kalligrafiya asarlari yupqa, namni o'ziga tortadigan syuanzhi (宣纸 *xuanzhi*<sup>1</sup>) qog'oziga yoziladi. So'ngra mazkur varaq qalin qog'ozga yopishtirilib, chetlari ipak bilan bezatiladi. Tayyor ijod mahsullarini o'ram ko'rinishida saqlaydilar yoki ramkalab devorga ilib qo'yadilar. Kalligrafiya ishlarining mazmuni uchun asosan mumtoz she'rlar, juft yozishmalar, hikmatli so'zlar, umuman, uy egasi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yozuvlar xizmat qiladi.

Xitoy nafosatshunoslik nazariyasida kalligrafik chiziq-larning to'rtta xususiyati ajratib ko'rsatiladi: suyak, go'sht, mushaklar va qon. "Suyak va mushaklari bor, lekin go'shti oz iyeroglifni "baquvvat mushakli" deb nomlashadi; sergo'sht, lekin suyagi oz iyeroglifni "cho'chqacha" deb atashadi", - shu tarzda qadimiy ilmiy asarlarda kalligrafiyaning asosiy sifatleri ko'rsatiladi.

Kalligrafiyada rassom chetlab o'tishi lozim bo'lgan sakkiz kasallik yoki nuqson 八病 *babing* aniqlangan. Masalan, *pie* chizig'i kalamushning dumiga, 竖 *shu* chizig'i laylakning oyog'iga, 横 *heng* chizig'i bambuk qismi yoki singan shoxga o'xshamasligi kerak.

Kalligrafik belgilarning tasviriy, ifodali xususiyati ayrim iyerogliflarning tavsifida o'z aksini kuchli topadi. Masalan, lishu uslubida yozilgan 心 *xin* (yurak) iyeroglifi qayiqdagi baliqchini eslatadi. Jao Jichyan tomonidan yozilgan 接 *jie* (chegara) iyeroglifida uchayotgan boyqush shakli seziladi. Su Dongpo tomonidan tsaoshu uslubida bitilgan 意 *yi*(fikir) iyeroglifida o'tirgan olimning qaddi qomati gavdalanadi. Vang Sizhi tomonidan tsaoshu uslubida yozilgan 随 *sui* (ortidan yurmoq) iyeroglifi hilpirayotgan lentalar bilan raqsning timsolini ko'rishi mumkin.

---

<sup>1</sup>宣纸 *xuanzhi*, Syuanzhi – Anhuy provinsiyasi Syuancheng shahrida tayyorlanadigan qog'oz.

Har qanday yozma belgi uchun uchta, ya'ni grafik, fonetik va leksik funksiya xosdir. Xitoy kalligrafiya san'ati ayniqsa, grafik funksiya bilan chambarchas aloqada. Iyeroglifning leksik ma'nosi va kalligrafiya o'rtasida muayyan bir aloqalar bo'lsa-da, ular ustun hisoblanmaydi. Iyeroglifning fonetik talaffuzi kalligrafiya bilan hech qanday aloqa bog'lamaydi.

Xitoy iyeroglifining shakliy belgilari va uni qurish tamoyillari kalligrafiya san'atining yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib bergan.

Xitoy iyeroglifi haqqoniy yoki tasavvuriy to'rtburchakka tushirilgan mustaqil grafik belgidir. Statistika ko'ra, xitoy yozma tilida turli tarixiy davrlarda paydo bo'lgan va 90 ming atrofida qo'llanilgan iyerogliflar mavjud bo'lib, ulardan hozirgi tilda eng ko'p qo'llaniladigani 3500 tani tashkil qilar ekan. Aksariyat xitoy iyerogliflari imlo chiziqlaridan tashkil topgan bolib, bunday imlo chiziqlar o'ntagacha yetishi, hatto undan ham ko'proq bo'lishi mumkin ekan. Imlo chiziqlarning eng asosiylari 8 tani tashkil qiladi: 点 *dian* nuqta, 横 *heng* yotiq to'g'ri chiziq, 竖 *shu* tik to'g'ri chiziq, 撇 *pie* chapga egilgan egri chiziq, 捺 *na* o'ngga egilgan to'g'ri chiziq, 提 *ti* pastdan o'ngga ko'tarma chiziq, 折 *zhe* siniq chiziq, 钩 *gou* ilmoq chiziq. Sakkizta imlo chiziqning bir iyeroglifda jamlanishiga yaqqol misol 永 *yong* ("abadiy") iyeroglifidir.

Lekin amaliyotda iyerogliflarni yozishda har bitta chiziq shaklan o'zgaradi. Bundan tashqari, turli kalligrafik uslublarda bitta chiziq turlicha grafik bezaklarni oladi va bu o'z navbatida, iyeroglif chiziqlari shaklining ko'p turliligiga sabab bo'la oladi. Kichkina to'rtburchak makoniga joylashtirilishi kerak bo'lgan iyeroglif oson farqlanadigan va chiroyli chiqishi uchun turli miqdordagi imlo chiziqlarni, ularning turli kombinatsiya usullari bilan o'zgartirishga to'g'ri keladi. Imlo chiziqlari va belgilar kombinatsiyalari usullarining ko'p xilligi har bir iyeroglifni noyob va yagonaligini ta'minlaydi.

## Kalligrafiyaning rivojlanish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Xitoy yozuvi dunyoga kelishining aniq davri hozirga qadar noma'lum bo'lib qolmoqda. XX asrning 20-yillarida Xenan provinsiyasidagi Yangshao provinsiyasidan topilgan, 5-7 ming yillar ilgari ishlangan chinni idishlarga tushirilgan g'aroyib geometrik ornament qadimiy xitoy yozuvining kurtagi bo'lishi ehtimoli mavjud. Biroq xitoy yozuvining tadrijiyligi tarixining keyingi 2-3 ming yilligi deyarli oq dog' bo'lib, ya'ni o'rganilmay qolmoqda.

Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan va taraqqiy topgan xitoy iyeroglifik husnixat turlari kalligrafiyaning rivojlanish bosqichlarini ifodalar ekan, husnixat turlari haqida batafsilroq ko'rib chiqishga kirishamiz.

Eng qadimiy ilk yozuv sanalmish 甲骨文 *jiaguwen* yozuvi – toshbaqa kosasi va buqa yoki kiyikning kurak suyaklariga o'yib yozilgan fol yozuvlari bo'lib, Xitoyda eng oxirgi bo'lib topilgan. Bunday ajoyib topilma haqida juda ta'sirli bir hikoya mavjud.

1899-yilning kuzida Shandong provinsiyasidan bo'lmish Vang Ijong ismli poytaxt amaldorlaridan biri bezgak kasaliga uchraydi. Saroy tabibi yozib bergan dori qog'ozida "Ajdaho suyagi" dorisi ko'rsatilgan ekan. Vang Ijong xizmatkorini dori-darmon uchun pok nomli ishonchli bir dorixonaga yuboribdi. Vang dori solingan qog'ozxaltani ochib birdan silliq "ajdaho suyaklari"da pichoq bilan o'yilgan kesiklarni payqab qolibdi. Vang Ijong qadimiy yodgorliklarga juda qiziqqanligi tufayli bu yozuv belgilari bo'lishi mimkinligini darhol fahmlaydi. O'zining farazi haqligini tekshirib ko'rish uchun u xizmatkorini yana o'sha dorixonaga, aynan o'sha dorilarni olib kelishga yuboribdi. Ko'p o'tmay Vang Ijongni yo'qlab mashhur "Lao Changning sayohati" romani muallifi va qadimiy matnlar bilimdoni Lyu E kelibdi. "Ajdaho suyaklari"ni ko'rib mezbon ham, mehmon ham



bu tirnalgan izlar ajib bir yozuv degan fikrga kelibdilar. Xotirjamligini yo‘qotgan Vang Ijong surishtira boshlabdi va “ajdahoy suyaklari” dorixonachining qo‘liga Xenan provinsiyasi Anyang shahrining shimoli-g‘arbida joylashgan Syaotun qishlog‘idan tushib qolganligini aniqlabdi. Shunda Vang Ijong savdogarning qoshiga borib, unga Syaotun qishlog‘idan imkon qadar ko‘proq “ajdahoy suyaklari”ni xarid qilishni topshiribdi. Vang Syaotun qishlog‘i Shang davri (mill.avv. XVI-XI asr)ning so‘nggi poytaxti bo‘lganligi va u In deb nomlanganligini bilardi.

Toshbaqa kosasi va hayvon suyaklaridagi yozuvlarning topilishini uzun tasodiflar zanjirining baxtli yakuni deb hisoblash mumkin. Agar Vang Ijong bezgak kasaliga uchramagan, qadimiy yozuvlar bilimdoni bo‘lmagan, saroy tabibi unga mazkur dorini tayinlamagan, dori-darmon tayyorlash qoidalari talab qilganidek, “ajdarho suyaklari”ni kukun holida tuyib mayadalashni unutilib xatolikka yo‘l qo‘ymaganigida edi, xitoy sivilizatsiyasini o‘rganish uchun ulkan qimmatga ega qadimiy yozuv namunalari insoniyat uchun qaytarilmas yoxud yo‘qolib ketar edi.

Shuni ta‘kidlash joizki, Vang Ijong Chin sulolasining Shansi provinsiyasida yuqori gubernator lavozimini egallagan nafaqat toza vijdonli amaldori bo‘lgan, balki Xitoyning fidoyi vatanparvari hisoblangan. 1894-yilda xitoy-yapon urushi boshlanganida Vang Ijong imperatordan dushmanga qarshi chiquvchi otryadlarni tashkillashtirish uchun vatani Shandong provinsiyasiga yuborishini so‘ragan. Xitoy uchun haqoratomuz bo‘lgan Chin sulolasi bilan Yaponiya o‘rtasida tinchlik shartnomasi imzolangan, Vang “o‘z mamlakatiga butun kuchini” berolmagani uchun qattiq qayg‘urgan. 1900-yil avgust oyida Pekinga sakkizta chet mamlakatlarining Birlashgan armiyasi bostirib kiradi va Vang Ijong harbiy otryadlar ishi bo‘yicha amaldor etib tayinlangan. 13-avgustda Sharqiy darvozalar (东便门 *Dongbianmen*)da – hozirgi Pekin temiryo‘l vokzali yaqinida joylashgan shaharchada Vang dushmanning ko‘p

sonli qo'shiniga qarshi otryadlarni jangga boshlab borgan, lekin chekinishga majbur bo'ladi. Jangda mag'lub bo'lgan Vang Ijong 15-avgustda oila a'zolariga uning burchi hayotdan kechishligini ma'lum qiladi. Uning rafiqasi va bosh kelini vatani uchun qurbon bo'lish belgisida o'zlarini quduqqa tashlaydilar. Hayotdan ketishdan avval Vang Ijong kayshu uslubida kalligrafik husnixat bilan o'lim oldi maktubi yozib, uni uyining devoriga yopishtirib ketgan. Maktubda shunday deyilgan: "Hukmdor qayg'uda bo'lsa, bu amaldorga isnod, hukmdor badnom bo'lsa, amaldorga o'lim. Hukmdor amaldorning arzirli o'limi haqida xabar topsa, yana unga yaqinlashadi". Bu fojiali voqealar Vang Ijongning qadimiy yozuv – jiaguwen topilmasidan bir yilcha keyin yuz beradi. Amaldorning ilmiy izlanishlari haqida bir satr ham ma'lumot qolmagan.

Yuz mingdan ortiq topilma hayvon suyaklari va toshbaqa kosalarida, taxminan 4700 ta iyeroglif saqlanib qolgan. Hozirga qadar deyarli 1800 ta iyeroglifni o'qishga muvaffaq bo'lingan va bu Shang davri tarixi va madaniyati, Qadimgi Xitoy tarixining alohida davrlari va xitoy yozuvining evolyutsiyasini o'rganishda qimmatli material bo'lib xizmat qilgan.

Jiaguvena allaqachon shunday xarakterli belgilar aniqlanganki, ulardagi xitoy yozuvining keyingi yozuvlarida har bir iyeroglifni bir tasavvuriy to'rtburchakka joylashtirish hodisasi meros qilib olingan. Jiaguwen yozuvi iyerogliflarning imlo chiziqlari va elementlari kombinatsiyasida yuqori-quyi, chap-o'ng, ma'lum masofada joylashuvchi-birikuvchilarga ajratilishi kuzatiladi; chatishish, kesishish, qaytarilish, qatlamlanish, hoshiyalanishlar ishlatiladi. Belgilar satrda vertikaliga, yuqoridan pastga joylashadi. Agar yozuv bir necha qatorlardan tashkil topsa, ular o'ngdan chapga o'qiladi. Yozuvning bunday tartibi Xitoyda uch ming yillar davomida saqlanib kelgan.

Jiaguven yozuvining guvohlik berishicha, xitoy arxaik yozuvining yaratuvchilari uchun nafosatga intilish xos bo'lgan.

Ko'pgina xatlar juda mohirona va saranjom o'yib yozilgan. Buni tom ma'noda kalligrafiya san'ati asari, deb atash mumkin.

金文 *jinwen* – qurbonlik bronza (mis va qalay qorishmasi) idishi – tantanalarda ishlatiladigan kosa, qadah va boshqa idishlarda, qurol-yarog<sup>2</sup>, musiqa anjomlari va oynalarda bitilgan yozuvlardir. Bir yozuv iyerogliflar miqdori bitta-ikkitadan yuztagacha turlanadi. Lug'at boyligi deyarlik 3 mingta mustaqil iyerogliflarni tashkil qiladi, ulardan ikki mingtasi identifikatsiyalangan. Ko'plab bronza idishlari jida mohirona bajarilgan bo'lib, ularga o'yib yozilgan iyerogliflar va satrlar qadimiy jiaguwen yozuviga qaraganda ancha ravon, batartib va tashkiliy ko'rinishga ega. Ularda tuzilma va kompozitsiyalarning go'zallikka tortish kuchi kuchliroq seziladi.

Jinven husnixati garchi shakl jihatidan jiaguvenga o'xshab ketsa-da, lekin uning iyeroglif chiziqlari biroz soddalashtirilgandir. Shuning uchun iyeroglifshunoslar jiaguwen va jinveni birgalikda 古文 *guwen* (Qadimgi xitoy yozuvi) deb atashgan<sup>1</sup>.

Sharqiy Jou sulolasi davriga kelib, yangicha 大篆 *dazhuan* (篆书 *zhuan shu*) – “katta belgili yozuv” husnixat turi vujudga keladi. Jou sulolasi<sup>2</sup> davri ikkinchi yarmida Janguo (jang qiluvchi knyazliklar) davri<sup>3</sup> da ko'pgina tarqoq knyazliklarda qadimiy dajuan uslubini soddalashtirish jarayoni boshlanadi va uning yozilishining ko'plab turlari va variantlari paydo bo'ladi.

Janguo davri so'nggida ko'plab tarqoq knyazliklardan faqat yettitasi qoladi. Olti knyazlik uzoq olib borilgan qonli o'zaro ichki urushlardan so'ng Chin sulolasi<sup>4</sup> tomonidan yer yuzidan yo'q qilingan. Chin hukmdori mamlakatni birlashtirib,

<sup>1</sup> Mahmudxo'jaev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: Matbuot, 1990. 6-b.

<sup>2</sup> Jou davri ikki katta davrga bo'linadi: G'arbiy Jou sulolasi davri (m.a. 1046-771 yillar); Sharqiy Jou sulolasi davri (m.a. 771-256 yillarni o'z ichiga qamrab oladi).

<sup>3</sup> Janguo davri m.a. 475-221 yillarni tashkil etadi.

<sup>4</sup> Chin sulolasi Xitoyda m.a. 221-206 yillari hukmronlik qilgan.



ilk markaziy Xitoy davlatini – Chin imperiyasini shakllantiradi, o‘zini uning hukmdori (Chin Shi Huangdi) deb e‘lon qiladi. Mamlakat qudrati va shaxsiy xizmatlarini namoyish qilib, Chin Shi Huangdi bir necha bor o‘zining imperiyasi boylab sayohat uyushtiradi. Muqaddas Tayshan tog‘ida bo‘lib, Chin Shi Huangdi Li Siga imperiya madhiyasini yozib, uni toshga bitgan holda abadiylashtirishni buyuradi. Yodgorlik toshi Tayshan tog‘ining cho‘qqisiga joylashtiriladi va “Tayshan tog‘ida o‘yib yozilgan yozuvli tosh” nomini oladi.

Xitoyda birinchi markaziy mamlakat – Chin sulolasini yaratish markaz va mahalliy tashkilotlar o‘rtasidagi yozma ochiq diplomatik maktub almashinishni sezilarli darajada faollashtiradi va imperiyaning turli qismlari o‘rtasidagi madaniy-informatsion munosabatlarni kengaytiradi.

Xitoy yozuvi rivojlanishining keyingi bosqichi bo‘lmish 小篆 *xiaozhuan* – “kichik belgili yozuv” uslubiga o‘tishning birinchi tashabbuskori Chin imperiyasining birinchi kansleri Li Si (李斯 *Li Si*) (m.a.?–208) bo‘lgan. U iyerogliflar islohotiga rahbarlik qilib, Xitoyning mashhur kalligraf (xattot)lari tarixining birinchi sahifasini ochib beradi. Li Si mo‘yqalamining mahsullari hozirda ham syaojuan uslubining eng mukammal namunalaridan hisoblanadi. Syaojuan yozuvi dajuanning soddalashtirilgan shakli bo‘lib, iyeroglifik yozuv ma‘lum qoidalarga asoslanganligi tufayli Xitoyda ta‘lim, madaniyat va fan taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Xan sulolasi hukmronligining boshlarida yanada soddalashtirilgan 隶书 *lishu* – “rasmiy-hujjat yozuvi” husnixat turi syaozhuan yozuvidan so‘ng yuzaga kelib, hozirgi xitoy yozuviga asos bo‘lgan. Xan sulolasi davrida lishu barcha rasmiy-ish hujjatlarini yozishda hukmron uslub bo‘lgan. Grafik jihatdan u bir xil qalinlikdagi chiziqlardan turli qalinlikdagi chiziq'larga o‘tishni ko‘rsatadi. Kompozitsiya jihatidan esa qadimiy juanshudan qisqartirish yoki iyeroglifning ilgarigi piktografik va

ideografik komponentlaridan to'liq voz kechish hisobiga yozuvning sezilarli soddalashtirilishi bilan farqlanadi. Lishuning yana bir yaqqol grafik xususiyati boshqa uslublardagi vertikaliga cho'ziqroq belgilardan farqli belgi tasvirlarining gorizontaliga biroz yassilanganligidir.

Juanshu uslubining kelgusi rivojlanishi iyeroglif chiziqlarining yo'g'onligi va uzunligining bir xilligi kabi qoidalar ko'p martalab buziladi, ustiga ustak, hatto erkin yozuv uchun faol xatti-harakatlar amalga oshirilgan. Ayrim xattotlar chiziqlarni o'ngga bo'rttirish, vertikal chiziq va ilmoqlarni uzaytirish bilan chegaralanib qolganlar. Undan-da mardroqlari umuman yangi shaklda namoyon bo'lgan gorizontal chiziqni "ishga soladilar". Unga 桑头燕尾 *sangtou yanwei* – "ipak qurti boshi – yovvoyi g'oz dumi", deb nom berishadi, uning mohiyati quyidagida o'z ifodasini topgan: agar iyeroglif tarkibiga bitta yagona gorizontal chiziq kirsa, chiziqning chetki chap qismi (boshi) zo'r bosim bilan quyuk yoziladi. Chetki o'ng qism (chiziqning dumi) esa biroz yuqoriga qayiriladi. Agar iyeroglif ikki yoki uchta parallel gorizontal chiziqdan iborat bo'lsa, ulardan faqat pastkisi (oxirgisi) shu tariqa yoziladi, qolganlari esa to'g'ri chiziq bilan, oxirgisidan qisqaroq tarzda yoziladi. Bu yangiliklar aksariyat xattotlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan va pirovard natijada yangi, gulidan farqli lishu kalligrafik uslubiga hayot baxsh etadilar. Lishu uslubi namunalaridan biri bu "Shi Chen yodgorlik toshi"dagi yozuvdir.

XIX-XX asrlarda olimlar hozirgi Sinjiang-Uyg'ur avtonom rayoni, Ichki Mo'g'uliston, Gansu, Chinghay, Xunan, Xubey, Shandong va Xenan provinsiyalari hududidan tasodifan yozib-chizib tashlangan 20 dan 30 smgacha uzunlikdagi, 1-5 sm qalinlikdagi deyarli 100 mingta bambuk va yog'och taxtachalar topishga muvaffaq bo'ladilar. Bunday qimmatli topilma taxtachalardagi iyerogliflar Sharqiy Xan sulolasi davridagi yodgorlik toshlaridagi iyerogliflarga unchalik ham mos

kelmaslik topishmog'ini yechishga nihoyat imkon berdi. Bu juanshu uslubidan lishu uslubiga o'tishning tipik shaklini o'zida aks ettiradi. Bu aynan guli uslubidir. Sangtou-yanwei shaklidagi gorizontaal chiziqdan yozilishi murakkabligi tufayli voz kechadilar, lekin udumga qalinlashgan o'ngga qayirilgan egri chiziq kiradi. O'sha davr kalligrafiyasi uchun sodda va tabiiy, ravon va latif, ko'pincha o'zaro chiziqlar bilan o'ralgan, ammo o'z "suverenligi"ni saqlab qolgan iyerogliflar xos. Bunday yozuv uslubi 章草 *zhangcao* – "qonuniy tez yozuv xati" nomini olib, III-IV asrlarda keng yoyiladi, lekin keyinchalik unga kamdan kam murojaat qiladilar.

Jangsao uslubi bilan bir vaqtda yoki bir oz keyinroq 今草 *jincao* – "zamonaviy tez yozuv xati" paydo bo'ladi. Biroq bu jansaoning to'g'ridan to'g'ri turi hisoblanmaydi. Jinsaoning asosida guli va lishu uslublari yotadi. Bu ikki tez yozuv o'rtasidagi asosiy tafovut shundan iboratki, jangsao uslubida iyerogliflar bir-biridan ma'lum masofada joylashadi, ayrim chiziqlar to'xtab yoziladi, mohirlik va mo'yqalamning kuchi yetakchilik qiladi. Jinsao uslubida esa iyerogliflar bir-biriga tutashib yoziladi, chiziqlar to'xtamasdan yoziladi, tabiiylik ustun keladi.

Lishuning yana bir turi bu 行书 *xingshu* – "yuruvchi" yoki "yuguruvchi" yozuv bo'lib, bu husnixat turi Shimoliy Vey sulolasi<sup>1</sup> davrida vujudga kelgan. Singshu uslubi eng iste'moldagi yozuv uslubi deb tan olingan. Singshu uslubini farqlash oson, chiziq chegaralari oddiy, qayishqoq va erkin.

Lishu uslubining barcha turlari bilan deyarli bir paytning o'zida hozirgi xitoy yozuviga aylangan 楷书 *kaishu* – "namunali yozuv" uslubi vujudga kelgan.

Kaishu usuli standart usullardan bo'lib, ming yillardan buyon keng foydalanib kelinadi, zamonaviy xitoy iyeroglifik

<sup>1</sup>Xitoyda Shimoliy Vey sulolasi davri 386-584-yillarni tashkil qiladi.



yozuvining asosiy usuli hisoblanadi. Bosma va kompyuter shriftlarida, asosan, mazkur uslubdagi iyerogliflar ishlatiladi. Uning asosiy xususiyati standartlik (bir qolipga solinganlik), imlo chiziqlarining aniq tartibi va yozuvning sekin sur'atidir. Bu uslubda yozilgan iyerogliflarni farqlash oson. Xitoy kalligrafiya san'atida kayshu uslubiga, odatda, rasmiy vaziyatlarda murojaat qilinadi. Masalan, bu uslubda kitob va ro'znomalarning nomlari, rasmiy-ishchi hujjatlar, yangi yil juft yozma tilaklari yoziladi, shuningdek, do'kon viveskasi, binolardagi xotira lavhalari, sag'ana, haykal va yodgorlik toshlaridagi yozuvlar bitiladi.

Shunday qilib, xitoy iyerogliflarining rivojlanish bosqichlari oltita davrga bo'linib, asosan yetti turga ega bo'lgan husnixatlar vujudga kelgan. Shang-In va G'arbiy Jou sulolasi davrida guven, Sharqiy Jou davriga kelib dazhuan, Chin imperiyasi davrida syaojuan, Xan imperiyasining dastlabki yillarida lishu va caoshu, Xan imperiyasining oxirida kayshu, Shimoliy Vey sulolasi davrida singshu barpo bo'lgan. Har bir husnixat uzoq yillar mobaynida o'zidan oldingi o'tmishdosh husnixatlar asosida vujudga kelib, nihoyat ularning o'rnini egallagan<sup>1</sup>.

### Tasviriy rasm turkumi 象形

Xitoylik olim Jang Tayyanning "文始" nomli kitobida iyerogliflarni ikki, ya'ni oddiy va qo'shma turkumga bo'lib o'rganish asosiy mazmun kasb etadi. Masalan: "果" yoki "杂" (buketlar uchun sanoq so'z) kabi qo'shma tasviriy rasmni ifoda etuvchi iyerogliflar shakli<sup>2</sup>.

Mazkur masalada Tao Syaosuy<sup>3</sup> asarida ilgari surilgan ilmiy qarashlari bilan 许慎 Suy Shening "说文解字"

<sup>1</sup> Mahmudxo'jaev M.X., Bekmurotov I.N. Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida. – T.: Matbuot, 1990. 8-b.

<sup>2</sup> 段玉裁 dan qolgan ilmiy qarash.

<sup>3</sup> 桃孝遂.

(Shovenjiezi)da berilgan fikrlaridan farq qiladi. Tao Syaosuy fikricha, “agar qo‘shma iyeroglif” deb atalsa, unda mazkur holatda ikkitadan ortiq iyerogliflar birikishi kerak, aksincha ularni ajratganda esa, bu iyerogliflar mustaqil shaklga ega bo‘limgan tarzda namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>”.

Rus olimlarining fikricha, “bu turkumdagi iyerogliflar kelib chiqishi bo‘yicha eng qadimgi belgilarni birlashtiradi, ular sxematik rasmlar bo‘lib, borliqdagi narsa va hodisalarni tasvirlab jismlarning shaklini belgilaydi<sup>2</sup>”.

Ushbu iyerogliflarning tasviriy shakli ularning bajaradigan vazifalariga mos tushgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, tasviriy toifaga kiruvchi iyerogliflar bizgacha to‘liq yetib kelmagan.

Tasviriy toifadagi iyerogliflarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

#### Osmon jismlariga kiruvchi iyerogliflar.

Quyosh							
Oy							
Yulduz							

#### Yer jismlariga tegishli iyerogliflar.

Tog					
Dala					

#### O‘simliklarga tegishli iyerogliflar

Mevalar							
---------	--	--	--	--	--	--	--

<sup>1</sup> 桃孝遂: “许慎 说文解字”, 中华, 1983. 26-b.

<sup>2</sup> Ko‘rsatilgan manba, o‘sha bet.

Pichan							車
Guruch							米

Insonga tegishli iyerogliflar.

Ona							母
Bola							子
Qosh							眉

Mehnat quollariga tegishli iyerogliflar.

Bolg'a							斤
Pichoq							刀
Idish- tovoq							皿

Hayvonlarga tegishli iyerogliflar.

Ot							馬
Bug'u							鹿
Ayiq							熊
Qush							雀
Baliq							魚

Yozuv belgisining keyingi rivoji grafik elementlarining yengillashuviga olib keldi.



Ancha keyingi iyerogliflar ulardan o'tib kelgan haqiqiy suratlardan farq qiladi.

Shuoven jieze lug'atida keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha ushbu toifaga 364 ta belgi tegishli, bu esa iyerogliflar umumiy sonining 4-5% tashkil etadi.

### **Ko'rsatkich turkumi 指事**

Ikkinchi iyerogliflar turkumi – ramzlarni o'z ichiga oladi. Ularning paydo bo'lishi, mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlarni yetkazib berishga ehtiyojning vujudga kelishi bilan bog'liq.

Odatda, ko'rsatkich turkumi 指事 oddiy va murakkab ko'rinishdagi ikki xil shakl turkum iyerogliflarni o'z ichiga oladi. Oddiy turkum bir qator mavhum (abstrakt) xayoliy tasavvurni bildirib, narsalarning xususiyatlarini aniq bildiradigan belgilar(iyerogliflar)dan iborat. Masalan: Shang 上, Syao 小, Nay 乃; Ikkinchi ko'rinishdagi u qo'shma iyeroglif rasm tasviriy 象形, iyerogliflar asosida ko'rsatkich xususiyatni bildiradi. Uning tarkibida piktogarfiyaga qo'shimcha imlo chiziqlarini qo'shib yozilish orqali hosil qiliandi. Masalan: Ben 本, Gan 甘, Jen 刃 va hokazolar. Ushbu o'rinda, Pyan 片, Si 夕 kabi iyeroglif qoidalar borasida turli xil fikrlar mavjudligini ham ta'kidlab o'tmoq zarur. Masalan, ayrim tadqiqotchilar, uni ko'rsatkich turkumga birlashtirsa, ba'zilar esa tasviriy rasm turkumiga tegishli ekanligini e'tirof etib o'tadi. Chu Yong an (楚永安)ning fikricha: "Bu turkumda odatda, ko'rsatkich turkum iyerogliflari va shuningdek, bu 步, siu 休 kabi tasviriy rasm ko'rinishdagi iyerogliflar ma'naviy birikkan turkumni ham o'zida namoyon qiladi. Ma'naviy jihatdan birlashish - tasviriy rasm turkum birikmasi, tushuncha uyg'unligi kabi ikki xil ko'rinishdagi mos ravishda hosil bo'ladi. Amaliyotda tushuncha uyg'unligining

birikmasi ma'naviy birlashish turkumidir, rasm tasviriy turkum birikmasi esa ko'rsatkich turkumda namoyon bo'ladi"<sup>1</sup>.

Agar tasviriy rasm iyerogliflar turkumiga kiruvchi iyerogliflar aniq predmetlar haqida tushunchani aks etuvchi so'zlarni izohi uchun xizmat qilgan bo'lsa, unda "tepa", "o'ng", "chap", "asos", "yakun" kabi so'zlarni ma'nosini rasmlar orqali yetkazib berishning umuman iloji bo'lmagan. Shuning uchun ushbu so'zlarning ramziy ma'noda mazmunini yetkazib beruvchi ko'rsatkichli rasm turkum iyerogliflari kashf etildi.

So'zlarning mazmunini yetkazib berish usuli barcha iyerogliflar – ramzlari kabi bir nechta guruhga bo'linishi mumkin. Mazkur o'rinlarda o'zida tasviriy rasm turkum iyerogliflarni mujassam etuvchi, ya'ni ramzlar orqali ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiluvchi iyerogliflar emas, balki keltirilgan predmetning sifati, xarakteri bilan bog'liq mazmunini belgilash uchun qo'llaniladigan iyerogliflarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Tasvirlash uchun, bu borada quyida bir nechta misollarni keltirib o'tamiz. "Baland" bizga odatda kuzatuv ma'nosida ishlatiladigan "qal'a", "baland bino" mazmunini beradi. Shuning uchun iyerogliflar "baland" degan ma'no anglatuvchi so'zni yozishda "高" (gao)



Shuningdek, "高" (gao) ko'chma ma'nosida "katta", "yoshi ulug'" ma'nolarni ham anglatib, bu iyeroglif "yosh" va "holat" bo'yicha "katta" degan ma'noni bildirish uchun ishlatilgan



ana shu ko'rinishda bo'lgan.

<sup>1</sup>楚永安: "关于“指事”, “会意”的再认识" • "Xitoy xalq ma'orifi" jumali, 1992.

“To‘piq”, “oyoq” 止 [ 止 止 止 止 ]

Misol tariqasida bu keltirilgan iyerogliflarning qadimgi ma‘nosi bo‘lib, odam oyog‘ining to‘pig‘ini (izini) tasvirlaydi. Murakkab iyerogilflarda belgi – harakatni anglatib keladi.

Tayyor tasviriy iyeroglif toifalarining ahamiyatsiz o‘zgarishi natijasida yaratilgan ramzlar ushbu iyerogilflarning o‘zgartirilgan xarakteri, ular bildiradigan so‘zlarning mazmunini anglatadi. Shunday qilib, 木 – mu “daraxt” tasviriy iyeroglif tepa qismida to‘g‘ri chiziq qo‘shilganligi bois 末 - mo “ daraxt uchi”, degan ma‘noga ega bo‘ladi. Pastki qismida to‘g‘ri chiziq qo‘shilgan iyeroglif 本 – ben “ildiz”, “asos” ma‘nolarini ifodalab keladi.

Bo‘shliqdagi holatni yoki yo‘nalishni aniq kombinatsiyalar chiziqqlar, shuningdek, ba‘zi matematik tushunchalar bilan yetkazib beruvchi ramzlar ularga iyeroglif 上 Shang “tepa” dastlab ikki ko‘rinishga ega edi: 上 va 二 . Birinchi holatda, tepaga qaratilgan 上 shaklda, 上 chiziqcha bilan ko‘rsatilgan, ikkinchi holatda, bu 二 shakldagi nuqta ko‘rinishda beriladi. Zamonaviy ko‘rinishdagi ushbu belgi kombinatsiyalar

一 二 上 下 xia ” past”gi qismni

bildiruvchi iyeroglif ham mohiyatan 上 va 二 shakldagi ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lib yuqorida ko‘rib chiqilgan belgilar kabi, shu prinsiplar asosida ma‘no anglatadi. Belgining zamonaviy ko‘rinishi ham ushbu variantlar kombinatsiyalari hisoblanadi.

一 二 上 下 + shi “o‘n” iyeroglifik yozuv

o‘zining ramziy ko‘rinishida dunyoning yo‘nalishlari bo‘yicha to‘rt tomonini bildiradi. Masalan, to‘g‘ri chiziqda Sharq va G‘arbni, tik chiziqda Janub va Shimolni anglatadi. Birinchi toifadan 2 iyerogliflarni umumiy jihatlari ko‘pligiga qarab, ba‘zida esa birga birlashtiradilar. Birinchi kategoriyaga



qaraganda, ko'rsatkichli hierogliflar soni jihatdan kamroq bo'lib, 100 tadan ortiq soni mavjud. 4000 ta anchayin ko'p ishlatuvchi belgilardan iborat bo'lib, ularning umumiy soni 4%ni tashkil qiladi. Ushbu ramzlar soni ko'p bo'lmasa ham, barcha hierogliflar yozuv tizimini tashkil etilishida muhim o'rin tutgan.

### **Kalligrafiya san'atiga ulkan hissa qo'shgan xitoy kalligraflari**

Xitoyda kalligrafiyaning gullagan davrini Jin sulolasi davri<sup>1</sup>da yashagan ota-bola Vang Sizhi (王羲之 *Wang Xizhi* 303-379 yy.) va Vang Syanzhi (王献之 *Wang Xianzhi* 344-386 yy.) singari kalligraflar ochganlar. **Vang Sizhi** aslzodalar naslidan bo'lib, buvasi, otasi va ikki akasi katta amaldorlik lavozimlarida xizmat qilganlar. Davlat xizmatidan tashqari ular yana kalligrafiyaga qiziqqanlar. Jin sulolasi solnomasiga kiritilgan mashhur 100 nafar mo'yqalam ustalaridan 20 tasi Vanglar naslidan bo'lgan. Yoshligida Vang Sizhi amaldor bo'lib xizmat qilgan, lekin yuqori lavozimlarni egallamagan. Yuqori amallarning tahqirlariga bardosh berishni istamay Vang Sizhi ota-onasining qabri ustida qasam ichib amaldorlik karyerasidan butunlay voz kechadi. Tabiatan optimist bo'lgan Vang Sizhi tabiatdan bahra olardi, g'oz boqardi, tez-tez do'stlari davrasida bo'lardi va kalligrafiya bilan shug'ullanishni sevardi. Umri bo'yi u mingdan ortiq kalligrafiya asarlarini yaratgan, lekin afsuski, 12 tasigina hozirgi davrgacha yetib kelib, ulardan bittasi saoshu uslubida, qolganlari esa singshu va kayshu uslubida yaratilgan. Qarilik chog'ida Vang Sizhi ko'p sayohatlar, ayniqsa, Xitoy shimolidagi tog'larga safarlar uyushtiradi. Yangi manzaralar bilan tanishish uning dunyoqarashini kengaytiradi va uni yangilik yaratishga undaydi. Ilgarigi kalligrafik an'analarni

<sup>1</sup> Xitoyda Jin sulolasi davri (晋代 *Jin dai*) 265-420-yillarni tashkil qiladi.

chuqur o'rgangan Vang Sizhi yangi uslub, "singshu" va "saoshu" uslubini yaratadi<sup>1</sup>.

Vang Sizhi tomonidan taklif etilgan yangi yozuv uslubining keng tarqalishi xitoy kalligrafiyasi taraqqiyoti yo'lida muhim davr bo'ladi. Kalligraflarning o'zlari Vang Sizhining yangiligi bo'lmaganida, ular Jong Yao va Jang Zhilardan hanuzga qadar nusxa olishda davom etishlarini tan oladilar. Bu so'zlar juda haq aytilgan, chunki Vang Sizhi uslubining yaratilishiga qadar mumtoz kalligraflarning ishlarida iyerogliflarning chiziqlari va shakllari ko'pincha bir maromdalik tamoyiliga amal qilmay tasavvuriy kvadrat chegaralari buzilardi, ijro etish tabiatiga ko'ra "komil inson"ning nozik did va uyg'undor husnixatiga muvofiq kelmas edi.

Vang Sizhi Xitoyda ilk bora eng mashhur singshu husnixat turida "Orxideya shiyponiga muqaddima" ("兰亭序" *Lan ting xu*) deb atalgan asar yaratadi.

Singshudagi ikkinchi mashhur asarni esa Tang davri<sup>2</sup>ning buyuk kalligrafi **Yan Jenching** (颜真卿 *Yan Zhenqing*, 708-784 yy.) yaratadi. Avvalambor, bevosita kalligraf haqida so'zlasak, u aslzoda nasldan chiqqan. Bolalik chog'idayoq otasidan ayrilgan kichik Jenchingni onasi nafaqat oyoqqa qo'yadi, balki uning kalligrafiyaga bo'lgan muhabbatini tarbiyalaydi. Onasidan tashqari yosh kalligrafning ajoyib uztozlari uning buvasi va tog'asi bo'ladilar. Ular kalligrafiya san'ati bilan birga mumtoz asarlarning ham bilimdoni edilar. Davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib bo'lgach Yan Jenching jinshi<sup>3</sup> ilmiy darajasini oladi va poytaxtga ishga tayinlanadi. Lekin tez orada imperator kanslerini jiddiy ranjitganligi sababli lavozimidan ayriladi. Shunday qilib provinsiyada o'rtnashib qoladi. Yoshi bir joyga kelgan chog'da

<sup>1</sup> "中国历史常识" (中俄对照) . - 北京 : 华语教学出版社 · 2006. - 页 84.

<sup>2</sup> Xitoyda Tang sulolasi davri (唐代 *Tang dai*) 618-907-yillarni tashkil qiladi.

<sup>3</sup> Jinshi (进士 *jinshi*) – an'anaviy Xitoyda davlat imtihonlari tizimida oliy ilmiy daraja.

tog'riso'z, sadoqatli, jasoratli inson bo'lmish Yan Jenching imperatorning qo'zg'olonchi general Li Sileni taslim bo'lishga chorlash topshirig'iga rozilik beradi. Yan Jenching uchun missiya fojiali yakun topadi, ya'ni qo'zg'olonchi general imperator elchisini qatl ettiradi.

Yan Jenching ijodining ma'lum bir davrida o'zini butunlay Vang Sizhining husnixatini o'rganishga bag'ishlaydi. Buyuk ustozga taqlid qilib, boshlovchi kalligraf nafaqat husnixatning tashqi o'xshashligi, balki kalligrafiya san'atining chuqur estetik tamoyillarini o'zlashtirishga intiladi. Va u o'zining "Oltin asr"ni boshdan kechirayotgan qudratli Tang imperiyasi va uning madaniyatiga hamohang yangi, o'zgacha ulug'vor uslub yaratish bilan bunga erishadi. Nafaqat Yan Jenchingning zamondoshlari, balki keyingi davr kalligraflari ham uning husnixatiga taqlid qiladilar. Shu munosabat bilan u Chu Syuyliang bilan bir qatorda "Tang davri kalligraflarining bosh ustози" degan sharafli nomga ega bo'ladi. Yan Zhencingning Xitoyda ikkinchi mashhur singshudagi asari "Jiyanim xotirasini yod etib qo'lyozmasi" ("祭侄文稿" *Ji zhi wengao*) deb nomlanadi.

Yan Jenching haqida so'zlaganda **Liu Gongchyuan** (柳公权 *Liu Gongquan*, 778-865 yy.) to'g'risida ham gapirmay bo'lmaydi. U Yan Jenchongdan 70 yosh kichik bo'lsa-da, zamondoshlari ularni bir qatorga qo'yadilar. Hatto "Yan-Liu" degan ijodiy oqimi ham vujudga keladi. Haqiqatda esa Liu Gongchyuan ko'p jihatdan Yan Jenchingning badiiy usulini o'zlashtiradi va mohiyatan uning shogirdi hisoblanadi.

Liu Gongchyuan bir nechta imperatorlar xizmatida bo'lgan va o'zining kalligrafiyaga iste'dodliligi, ko'nglining pokligi sharofati bilan imperatorlarning xayrixohligidan doimiy foydalanadi. Kalligraf sifatida Liu barchadan mo'yqalamning kuchi, husnixatning mustahkamligini ustun qo'yadi. Uning ishlariga yagona tig'iz markazidan nur bo'lib tarqaluvchi kuchli va jadal chiziqlar xos. "Liu Gongchyuanni ta'sirlilik hamda



siyoh va mo'yqalamning vazminligini bir-biriga moslab bir butunlik hosil qila oluvchi buyuk ijodkor deb atash mubolag'a bo'lmaydi", -deya ta'rif beradi Chen Tingyou<sup>1</sup>.

Yan Jenching va Liu Gongchyuanning hayratomuz mo'yqalami kuchi va mardonavor go'zalligi uchun ularning asarlarini "Yanning mushaklari, Liuning suyaklari" deb ataganlar. Yan Jenching singari Liu Gongchyuanning ham ko'plab izdoshlari bo'lgan.

Me'yorlarning qat'iyligi Jin davridan butkul farqlanuvchi Tang davrining kalligrafik san'atining muhim xususiyati hisoblanadi. Binobarin jin davri kalligraflari avvalo nafislik, ichki erkinlikni namoyon qilish, ilohiylashtirilgan hissiy go'zallikni ustun qo'ygan bo'lsalar, tang davri kalligraflaridan batartiblik, vazminlik, qoidalarga aniq rioya qilishni qadrlaganlar va bularga amal qilib estetikaning zeboligiga erishganlar. Tang davrida novatorlik yangiliklari Xitoyda kalligrafiyaning ommabopligi va unga nisbatan muhabbatning yana bir omili hisoblanadi.

Tang davri kalligrafiya taraqqiyotidan so'ng Song davri<sup>2</sup>da ham kalligrafiyaning izchil rivoji, go'zallashuvi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ana shu ijodiy taraqqiyotga ulkan hissasini qo'shgan yana bir kalligraf bu Su Shidir. **Su Shi**(苏轼 *Su Shi*, 苏东坡 *Su Dongpo*, 1036-1101 yy.) juda iste'dodli va ma'lumotli inson bo'lib, mashhur adabiyotshunos, kalligraf, musavvir bo'lgan. Uhamshi "she'r" janri, ham *ci* "romans" janrida ijod qiluvchi o'zining nazmiy yo'nalishini yaratgan. Kalligrafiyada Su Shi singshu va kayshu uslublarining yuksak mahoratli ustasi hisoblangan. Garchi Su Shi yuqori lavozimlarni egallagan bo'lsa-da, lekin uning xizmat karyerasi ijodiy faoliyatidek muvaffaqiyatli bo'lmagan. Uni bir necha bor uzoq tumanlarga yuborganlar. Bir safar shoir, hatto o'z she'rlarida imperatorni

<sup>1</sup>陈廷祐“中国书法”. - 北京：五洲传播出版社，2003. - 页 100.

<sup>2</sup> Xitoyda Song sulolasi davri (宋代 *Song dai*) 960-1279 yillarni tashkil qiladi.

haqoratlaydi degan siyosiy fitnaning qurboni ham bo'lgan. Shu tufayli Su Shi bir yuz o'ttiz kun qamoq jazosini o'taydi. Faqat imperatorning onasi va bir necha obro'li amaldorlarning rasmiy o'tinchi sharofati bilan Su Shi muqarrar o'limdan qochib qutuladi va Xuangjouga surgun qilinadi.

Xuangjouda surgundagi hayotining uchinchi yili Su Shi qo'liga mo'yqalam oladi va o'z qayg'usini qo'g'ozga to'kib sochadi. O'z she'rini yakunlab, u yana toza varaq olib "Xuangjoudagi yaxna yemak Kuni<sup>1</sup> haqida" ("寒食帖" *Hanshi tie*) nomli Vang Sizhi va Yan Jenchinglardan so'ng uchinchi bo'lib, Xitoyda mashhur singshudagi kalligrafik durdona asarini yaratadi.

Shu singari to'g'ridan to'g'ri o'zining ijodiy dunyoqarashani bayon etib ko'pgina kalligrafik asarlar yaratgan. Masalan, "oddiylik va samimiyluk – mening ustozim", "mening kalligrafik ishimni g'oya yaratadi, ko'nikma bu yerda kuchsizdir. Barchasida qo'limga ishonaman, uni maqsad tomon turtib turish bezor qiladi". Bu so'zlar bilan Su Shi kalligrafiya sohasida u ijodiy tasavvur hayolotiga erkinlik beradi, o'rnatilgan qoidalar bilan o'zini chegaralashni istamaydi. Uning yozgan iyerogliflari xuddi ular kalligrafning ishtirokisiz, o'z-o'zidan dunyoga kelganlaridek tabiiy chiqar edi. Su Shi kalligrafiyani eng buyuk lazzatlardan deb atardi. U yoshi bir joyga kelganida kalligrafiya bilan do'stlashishni hatto shaxmatdan ham afzal deb bilardi va kalligrafiyani "haqiqiy chiziqlar o'yini" deb ta'rif berardi. Su Shi kalligrafiyadan tashqari ko'p vaqtini musavvirlikka ham bag'ishlar edi.

Song davri kalligrafiya san'ati peshsahnasiga singshu uslubi chiqadi. Bu shunisi bilan tamomila tabiiyki, namunali kayshu va tez yozuv saoshu uslublarining oralig'ida bo'lgan

---

<sup>1</sup> Yaxna yemak Kuni – Chingming – dunyodan o'tganlarni xotirlash va ularning qabrinu tozalash bayramidan keyingi ikkinchi kun. Bu kuni olov yoqish taqiqlangan va shu tufayli taomlar sovuq holda iste'mol qilingan.

singshu husnixat turi kayshu singari me'yoriylik chegaralari bilan ham qat'iy cheklanmagan, caoshu singari yozish va o'qishda unchalik qiyin emas. Singshu uslubi yanada lirikroq bo'lib, kayfiyatning osoyishta va xotirjam holatini grafika tili yordamida yana ham aniqroq yetkazib beradi. Shu sababli singshu uslubi Song davri kalligraflarining ijodiy faoliyatda turmush quvonchlariga erishish borasidagi azaliy orzularini ro'yobga chiqarish uchun juda mos kelgan.

- Xitoy tilida "kalligrafiya" (*yunon*. chiroyli yozaman) so'zi ikki bo'ginli 书法 *shufa* tarzida tarjima qilinib, polisemantik xususiyatga ega tarkibiy so'zlar, ya'ni 书 *so'zining* "yozuv, yozmoq", 法 *fa* "namuna", "standart", "qoida" ma'nolaridan tashkil topgan.

- Xitoy kalligrafiya san'ati grafik funksiya bilan chambarchas bog'liq. Iyeroglifning leksik ma'nosi va kalligrafiya o'rtasida muayyan bir aloqalar bo'lsa-da, ustun emas. Iyeroglifning fonetik talaffuzi va kalligrafiya o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emas.

- Xitoy kalligrafiyasida kalligrafning chetlab o'tishi lozim bo'lgan sakkiz kasallik yoki nuqson "八病 *babing*" tushunchasi mavjud. Masalan, 撇 *pie* chizig'i kalamushning dumiga, 竖 *shu* chizig'i laylakning oyog'iga o'xshamasligi kerak.

- Xitoy yozuvi 甲骨文 *jiaguwen* "toshbaqa kosasi va hayvon suyaklaridagi yozuv", 金文 *jinwen* "bronza idishlaridagi yozuvlar", 篆书 *zhuan*shu: 大篆 *dazhuan* "katta belgili yozuv", 小篆 *xiaozhuan* "kichik belgili yozuv", 隶书 *lishu* - "rasmiy-hujjat yozuvi", 章草 *zhangcao* - "qonuniy tez yozuv xati", 今草 *jincao* - "zamonaviy tez yozuv xati", 行书 *xingshu* - "yuruvchi" yoki "yuguruvchi" yozuv, 楷书 *kaishu* - "namunali yozuv" singari yozuv va husnixat turlarining tadrijiy bosqichlarini bosib o'tgan.



- Xitoy kalligrafiyasining eng taraqqiy topgan davri Jin sulolasi 晋代 *Jin dai* (265-420), Tang sulolasi 唐代 *Tang dai* (618-907) va Song sulolasi 宋代 *Song dai* (960-1279) davrlari hisoblanadi. Bu davrlarda kalligrafiya taraqqiyotiga hissa qo'shgan, kalligrafiya tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk kalligraflardan Vang Sizhi (王羲之 *Wang Xizhi* 303-379 yy.), Yan Jenching (颜真卿 *Yan Zhenqing*, 708-784 yy.), Liu Gongchyuan (柳公权 *Liu Gongquan*, 778-865 yy.), Su Shi (苏轼 *Su Shi*, 苏东坡 *Su Dongpo*, 1036-1101 yy.)lardir.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Yozuv turkumlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Xan davri solnomasi tilshunoslik bo'limi kim tomonidan yozilgan?
3. Chjou asari kimning qalamiga mansub?
4. Tasviriy rasm turkumi yozuvini farqli tomonlarini asoslang?
5. Ko'rsatkich turkum deganda nimani tushunasiz?

### **Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. Tasviriy rasm turkumi 象形.
2. Ko'rsatkich turkumi 指事..
2. Tan davri matnlari
4. Matnning Grammatik tahlilini amalga oshiring.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Ding Du va Li Zhaolarning xitoy fonologiyasidagi o'rni haqida ma'lumot yig'ish.

## TEST

1.“篮球高手，你莫属！”

- A.不是  
B.没有  
C.非  
D.怎能
- 答案：C

2.长沙是\_\_\_\_\_。

- A.有着三千年历史一座的悠久城市  
B.一座有着三千年历史的悠久城市  
C.一座有着三千年悠久历史的城市  
D.悠久的有着三千年历史一座城市



答案：C

3.“老师不生气，反倒高兴地表扬他敢于指出老师讲课中的疏漏”。

- A.不是  
B.可是  
C.非但  
D.所以
- 答案：C

4.“我是\_\_\_\_\_，但过了这么久，哪还记得他叫什么名字啊！”

- A.见那个人过  
B.见过那个人  
C.那个人见着  
D.见着那个人
- 答案：B

5.“听到他在楼上唱着走调的歌儿，大家忍不住笑了起来。”这句话中“笑了起来”的意思是：

- A.开始笑了  
B.坐起来笑  
C.站起来笑  
D.对着上方笑
- 答案：A





## 14 - MAVZU: MA'NOVIY BIRLASHISH TURKUMI

**Darsning o'quv maqsadi:** Ma'noviy birlashish turkumi 会意. Rasm talaffuz turkumi 形声字. Tasviriy rasm turkum, ko'rsatkich turkum, ma'noviy birlashish turkumi, rasm talaffuz turkumi, o'zlashtiruvchi turkum, shaklan o'zgaruvchi turkum yozuv turlarini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 象形, 指事, 会意, 形声字, 假借字, 转注字.

Ushbu toifa tarkibida bir nechta tasviriy yoki ko'rsatkichli iyerogliflarga ega bo'lgan belgilarni o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun takribiy qismlar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlar ma'lum bir iyerogliflarni bildirish uchun, shartli ravishda so'zning ma'nosini anglatib keladi. Iyeroglifshunos olim, Yua Chinde fikricha: "Ma'noviy jihatdan birlashuvchi turkum iyerogliflar o'z tabiatiga ko'ra, birlashish xususiyatidan kelib chiqib, o'zining bir nechta ma'no xarakteriga ega bo'lgan, so'z ma'nosini anglatuvchi iyerogliflarning qurilish qoidasining umumiy nomi bo'lib, uning asosini sakkiz xil ma'no ifodalovchi qoidalar majmui tashkil qilar ekan". Bu fikrlar esa, mazkur turkumlarga kiruvchi – turkum iyerogliflarning kelib chiqish uslubi jihatidan piktografiya uslubiga borib taqaladi, degan xulosaga olib keladi. Yozuv shaklining rivojlanish taraqqiyotini kuzatar ekanmiz, bu jarayonda Lyuy (录 rasmiy yozuv) husnixati yaratilgach, iyerogliflar ilk tasviriy rasm ko'rinish shaklini yo'qotdi. Shuning uchun Yua Chinde mazkur borada munosabat bildirib: "Iyerogliflarning ma'noviy birlashishi va shakl, tuzilish qoidalariga ko'ra, mavhum ravishda o'zgartirilgan"<sup>1</sup> degan fikrni bildirib o'tadi.

<sup>1</sup>袁庆德。“会竟造字方法新探”，“天津师大学报”1998年，3-son.

Syang Guanjong fikricha, “Yozuvning (iyerogliflar dem.) hozirgi zamon bosqichiga o‘tish jarayonida iyerogliflar o‘zidagi barcha xususiyatlardan foydalanib, yangi ko‘rinishdagi iyerogliflar kashf qilingan”.<sup>1</sup> Mazkur o‘rinda u bu xususda o‘z fikrini davom ettirar ekan “har xil iyeroglif elementlarini bir-biriga qo‘shish natijasida yangi mustahkam ma‘no beruvchi iyerogliflar vujudga kelgan, bu esa, ma‘naviy birlashishning maqsadini belgilovchi asosiy omil”.

Iyerogliflarning mazkur turkumida, iyerogliflarning induksion ravishda ma‘naviy birlashish qoidasi ikki xil uslubda yasaladi: Obrazli va ratsional /mantiqiy/ ma‘naviy birlashish. Manbalarda “iyerogliflarning ma‘naviy birlashish turkumining sakkiz xil ko‘rinishda tuzilish prinsiplarining borligini kuzatish mumkin. Bular: Tasviriy qoidasiga ko‘ra, o‘zligini namoyon qiluvchi, ifoda etuvchi, maxsus solishtiruvchi va belgilarga asoslangan prinsiplar.”

Iyeroglifshunos olim Yang Xe Ming<sup>2</sup> tomonidan “Ma‘naviy birlashuvchi iyerogliflar haqida” nomli asarida bergan ta‘rifiga ko‘ra: “Yozuv tizimidagi ma‘naviy birlashish turkumida ilmiy asosda ikki xil ko‘rinishdagi izlanishlar olib borilgan”. Bular, induktiv tarzda “说文” ga nisbatan ma‘naviy birlashgan turkumga qadimda qo‘llanilgan atamalar; ma‘naviy birlashish turkumida eskirgan so‘zlarning so‘z tizimida grammatik jihatdan bog‘liqligi ustida olib borilgan. Shuningdek, olim “说文” lug‘atiga ilova” maqolasida ma‘naviy birlashish turkumini chuqur o‘rganib, mantiqiy xulosalar natijasida, turkum iyerogliflar ma‘naviy birlashuvi bilan bog‘liq ichki tuzilishi haqida ayrim o‘rinlarda mulohazalar bildirib, oydinliklar kiritib o‘tadi. Ya‘ni, uning ta‘kidlashicha, mavhum va murakkab

<sup>1</sup>向光忠: “许说会意发微” • “说文解字研究”, 1991 年 8 /1

<sup>2</sup>杨合鸣.

mazmunda bo'lgan aniq va oddiy iyeroglifik so'zlar ma'nosini bildiruvchi, tasviriy yoki ko'rsatkichli toifalardagi ikki yoki uch belgili iyerogliflarning mos kelishi holatlari xitoy yozuvida ko'p uchraydi.

田 *tían* – dala;

力 *lì* – kuch;

男 *nán* – erkak;

女 *nǚ* – qiz bola;

子 *zǐ* – o'g'il bola;

好 *hǎo* – yaxshi ko'rmoq;

门 *mén* – eshik;

耳 *ěr* – quloq;

佳 *zhūi* – qush;

木 *mù* – daraxt;

集 *jí* – birga yig'ilmoq.

Shu tarzda har xil elementlardan tashkil topgan, shakl anglatuvchi birinchi iyerogliflarning sirtqi guruhi vujudga keldi. Bir xil elementlardan tashkil topgan ushbu toifaning ikkinchi sirtqi guruhidagi iyerogliflardan birinchi sirtqi iyerogliflari sezilarli ko'p.

Misol uchun:

木 *mù* – daraxt;

火 *huǒ* – olov;

林 *lín* – o'rmon;

石 *shí* – tosh;

炎 *yan* – uchqun;

焚 *fén* – olov.

Agar iyerogliflar evolyutsiyasi jarayoni kuzatilsa, ularning tadrijiy rivojini o'ziga xos shaklda kechganligini kuzatish mumkin.



Maslan, 立 li “turmoq” iyeroglifi o‘zining takror ko‘rinishiga ham ega bo‘lib, ya‘ni mazkur iyeroglif 立立 shaklda ham keladi. Ushbu ko‘rinishda bu iyerogliflar bitta, keyinchalik kelib ketma – ketlikda yoziladigan bo‘lib, mohiyatan “yonma - yon turgan odam”ni anglatib kelgan.

Evolyusiya jarayonida iyerogliflarni tartib bilan dastlab ichki tomondan yozish, masalan, iyeroglifdagi ikkita nuqta ko‘rinishdagi 立立 bing iyeroglifi ikkita tik chiziqalar bilan o‘zgartirilgan bo‘lib, zamonaviy iyeroglifik yozuvda u 井<sup>1</sup> bing ko‘rinishda yoziladi. Hozirda ushbu iyerogliflar “birga”, “oldinda” kabi ma‘nolarni beradi;

Tasviriy toifalardagi oddiy iyerogliflarni qiyin iyerogliflar ideogrammalarga birlashuv usuli paydo bo‘lgandan so‘ng, yangi konstruktiv iyerogliflar birligini yaratishga deyarli hojat qolmadi.

Bu maqsad uchun oddiy va ancha ma‘lum belgilar xizmat qilar edi. Bular iyeroglif yozuvining osonlashuviga sabab bo‘lar edi.

Xitoy yozuvida umumiy tasviriy jihatdan murakkabliklar hosil qiluvchi 740 ga yaqin ideogrammalar hisoblanib kelingan. Xulosa o‘rnida ta‘kidlaydigan bo‘lsak, demak iyerogliflarning yuzaga kelishi va struktural tuzilishi, tovush qisqarishi, shakl qisqarishi, tovush va shaklning uyg‘unligi shuningdek, talaffuz, tovush ifodalovchi kabi turli muammolar ushbu turkum iyerogliflarning xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan bo‘lib kelgan ekan.

### Rasm talaffuz turkumi (形声字)

Bu turkumni o‘rganish davomida uning yuzaga kelishi (paydo bo‘lishi) va tuzilishi, tovush qisqarishi, shakl qisqarishi, tovush va shaklning uyg‘unligi shuningdek, talaffuz, tovush ifodalovchi kabi turli muammolari muhokama qilindi.

<sup>1</sup> Tushuncha sifatida: Ayrim qadimgi iyerogliflarni asl ko‘rinishda yozishning imkoni bo‘lmaganligi sababli tadrijiy rivojlanish oqibatida zamonaviy shakllangan bugungi iyerogliflar ko‘rinishida berilmoqda.

**Birinchi, rasm talaffuz turkumining paydo bo'lishi va uning tuzilishi.** XX asrning 80-yillariga kelib, Syang Guangjong<sup>1</sup>rasm talaffuz turkum negizi muammosini ko'taradi. Tasviriy shakl turkumdagi iyerogliflar har xil imlo chiziqlaridan tashkil topgan bo'lib, bu turkumdagi iyeroglif doim bir ma'noni bildirgan. Bu qarashni "Xitoy iyerogliflarini murakkab va rivojlanish tarixi" maqolasida ifodalanishicha "Shakl tovush kelib chiqishning Xitoy iyerogliflari imlo chiziqlari ko'payishi bilan uning ma'nosini bergan va keyinchalik borib-borib bu turkum iyerogliflarning yarmi iyeroglifning (shaklini) ma'nosi, yarimi tovushini ifodalagan uslubga aylandi"<sup>2</sup>.

Shuning uchun imlo chiziqlarini ortishida eng muhim ikki jihatni ko'ramiz:

Shakli ortishi bilan ma'noning farqlanishi, ya'ni omonimli yoki ko'chma ma'noli iyerogliflardan foydalanish natijasida bir qator shakli bir xil turli ma'noni anglatuvchi iyerogliflar paydo bo'ldi. Bunday shaklan bir xil turli ma'nodagi iyerogliflar ko'paygach bunday shakllarni osongina turkumlarga ajratish boshlandi.

Shaklning ortishi bilan iyerogliflar taraqqiyoti davomida noaniq shakllar vujudga keldi. Bunday iyerogliflar o'z ma'nosini yo'qotib aniq ko'rinishga ega bo'lgan iyerogliflar vujudga keldi. Hozirda noaniq shaklli ma'nosini aniq bermaydigan iyerogliflar ham mavjud.

Ayrim rasm talaffuz iyerogliflarni shaklga qarab ma'nosini o'rganish mumkin. Che Syanjun<sup>3</sup> ning "Rasm talaffuzli iyerogliflarni tadqiqot qilish" nomli maqolasida "说文" tadqiqoti asosida rasm talaffuz turkumiga oid qiyosiy ma'nodagi ideogrammaning uch yuzdan ortiq turini aniqlagan. Bu esa ko'pgina rasm talaffuz iyerogliflarining ko'rinishi ideogrammaga

<sup>1</sup>向光忠.

<sup>2</sup>向光忠: "汉字的繁衍与发展趋向", "光明日报", 1987年.2月,3日.

<sup>3</sup>车先俊.

tayangan holda, to'g'ridan to'g'ri uning ma'nosini ajratib ko'rsatadi. Lekin ideogrammaning qiyosiy ma'nosidan tuzilgan rasm talaffuz turkumi qo'llanilsa, bu holda to'g'ri ma'nosi ideogramma bilan bog'liq ammo juda chalkash va mavhumdir".

Yan Jimingni "Rasm talaffuz kategoriyasida iyerogliflarning tuzilish uslublari haqida" nomli maqolasida talaffuzning etimologik ma'nosiga ko'ra, rasm talaffuz turkumiga oid iyerogliflarda talaffuz turkum bilan shakl tuzilishi bir xil tarzda saqlanib qolgan shuningdek, yana bir tarafdin talaffuz turkumda turli ko'rinishli o'xshash tovushli shaklan saqlangan, ammo bir xil bo'lmagan iyerogliflar turkumi orasida keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Tabiiyki, bu turdagi talaffuz turkumi xitoy tilining rivojlanish tarixi davomida bosqichma -bosqich yaratilgan. Xitoy iyerogliflari tovush, ko'rinish, ma'no xususiyatiga asoslangan.

Qadimgi Xitoy tilida ma'noga ega bir bo'g'inli so'zlar ko'pchilikni tashkil qilib, unda rasm talaffuz turkumidagi talaffuz belgilari tovush (ohang) katta ahamiyatga egadir. Gohida tasviriy shakl belgilarida ham etimologik jihatdan talaffuz qismi ifoda qiladi. Bu o'z navbatida, rasm talaffuz turkumining tuzilish uslubini eng muhim jihatdan biri"<sup>1</sup>.

**Ikkinchi, alohida shakl yoki talaffuz haqida.** 高明 fikriga ko'ra "Shakl qo'llanilishi ham talaffuz kabi bir xil. Ikkisi ham yozuv qonuniyati rivojining asosiy talabi"<sup>2</sup>

Fan Tyanle<sup>3</sup> "Shaklni qisqartirish haqidagi boshlang'ich muhokama" asarida "Shovendagi shaklan qisqartirilgan vaziyatni statistik tahlil qilgan, unga ko'ra bevosita 说文 da keltirilishicha "省" qisqartirish bo'lib, "篆" (zhuan) yozuvi umumiy 119 tani tashkil qilgan, bulardan rasm talaffuz turkumiga tegishli ideo-

<sup>1</sup>殷寄明: "论形声字的一种重要构成方式", "南京师大学报", 1992.年2期.

<sup>2</sup>高明: "中国古文字学通论", 北京大学出版社, 1996年版, 第53页.

<sup>3</sup>燧天烈.



grammaning qisqartirilgan imlo chiziq-lari 45 tani tashkil qiladi, rasm talaffuz turkumidagi yanglish iyerogliflar ko'rinishining qisqartirilgan imlo chiziq-lari 74 ta; asosiy bo'limdagi qisqartirilgan imlo chiziq-lar umumiy 42 ta bo'lib, ularndan 17 tasi rasm talaffuz turkumiga tegishli idiogrammaning qisqartirilgan imlo chiziq-lari, 25 tasi esa rasm talaffuz turkumidagi yanglish qisqartirilgan iyerogliflar ko'rinishida. “说文” ning “省形” (shaklan qisqartma) uslubdan ko'rish mumkinki, ham 篆 dan kelib chiqib, ham 重文 asosiy bo'limdan kelib chiqib qarganda, bu doiraga tegishli iyerogliflarning barchasi ancha keng tarqalgan, cheklanmagan tarzda rasm talaffuz turkum ideogammalari imlo chiziq-lari qisqartirilganlar orasida qisqartirilgan har qaysi iyerogliflar shaklidagi qisqartirilgan imlo chiziq-larining barchasi “省形” (qisqa shakl).

“省形” (qisqartirilgan shakl) uslubida an'anaviy mazmundan tashqari yana bir qator ma'noga ega; birinchidan yozuv ko'rinishining shakllanish uslubi tushunchasi, ikkinchidan xitoy yozuvining to'g'ri ma'nosini aniqlab berish, uchinchidan asosiy bo'limdagi qisqartirilgan iyerogliflarning tovushini qayta ko'rib chiqish”.

“Shuoven” har bir so'z “省声” 10 tadan 7-8 tasi noto'g'ri. Bunda 2 ta vaziyat sabab bo'lishi mumkin. Biri Suy Shening yanglish tushunchasi va keyinchalik olimlarning qo'shimcha bildirgan fikrlari”.<sup>1</sup>

Li Jyayang<sup>2</sup> Shuoven jiezida qisqartirilgan tovush iyerogliflar 170 tani tashkil qiladi. Toshbaqa suyaklariga yozilgan yozuv shakli va yozma ijodiy hujjatlarning guvohligi asosida 56 ta iyerogliflarni tahlil qilgan. Qisqartirilgan tovush iyerogliflar Syu Shen tomonidan o'ylab topilgan “Noto'g'ri, asossiz, inkor qilinishi kerak”.

<sup>1</sup> 洮孝遂“许慎与说文解字”，中华书局，1983年版，第30页。

<sup>2</sup> 李家祥。

Gao Min o'zining "Qadimgi Xitoy yozuvlari haqida" nomli asarida bildirgan fikriga ko'ra: - "shuoven"da aksariyat qisqartirilgan tovush iyerogliflarining ko'pchiligi yetarlicha asosga ega emas, shuning uchun ishonarsiz va asossizdir"<sup>1</sup>. 何九盈 ning fikricha: "Umumiy 310 ta iyeroglif qisqartirilgan tovushni tashkil qiladi. Ulardan 158 tasi noaniq (noto'g'ri)"<sup>2</sup>

Ayrim olimlar Syu Shen 许慎 yaratib rivojlantirgan yozuv turkum qoidalari nuqtayi nazaridan tadqiqot olib borib qisqartirilgan tovush haqida aytilganlarni tan oladilar. Masalan, 陈世辉 "说文" da iyerogliflarni qisqartirish haqida" asarida qisqartirilgan tovush haqidagi fikrlarni yuqori baholaydi. Nazariy yozuv bo'limini hamda Lyu Shu 六书 nazariyasiga bog'liq vaziyatni ko'rsatadi.<sup>3</sup> Toshbaqa suyaklaridagi yozuv, bronza metallardagi yozuv, hamda kichik juan 小篆 va boshqa qadimgi Xitoy yozuvlaridan qolgan namunalar, manbalar deyarli o'rganilib tahlil qilingan, shuning uchun qisqartirilgan tovush 省声 qadimgi Xitoy yozuvidagi rasm talaffuz turkumi orasida o'zining hozirgi ko'rinishini saqlab qolganligini tan olish mumkiin. Syu Shen 许慎 qo'llagan qisqartirilgan tovush 省声小篆 shaklida yozilgan iyerogliflar kabi xususiyati deb izohlanadi.<sup>4</sup>

姚炳祺 fikricha "Qisqartirilgan 省声 shuningdek, Xitoy iyerogliflarning tarixiy taraqqiyot davr mobaynida shartli o'rnatilgan maxsus transkripsion vositalardan biridir. "说文" dagi qisqartirilgan tovush iyeroglifini aniq darajada namoyon qilib, bu iyerogliflar Xan 汉 davrining talaffuz ko'rinishidir. Bu esa fonogramma tomonidan qaraganda Xan sulolasi davrida

<sup>1</sup>高明: "中国古文字学通论", 北京大学出版社, 1996 年版, 第 53 页.

<sup>2</sup>何九盈: "〈说文〉省声研究", "说文研究", 1991 年第 1 期.

<sup>3</sup>《古文字研究》, 1979 年第 1 期.

<sup>4</sup>陈世辉: 《略论〈说文解字〉中的省声》, 《古文字研究》1979 年第 1 期.

talaffuz o'qilishi darajasini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar biz uchun qimmatbaho manbadir".<sup>1</sup>

温知本 ning "Shakl talaffuz iyerogliflarning tovushini belgilashda ularning tuzilishi va talaffuz me'yori" maqolasida tovush belgilarining qisqartirish sabablarini, murakkab imlo chiziqlarini soddalashtirish, iyerogliflarning ketma-ketligini va tartiblash, iyeroglif tuzilishining bir tekis chiroyli ko'rinish masalasini muhokama qilgan. Shuningdek, qisqartirilgan tovushning uch vaziyatini tavsiflagan:

1. Tovush belgilari 2 yoki 3 shaklga mos kelishi bilan ma'noviy birlashish turkumining vujudga kelishi bir xil shakldagi tartib bilan bir yoki ikkitaga qisqartirilib umumlashtiriladi;

2. Tovush belgilari agar ikki qismdan iborat rasm talaffuz turkumiga mansub bo'lsa, qoidada ko'rsatilgan iyeroglifning shakl belgilari qisqarib talaffuz qismini saqlagan holda ifodalanadi;

3. Bir butun tovush belgilarini bir qismi qisqartiriladi, qisqartirilganlar o'rnini esa shakl belgilari egallaydi.

**Uchinchi, ko'p shakl ko'p talaffuz haqida.** Bu turkumga binoan olimlarning ko'pchiligi inkor fikrni bildiradilar. Masalan, 唐兰 ning "Xitoy iyeroglifshunosligi" kitobida bergan fikriga ko'ra, rasm talaffuz turkumida faqat bir shakl bir talaffuz mavjud (tabiiyki, ayrim 声母[Xitoy tili fonetikasida boshlang'ich undosh tovush] ning o'zi ham rasm talaffuz turkumidir), ikki shakl yoki ikki tovush umuman bir vaqtda qo'llanilmaydi. Gao Min 高明 ning "Xitoyning qadimgi yozuv ta'limoti muhokamasi" asarida ayrim shunga o'xshash fikrni ko'rsatgan: "Syu Shen 许慎 kitobida bir qator murakkab shakldagi rasm talaffuz iyerogliflarni bo'lish uslublarini qo'llash, ko'p shakl ko'p

<sup>1</sup>姚炳祺: 《说文》中之“省声”问题》, 《广州民族学院学报》1988 年第 2 期。



tovushning ta'rifini ifodalash, eng muhim ayrim iyeroglif shakllarining rivojlanish bosqichi tushunarsiz, shuning uchun noto'g'ri tuzilgan".<sup>1</sup>

汤可敬 (Yang Kejun) ning "“说文” ko'p shakl ko'p tovush" haqidagi tadqiqot asarida "说文" dagi 82 ta ko'p shakl ko'p tovushli iyerogliflar tekshirilib shundan so'nggina aniq xulosaga kelgan. "说文" ning ko'p shakl ko'p tovush iyerogliflari aksariyat hollarda ko'p qatlamli rasm talaffuz turkumidagi noto'g'ri tushuncha ko'p shaklli iyeroglif yoki ko'p tovushli iyerogliflarda namoyon bo'ladi. Tasviriy rasm turkumi ma'naviy birlashish turkumi odatda, rasm talaffuz turkumidagi noto'g'ri tushuncha ko'p shaklli iyerogliflarga ta'sir qiladi. Ko'p shakl ko'p tovush aytilishicha shakl belgilarini ifodalovchi umumiy ma'no turkumiga qarshi tovush belgilarini ifodalovchi umumiy tovush turkumlarining shakl tuzuvchi asosiy prinsiplari shakl belgilariga qarshi chiqib shakl belgilarining qarama- qarshi harakatining asosidir.

Jamiyatning rivojlanishi o'z navbatida yozuv jarayonlariga ta'sirini o'tkazib borishi tabiiy. Tasviriy – tovush yozuv ana shu jarayonlarning ta'siri o'laroq yuzaga keldi va rivojlandi. Sababki, tasviriy – tovush yozuv turkumigacha ist'emolda bo'lgan tasviriy - ko'rsatkichli, ideogrammati iyeroglifik yozuv turkumlari vaqt o'tib borishi bilan ma'no anglatish doirasi cheklangan bo'lib iyeroglifik yozuv bilan bog'liq yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda edi. Xitoy tili tarkibida tovushlarning doimiy o'zgarib turishi oxir oqibatda xitoy tilida ko'plab omonim so'zlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Uning ta'sirida xitoy yozuvida ikki tovushdan tashkil topgan tasviriy – tovush iyeroglifik yozuv turkumi vujudga kelishi jarayonlari kechdi.

<sup>1</sup>高明: 《中国古文字学通论》, 北京大学出版社, 1996 年版, 第 53 页。

Xususan, bu yozuv turkumi qonun - qoidalariga ko'ra iyerogliflarning birinchi elementiga tegishli iyeroglif bo'lagi o'zida mazmunni ifodalab kelsa, ikkinchi bo'lagi esa tovushni anglatib keladi. Shuning uchun bu turkumga kiruvchi iyerogliflar guruhi tasviriy - tovush degan nomni oldi.

Ushbu toifa morfemani bildirib, odatda, o'zida ikki elementning qo'shilib kelishini mohiyatida mujassam etadi.

I. Bir necha bir xil bo'lgan morfemalarning tovushini bildiruvchi "fonema".

II. Ushbu bir xil bo'lgan tovushli morfemalarning qaysi biri keltirilgan "fonema"ga tegishli - kaliti 15-rasm.

马 "fonema" ot/ ma	女 "kaliti" - "ayol"	女马 qiyin iyeroglif ona /ma	女马女马 so'z talaffuzini yetkazish "ona" "oyi" /ma ma
-------------------------	---------------------------	-------------------------------------	---

Yuqorida keltirilgan misolda, fonetik tovush eshitilishini bildirib, uning mazmunini ko'rsatmaydi.

Xitoy yozuvida umumiy qilib 1000 tadan ortiq fonemalar hisoblangan. Fonemalar o'z-o'zidan ma'noga ega, lekin qiyin iyerogliflar tarkibida faqatgina belgining o'qilishiga yo'naltirilgan, uning mazmuni tomoniga asir ko'rsatmagan. Amalda 850 taga yaqin fonema qo'llaniladi. Ulardan 273 ta fonetik /tovush/ jihatdan har qanday holatda ham kalitlar bilan birikuvida talaffuzini o'zgartirmaydi.

Ulardan qat'iy ravishda fonetik turkumi nomini olgan.

Shunday qilib, 主 zhu fonemasi 柱 zhu "stolba", 炷 zhu "shag'ali", 住 zhu "yashamoq" so'zlarida uchraydi.

585 ta o'zining talaffuzini o'zgartiradigan qat'iy bo'lmagan fonemalar mavjud. Misol uchun 占 zhan.

U quyidagi so'zlarda uchraydi. 站 zhan "turmoq", 店 dian "magazin".

Shu bilan birga shunday iyerogliflar uchraydiki, fonema bir vaqtning o'zida boshqa ma'noviy aniqlanmaga ega kalit rolini bajaradi. Masalan, 低 / past / 氏 di fonemasi va 人 ren "odam" kalitidan iborat. Ushbu elementlar birgalikda "past", "tushirmoq", "egilmoq" ma'nolarini beradi.

Ba'zi vaqtlarda bir iyeroglif ham kalit ham fonetik tarzida keladi, misol uchun:

马 ma "ot" 马奇 ma qi iyeroglifida, "otni ustida ketmoq" kalit bo'lib ishlatiladi. 女马 ma "ona" iyeroglifida esa fonetik – tovush sifatida ishlatiladi. Qiyin iyerogliflardagi kalit va tovushlar o'zaro birlashganda har xil shaklda birlashadilar.

Fonetik – tovushlar tabiatiga ko'ra, kalitlar kabi tasviriy va ko'rsatkichli iyerogliflardan iborat.

Ular orasida oddiy iyerogliflar 千 qian 工 gong 方 fang 可 ke va murakkab "旁 pang 真 zhen 奇 qi 哥 ge" kabi iyerogliflar ham uchraydi.

Tasviriy fonetik – tovush iyeroglifik yozuv turkumlariga kiruvchi – iyeroglif yozuv turkumlari boshqa iyeroglifik yozuv turkumlariga qaraganda nisbatan sodda va qulay. Bu borada zamonaviy ilm - fan taraqqiyoti, ayniqsa, texnikaning jadal rivojlanishi natijasida yangi iyerogliflarni yaratilishiga bo'lgan talabga ehtiyoj paydo bo'lishini ham nazarda tutmoq kerak. Masalan, 氢 qing kislorod; 氧 yang vodorod; 氮 dan azot.

Ushbu so'zlarning yuqori qismida "气 qi" (havo) ma'no anglatuvchi, quyi / pastki qismi esa fonetik – tovushni bildirib keladi. Taxminan hozir 90 % iyeroglif shunday tuzulmaga ega. Demak, shunday ekan, tasviriy – tovush iyeroglifik yozuv turkumning vujudga kelishi bilan yangi iyerogliflar kompozitsiyasining rivojlanish jarayoni deyarli o'z yakuniga yetdi.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Ma'noviy birlashish turkumi nima?
2. Rasm talaffuz turkumini izohlab bering?



3. O'zlashtiruvchi turkum haqida gapirib bering?
4. Shaklan o'zgaruvchi turkumning farqini ayting?
5. Qaysi manbalarda ushbu turkum yozuvlari haqida ma'lumotlar berilgan?
6. Xitoy tilida turkum so'zlar qanday hosil qilinadi?

#### **Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. Ma'noviy birlashish turkumi 会意.
2. Rasm talaffuz turkumi 形声字.
3. Tan davri matnlari
4. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Dramaturg Zhu De Qing haqida ma'lumot yig'ish.

#### **TEST**

1. 下面的汉字中，有一个字音的声调和另外三个不同，它是：

- |      |      |
|------|------|
| A. 跳 | B. 闹 |
| C. 叫 | D. 巧 |

答案：D

2. 下面这些词中，有拼写错误的是：

- |                |                 |
|----------------|-----------------|
| A. 馄饨 huéntuēn | B. 窗花 chuānghuā |
| C. 剪纸 jiǎnzhi  | D. 毛笔 máobǐ     |

答案：A



8.下列四组词语中，加点汉字读音相同的一组是：

- A. 家长 长虹                      B. 唐朝 朝东走  
C. 计数 数钱                      D. 内行 自行车

答案：B

9.根据汉字的造字法来判断，“上”是：

- A. 形声字                              B. 象形字  
C. 会意字                              D. 指事字



答案：D

10.下列汉字中，字义表示“早晨太阳从地平线上升起”的是：

- A. 早                                      B. 旦  
C. 暮                                      D. 晨



答案：B



## 15 - MAVZU: O'ZLASHTIRUVCHI TURKUM

**Darsning o'quv maqsadi:** O'zlashtiruvchi turkumi 假借字. Shaklan o'zgaruvchan turkumi 转注字. Tasviriy rasm turkum, ko'rsatkich turkum, ma'noviy birlashish turkumi, rasm talaffuz turkumi, o'zlashtiruvchi turkum, shaklan o'zgaruvchi turkum yozuv turlarini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 象形, 指事, 会意, 形声字, 假借字, 转注字.

Ushbu toifada iyeroglif tuzilmasiga bog'liq bo'lmagan mazmuni bilan yoziladigan so'zlar kiradi. Bu iyerogliflar ma'lum bir so'zga qachondir iyeroglif yaratilganligini bildirish uchun, undan keyin yaratilgan so'zning tovush eshitalishidan unga mos tushganligi uchungina ishlatiladi.

Yozuv belgisini o'zlashtirish so'zning bir xil tovush eshitalishi asosida bo'ladi.

Xullas, 我 wo iyeroglifi "buven" belgilar tizimida alebardani tasvirlangan. Shundan "alebarda" so'zning talaffuzi "men" olmoshiga o'xshash bo'lganligi uchun ham 我 iyeroglifga shu yangi ma'no berilgan 𠄎 𠄏 𠄐 我

来 lai iyeroglifi hozirda "kelmoq" so'zi ma'nosida bildirish uchun ishlatilayotgan bo'lsa-da, dastlab bug'doyni bildirish uchun ishlatilgan. 𠄑 𠄒 𠄓 来

O'z tuzilmasi bo'yicha u tasviriy turkum iyeroglifidir. Ushbu turkum iyerogliflari quyidagi belgilar orqali ham sodir bo'ladi. 𠄔 𠄕 𠄖 – dastlab "guldon" so'ngra, "unday emas" inkor ma'nosida ishlatilgan.

又 - you dastlabki ma'nosi "o'ng qo'l", hozirda esa "yana" ma'nosida keladi. 𠄗 𠄘 𠄙

Ushbu turdagi barcha iyerogliflar soʻzlarning maʼnosini hisobga olmagan holda fonetik tarzda ishlatilgan.

Oʻzlashtirilgan toifa hammasi boʻlib 600 ga yaqin belgilarni oʻz ichiga oladi.

### **Shaklan oʻzgaruvchi turkum 转注字**

Ushbu tur yozuv belgilarining alohida elementlari kam ahamiyati oʻzgarganligi natijasida tarkib topgan. Misol tariqasida shunday yozuv belgisi oʻzgarishga 老 ota iyeroglifi xizmat qilgan. Odatda, bunday turkum iyerogliflarga grafik jihatdan qiyin boʻlgan elementlar uchraydi. Misol uchun tariq va yoqimli elementlardan tashkil topgan xushboʻy 香 iyeroglifida yoqimli belgisini kuchli oʻzgarish va tariq belgisida pastki qismini (黍 / 甘) yoʻqolishi natijasida grafik oʻzgarishlar yuz berib, ushbu iyerogliflarga 372 belgi tegishli.

Shu tarzda, Suy Shen tomonidan ishlab chiqilgan iyerogliflarning tasnifi hozirgacha saqlanib kelinayotgan boʻlsa ham, ammo u shartli xarakterga ega.

Ayrim tadqiqotchilar xitoy iyerogliflarini turkumlash nuqtayi - nazardan 4 ga boʻladilar.

I. Tasviriy turkum (oddiy iyerogliflar yoki ularning birikmalari).

II. Koʻrsatkichli turkum (iyeroglifik ramzlar/belgilar).

III. Ideografik turkum (Ideogrammalar).

IV. Tasviriy – fonetik/tovushli turkum (fonogrammalar).

Tadqiqotchilarning fikricha, xuddi shu tasnif, xitoy tili yozuvi rivojida oʻz aksini topgan.

Ushbu tasniflashuv ham quyidagi sabablarga koʻra shartli ravishda kelishi mumkin.

I. Tasviriy iyeroglifik turkum yozuvlar, odatda, koʻrsatkichli turkum yozuvlarni yaratishda quruv materiali boʻlib

hisoblanganligi munosabati bilan ularni ko'pincha bir xil degan tushunchada yakdil ekanligi.

II. O'z navbatida, tasviriy va ko'rsatkichli iyeroglifik turkum yozuvlar ideogramma va fonogrammalarning tarkib topishi uchun baza bo'lib xizmat qilgan. O'zida murakkab belgilarni mujassam etib, ushbu belgilar ularning funksiyasini belgilash uchun og'zaki nutq ta'sirida vujudga kelgan.

III. Ko'pgina kalitlar o'zining qiyinligi sababli o'zlarining tasviriy shaklini yo'qota borib, soddalashtirilgan va fonetik / tovush kabi ishlatilgan. Ushbu jarayon hozir ham davom etmoqda.

IV. Xitoy tilida so'zning tarkib topishi asosan dastlabki bir turkumli so'zlarni birikishi yo'li bilan sodir bo'lgan. Bu esa iyerogliflarni bir bo'g'inli so'zlarni anglatuvchi so'z belgilaridan morfema belgilariga aylantiradi. 工 /gong/ (ish), 人/ren/ (odam), 工人 /gong ren/ (ishchi). Shu tarzda iyeroglifik yozuvi asta - sekin mukammallashgan morfemografiyaga aylanadi.

V. Xitoy yozuvining islohotlari jarayonida murakkab iyerogliflar chizmasini osonlashtirilishi, shuningdek, ularning tasviriy xarakterini yo'qotilishiga olib keldi.

Ana shu ma'noda, yuqorida ko'rib chiqilgan manbalar asosida ikkinchi bob yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, iyerogliflarni shartli ravishda turkumlarga ajratish mantiqan to'g'ri bo'lib, til bilan bog'liq jamiyat taraqqiyoti ham aynan ushbu jarayonni keltirib chiqarishi tabiiy edi.

Ikkinchidan, iyerogliflarni turkumlarga bo'lish masalasi yozuv bilan bog'liq ayrim muammolar yechimini topishida ijobiy ahamiyat kasb etishi kerak edi.

Uchinchidan, iyerogliflarni turkumlarga ajratilishi keyinchalik jamiyatda kishilar tomonidan Xitoy yozuvini to'g'ri anglash, narsa va buyumlar haqida mantiqan to'g'ri xulosalar qilish imkoniyatlarini paydo qildi deyishga olib keladi.



### Mavzu bo'yicha savollar:

1. Xitoy yozuvi haqida yaratilgan qanday manbalarni bilasiz, aytib bering?
2. O'zbekistonda xitoy yozuvi haqida qanday manbalar bor?
3. Xitoy yozuvini o'zlashtirishda qanday muammolar mavjud?
4. Yozuv turkumlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

### Amaliy mashg'ulot savollari:

1. O'zlashtiruvchi turkumi 假借字.
2. Shaklan o'zgaruvchan turkumi 转注字.
3. Song davri matnlari
4. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Tan davri she'riyatidan namunalarni tarjima qilish: Li Bai, Wang Wei.

### TEST

1. “忡、念、思、急、愁、志、忡”等汉字中的偏旁都有“心”，表示这些词都和“心”的意思有关系。

答案：正确。

2. “衣”在“依”中和在“袋”中都是表示读音的。

答案：错误。“衣”在“袋”中是会意成分。

3. 现代汉字中，从造字法来看，会意字是最多的。

答案：错误，应该是形声字。

4. “冰凉”、“火红”、“雪白”这些词的内部结构方式都是一样的。

答案：正确。

5.汉语中有些词“儿化”以后，词义会产生变化，往往能表示“少、小、轻”等状态和性质。如“门缝儿”、“米粒儿”、“瓶盖儿”等。

答案：正确。

6.现代汉语中，“老”，“阿”可以充当前缀，不表达具体的词义，如“老师，老虎，老板”和“阿姨，阿哥，阿婆”。

答案：正确。

7.“你必须在九月十号以前赶回来，于是你就不能参加这次活动。”这句话用词完全正确。

答案：错误。“于是”应为“否则”。

8.“中国是亚洲国家中的之一。”这句话没有毛病。

答案：错误。应该说“亚洲国家之一”或“亚洲国家中的一个”。

9.“不管你什么做，都不能让我满意！”这句话的用词都很恰当。

答案：错误。“什么”改成“怎么”或“怎样”。

10.“她因为勤奋刻苦，而且还很虚心好问”。这句话的关联词语用得准确。

答案：错误。“因为”改成“不仅/不但/不止/不光”。

## 16-MAVZU: YON BO'LAKLAR, KALITLAR VA "BU SHU" LAR HAQIDA

**Darsning o'quv maqsadi:** yon bo'laklar, kalitlar, tasviriy rasm turkum, ko'rsatkich turkum, ma'naviy birlashish turkum, rasm talaffuz turkumi, o'zlashtiruvchi turkum, shaklan o'zgaruvchi turkum yozuv turlarini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 象形, 指事, 会意, 形声字, 假借字, 转注字.

### Yon bo'laklar haqida umumiy tushuncha

Yon bo'laklar yozuv sifatida xitoy iyerogliflarining asosiy jihatlaridan bo'lib, iyerogliflar ichki tuzilishi va mohiyatini belgilaydi. Ushbu o'rinda asosiy e'tibor iyeroglifik bo'lakning qaysi iyeroglif turkumiga kirishi aniqlab olinishi muhim hisoblanadi. Yon bo'laklarning vazifasi mazmun jihatdan narsalarning nimaga tegishli ekanligini, boshqa tomondan esa, kishida mantiq yurgizish orqali iyeroglifning nima haqida gapirayotganligini tushuntirib berishdan iborat. Masalaning aynan ana shu jihatlarini xitoy tilini iyeroglif yozuvidan fonetik tovush yozuvlariga o'tishiga o'rin qoldirmaydi.

Yon bo'laklarning belgi sifatida yana bir xususiyati iyerogliflar tarkibida kelishi bilan tasniflanadi. Xitoy tilida yon bo'laklar mavzusi ayrim xitoylik tadqiqotchilar<sup>1</sup> tomonidan o'rganilgan. Chop etilgan lug'atlarda ham yon bo'laklar haqida ma'lumotlar beriladi<sup>2</sup>. Bu ishlarida yon bo'laklar va kalitlarni alohida obyektlarga ajratib tasniflashga alohida ahamiyat qaratiladi.

<sup>1</sup>丁文楼. 田有林. 阿拉江. 汉语写作/ 中央民族大学出版社 1995. 7, 23, 37, 56-57-58, 70-72 бетлар;

竟亮. 论汉代的民族“和亲”并非民族间的政治联姻 // 新华文摘 № 3 2004. 52-54-b

<sup>2</sup> Китайско – русский словарь, 2004; Ошанин И.М. Большой китайско – русский словарь. – М.: “Наука”. 1983. 4.т.; Мудров Г.Б. Китайско – русский словарь. – М.: “Русский язык”, 1983.



Xususan, o'zbek olimlari M.X.Mahmudxodjayev, I.N. Bekmuratov ishlarida sodda va murakkab yon bo'laklarning xususiyatlari, shakllanish bosqichlari, muntazam qo'llaniladigan yon bo'laklar, iyerogliflarning birikish shakllari haqida to'xtalib o'tilganligi kuzatiladi<sup>1</sup>.

Ular ishlarda ham ayrim o'rinlarda aniqliklar kiritish ko'zga chalinadi. Masalan, xitoy adabiyotlarida 偏旁 yon bo'laklar “偏旁” shaklda beriladiki, bu ham masalaga ma'lum ma'noda ehtiyotkorlikni taqozo etadi. Aslida esa xitoy tilida yon bo'laklar “偏旁” deb yuritiladi.

Zero bugunga qadar yon bo'laklarning vujudga kelishi tarixi va evolyutsiyasi; kalitlar taraqqiyotida yon bo'laklarning ahamiyati ilmiy; sodda yon bo'laklar va ularning xususiyatlari; murakkab yon bo'laklar va ularning farqli tomonlari; xitoy tilida bu shular; yon bo'laklarni iyerogliflarning tarkibiy qismi sifatida kelishi; yon bo'laklarni yozuv bilan bog'liq xususiyatlari hanuz yaxshi o'rganilmagan.

### **Iyerogliflar tarkibida kalitli belgilarning o'rni va vazifasi**

Kalitli belgi o'zida biron bir grafik element yoki ma'lum bir mazmunli sodda iyeroglifni mujassam etadi.

Kalitli belgi, murakkab iyerogliflarning tarkibiy qismi bo'lib, yozilayotgan iyeroglif qaysi sohaga qaratilayotgan so'zning ma'noviy ko'rsatkichi o'rnida ishtirok etadi. Masalan, 舟 zhou “qayiq” kalitli belgi sifatida iyerogliflarning tarkibiy qismi bo'lib, kema yoki qayiq ma'nosini bildiradi. Kalitli belgi 虫 chong “hayvon, hasharot” butun bir iyeroglif hayvon yoki hasharot ma'nosida kelishini bildiradi.

Masalan, “Shovenjezi” lug'atida 540 ta kalitli belgi borligi qayl etiladi. 1633-yilga kelib, kalitlar soni 214 ga qisqartiriladi. Uning ushbu jarayoni hozir davom etmoqda. 1962-yilda nashr

<sup>1</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (iyeroglifi) haqida. – T., 1992. 21-22-betlar.

etilgan "sinxua tzidyan" izohli lug'atida 191 kalit borligi qayd etiladi. 1966-yilda qayta nashr etilgan ushbu lug'atda 171 ta kalitlarning yozuvsiz variantlari keltiriladi.

Ko'pgina kalitli belgilar hozirda faqat murakkab iyerogliflarning elementi sifatidagina qo'llaniladi. Masalan:

六 tepa "kaliti";

京 jing - "poytaxt";

交 jiao - "berib yubormoq";

亨 heng "manfaatdor bo'lmoq" kabilarda ishlatiladi.

疒 kaliti:

病 bing - "kasallik";

疼 teng - "og'riq";

疫 yi - "charchoq" iyerogliflarni yasashda qo'llanadi.

Iyerogliflar tarkibidagi kalitli belgi, o'rnatilgan aniq bir qoida asosida qat'iy bir o'rin egallaydi. Masalan:

木 mu - "daraxt",

禾 he - "non" kabi kalitlar. Bu belgilar, odatda, murakkab iyerogliflar bilan kelganda deyarli iyerogliflarning chap tarafida joylashadi. 松 song, 机 ji, 科 ke, 秋 qiu, 收 da esa 收 o'rmoq iyerogliflarning o'ng qismida keladi. 收 shou - "qabul qilmoq".

Hozirda murakkab iyerogliflarning ko'p qismida kalitlar chap tarafda joylashgan.

扌

打 da - "urmoq";

把 ba - "ushlamoq";

抄 chao - "daqiqqa";

亻

作 zuo - "qilmoq";

像 xiang - "surat";

什 shen - "nima" va hokazolar.

Kalitlar o'ngdan, tepadan, ichidan va hattoki murakkab iyerogliflarni qamrab olib ham joylashishi mumkin.

戈我成或.

页领题预.

见视亲观.

到到别.

那部邮.

Murakkab iyerogliflarning tepa qismida joylashgan kalitlar.

宀定室完.

广座底度.

雨雪零需.

户扁房扇.

Murakkab iyerogliflarning pastki qismida joylashgan, kalitlar.

皿盒盍益.

贝贵费买.

Iyerogliflarni qamrab olgan yoki yarim qamrab olgan kalitlar.

囹国回囚.

匠匠匡.

Kalitlar iyerogliflarning ichida ham bo'lishi mumkin.

间街辩.

Demak, bundan kalitlarning ishlatilish o'rinlari va qo'lanilishida o'zga xosliklar borligi aniqlashadi.

Xitoy tilida har bir kalit o'zining ma'lum yozilish tartibi va joylashuv xususiyatlariga ega.



## Iyerogliflarning kalitli belgilar bilan ma'no jihatdan aloqasi

Yangi iyerogliflarning paydo bo'lishi uzluksiz (bevosita) aniq bir tushunchani bildiruvchi, biron–bir so'zning yozuvda ifoda ehtiyoji bilan bog'liq. Shuning asosida yangi iyerogliflar kaliti uning mazmuni ko'rsatgan. Kalit qoidaga muvofiq, so'zni iyerogliflar orqali yetkazib berish bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi.

Texnika hamda fanning rivojlanishi oqibatida madaniyat va san'at, shuningdek, tilning so'zlashuv tarkibidagi qadimda iyerogliflar yozuvida mavjud bo'lgan ba'zi iyerogliflar mazmunini ma'noviy jihatdan yo'qota boshlagan. Shundanmi, ayrim iyerogliflarning ma'noviy tuzilmasini, uning komponentlaridagi roli hamda kalit mazmunini aniqlash qiyin kechgan.

Misol uchun 金竞 jinjing (oyna) iyeroglifga 金 “metal” kalitini hech qanday bog'liqlik tomoni yo'qdek ko'rinadi. Biroq qadimda oynalar bronzadan, metallardan tayyorlangan.

Iyerogliflarni yaratilishida kalitlarning roli bir xil emas. Bir xil iyerogliflarni yozishda o'n va o'ndan ortiq belgilar ishtirok etadi. Shunday iyerogliflar borki, ular o'z tarkibida o'ttizdan ortiq belgilarni qamrab oladi. Misol uchun 水 shui (suv) kaliti keng tarqalgan kalitlardan biri hisoblanadi (qiyin belgilarda chapdan “彳” - “uch tomchi suv” shaklida yoziladi).

## Xitoy tilida yakka va birikkan bo'laklar

汉字在形题结构上分为独体字和合体字两大类。独体字大都是象形字和指事字，合体字大都是会意字和形声字。

Zanzu(xitoy tili) yozuvi shakl tuzilishiga ko'ra yakka va birikkan yozuvdan tashkil topgan bo'lib, ular ikki katta turga bo'linadi. Aniqrog'i, asosiy yozuvlar faqat tasviriy yoki ko'rsatma emas, balki bo'lak yozuvlardan ham iborat bo'ladi.

Birikkan iyerogliflarning ko'pchiligi shakl – ohang va qo'shma ma'no anglatuvchi yozuvga bo'linadi.

独体字: 在形体结构上它不能再分割出另一个字义或音的字素.如:

Yakka yozuv: shakl tuzilishi jihatidan ma'no bildiradigan yoki tovush ifodalaydigan yozuv elementlarga bo'linmaydigan xatlar. Bunga:

<b>№</b>	<b>Iyeroglif</b>	<b>O'qilishi</b>	<b>Tarjimasi</b>
1.	人	ren	odam
2.	口	kou	og'iz
3.	甘	gan	shirin
4.	女	nu	qiz bola
5.	大	da	katta
6.	木	mu	daraxt
7.	下	xia	past
8.	日	ri	kun
9.	刀	dao	pichoq
10.	刃	ren	o'tkir
11.	上	shang	baland

合体字: 由两个或两以上字素合成的字. 如.

Birikkan yozuv: ikki yoki undan ortiq yozuv elementlaridan tashkil topgan belgili yozuvlardan iborat bo'lib, jadval bo'yicha bunga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

<b>№</b>	<b>Iyeroglif</b>	<b>O'qilishi</b>	<b>Tarjimasi</b>
1.	体	ti	organizm
2.	林	lin	o'rmon
3.	森	sen	o'rmon
4.	明	ming	ravshan
5.	江	jiang	daryo
6.	河	he	daryo
7.	词	ci	so'z

8.	话	hua	gap
9.	好	hao	yaxshi
10.	解	jie	qadamoq

组成这些合体字的字素是.

Bu birikkan belgili yozuvlarni tashkil qiladigan yozuv elementlari quyidagilar:

丨 dan renpang (odamni anglatadigan yon bo'lak),

讠 yan zi pang (tilni bildirib keluvchi yon bo'lak),

讠 san dian shui (suv belgisini bildiruvchi yon bo'lak)<sup>1</sup>

№	Iyeroglif	O'qilishi	Tarjimasi
1.	木	mu	daraxt
2.	日	ri	kun
3.	月	yue	oy
4.	工	gong	ish
5.	可	ke	mumkin
6.	司	si	boshqarmoq, nazorat qilmoq
7.	千	qian	ming
8.	口	kou	og'iz
9.	女	nu	qiz bola
10.	子	zi	o'g'il bola
11.	角	jue	burchak
12.	刀	dao	pichoq
13.	刃	ren	o'tkir. tig'
14.	牛	niu	sigir

<sup>1</sup> Izohi sifatida: imkoni bo'lmaganligi bois ayrim yon bo'laklarni transkripsiya va tarjimasini berish bilan cheklandik. Bu belgi suv ma'nosini anglatib chap tomondan kelsa, yuqorida ko'rsatilgan shaklda yoyiladi. Va gaplarda sodda iyeroglif sifatida kelib, "suv" degan ma'noni anglatib kelsa, ikkinchi tomondan iyerogliflar tarkibida kalit sifatida ishtirok etadi.



Qayd etilgan fikrlardan, birikkan yozuv elementlariga yon bo'lak deyilar ekan.

汉字从独体字发展到合体字便产生了偏旁，每个合体字至少由两个偏旁组成。过去人们把合体字的左旁叫“骗”右旁称“旁”，合称“偏旁”；但合体字并不是只有左右合成的一种结构方式，还有上下，内外合成等结构方式。因此，后来便把合体字中任何一部分结构单位，不论上下，左右，内外，统称为“偏旁”如：

Yakka tartibda yoziladigan xanzu yozuvlarining o'zaro taraqqiyot natijasida birikkan yon bo'laklar vujudga keldi, har bir birikkan xat kamida ikki yon bo'laklardan tuzilgan bo'ladi. Qadimda odamlar birikkan xatning o'ng tarafidagi yon bo'lakni "o'n yon bo'lak", chap tarafidagi yon bo'lakni esa "chap yon bo'lak" ikkisini qo'shib ("o'ng va chap") yon bo'lak" deb atashgan. Birikkan yozuvlar o'ng - chap munosabatlardagi tuzilish shakliga ega bo'lib qolmasdan yana "osti - usti", "ichki - sirtqi" munosabatlardagi tuzilish shakllariga ega. Birikkan yozuvlar tarkibidagi har qanday qurilma birikmalari "osti - usti", "o'ng - chap", yoki "ichki - sirtqi" ma'nolarini anglatib kelsin yoki ularning o'zaro munosabatida bo'lsin, undan qat'iy nazar umumlashtirib bir so'z bilan yon bo'lak deb yuritilgan. Masalan, 安 an, 男 nan, 初 chu, 利 li, 间 jian va hokazolar. 会意字的偏旁都是表意的, 上面这些字中的 yozuvlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan barcha yon bo'laklar ma'no anglatadi. Yuqoridagi bunday yozuvlarning hammasi belgi ma'nosiga ega: "tom", 女 "qiz bola", 田 "dala", 力 "kuch", 禾 "bug'doy", 门 men (eshik), 日 ri (kun).

形声字的偏旁，一般是一个表意，一个表音。表意的偏旁叫“形旁”，表音的偏旁叫“声旁”。Shakl ohang anglatuvchi xatlarning yon bo'laklari odatda ma'no bildiradi, biri tovushni ifodalaydi. Ushbu o'rinda, ma'no anglatuvchi bo'lak "shakl bo'lak", tovushni ifodalaydigan bo'lak esa "ohangli bo'lak" deb yuritiladi. 诗 shi "qo'shiq", 领 ling "rahbar", 花 hua

“gul”, 架 jia “tokcha”, 病 bing “kasal”, 问 wen “so‘ramoq”. 其中的 bularning ichidagi 讠, 页, 艹, 木, 疒 口 lar ma’no anglatmaydigan “shakl bo‘laklar” 寺 si (xram), 令 ling (rahbar), 化 hua (o‘zgarimoq), 加 jia “ko‘paytirmoq”, 丙 bing (kasal), 门 min (eshik)lar esa tovush ifodalovchi ohang bo‘lakdir.

Xanzucha yozuvning yon bo‘laklari ichidagi ba’zi yon bo‘laklarning o‘zi ham yakka yozuv o‘rinda kelishi mumkin - 汉字的偏旁中, 有些本身就是一个独体字. Qatorliklar, bular “ xat bo‘la oladigan yon bo‘laklar” deb ataladi. 如. 日 ri “kun”, 力 li “kuch”, 女 nu “qiz bola”, 刀 dao “pichoq”, 口 kou “og‘iz”, 页 ye “bet”, 木 mu “daraxt”. 有些已不能独立成子 ba’zilari o‘z holicha yozuv bo‘la olmaydi. 如. 艹 cao “o‘t”, 疒 bing “kasal”, 讠 yan “til” va boshqalar bo‘lib, ular iyerogliflar tarkibida faqat yon bo‘lak bo‘lib ishtirok etadi, xolos. 有些独体字作偏旁时, 形体上有所变化, 如人变为化, 衣变为初, 刀变为到 ba’zi yakka yozuvlar yon bo‘lak bo‘lib kelganda shaklan o‘zgarishga uchraydi. Masalan, 人变为化, 衣变为初, 刀变为到 ga o‘zgargan.

“汉字简化草案”对某些偏旁也做了简化, 如金简化为钅 食简化为饣 “Xanzucha yozuvlarni soddalashtirish loyihasi” asosida ham ba’zi bir yon bo‘laklar soddalashtirilgan, masalan, 金 yon bo‘lak 钅 shaklga, “食” yon bo‘lak 饣 shaklga o‘zgargan.

Mazkur bo‘limda xitoy tilida bugungi kun taraqqiyot mezonlaridan kelib chiqib soddalashtirilgan va keng ommalashagan yakka va birikkan yon bo‘laklarni ko‘rib chiqdik. Shuningdek, iyerogliflar tarkibida yon bo‘lak sifatida ishtirok etgan yon bo‘laklarni tartib bo‘yicha qo‘llanilishi qoidalari ham ko‘rsatib o‘tildi.

**Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoy yozuvi haqida yaratilgan qanday manbalarni bilasiz, aytib bering?
2. O'zbekiston xitoy yozuvi haqida qanday manbalar bor?
3. Xitoy yozuvini o'zlashtirishda qanday muammolar mavjud?
4. Yozuv turkumlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

**Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. Iyerogliflar tarkibida kalitli belgilar o'rni va vazifasi.
2. Yuan davri matnlari
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Tan davri she'riyatidan namunalarni tarjima qilish: He Zhi Zhang, Wang Bo, Chen Zi Ang, Wang Hao Ran

**TEST**

1. “口”和“今”，可以根据左右结构和上下结构组成两个不同的汉字，它们是“”和“”。  
答案：吟，含
2. 七十二个小时。  
猜一个字：。  
答案：晶
3. 光打雷不下雨。  
猜一个字：。  
答案：田
4. 难分上下。  
猜一个字：。  
答案：卡
5. 镜中“人”。  
猜一个字：。  
答案：入
6. 汉语口语中有这样的说法：“满肚子的墨水”，意思是“很有”。  
答案：学问（知识）



7. 汉语中有这样的句子：“有要紧事请找我们的一把手。”“一把手”的意思是\_\_\_\_\_。

答案：单位、部门或集体的最高领导

8. 在空格中填上一个合适的汉字，从四个方向组成四个成语。

先

声

夺

平易近定胜天

杰

地

灵

答案：人

9. 选择合适的数字填空，完成成语。

( ) 湖 ( ) 海

光通

( ) ( )

色达

答案：五湖四海

光通

十八

色达

10. 看图猜一个成语



答案：无中生有

11. 即使是聪明能干的妇女，没米也做不出饭来。比喻做事缺少必要条件，很难做成。这个成语是\_\_\_\_\_。

答案：巧妇难为无米之炊。

## 17- MAVZU: BUSHU VA ULARNING MA'NOSI

**Darsning o'quv maqsadi:** Bushular va yon bo'laklar. Iyerogliflarning birikish shakllari. Yon bo'laklar, kalitlar, tasviriy rasm turkumi, ko'rsatkich turkumi, ma'naviy birlashish turkumi, rasm talaffuz turkumi, o'zlashtiruvchi turkumi, shaklan o'zgaruvchi turkum yozuv turlarini o'rganish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 象形, 指事, 会意, 形声字, 假借字, 转注字.

部首是汉字形体结构中的重要部分, 在一些字典中为了给汉字分类, 将具有相同表意偏旁的字排列在一起, 现在人们把这些表意的偏旁叫部首.

Bushu xanzucha yozuvlarning shakl qurilmasidagi unli qism, ba'zi lug'atlarda xanzucha yozuvlarni tillarga bo'lish uchun ma'no bildiradigan, yon bo'laklardan tarkib topgan, ma'lum shakl asosida bir tizimga keltirilgan degani. Hozir odamlar bunday ma'no bildiradigan yon bo'laklarni "bu shu" deb ataydilar.

按字形定部, 有的字形部首明显可辨, 叫自然部首, 如“花”属“艹”部; “树”属“木”部; 有的字形很定部, 它的部首是勉强规定的, 叫非字部首, 如主, 属“,”部, “才”属“一”部, “元”属“二”部. Xat shakli bo'yicha bushu yopiq (so'zma-so'z tarjima) ba'zi xatlarni shakl va bushularni farqlanadigan bo'ldi. Unday bushularga "tabiiy bushu"lar deb ta'rif berilgan. Masalan, “花”, “艹”, “树”, “木” kabilar tabiiy bushuga kiritilgan. Yana ba'zi bir bushular borki, ular qo'llanilish tabiatiga ko'ra murakkab bo'lib, ilojsizlikdan ma'lum bushular turiga kiritiladi. Bu kabilar fanda "g'ayri tabiiy bushular" deb, masalan, ularga “主”, “,”, “才”, “一”, “元”, “二” larni kiritish mumkin.

每个部属都有一个名称, 成子部首就以字的读音作为名称, 如小字头, 心子底, 米字旁等; 非字部首便以约定俗成, 通

俗易懂的叫法作为名称,如“疒”叫“病字头”,“性”叫“竖心旁”,“蕉”叫“四点底”等. Har bir bushuning o‘z nomi bo‘ladi. Xat bo‘la oladigan bushularga shu xatning o‘qilish nomi bo‘ladi. Masalan, 小字头 - tepadan yoziladigan, 心子底 - pastdan yoziladigan yurak kaliti, 米字旁 - yondan yoziladigan bug‘doy kaliti va boshqalar.

Xat bo‘la olmaydigan bushular esa, odatda, o‘zining an’anaviy atalib kelgan, fanda ma‘lum bo‘lgan nomlar bo‘yicha ataladi. “疒” bing(kasal)- bushusi 病字头 “bing zi tou tepadan yoziladigan kalit”, 性 xing (yurak) - bushusi 竖心旁 “shu zi pang yondan yoziladigan yurak kaliti”, 蕉 “olov”四点底 “si di pang- pastdan yoziladigan olov kaliti” deb o‘zining aniq o‘qilish tartibiga ega.

Yozuv sifatida bushularning oz qismi “bixualar”, ko‘p qismi esa shakl va ohangni anglatib keladi. Masalaning aynan ushbu tomonlari ko‘pchilik hollarda yon bo‘lak bilan “bushu”larni ajratib olishda chalkashliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Bushular iyerogliflarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayrim iyerogliflar o‘qilishda bushularning ma‘nosi bilan o‘qiladi. Shu bois, xitoy tilini o‘rganishda dastlab yon bo‘lak va bushularni puxta bilish taqozo etiladi.

Yon bo‘lak va bushularning puxta va chuqur o‘zlashtirilishi kishining iyeroglif bilish savodxonligini belgilaydigan yagona mezon ham hisoblanadi, shuningdek, xitoy tilida yon bo‘lak va bushularning mavjudligi, xitoy tilining dunyo tillari ichida o‘ziga xosligini belgilab beruvchi tarixiy omillardan deyish mumkin.

### **Bushular va yon bo‘lkalar**

部首主要是对偏旁进行整理之后确定的,多数部首从字形来看也就是偏旁,但偏旁不全是部首. Bushular asosligi yon bo‘laktari qatoriga solib berkitilgan ko‘p sondagi xat shakl



tomondan qaraganda yon bo'lak kabi tuyiladi, ammo yon bo'laklarning hammasi ham "bu shu" bo'lishi mumkin emas.

部首表义类 bushu ma'no turlariga bo'ladi, 偏旁一部分是表意的形旁 yon bo'laklarning bir qismi ma'no bildiruvchi shakl bo'lak, 大部分是表音的声旁 - ko'p qismi bo'lsa, tovush ifodalovchi ohangli bo'lak. Masalan, 怕, 性, 忙, 等字的性, 和白, 生, 亡都是偏旁, 中性才是这些字所属意类的不首. 所以偏旁可以, 包括部首不能包括偏旁; 偏旁的范围比部首大, 数目比部首. "现代汉语词典" 中, 改并后的部首只有 188 个, 而哈汉字的偏旁却有 1500 多个. 怕, 性, 忙, iyerogliflar tarkibida ishtirok etayotganlarning barchasi yon bo'laklardir. Bularning shakl ifodalaydigan bo'lak 性 xing-xarakter, tovush ifodalaydigan ohangli bo'lak 白 bai-oq, 生 sheng - paydo bo'lmoq, 亡 wang - qulamoq, yo'q bo'lmoq" yozuvlarga mansub ma'no turkumidagi bushular.

"Hozirgi zamon xitoy tili lug'atida" o'zgartirishlardan so'ng 118 ta bushu kiritildi. Yon bo'laklar esa 1500dan ortiq. Shuningdek, yon bo'laklarning bushulardan farqi, yon bo'laklar bushular(kalit)ni o'z ichiga oladi. Aksincha, bushular yon bo'laklarni o'z ichiga olmaydi. Zero "yon bo'lak qo'llanilish doirasi"ga ko'ra ham bushuga qaraganda keng bo'ladi. Qayd etlishicha, "Yon bo'laklar - Xitoy iyerogliflarning eng ko'p qismini o'z ichiga olgan tasviriy - talaffuz turkumida ularning ma'noviy yoki tovush qismini anglatib keladi". Shuningdek, xitoy tili iyeroglif lug'atlarida esa bo'laklarning vazifasi ba'zi bir imlo chiziqlar bilan birga iyerogliflarni lug'atdan qidirish usuli bo'lgan kalit "部首 larning xizmatini bajarib keladi".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi haqida (iyerogliflari) haqida. - T., 1990. 20-b.

部首大都有一定的函义,了解部首的函义,对我们教学汉字是十分重要的 - bushularning ko'pchilik qismi o'zining belgi ma'nosiga ega. Bushularning ma'nosini tushunish xitoy tili yozuvini tashkil etadi. Ana shu ma'noda aniqroq aytilsa, "Xitoy iyerogliflarning bo'laklari xitoycha "Bian pang" 偏旁<sup>1</sup> deb atalib, ular imlo chiziqlar va oddiy iyerogliflardan tashkil topgan<sup>2</sup>". Biz uchun xitoy tili yozuvi uchun yon bo'lak va bushularni o'rganish juda muhim. "Bo'laklar o'z navbatida, murakkab iyerogliflarning asosini tashkil etadi"<sup>3</sup>.

Mazkur bo'limda yon bo'laklar va bushularning farqli tomonlari va ma'no xususiyatlarini o'rganishga harakat qilindi. Misol tariqasida ma'no anglatuvchi bushulardan ayrim namunalar keltirildi, ilmiy asoslashga harakat qilindi.

Manbalarni o'rganar ekanmiz, ayrim ishlarda bo'laklarning soni har xil berilganligi kuzatiladi. Masalan, Shanxay shahrida 1989-yilda nashr etilgan "Xitoy - ruscha lug'ati"da kalitlar soni 239 ta ekanligi qayd etiladi". Demak, bundan bushular haqida ma'lum bir to'xtamga kelinmagan degan xulosaga kelish mumkin. Quyida iste'molda keng ishlatiladigan jadval ro'yxati berilmoqda.

<sup>1</sup> Ushbu o'rinda Mahmudxodjayev M.X., Bekmurotov I.N. ishlari "偏旁" so'zi "偏旁" deb berilgan. Ammo mazkur holat o'zbek tilida izohni talab qiladi. Sababi 丁文楼, 田有林, 阿拉江 lar tomonidan hammualiflikda yozilgan (汉语写作/ 中央民族大学出版社, 1995) kitobida "偏旁", "偏旁" deb berilgan. Biz ushbu atamani ishlatishda xitoy olimlariga asoslanib ikkinchi variantni tanladik.

<sup>2</sup> Mahmudxodjayev M.X., Bekmurotov I.N. Xitoy yozuvi haqida (iyerogliflari) haqida. - T., 1990. 15-b.

<sup>3</sup> Qarang: ko'rsatilgan manba, o'sha sahifa.

## Xitoy tili tarixi

Bo'lak turlari	Bo'lak shakli	Nomlanishi	Misol	Bo'lak shakli	Nomlanishi	Misol
Chap yon bo'lak	讠	言字旁	讲	木	木字旁	林
	冫	两点水	冷	亻	单立人	你
	女	女字旁	好	足	足字旁	跑
	氵	三点水	液	王	王字旁	现
	纟	绞丝旁	红	月	月字旁	朋
	彳	双立人	得	扌	提手旁	打
O'ng yon bo'lak		右单耳	却		右双耳	都
	寸	寸字旁	对			
Yuqorigi bosh bo'lak	宀	宝盖头	宿	八	八字头	公
	广	广字头	床	人	人字头	会
	疒	病字头	痛	大	大字头	夺
	艹	草字头	花	小	小字头	炎
	雨	雨字旁	雪	竹	竹字头	笔
	山	山字头	岁			
Pastki bo'lak	儿	儿字底	完	皿	皿字头	盆
	心	心字底	想		火字头	热
Atrofli bo'lak	冂	同字框	同	匚	区字框	区
	门	门字框	问	口	方框	国

Jadval M.X. Maxmudxodjajev va I.N. Bekmuratov hammuallifligida yozilgan "Xitoy yozuvi (iyerogliflari)" risolasiidan olindi.

### Iyerogliflarning birikish shakllari

Imlo chiziq-lari ko'p bo'lgan iyerogliflar imlo chiziq-larning uzun - qisqaligi, oz yoki ko'pligi, bo'lak-larning katta - kichikligi va baland - pastligi jihatidan bir - biridan farq qiladi. Shu bilan birga, iyerogliflarning to'rtburchak ko'rinishda ekanligi ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Xitoy iyerogliflari ma'lum tartibga amal qilgan holda yoziladi. Shunday ekan iyerogliflar birikish jarayonida ma'lum



bir shaklni hosil qiladi. Bu haqda tubanda keltirilgan oddiy va murakkab iyerogliflarning birikish shakllariga qarang.

### I. Oddiy iyerogliflarning birikish shakllari

Oddiy iyerogliflarni yozishda asosan quyidagilarga ahamiyat qaratish kerak bo'ladi.

A) iyerogliflarning imlo chiziqlari o'z joyida va aniq yozilishi;

B) yozish jarayonida har bir iyeroglif to'rtburchak katak tusini olishi kerak. Masalan:

大 da- katta

车 che - mashina

而 er- va

为 wei-uchun

### II. Murakkab iyerogliflarning birikish shakllari

Murakkab iyerogliflarni yozish paytida faqatgina oddiy iyerogliflarning yozilish talablariga rioya qilib qolmasdan, balki murakkab iyerogliflarning har bir bo'laklarining nisbatlariga, oldinma-ketin yozilish tartibiga ham amal qilinishi kerak.

Murakkab iyerogliflar asosan quyidagi birikish shakliga ega, a) yuqori va pastki bo'laklarning birikishi:

Masalan, 要 va 思 ikkita teng bo'lgan yuqori va pastki bo'laklardan tashkil topgan. 些 va 兵 yuqorigi qismi keng, pastki qismi tor bo'lgan ikkita bo'lakdan iborat:

完 va 员 aksincha yuqorigi qismi tor, pastki qismi keng bo'lgan ikkita bo'lakdan:

众 va 品 yuqori bir butun va pastki ikkiga bo'lingan uchta bo'lakdan:

努 va 想 yuqori tomoni ikkiga bo'lingan va pastki yaxlit bo'lgan uch bo'lakdan:

意 va 息 ustma- ust tushgan bir xil bo'lgan hajmdagi uchta bo'lakdan iborat.

B) Chap va o'ng bo'laklarning birikishi:

朋林 – yonma-yon kelgan ikkita teng bir xil bo'laklardan iborat bo'lgan.

到影 chap tomoni keng va o'ng tomoni tor bo'lgan ikkita bo'lakdan;

你他 chap tomoni tor va o'ng tomoni keng bo'lgan ikkita bo'lakdan;

做锻 yonma - yon kelgan bir xil hajmdagi teng uchta bo'lakdan iborat.

V) Ichki va tashqi bo'laklarning birikish shakli.

床病 birinchisi ikkinchisini o'z ichiga olgan ikkita bo'lakdan.

同闲 ikkinchisi birinchisining o'rta qismining pastida keladigan ikkita bo'lakdan.

这边 birinchisi ikkinchisining yuqorigi qismining o'ng tomonida keladigan ikkita bo'lakdan.

区 ikkinchisi birinchisining o'ng tomonining o'rta qismida keladigan ikkita bo'lakdan.

句可 ikkinchisi birinchisining chap tomonining pastki qismida keladigan ikki bo'lakdan.

山 birinchisi ikkinchisining yuqorigi tomonining o'rta qismida keladigan ikkita bo'laklardan iborat.

Xitoy tilida yozuvining o'ziga xos ko'rinishlaridan sodda iyerogliflarni birlashtirish orqali murakkab iyerogliflarni hosil qilishda namoyon bo'ladi. Boshqa bir tomondan esa, sodda iyerogliflar o'z navbatida, iyerogliflar tarkibida kalit bo'lib keladi. Masalan, 吉 ji (baxt) iyeroglifida 士 shi (soldat) va ostida kelayotgan belgi 口 kou (og'iz) ma'nosini bildirib keladi. O'z navbatida, 吉 iyeroglifi ma'no jihatdan 善 shan (ochiq ko'ngil,

saxiy)<sup>1</sup> ga yaqin turadi. Va ma'noviy birlashish turkimiga kiradi. Aslida juaguwendagi 吉 iyeroglifi erkak a'zosi va urug'dondan tuzilgan bo'lib, erkak kishi jinsiy a'zosini anglatadi.

休 xiu(dam olmoq) iyeroglifi.<sup>2</sup>

Mazkur iyeroglifni ikkiga bo'ladigan bo'lsak, chap tomonda joylashgan birinchi iyeroglif "dam olayotgan odam", o'ng tomondan joylashgan iyeroglif esa kalit vazifasini bajarib kelmoqda. Va o'zaro birlashib 休 ni hosil qiladi.

风 feng (shamol) iyeroglifi.

Bu iyeroglif gaplarda ham sodda iyeroglif sifatida ma'no anglatadi va o'z o'rnida, iyerogliflar tarkibida kalit vazifasida keladi.

Kalit va yon bo'laklarning yana bir xususiyati o'z mazmuniga ko'ra kishida iyerogliflarni o'rganish davomida mantiqiy fikrlash tafakkurini rivojlantiradi. Shuning uchun xitoyliklarning ko'pchiligida biron-bir narsa haqida fikr yuritishda "tasavvur – ko'z oldiga keltira olish" tafakkur qobiliyati chuqur rivojlangan.

Xitoy tilida kalitlar va yon bo'laklar guruhlashtirilar ekan, har bir belgida narsalar mohiyati va mazmuni o'z ifodasini topadi. Aytaylik, tarkibida 风 kaliti bilan kelgan iyerogliflar shamol yoki shamol bilan bog'liq narsalarni anglatib keladi. Bunday iyerogliflar guruhlarga qarab 30 / 40 ta iyerogliflarni tashkil qilishi mumkin.

Biz yuqorida ayrim iyerogliflarning tadrijiy rivojlanishi oqibatida o'zining nafaqat shaklan, balki ma'no o'zgarishga uchraganligini kuzatgan edik. Bu borada quyidagilar ham bunga misol bo'lishi mumkin.

今 jin- hozir, hozirgi vaqtda

同 tong – birga

<sup>1</sup>Китайско – русский словарь. – Пекин, 2004. – С. 778.

<sup>2</sup>Мудров Б.Г. Китайско – русский словарь.– М., 1987. – С.311.



公	gong - jamoat
高	gao- baland
京	jing - shahar
不	bu – emas, yo‘q
否	fou – inkor etmoq
予	yu – qadimiy ma’nosida “men” ma’nosini bergan.
幻	huan - diaproektor
才	cai – faqat.
祖	zu – ajdod, avlod, asoschi, kabilar jua guvenlarda jinsiy

urchish madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan iyerogliflarni anglatgan.

Ammo hozirda bu aksariyat iyerogliflar til bilan bog‘liq ma’nolarni anglatib keladi. 不 iyeroglifi bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin. Masalan, qadimda ustki qismi 不 pastki qismi □ bilan kelgan iyeroglif qadimda “burundan qon oqmoq” degan ma’noni ifodalab kelgan.

羊 yang (qo‘y) iyeroglifi<sup>1</sup>.

Bu iyeroglif ham o‘z o‘rnida iyerogliflar tarkibida kalit va iyeroglif bo‘lib kela oladi, ya’ni sodda iyeroglif sifatida.

羊 iyeroglifi **tasviriy rasm turkumiga** mansub. Mantiqan izohlashga harakat qilinsa, ikkisida qo‘yning kallasi ifodalangan. Qayrilma shox va ikki quloq. Shu ma’noda kishi mantiq yuritsa, iyeroglifni tanimasa-da, ammo taxmin qilishi mumkin. Mazkur tasviriy shakl bizning tushunchamizdagi “qo‘y” haqida taxminan bo‘lsa-da, aniq tasavvur bera olgan.

羊 kalit sifatida iyerogliflar tarkibida ishtirok etar ekan, iyerogliflarda tartib bo‘yicha quydagicha joylashadi.

祥	yang -baxtli belgi
养	yang – tarbiya, tarbiyalamoq

<sup>1</sup> Ko‘rsatilgan manba, 1054-b.

氧, yang – kislород

痒 yang – qichimoq, qichima

漾 yang – koʻzni qamashtirmoq

鲜 xian - yangi

羨 xian - ichiqoralik

翔 xiang- uchmoq, parvoz va h.k.z.lar.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan iyerogliflarning arxasi 羊 kaliti asosida yaratilgan. Shuningdek 羊 ni kalit fatida maʼno, ham tovush anglatib kelishini qayd etish lozim.

善 shan (yaxshilik, mehribonlik) iyeroglifi<sup>1</sup>

Bu iyeroglif oʻz mohiyatiga koʻra 羊 yang va pastdan oʻrta qismida ikkita koʻz hoida pastki tomondan “qoʻy” ogʻiz kaliti oʻz ifodasini topgan. Bu iyeroglif ham oʻzining maʼnosiga koʻra falsafiy maʼno kasb etib, qoʻyning pastki qismidagi ikkita “八” shakldagi kalit ikkita koʻzni anglatadi. Bu esa oʻz navbatida, qoʻyning koʻzlarida aks etgan mehribonlik haqidagi ifodani beradi. Ammo iyeroglifning oʻzgarib borishi oqibatida pastdagi ikkita qoʻy koʻzi “言言” aylangan. Kay shu<sup>2</sup>da oʻzgarishlar rayonida pastki qismida faqatgina bir “言”(nutq) boʻlgan 善 ga aylangan, 善 ning iyeroglifik tuzilishida bitta “言” yoki ikkita “言言” boʻlsa-da, ikkalasi ham qoʻyning ovozi ifodalashga xizmat qilgan. Demak, xulosa oʻrnida taʼkidlaydigan boʻlsak, 羊 asosida 善 iyeroglifi kelib chiqqan.

牛 niu (sigir) iyeroglifi

Bu iyeroglif qadimiy kelib chiqish maʼnosiga koʻra sigir maʼnosini bergan. Ushbu iyeroglifning yuqori tomoni shox, pastki tomoni esa quloqlarni anglatadi. Agar 羊 va 牛

Китайско – русский словарь. – Пекин, 2004. –С. 778.

楷书 kay shu namunali yozuv Xan sulolasi davri (er.avv. 206 - er. 220-yillar)

shaxtlarida vujudga kelgan husnixat shakli. Xitoy iyerogliflarining soʻnggi rivojlanish bosqichiga kiradi.

iyerogliflarni bir-biriga qiyosan taqqoslaydigan bo'lsak, bu o'rinda, ular o'rtasidagi o'zaro farqni shohlaridan ajratib olish mumkin.

人 ren (odam) iyeroglifi

人 tasviriy rasm turkumiga oid bo'lib, bunda odam tasviri gavda biroz egilgan shaklda berilgan. “人” yozilishiga ko'ra, sodda iyeroglif. Ikki imlo chiziqdan “丿” va“ ㇇” dan iborat. Bu iyerogliflar tarkibida ham kalit, ham iyeroglif bo'lib keladi. Mazkur iyeroglif yozilishiga ko'ra sodda ko'rinsa-da, ammo amaliyotda ishlatilishiga ko'ra salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, 从 cong, 众 zhong, 代 dai, 休 xiu, 状 zhuang, 保 bao kabilar yuqoridagi fikrlarning to'g'riligini tasdiqlashi mumkin.

Iyerogliflar asosan, lug'atlarda imlo chiziqlar, yon bo'laklar va kalitlar bo'yicha joylashtiriladi.

Imlo chiziq, yon bo'lak va kalitlar vazifasiga ko'ra ma'lum funksiyalarni bajarib kelsa-da, ammo ularning iyerogliflar tarkibida o'zaro aloqadorlikda bo'lib kelishligini unutmaslik kerak. Aytaylik, iyerogliflarning sodda yoki murakkab tuzilishidan qat'iy nazar, sakkizta asosiy imlo chiziqlar yordamida tuziladi. O'z navbatida esa, tub imlo chiziqlar asosiy imlo chiziqlarning birikuvidan yasaladi.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoy tilida turkum so'zlar qanday hosil qilinadi?
2. Gao Minning qaysi maqolasi qadimgi xitoy yozuvini o'rganishga bag'ishlanadi?
3. Tasviriy va ko'rsatkichli iyeroglifik turkum yozuvlar nimalarning tarkib topishida baza bo'lib xizmat qilgan, asoslang?
4. Xitoy yozuvini o'zlashtirishda qanday muammolar mavjud?
5. Yozuv turkumlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?



### Amaliy mashg'ulot vazifalari:

1. Iyerogliflar tarkibida kalitii belgilar o'rni va vazifasi.
2. Yuan davri matnlari.
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Tan davri she'riyatidan namunalarini tarjima qilish: He Zhi Zhang, Wang Bo, Chen Zi Ang, Wang Hao Ran.

### TEST

1. 看图猜成语. 这是.

得得 举

答案: 一举两得

2. 看图猜成语. 这是.

五 十

答案: 一五一十

3. 看图猜成语. 这是.

口√ 心×

答案: 口是心非.

4. 中国有十二生肖纪年的习俗, 十二种动物代表不同的年份, 所以每个人出生在某一年, 就属某个生肖. 二零一一年是兔年, 请说出两个含有“兔”字的汉语成语.



答案 (供参考): 守株待兔, 狡兔三窟

5. 汉语中的谚语是人们口头流传长期习惯使用的固定语句, 是用简单通俗的话来反映深刻的道理. 如“一寸光阴一寸金, 寸金难寸光

阴”。这句谚语说明了时间是比金钱更为宝贵的东西，每个人都应该珍惜时间。

答案：买。

6. 谚语中有些是中国人对生活的感悟，对经验的总结。如“良药苦口利于病，忠言逆利于行”。这句话是说：好药大多是带苦味的，但却有利于治病；而教人从善的语言多数是不太动听的，但有利于人们改正缺点。这句话旨在教育人们要勇于接受批评。

答案：耳

7. 下面斜向四字“一言一行”是一个成语，请在空格中填上合适的汉字，使每一横排的四个字都能组成一个汉语成语：

一

言

一

行

答案(供参考)：一呼百应

言自语

不可一世

量力而行

8. 看图猜成语。这是。



答案：心中有数

9. “在恶劣的气候条件，我们必须更加小心地驾驶汽车”。

答案：下

10. “一高速列车从站内开出来，飞快地向南方驶去”。

答案：列

## 18- MAVZU: O'ZBEKISTON VA XITOIY MUNOSABATLARI TARIXIDAN

**Darsning o'quv maqsadi:** O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining shakllanishi, yonalishlari, asoschilari, namoyandalari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

**Tayanch so'z va iboralar:** O'zbekiston va Xitoy munosabatlari, O'zbekistonda xitoyshunoslik.

O'zbekistonda xitoyshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega, chunki yurtimiz qadimdan Buyuk Ipak yo'li vositasida Sharqni G'arb bilan bog'lovchi muhim iqtisodiy, transport, kommunikatsiya, logistika markazi bo'lib kelgan, savdo, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda Xitoy va boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaatdor aloqalarga asos solgan, mintaqalararo va qit'alararo savdo-sotiq va gumanitar munosabatlar taraqqiyotini ta'minlagan.

O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining ko'p qirralari tarixshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, arxeologiya, islomshunoslik va boshqa sohalarda tadqiqot olib boruvchi o'zbek, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlar olimlari va mutaxassislari tomonidan sistemali ravishda o'rganib kelinmoqda.

O'zbekiston va Xitoy aloqalarining chuqur tarixini kompleks tadqiq qilish uchun yanada ko'proq mehnat qilish, xorijiy manbalarni qidirib topish va ularni tahlil etish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu ilmiy izlanishlarning salohiyati xalqaro talablarga mos kelishi, erishilgan natijalarni rivojlangan mamlakatlar ilmiy jamoalarining e'tiboriga taqdim qilish uchun ko'p ishlar qilinishi lozim. Lekin, mazkur xalqaro munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega ekanligiga shubha yo'q. Bu tezisni izohlash uchun quyidagi jihatlarga murojaat qilishimiz mumkin.

Birinchidan, Markaziy Osiyoning tub aholi vakillari qadim zamonlardan oq sharqiy mamlakatlarga, shu jumladan, Xitoyga



safar qilib, u yerda savdo, ilm, fan, xususan, astronomiya, tibbiyot, geografiya, huquq va davlat boshqaruvi sohalarida muhim o'rin egallaganliklari haqida yozma ma'lumotlar mavjud. Albatta, bu yozma manbalarning ko'p qismi Xitoyda. Masalan, 1984-2000-yillar mobaynida Xitoyda oz sonli xalqlarning tarixi, til va adabiyoti, urf-odatları, folklori, tibbiyoti va diniga oid 120 mingdan ziyod qo'lyozmalar topilgan. Ulardan 110000 tasi tartibga keltirilgan va 5000 tasi nashr etilgan.<sup>1</sup> Bu tarixiy dalillar Markaziy Osiyo tub xalqlari vakillari kurrayi zaminning bir qator xorijiy yurtlari qatori, Xitoy bilan ham chambarchas aloqada bo'lganligidan xabar beradi.

Ikkinchidan, miloddan avvalgi I - II asrlardayoq yurtimizdan Xitoy va boshqa mamlakatlarga savdogarlar, ilm - fan namoyandalari muttasil ravishda borib turganlar. Bu esa yurtdoshlarimizning qadim zamonlardanoq xitoy tili bilan tanish bo'lganliklaridan dalolat beradi. Bunday aloqalar Buyuk Ipak yo'lining ochilguniga qadar, ba'zi bir mutaxassislarining fikriga ko'ra, miloddan 2 ming yil avval ham mavjud bo'lgan.

Uchinchidan, yurtimiz hududida topilgan bir necha ming yillik tarixga ega odam suyagi (Amir Temir muzeyida saqlanmoqda), Taqlamakon cho'lida topilgan, taxminan 5 ming yil tarixga ega odam jasi, O'zbekiston viloyatlari qoya toshlariga chizilgan rangli naqshlar, ov, o'yin, jismoniy mehnat va sayohat jarayonlari tasvirlangan rasmlar va boshqa arxeologik topilmalar O'zbekiston va Xitoy hududlarida inson taraqqiyoti darajasi bir-biriga yaqin kechganligini va bir geografik hudud aholisi boshqa bir hudud aholisi bilan aloqada bo'lganligi, migratsiya jarayonlari natijasida boshqa yurtlarga borib yashaganliklari haqida tasavvur beradi.

To'rtinchidan, I-III asrlarda Buyuk Ipak yo'li mazkur xalqaro munosabatlarning taraqqiy etishiga, shu jumladan,

<sup>1</sup>Ван Цань. Национальности Китая. – Пекин: Межконтинентальное издательство Китая, 2004. – С.86.

jahonning to'rt buyuk, ya'ni Yevropada - Rim, O'rta va Yaqin Sharqda - Parfiya, Markaziy Osiyo va Afg'onistonda - Kushon va Uzoq Sharqda - Xan imperiyalarini uzviy ravishda bog'lab, xalqaro savdo va boshqa aloqalarning rivojlanishida asosiy omil bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'lining ochilish tarixini mutaxassislar miloddan oldingi 164-114-yillarda Farg'ona, Qanli, Uysun va boshqa davlatlarga G'arbiy Xan sulolasi xoqonining elchisi Chjan Tsyanning ikki safari bilan bog'laydilar.<sup>1</sup>

630-yilda xitoylik Syuan Tzan Markaziy Osiyo bo'ylab safari haqida yozgan ma'lumotlarida bu mintaqaning bir qator rivojlangan shaharlarini ko'rsatib o'tgan<sup>2</sup>. Tan sulolasi (618-907) davrida ham Markaziy va Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasida keng savdo va madaniy aloqalar mavjud bo'lgan.<sup>3</sup> Shuni ta'kidlash joizki, XI asr oxiri - XII asr boshlarida markaziy osiyolik savdogarlar Chingizxon davlati bilan muntazam savdo aloqalar olib borganliklari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, 1215-yilda Chingizxon Pekinda Xorazmdan kelgan Bexa ad-din Razi rahbarligidagi elchilarini qabul qilgan.

1218-yilda Movarounnahrda Chingizxonning elchilari tashrif buyurgan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bu elchilarning biri xorazmlik, ikkinchisi buxorolik va uchinchisi o'trorlik bo'lgan.<sup>4</sup> B.Bartoldning fikricha, bu elchilardan biri xorazmlik Mahmud bo'lib, u va keyinchalik Pekin hokimi (gubernatori) etib tayinlangan.<sup>5</sup> Mahmud Yalavach 1254-yili

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. – М.: Вост. Лит., 2002. – 439 с.

<sup>2</sup> О согдийских колониях в Семиречье. Бернштам, Согдийская колонизация, Распопов. Гончарные изделия согдийцев.

<sup>3</sup> Barthold. Issik-Kul, S.593; Бартольд В.В. Сочинения. –М., 2002. Т.3. – с.437.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. – М.: Вост. Лит., 2002. – 623с.; O'tror (Otrar) hozirgi Turkiston shahridan 75 km janubi – g'arbd ajoylashgan shahar.

<sup>5</sup> Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. – М.: Вост. Лит., 2002. - 119 с. ва 129 с.; "Movarounnahr" atamasi ilk bor

Pekin hukmdori lavozimini egallab turgan paytda vafot etgan. Mahmud Yalavach haqida islom tarixshunoslari Juvayni, Bassaf, Rashid ad-din tomonidan va mo'g'ulcha "Sokrovennoe skazanie"da (Kafarov tarj.) muhim ma'lumotlar keltirilgan. Mahmud Yalavachning Chig'atoy bilan bo'lgan ziddiyatlari haqida Rashid ad-din "Chig'atoyning vazirlari" nomli bobda ma'lumotlar bergan. Mahmud Yalavachning o'g'li Mas'udbek Markaziy Osiyoning taraqqiy etgan Zarafshon vohasini boshqargan. Mas'udbek Buxoroda uning topshirig'i bilan qurilgan Mas'udiye madrasasining ichiga dafn etilgan. Uning o'g'li, ya'ni Mahmud Yalavachning nevarasi esa XIV asrda Qashqarda humronlik qilgan va bu yerda xuddi shunday Mas'udiye madrasasini qurdirgan.<sup>1</sup>

Beshinchidan, Markaziy Osiyodan Xitoyga borib, u yerda doimiy yashab qolgan vatandoshlarimiz haqida ham bir qator yozma ma'lumotlar topilgan. Masalan, Lyu Yingsheng 1263-yil Pekinda 3000 yaqin turkistonlik oilalar doimiy istiqomat qilganligini ko'rsatib o'tgan.<sup>2</sup> Bu oilalarni Pekinda joylashib, tomir otib, mahalliy iqlim, urf va sharoitlarga ko'nikib doimiy yashab qolishi uchun ma'lum tarixiy davr kerak bo'lgan. Turkistonlik diaspora, ya'ni taxminan 16 ming nafar aholi ichki ishlarini idora etish maqsadida maxsus qozi tayinlangan. Lyu Yingsheng yuqorida ko'rsatib o'tilgan Mahmud Yalavachni Pekinda yuqori mavqega ega amaldor bo'lganligini ko'rsatib o'tgan. Turkistonlik aholidan tashkil bo'lgan diasporalar Xitoyning boshqa viloyatlarida ham doimiy yashagan. Masalan, Yuan sulolasi davrida (1280-1367) Markaziy Osiyodan Xitoyning Tsinxay o'lkasiga turkiy millatga mansub salorlar kelgan. Hozirgi zamongacha ular shu yerda istiqomat qiladilar va o'zlarining milliy-urf odatlari, ro'zg'or yuritish, umumiy

---

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) haqidagi hadislarda tilga olingan (O'zbekistonmilliyensiklopediyasi. – T.: "O'ME", 2003. T.6. 35-b.).

<sup>1</sup>Ko'rsatilgan manba. - 119 va 147-betlar.

<sup>2</sup>Lyu yingsheng. Silu venxua tasoyuan jyuan. –Chhejyang, 1996.- 276 b.



turmush tarzi va qisman til boyligini saqlab qolganlar. 1997-yil ma'lumotlariga qaraganda, Xitoyda 105 ming salor millatiga mansub kishilar yashaydi.<sup>1</sup> Umumun olganda, 2000-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish haqidagi ma'lumotlarda keltirilishiga qaraganda, Xitoyda 1 mlrd. 265,83 mln. aholi yashaydi (Gonkong, Tayvan va Makao aholisi bundan istisno). Xitoy aholisini 91,59%, ya'ni 1 mlrd. 159,4 mln kishini xanlar tashkil qiladi. Qolgan 8,41%, ya'ni 106,43 mln. kishini 55 kam sonli millatlar tashkil etadilar.

Kam sonli millatlarga tegishli aholining umumiy sonining ko'pligi jihatidan olganda quyidagilar kiradi: chjuan, manchjur, xuey, myaochan, uyg'ur, tutzyan, iyan, mongol, tibet, buityan, dunts, yaotyuan, koreys, bats, xaniy, qozoq, liyan, day, sheyan, lisuan, gelaotyuan, dunsyan, laxut, shuy, vay, nasiy, tsyan, tuy, mulaotyuan, sibotyuan, qirg'iz, daur, tzinpotyuan, maonan, salar, bulan, tojik, achan, pumiy, evenk, nusuan, tzin, tzinotyuan, dean, baoan, rus, uyg'ur, o'zbek, menbay, orochon, dulun, tatar, xecheyar, gaoshan va lobaylar.<sup>2</sup> Bu ro'yxatga binon eng ko'p millat chjuanlar bo'lib, eng kam millat esa lobaylardir.

Xitoyda 17 mlndan ziyod musulmon xalqlar yashaydi, shu jumladan, xuey (dungan, tungon), uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tojik, tatar, salor, o'zbek, dunsyan, baonlar va boshqalar.<sup>3</sup> Ushbu xalqlarning son jihatidan eng ko'pini xueylar tashkil etadi. 2000-yil Xitoyda o'tkazilgan aholi yozuvi haqidagi ma'lumotlarga binoan, ular 9,8 mln. kishini tashkil etgan. "Ilk xueylar, deb yozadi Van Tzan, VII asrda Xitoy bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borgan arab va fors savdogarlarining avlodlaridir. Xueylarning asosiy qismini esa XIII asrda Markaziy Osiyodan ko'chib kelgan musulmon xalqlar tashkil etadi. Ularning Xitoyda

<sup>1</sup> Ван Цань. Национальности Китая. – Пекин: "Межконтинентальное издательство Китая", 2004. - 158 с.

<sup>2</sup> O'sha manba, 9-10-b.

<sup>3</sup> Китай. "Синьсин". – Пекин. 1997. – С.47.

xanlar, uyg'urlar va mongollar bilan qo'shilishi natijasida yangi millat xueylar tashkil topgan".<sup>1</sup>

Yurtimizni Xitoy bilan diplomatik, savdo, madaniyat va boshqa sohalardagi aloqalari, ayniqsa, Amir Temur saltanati davrida barq urib rivojlangan. Sohibqiron farmoyishiga binoan Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalarini taraqqiy ettirish maqsadida, 1387-1396-yillarda Xitoyga 8 elchilik karvonlari yuborilgan, shu jumladan:

1387 va 1389-yillar Mavlono Hofiziy rahbarligida;

1388-y. Taj ad-Din boshliq karvon;

1391-y. Shox ali Irahbarligida;

1392-y. Nig'mat ad-Din rahbarligida;

1393-1395-yilla ikki marta Darvish yo'lboshchiligida;

1396-y. Alomat at-Din rahbarligida Xitoy poytaxtiga tashrif buyurganlar.

Min sulolasi (1368-1644) tarixi solnomasida Xitoy imperatori huzuriga Samarqanddan tashrif buyurgan elchilik va savdo missiyalari naslli otlar, tuyalar, sherlar, qoplonlar, ipak, teri, gazlama, kumush, oltin va boshqa qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar, shu jumladan, idishlar, pichoqlar va boshqa turdagi mahalliy buyumlar bilan kelganliklari qayd qilib o'tilgan.

1395-yil Amir Temur saroyida Xitoy imperatori Xun Luning Markaziy Osiyodagi birinchi elchisi BoAn (An Chjitaο) qabul qilingan va Samarqandda Xitoy elchixonasini tashkil etishga ijozat berilgan. Ushbu elchi bilan Xitoydan 1500 savdogarlar ham tashrif buyurgan. Xitoy elchisi Sohibqiron saltanatini kezib chiqish uchun 10 yildan ko'p vaqt sarflagani ma'lum. 1397-yilda Samarqandga Xitoydan Chen Deven boshchiligida katta karvon kelgan. XIV asrda Amir Temurni Xitoy imperatorlari bilan rasmiy diplomatik aloqalari haqidagi yozma ma'lumotlar bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

---

<sup>1</sup> Ван Цань. Национальности Китая. – Пекин: “Межконтинентальное издательство Китая”, 2004. – С. 114-115.

Bularni bir qanchasi 1996-yilda O'zbekistonning Pekindagi elchixonasi xodimlari tomonidan Xitoy davlat arxivlaridan qidirib topilgan. Ushbu ma'lumotlar qadimgi xitoy tilidan professor Yasin Ashuriy ishtirokida tarjima qilingan. Qadimgi yozmalarning bir qatori Amir Temur muzeyida saqlanmoqda.<sup>1</sup> Temuriylar sulolasining keyingi avlod vakillari ham Xitoy bilan aloqalarni uzviy ravishda davom ettirganlar. Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Abu Nasr Shohrux Bahodir Sulton (1377-1447) hukmronligi davrida Temuriylar saltanatining xalqaro nufuzi ortgan. Shohruh davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni, shu jumladan, elchilik aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Shohruh mirzo huzuriga Xitoy, Hindiston, Misr, Shom, Rum, Yevropa hukmdorlaridan elchilar kelgan. Mirzo Shohrux ham o'z elchilarini ushbu mamlakatlarga yuborgan. Manbalardan ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davrida (XIV-XVII asrlar) Xitoyga Turkiston, Xuroson, Sheroz, Xiro, Isfaxon, Toshkent va boshqa markazlardan 107 dan ziyod elchi va savdo karvonlari yuborilgan.<sup>2</sup> Temuriylar davri tarixiy manbalarida (1419-1422) Xitoyga borib kelgan G'iyosiddin Naqqoshning safar xotiralari va kundaliklari saqlanib qolgan.<sup>3</sup> Albatta, bu ma'lumotlar ummondan tomchi, chunki bu sohada, ayniqsa, manbashunoslikda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ulkan. Masalan, 2009-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar saltanatining tarixini o'rganish uchun Hindistonga tashrif buyurgan Z.Mashrabov, B.Rahmonov, F.Saidmamatov, Sh.Sotkinovalar Srinagarni eski qismida joylashgan qabristonda "Tarixi Rashidiy" nomli qomusiy asar, "Jahonnoma" va "Mahmudnoma" dostonlar muallifi Muhammad Haydar mirzo qabrini topganlar va 1822-yilda ingliz sayyohi,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi arxiv materiallari (1996-2000).

<sup>2</sup> Каримова Н. Темурийлар билан Хитой алоқалари. – Т.: "Шарқшунослик", "Мишхож", 1996, №7, 50 - 59 б.

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2005. 112 – 115-б.



kapitan Vilyam Morkraft himmati bilan barpo etilgan qabr toshida quyidagi yozuvlarni o'qiganlar:

“Mirzo Haydar Ko'ragon ibn Mirzo Muhammad Husayn Ko'ragon ibn Yunusxon. Bobur podshohning xolavachyasi, Ahmadxonning o'g'li Yorkand va Mo'g'ulistonning podshohi Abu Saidxonning vaziri. Xonlar - Tug'luq Temirxon avlodidan, Chig'atoy ibn Chingizxon naslidan. Mirzo tavalludining qutlug' yili hijriy 805-yil O'ratepada bo'lgan. Ko'p zamonlar o'tishidan so'ng Abu Saidxon hukmi bilan Yorkandga qaytdi, Tibetni egallagandan so'ng 4000 otliq bilan Shabon oyining 4 kunida Kashmirni fath etdi. Kashmir podshohi - Muhammad shohga taxtni qaytarib, Tibetga Sulton Saidxon huzuriga qaytib ketdi. Sulton Saidxon Mirzoni Lxasaga hokim etib tayinladi va o'zi Yorkandga qaytayotganda vafot etdi”.<sup>1</sup>

Amir Temur va temuriylar davrida yurtimiz va Xitoy o'rtasidagi aloqalar haqida Rossiya imperatorining 1654-yilda Xitoyga tashrif buyurgan birinchi elchisi Fyodor Isayevich Baykov, Tsin imperatorining saroy xodimlari bilan bo'lgan muloqotlarda bunday degan ekan, “Aytadilarki, bizning otabobolarimiz Xitoyga Temur bilan kirgan emishlar. Lekin bu haqda aniq yodnomalar yo'q, faqat ba'zi bir xatlar orqali bu narsalar to'g'risida fikr qilamiz”.<sup>2</sup> Xitoy bilan tarixdan qo'shni, ya'ni bir necha ming kilometr umumiy chegaraga ega bo'lgan Rossiyaning birinchi rasmiy elchisini Xitoyga 1654-yildagina

<sup>1</sup> O'zbekiston adabiyoti v asan'ati. 2010. 19.02. №8 (4043). Muhammad Haydarmirzo 1449 - 1500. Toshkentda Muhammad Husayn va Xuba Nigorxonin oilasida tug'ilgan. Uch yil Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo tarbiyasida bo'lgan. 1540 - 1551 -yillarda Kashmi ro'lkasida hukmronlik qilgan. Tibet va Kashmiri ishg'ol qilgan harbiy qo'mondon (1445-1448.).

<sup>2</sup> Скачков П.Е. Очерки истории русского китаеведения. - М.: "Наука", 1977.- С.14. Shuni ham aytib o'tish lozimki, elchi F.I.Baykovni Pekinga qilgan safaridagi ishtirokchi va tarjimonlardan biri sifatida buxorolik Irkimulla (Erkinbo'lsakerak) ko'rsatilgan. O'sha manba, 20-b.

yuborilishi qanday fikr - mulohaza uyg'otishi mumkin.<sup>1</sup> Bu dalil Amir Temur tomonidan o'rnatilgan xalqaro munosabatlarni rivojlantirish siyosati, boshqa davlatlar siyosatidan qariyb uch asr ilgari ketganligining yorqin dalilidir. Birgina shu faktni o'zi ulug' vatandoshlarimizni naqadar uzoqni ko'zlab mustahkam tashqi siyosat olib borganliklaridan dalolat bermaydimi? Ammo O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "Temuriylar hukmronligidan so'ng - ya'ni XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi.

Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqa uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qarshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani barchamizga yaxshi ma'lum".<sup>2</sup>

XIX asrdan XX asr oxirigacha "Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning qora kunlari bo'lmish o'sha zamonda bir paytlar o'zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilm-u madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og'ir mashaqqatlarga duchor bo'lganini yaxshi bilamiz"<sup>3</sup>.

Bu haqda Muhammad Yusuf bunday degan:

"Garchi boshin eggani yo'q edik bizlar,

Ekkanidan tekkani yo'q edik bizlar.

Vatanida vatani yo'q edik bizlar...

O'sha zulmat o'tmish, sening uying kuysin"<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Xitoy Rossiya bilan shimoliy-sharqda 3605 km va shimoliy-g'arbda 40 km (hammasi bo'lib 3645 km) umumiy chegaraga ega; Страны мира. Энциклопедический справочник. Смоленск: "Русич", 2003. - 259 с.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008. 50-51b

<sup>3</sup> Ko'rsatilgan manba.

<sup>4</sup> Muhammad Yusuf. Saylanma. - T.: "Sharq", 2007. - 271 b.

Ushbu davrda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi asrlar osha davom etib kelayotgan aloqalar uzilgan edi. Bu o'tgan asrning 90-yillarini boshigacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunicha davom etgan. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 2-yanvarda Toshkent shahrida o'rnatilgan. O'tgan davr tarix uchun -soniyadir. Ammo ikki davlat aloqalarini rivojlanish sur'atlari va ularni ijobiy natijalarini inobatga olsak, bu ming yilga teng keladigan ishlar amalga oshirildi, desak mubolag'a bo'lmas. Masalan, 2009-yili ikki mamlakat savdo hajmi 1994-yilga nisbatan 20 marta oshdi. Qo'shni Xitoy bilan teng va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni taraqqiy ettirish zaminida, xitoy tili, adabiyoti, tarixi hamda iqtisodini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, Xitoy keng imkoniyatlarga ega, iqtisodi taraqqiy etayotgan, tinchliksevar va yaxshi qo'shnihilik siyosatini izchillik bilan olib borayotgan davlatdir. Ikkinchidan, egallab turgan hududiga ko'ra, Xitoy dunyoda Rossiya Federatsiyasi va Kanadadan so'ng uchinchi o'rinda turadi. Xitoy shimolda Rossiya Federatsiyasi, Mo'g'uliston, shimolda va g'arbda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston, sharqda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, janubda va janubiy - g'arbda Hindiston, Myanma, Vetnam, Nepal, Butan, Laos, Pokiston bilan chegaradosh. Xitoy davlat chegaralarining quruqlikdagi umumiy uzunligi 22117 km tashkil etadi. Xitoy Koreya Respublikasi, Yaponiya, Filippin, Bruney, Malayziya va Indoneziya bilan dengiz chegaralariga ega. Uchinchidan, oltin va xorijiy valyuta zaxiralari va yillik eksport hajmi bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi va yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. To'rtinchidan, Xitoy BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari hamkorlik tashkiloti, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari tashkilotini 10+1 va 10+3



formatidagi ishtirokchisi, Shanxay hamkorlik tashkilotini asoschilaridan biri. Xitoyni jahondagi nufuzini yuksalib borishining asosiy omillari orasida, uning oxirgi chorak asr mobaynida jadal suratlar bilan rivojlanishini, iqtisod, tashqi savdo, koinot va ilm-fanni boshqa sohalaridagi yutuqlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining istiqbollari mamlakatimiz yosh iste'dodli tadqiqotchilar zimmasiga ushbu sohalarda yangi ilmiy cho'qqilarni zabt etish kabi mas'uliyatli vazifalarini yuklaydi.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Sharqshunoslik maktabining shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

2. O'zbek xitoyshunosligi maktab itarixidan so'zlang.

3. Hozirgi davrda xitoy filologiyasi kafedrası faoliyati misolida o'zbek xitoyshunosligi sohasining rivoji haqida so'zlang.

4. O'zbek xitoyshunoslaridan qaysilarini bilasiz, ularning ishlari bilan tanishtiring.

### **Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. O'zbekiston va Xitoy munosabatlari tarixidan. O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining shakllanishi, yonalishlari, asoschilari, namoyandalari haqida.

2. Yuan davri matnlari.

3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq**

O'zbekiston va Xitoy munosabatlari tarixidan (taqdimot)

TEST

1. 成语“千里送鹅毛”比喻礼物虽然微薄，却含有深厚的情谊，所以人们常常会接着说一句“礼轻情意重”。

答案：正确。

2. 成语“亡羊补牢”是说“羊已经死亡了，再去补牢房。”用来比喻“马后炮”，“白干了”的行为。

答案：错误。亡：逃亡，丢失；牢：关牲口的圈。羊逃跑了再去修补羊圈，还不算晚。比喻出了问题以后想办法补救，可以防止继续受损失。



3. 惯用语“跑龙套”来源于中国传统戏曲，原指戏曲中拿着旗子做兵卒的角色，后比喻在人手下做无关紧要的事。

答案：正确。

4. “三天打鱼，两天晒网”是形容渔民的日常工作状态。

答案：错误。比喻对学习，工作没有恒心，经常中断，不能长期坚持。

5. “家有一老，如有一宝”说明家里如果有古董，就会发财。

答案：错误。是说老年人有丰富的生活经验，可以做年轻人的生活指导。

6. “刻舟求剑”比喻不懂事物已发展变化而仍静止地看问题。

答案：正确。



7.“听了他讲的笑话,我差点儿没笑死”和“听了他讲的笑话,我差点儿笑死了”的意思是一样的。

答案: 正确。

8.“步行街上,人来人往,好不热闹。”意思是步行街上人们都走了,很冷清

答案: 错误。意思是大街上人很多,很热闹。



9.“虽然我的自行车式样很老了,却我非常喜爱它,因为它是我父亲送给我的生日礼物”。这句话的词序是对的。

答案: 错误。“却”应该放在“我”的后面。

10.“今天珍妮为什么没来上课吗?”的说法不对,应该说成“今天珍妮为什么没来上课呢?”

答案: 正确。



## 19- MAVZU: XITOYSHUNOSLIK ILMIIY MAKTABI

**Darsning o'quv maqsadi:** O'zbek xitoyshunosligi maktabining tarixi, shakllanishi, TDSHU Xitoy filologiyasi kafedrasida professor-o'qituvchilarining faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'zbek xitoyshunosligi, Xitoy filologiyasi kafedrasida, ta'lim bosqichlari.

Xitoy filologiyasi kafedrasida 1918-yilda Turkiston Sharqshunoslik institutining avlodi hisoblanadi. Bu davrda XX asrning unutilmas siymolari orasida shu dargohga asos solgan ustozlarimiz I.A.Lissen va U.M.Mamatxunovalar hissalarini nafaqat xitoyshunoslik, balki jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligi rivojlanishida salmoqli iz qoldirganini alohida tilga olish darkor. Keyinchalik kafedraning yuksalishida katta o'qituvchilar O.A.Vagin, N.Xoxlov, I.Ro'zboqiyev, M.I.Muldakulova, G.I.Larionov, N.O.Zevushkina, M.I.Molojatovalar o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Fakultetning ilk tashkil etilgan damlarida B.A.Pestovskiy tomonidan xitoy tili va adabiyoti fanlaridan ma'ruzalar o'qilar edi. 1924-yilda Turkiston sharqshunoslik instituti ToshDUga (hozirda Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet) sharqshunoslik fakulteti sifatida qo'shiladi. Bu davrga kelib xitoy tili o'qituvchilari safiga ushbu til bo'yicha 304 betlik "Zamonaviy xitoy tili grammatikasi" kitobini yaratgan yirik tilshunos professor Ye.D.Polivanov qo'shiladi. 1930-yil sentabr oyiga kelib, Milliy universitetining sharq fakulteti o'z faoliyatini to'xtatadi. 1944-yilda esa, u o'z faoliyatini qayta tiklaydi. 1951-yil bu fakultetda katta o'qituvchi M.I.Molojatovning yetakchiligida fakultet kafedralarining biri bo'lgan uyg'ur filologiyasi kafedrasining qoshida talabalarga xitoy tilini o'rgatish yo'lga qo'yiladi. 1957-yilda uyg'ur filologiyasi o'rniga O'zbekiston maorif tarixida birinchi marotaba xitoy filologiyasi

kafedrasi tashkil etildi. O'sha davrda O'zbekistonda tashkil etilgan kafedra nafaqat mamalakatimizda, balki, butun O'rta Osiyoda xitoyshunoslik yo'nalishi bo'yicha Sobiq Ittifoqda xitoyshunos mutaxassislarni tayyorlab beruvchi yagona markaz edi. Kafedraning bosib o'tgan ilmiy yo'llarini sarhisob qiladigan bo'lsak, kafedra 1980-yilga kelib, nafaqat Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston respublikalari), balki Bolgariya, Mo'g'uliston, Polsha hamda Laos kabi mamlakatlarga xitoyshunos olimlarni yetkazib bera boshladi. Demak, bu o'tgan asrning 70-80-yillariga kelib, xitoy filologiyasi kafedrasi xalqaro kafedra sifatida faoliyat olib borganligidan dalolat beradi.

Kafedra tarixida erishilgan yutuqlarda mohir tarjimon, iste'dodli olim t.f.n., dots. M.X.Maxmudxo'jaevning xizmatlari beqiyos. Aynan M.X.Mahmudxo'jaevning uzoq yillik betinim va samarali faoliyati, rahbarligi davrida Markaziy Osiyo va Sobiq sotsialistik davlatlarga xitoyshunoslik bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlab berildi va bugungi o'zbek xitoyshunoslik maktabining rivojida tarixiy ahamiyat kasb etdi. 1991-yil O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan sharqshunos kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshdi. Ana shu maqsadda 1992-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tashkil etildi.

1999-2000-yillar davomida kafedrani katta o'qituvchi M.Kaunbayev boshqardi. Uning boshchiligida kafedrani zamonaviy o'quv qurollar bilan jihozlash masalasi yo'lga qo'yildi. 2000-2005-yillar mobaynida f.f.n., dots. A.A.Karimovning xitoy filologiyasi kafedrasi mudiri etib tayinlanishi kafedraning ilmiy faoliyati va salohiyatini oshirishda yangi davr boshlandi. Uning rahbarligida f.f.n., dotsent S.A.Nasirova va f.f.n, dotsent S.A.Xashimovalar nomzodlik dissertatsiyalarini birin - ketin himoya qildilar. 2020 yilda A.A.Karimovning bu ikki shogirdi doktorlik (DSc) dissertatsiyalarini ham himoya qildilar.

Kafedraning ohirgi 20 yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan yillar davomida kafedrada xitoy tili va adabiyoti,



falsafa, siyosat, iqtisodiyot va tarixini o'rganish bilan bog'liq qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilganligi kuzatiladi. Bular ichida: 2002-yil s.f.n., dotsent Sh.I.Shazamanov "Siyosiy barqarorlik va taraqqiyot (Xitoy misolida)" mavzusida; 2005-yil f.f.n., dots. J.T.Ziyamuhamedov "Pu Sunlingning sehrli novellalari (syujetning kelib chiqishi va rivojlanishi)"; 2006-yil s.f.n., dots. I.N.Bekmuratov "Деятельность Шанхайской организации сотрудничества и процесс её институционализации"; 2008-yil f.f.n., dotsent S.A.Nasirova "Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik – semantik va struktur tahlili" va 2020 yilda DSc darajasi uchun "Общественно-политическая терминология в современном китайском языке" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini; 2009-yil f.f.n., dotsent S.A.Xashimova "Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya" va 2020 yilda DSc darajasi uchun "Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya, affiksatsiya va konversiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini; 2016-yil S.T.Mustafayeva "Xitoy tilshunoslik terminologiyasi" mavzusida PhD dissertatsiyasini; 2018-yil S.A.Nazarova "Совершенствование иноязычной лексической компетенции студентов при обучении китайскому языку" mavzusida PhD dissertatsiyasini; 2020-yil U.X. Mavlyanova "Xitoy tilida sonlarning semantikasi: lingvomadaniy tahlil" mavzusida, Sh.Q.Shamsiyeva "Xitoy va o'zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi" mavzusida va B.B.Bakaeva "Xitoy tilida morfemali kontraksiya" mavzusida PhD dissertatsiyalarini himoya qildilar. Bundan tashqari, kafedra davlatimiz uchun yetuk mutaxassis – diplomat kadrlarni tayyorlashda ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ular: O'zbekistondagi XRR elchixonasida faoliyat olib borayotgan falsafa fanlari nomzodi B.E.Tursunov, O'zbekistondagi Malayziya Respublikasi muxtor elchisi, siyosiy fanlar nomzodi Sabitov Shukur va b. O'tgan yillar davomida V.V.Kim (1995-yil), N.E.Karimovalar (2008-yil) doktorlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalarini himoya qildilar. Ushbu dalillar



kafedraning qisqa davr, ya'ni mustaqillik yillarida zafarli yo'llarni bosib o'tganligidan dalolat beradi.

Kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida filologiya fanlari nomzodi, professor Akram Abilyevich Karimov tashabbus bilan 2009-yildan boshlab, har yili "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: falsafa, tarix, madaniyat, iqtisod va siyosat" ruknida an'anaviy tarzda OTM qamrovida, keyinchalik Respublika qamrovida ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilgan. 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida ushbu anjumanga "O'zbekiston-Xitoy aloqalari yangi bosqichda: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji" nomi bilan xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqomi berildi.

#### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Sharqshunoslik maktabining shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbek xitoyshunosligi maktabi tarixidan so'zlang.
3. Hozirgi davrda xitoy filologiyasi kafedrasini faoliyati misolida o'zbek xitoyshunosligi sohasining rivoji haqida so'zlang.
4. O'zbek xitoyshunoslaridan qaysilarini bilasiz, ularning ishlari bilan tanishtiring.

#### **Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. O'zbekiston va Xitoy munosabatlari tarixidan. O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining shakllanishi, yo'nalishlari, asoschilari, namoyondalari haqida.
2. Min davri matnlari.
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

O'zbek xitoyshunosligi maktabi (taqdimot)



6.“这是我们厂的拳头产品。”这句话中的“拳头产品”意思是：

- A. 拳击手套                      B. 保暖手套  
C. 护手产品                      D. 特有的而无人能及的产品

答案：D

7.“在我们学校后面的山上，有很多叫名字的花草”。

- A. 不到                              B. 不出  
C. 不动                              D. 不够

答案：B

8. 汉语里的惯用语，活泼生动，常用来比喻一种事物或行为，相当于一个词或词组，它的意义往往不能简单地从字面上去推断。惯用语以三字结构较常见。有一个惯用语，比喻拆台，从根本上损害别人，而现今是指为了自己谋取利益，而在暗地里不折手段的从对方挖取相关的人员，技术。它是：

- A. 触霉头                          B. 泼冷水  
C. 挖墙脚                          D. 扣帽子

答案：C

9.“这写的到底是什么，你”。

- A. 看不看                          B. 看又看  
C. 看了看                          D. 看一看

答案：D

10. 下列词语中，两个汉字之间不能插入“一次”，“一个”等别的成分的词语是：

- A. 游泳                              B. 打听  
C. 谈话                              D. 睡觉

答案：B



## 20- MAVZU: ASOSIY GRAMMATIK ASARLAR

**Darsning o'quv maqsadi:** Ma Zyan Djung grammatikasidan keyin chop etilgan grammatik asarlar. Xitoy tilshunosligi rivojlanishidagi keyingi bosqich atoqli tilshunoslar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

**Tayanch so'z va iboralar:** «中文法论», «中国语法要略».

1931-yilda Yang Shudaning “马氏文通刊误” Ma grammatikasiga tuzatishlar kitobi chiqdi, unda Ma Szyan Djung asarining hamma nazariy grammatik kamchiliklarini va qadimgi matnlarning noto'g'ri sharhi bilan bog'liq barcha xato va kamchiliklar tanqidiy muhokama qilingan.

何容 Xe Rongning kitobi “中文法论” - *Xitoy grammatikasi haqida fikr-mulohazalar* 1937-yilda yozilib, 1942-yilda nashrdan chiqadi, unda *Ma shi ven tun* asari nashr qilingandan beri xitoy tilshunosligidagi ko'rilgan yutuqlar jamlangan edi. 1924-yildan so'ng yangi asarlar chop qilinmaganligi bois Xe Rongning kitobi xitoy tili grammatikasi bo'yicha yangi mufassal ma'lumotnoma o'rnida keng miqyosda qo'llanildi.

Xitoy tilshunosligi rivojlanishidagi keyingi bosqich atoqli tilshunoslar 吕叔湘 Lyuy Shusyang va 王力 Van Li (王了一 - Van Lyaoli; 1900-1986) va 高名凯 Gao Minkay (1911-1965) nomlari bilan bog'liq.

Lyuy Shusyang 1942-1944-yillarda “中国语法要略” - Xitoy grammatikasining qisqa ocherkini (ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, unchalik aniq emas, rus tilidagi tarjimasi 1961-yilda chop etilgan) nashr qildi. Alohida mutaxassislarining fikriga asosan, ushbu asar o'tgan yuz yillikning qirqinchi yillaridagi eng sara asar hisoblanadi. Semantika va sintaksis o'zaro bog'liqligi dinamikasi (o'zgarishi)

haqida ilk bora soʻz borgan. Bu semantika muammolariga toʻxtalib oʻtilgan birinchi asardir.

Venyan, bayxua tillari ham xitoy tiliga mansub boʻlib, ular oʻrtasida doim taqqoslash va solishtirishlar boʻladi, shuning uchun grammatikani qiyosiy deb nomlash mumkin.

Muallif 1942-yildagi dastlabki variantda daniyalik tilshunos Otto Yespersendan oʻzlashtirilgan va oʻsha davrda Xitoyda keng tarqalgan (Van Li ham oʻzining ilk asarlarida qoʻllagan) hamda Li Tsin Zining “kelishiklar” gʻoyasi bilan mos keluvchi uch darajali soʻzlar nazariyasiga “三品说” asosiy eʼtiborni qaratadi. Biroq uch daraja haqidagi fikrlar 1956-yilgi qayta nashrda chiqarib tashlangan edi.

Lyuy Shusyang grammatikasida asosiy eʼtibor xitoy tili uchun oʻziga xos boʻlgan til hodisalari va tuzilishiga qaratilgan boʻlib, baʼzi iboralarning qoʻllanilish xususiyatlari izohlangan. Ilk bor gap va soʻz birikmalari oʻrtasidagi munosabatlar va bir shakldan boshqa shaklga oʻtish (oʻzgarish, transformatsion) aloqalari tadqiq qilingan.

Soʻz turkumlari va gap boʻlaklarini ifodalashda Li Tsin Zi grammatikasi singari (Ma Szyanchjundan oʻzlashtirilgan terminlar bilan) “kelishik tizimi” kiritiladi: “起词”*boshlangʻich soʻz*, “受词”*qabul qiluvchi soʻz*, “止词”*oxirgi soʻz va h.k.*

Kitob bir necha marta, shuningdek, XX asrning saksoninchi yillarida ham qayta nashr etildi. Keyinroq 1946-yilgi maqolada “从主语宾语的分别谈国语句子的分析” - “Lyuy Shusyanning ega va toʻldiruvchini farqlash nuqtayi nazarida xitoy tilida gap tuzilmasi”- *boshlangʻich* va *oxirgi* soʻzlardan voz kechib, harakatning “施事”*obʻyekti* va “受事”*subʻyekti* tushunchalarini xitoy tilida qoʻllanilish imkoniyatini tahlil qilgan holda kiritadi. Bu juda muhim masala boʻlib, masalan, umumiy qabul qilingan ingliz tilidagi *subject* va *object* terminlari ikki xil maʼnoga ega boʻlishi mumkin (ega yoki harakat *subʻyekti*; toʻldiruvchi yoki harakat *obʻyekti*), xitoy tilida esa mavzu va

sharhlarga yana qo'shimcha muammolar (ob'yekt va sub'yektni qarama-qarshi qo'yish muhimligini bekor qilish, chunki ko'pincha ob'yektni ega bo'lishi uchun passiv formalar talab qilinmaydi) keltirib chiqaradi.

1943-44-yillari Van Lining "中国现代语法" Zamonaviy xitoy grammatikasi nomli kitobi chiqadi, unga asos qilib esa muallifning Birlashgan Janubiy-G'arb universitetida o'qigan va dastlabki nomi "中国文法研究" Xitoy grammatikasi tadqiqotlari deb nomlangan ma'ruzalari olinadi, keyin 1944-45-yillarda birinchi kitobning davomi va uning nazariy asosi bo'lmish – "中国语法理论" Xitoy grammatikasi nazariyasi kitobi chiqadi.

Van Li o'sha "klassik" muammolarni yechishga harakat qiladi: so'z va so'z birikmasini farqlash, so'z turkumlarini ajratish, sintaktik tuzilishlarning tuzilmasi va asosiy ko'rinishlari, xitoy tilida gapda bog'lama ro'li, "把" ba va "被" bei va boshqa predloglar bilan gap tuzilishining xususiyatlari. Van Li asarining alohida e'tiborga molik tomoni namunalarining asosiy qismi o'rta asr "乾隆" Syan Lun imperatori hukmronligi davrida yaratilgan 曹雪芹 Tsao Syuetsin va Gao Ening "红楼梦" "Qizil ko'shkdagi uyqu" romanidan olingan. Ushbu roman klassik asar bo'lib, "白话" bayxua so'zlashuv tilida yozilgan deb hisoblanadi, ya'ni ushbu asarda nisbatan sezilarli darajada "白话" bayxua tili singari tavsiflangan qo'shimchalar mavjud.

Xitoy tilidagi so'z turkumlarining "egiluvchanlik" muammosini yechishda Van Li Lyuy Shusyung singari Otto Yespersenning *uch darajali so'zlar* ("词品, 品级: 首品, 次品, 末品") nazariyasidan foydalanadi. Van Li fikricha so'z turkumi ma'nosi "alohida", ya'ni kontekstdan tashqari, daraja esa shu so'zning sintaktik muhitida kelib chiqadi.

Van Li g'arb tilshunosligi yutuqlarini qo'llab hamda grammatik tahlilni anatomik operatsiya bilan taqqoslab, yevropa tillarining grammatik me'yorlarini xitoy tili grammatikasini



tuzishda namuna qilib olish mumkinligini, oldingi avlod tilshunoslarining (Yan Shudning *Ma shi ven tun tanqidi*) eng katta xatosi yevropa grammatika qoidalarini xitoy tiliga moslashtirishligini ta'kidlaydi. Van Lining fikricha, eng mahoratli tilshunos bu "qaysidir xalq tilini chuqur o'rganib, dalillarni tahlil qiluvchi va uni boshqa tilning faktlari bilan solishtirib, farqlarini to'liq tasvirlovchi tilshunosdir.

Shunga qaramasdan Van Lining Grammatik tahlili nihoyatda qisqa va to'liq emas – muallif o'zidan kelib chiqqan holda, asosiy konstruksiyalarning mazmunini ochishga harakat qilgan. Sintaksisga bag'ishlangan boblarda oldingi tilshunoslar kabi ega – kesim – to'ldiruvchi tuzilishini tasvirlagan, mavzu – sharh strukturali gaplarda esa o'ziga xos "erkin inversiya" (o'rin almashish) hodisasiga e'tibor qaratmagan.

Gao Minkay – "汉语语法论" Xitoy tili grammatikasi haqida fikr-mulohazalar (1948) muallifi. Ushbu kitob uch qismdan iborat: gap tuzilishi haqida ta'limot, kategoriyalar ta'limoti va gap turlari haqida ta'limot. Olim butun hayotini xitoy tili grammatikasini va umumiy tilshunoslikni o'rganishga bag'ishlagan. U xitoy tilida so'z turkumlarini ajratish mumkun emasligi nuqtayi nazarini izchillik bilan oxirigacha himoya qildi.

Gao Minkay ko'p mavzularda fransuz sharqshunos (tarixchi, tilshunos, dialektolog) Anri Masperoga (1883-1944) tayangan deb hisoblanadi, u ham xitoy tilini o'ziga hosligini yoqlab kelgan. Gao Minkayning qarashlari o'sha davrda xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishlaridan chetda bo'lganligi sababli kelajakka ega bo'lmadi, shunga qaramasdan, uning qarashlari xitoy tilshunosligi rivojlanishida alohida o'rin oldi.

Xitoy tilining 1950-yillarda va undan keyingi davrda rivojlanishini Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi, davlatning yangi mafkurasi shakllanishi davri bilan bog'lashadi, hukumat tomonidan qaratilgan e'tibor va ko'rsatilgan yordam tufayli 1950 yillarda tilshunoslik tadqiqotlari rivojlanandi.

Ma'lumki, 1950-yilgacha SSSR da tilshunoslik akademik N.Ya.Marrning (1865-1934) "til haqida yangi ta'limot" asosida shakllangan edi – til tarixining kelib chiqish nazariyasi, unda "indoyevropa" va umuman har qanday g'arbiy tilshunoslik yutuqlari inkor etilardi. N.Ya.Marr va uning kop'lab izdoshlari tilning bosqichma-bosqich rivojlanishiga asosiy e'tibor qaratganlar. Inqilobiy ruhdagi shiorlarga qaramasdan N.Ya.Marr bosqichlanishi V.fon Gumboldt yoki A.Shleyxerning bosqich klassifikatsiyadan unchalik farq qilmas, unda xitoy tiliga amorf tillar (shaklsiz, so'zlari turlanmaydigan) bo'limi ajratilgan edi.

Shuning uchun xitoy tilshunoslari oldida ikkita vazifa ilgari surildi: "yangi tilshunoslik"ni marksizm va "materializm" asoslarida qurish va xitoy tilini "noamorf", "sodda emas"ligini isbotlash. 1953-1955-yillarda so'z turkumlari borasidagi munozaralar aynan shular bilan bog'liq bo'lib, unda sovet, xitoy tilshunoslari ishtirok etishgan. SSSR tilshunoslari xitoy tilida so'z turkumlari mavjudligini, xitoy olimlari esa, bu nuqtayi nazarni ba'zi shartlar bilan qo'llab-quvvatlashdi. Ushbu kategoriyani xitoy grammatikasiga qo'shishga faqatgina Gao Minkay qarshi chiqdi. Munozara jarayonida xitoy tilining ikki xususiyati muhokama qilindi:doim turli xil so'z turkumlari sifatida qo'llaniladigan so'zlar mavjudligi va ba'zida boshqa so'z turkumlari toifasiga o'zgarishlar, bunda muhokama obyekti *venyan* emas, balki zamonaviy xitoy so'zlashuv tili ekanligi ta'kidlandi. Munozaraning natijasi so'z turkumlarini tan olish (ularni aniqlash mezonlari haqidagi savollar ochiq qoldi) bilan yakunlandi.

1952-53-yillarda tadqiqotlarni umumlashtirish sifatida "中国语文" *Zhongguo yuwen* jurnalida XXR Fanlar Akademiyasining tilshunoslik Institutining grammatika sektori mutaxassisleri tomonidan yaratilgan *Grammatika ma'ruzalari* chop etildi. 1961-yilda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan holda qayta "现代汉语语法讲话" Zamonaviy xitoy tilining

grammatikasi ma'ruzalari sifatida nashr ettirildi. Ma'ruzalar tuzilmaviy ruhiga asoslangan holda yozilgan deb hisoblanadi. Kitob 丁声树 Din Shengshu, 吕叔湘 Lyuy Shusyang, 李荣 Li Dzyun, 孙德宣 Sun Desyuan va boshqa mualliflar hamkorligida tayyorlangan. Tadqiqot asosi qilib sintaksis olingan, asosiy metod – sintaktik guruh – “bevosita tashkil etuvchi”lar “层次分析” bo'yicha tahlil.

1958-yilda 刘景农 Lyu Szinnun tahriri ostida 汉语文言文语法 *Xitoy venyan grammatikasi* chop etildi, unda yordamchi so'zlar va sintaktik tuzilishlar an'anaviy tarzda tahlil qilinib, shu bilan birga yangiliklar ham ko'p edi: *venyan* va *bayxua* qiyosiy tahlili, *syuyszining* sintaktik kontekst elementi sifatida muhokamasi.

1957-58-yillarda Van Lining uch tomiik “汉语史稿” Xitoy tili tarixi ocherki kitobi chop etildi, fonetika, grammatika va leksikada tarixiy jarayonlarning tizimli tadqiqi va fundamental tavsifi.

Gao Minkay 1960-yilda “语法理论” grammatika nazariyasini nashr qildi. Ushbu grammatika o'sha davr tilshunosligining qiziqarli va salmoqli mehnatlaridan biri bo'lib, grammatika nazariyasining asosi sifatida xitoy tili tuzilishining xususiyatlari olingan yagona asar bo'ldi.

1950-yillar mobaynida zamonaviy xitoy tili nazariyasi va grammatikasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilib, adabiyotlar chop etildi.

Ma'lum bir siyosiy sabablarga ko'ra, 1960-yillar birinchi yarmi va 1970-yillar boshida tilshunoslik bo'yicha ishlar ancha kamaydi. Tilshunoslik bo'yicha yangi shov-shuv saksoninchi-to'qsoninchi yillarga to'g'ri keldi.



**Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Xitoy tilshunosligi asoschilari va ularning ilmiy ishlari.
2. Rossiya xitoyshunosligi asoschilari va ularning ilmiy ishlari.
3. O'zbek xitoyshunosligi maktabi.
4. O'zbek xitoyshunoslaridan qaysilarini bilasiz, ularning ishlari bilan tanishtiring.

**Amaliy mashg'ulot vazifalari:**

1. Xitoy tili tarixi, tilshunoslik asoschilari va ularning asarlari, ilmiy ishlari haqida.
2. Min davri matnlari.
3. Matnning grammatik tahlilini amalga oshiring.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Xitoy tili tarixi mavzusida olib borilgan ilmiy ishlar tahlili (taqdimot)

**TEST**

1. 下列词语中，不能和“提高”搭配的是：

- A. 效率                      B. 标准  
C. 质量                      D. 精力

答案：D

2. “你刚来，对工作还不熟悉，多请教一下单位老资格的同事们吧！”

- A. 上                      B. 下  
C. 间                      D. 中

答案：A



8.“老师不生气,反倒高兴地表扬他敢于指出老师讲课中的疏漏”。

A.不是

B.可是

C.非但

D.所以

答案: C

9.湖南省长沙市,是中国历史文化名城一。

答案: 之



10.“这首歌能迅速传唱开来,主要是因为它歌词感人,旋律优美”。

答案: 之所以。



## GLOSSARIY

**Amaliy tilshunoslik** – tilshunoslik masalalarining amaliy yoʻl va metodlar bilan oʻrganuvchi, tadqiq etuvchi sohalar. Masalan, eksperimental fonetika, lingvostatistika, leksikografiya va boshqalar.

**Analitik usul** – yordamchi soʻzlar vositasida soʻz yasaliş usuli.

**Affiks** (lot. affixus – birlashtirilgan, biriktirilgan) – soʻzga zid qoʻyiladigan (leksik maʼnoga ega boʻlmagan), oʻzi qoʻshiladigan asosning lugʻaviy yoki grammatik maʼnolarini shakllanishiga xizmat qiluvchi morfema; qoʻshimcha.

**Affiksatsiya** – affiks yordamida soʻz yoki shakl yasaliş.

**Gaplogiya** (yun. gaplos – oddiy, logos – tushuncha, taʼlimot).

**Glossariy** – biror bir asarda, kitobda qoʻllanilgan va tushiniliş murakkab boʻlgan soʻzlarning izoh lugʻati.

**Glottogoniya** (yun. glotta – til, gonos – tugʻilish) – tilning kelib chiqişi va taraqqiyoti haqidagi taʼlimot.

**Depredikatsiya** – predikativ sintagmani nopredikativ sintagma tarzida transformatsiyalash.

**Derivatsiya** (lot. derivatio – yasaliş) – m. affiksali soʻz yasaliş.

**Deskriptiv lingvistika** (ing. descriptive -tasviriy) – amerika strukturalizmi, yaʼni til tuziliş shakliyi unsurlarini distributiv usullar yordamida tadqiq etish, oʻrganish.

**Determinant** – gapning boshlanishida mustaqil tarkibiy qism sifatida kelib, oʻzidan keyingi qismga bir butun shaklda taalluqli boʻlib, uning yaxlitligicha kengaytiradigan ikkinchi darajali boʻlak.

**Deetimologizatsiya** (lot. de – ayirish maʼnoli old qoʻshimcha plyus etimologiya) – soʻzda etimologik bogʻlanishning yoʻqoliş.

**Dialektologiya** (yun. dialektos – sheva, lahja – logos – tushuncha, taʼlimot) – filologiyaning dialekt, lahja va shevalarini oʻrganuvchi boʻlimi.

**Diaxroniya** (yug. dia – orqali + chronos – vaqt) – ayrim til hodisalarining, yaxlitligicha til tizimining tarixiy izchil rivojlanish bosqichlari lingvistik tadqiq etish.

**Distributiv metod** – tuzilmaviy lingvistikada til unsurlarini muayyan tilga xos qonun–qoidalar asosida boʻlish metodi.

**Iyerogliflar** (yun. H iyeroglyphoi – muqaddas yozuvlar) – butun bir soʻz, boʻgʻin yoki tovushni ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik ifoda.

**Ilmiy uslub** – terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qoʻllanilishi, soʻzlarning konkret, toʻgʻri maʼnoda qoʻllanilishi, maxsus iboralarga ega ekanligi va shu kabilar bilan ajralib turuvchi funksional uslub, metod.

**Ilmiy grammatika** - nazariy gʻoyalarning soʻnggi yutuqlari asosida yaratiladigan grammatika.

**Ingerent konnotatsiya** – nutqiy matndan tashqarida ham voqealanidigan, soʻzning mavjud boʻlgan konnotativ maʼnosi.

**Interferensiya** (lot. inter – ora+ferens, frentis–oʻtkazish) – ona tiliga xos xususiyatlarni oʻrganilayotgan tilga oʻtkazish.

**Intralingvistika**- tilshunoslikning til ichki tizimi, uning birliklari va toifalari, til yaruslari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga murojaat qilmay oʻrganuvchi soha.

**Kalka** (fran. calque - kopya, nusxa, taqlid) -oʻzga til materialidan qismma – qism nusxa olish vositasida yaratilgan soʻz yoki boshqa bir til birligi.

**Kalkalash** -oʻzga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida oʻz til unsurlaridan foydalanib, yangi soʻz yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

**Kanselyarizm** - qoʻllanishi rasmiy ish, idora va muassasa faoliyati uslubiga xoslangan soʻz, turgʻun birikma, grammatik shakl va tuzilma.

**Kauzativ** - harakatning bajarilishi uchun sabab, qoʻzgʻash maʼnosiga egalik.

**Kompozitsiya** (lot. composito – tuzish) -soʻz qoʻshish, qoʻshma soʻzlar.

**Komponent** (lot. componens –tashkil etuvchi) - maʼlum bir til birligining tarkibiy qismi. Soʻz birikmasining komponentlari.

**Konversiya** (lot. conversion - aylanish, oʻzgarish)- soʻzning fonetik va morfologik jihatdan oʻzgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi, shu yoʻl bilan yangi soʻz hosil boʻlishi.

**Korrelyatsiya** (lot. correlatio – aloqa, munosabat) –ilkki yoki undan ziyod til birligining oʻzaro bogʻliqligi.

**Leksema** (yun. lexis – ibora, nutq oʻrami) –tilning lugʻat tarkibiga xos birlik.

**Leksika** (yun. lexikos – soʻzga oid, lugʻaviy) –tilning lugʻat tarkibi. Lugʻat tarkibining qoʻllanish sohasi, uslubiy sohasi va kelib

chiqishi kabi turli jihatlardan yondoshib ajratiladigan guruhlar.  
*Ijtimoiy – siyosiy leksika. Ekspressiv leksika.*

**Leksik antonimiya** - lugʻaviy birliklar (soʻzlar) orasidagi antonimiya.

**Leksik antonimlar** - qarama – qarshi (aks, zid) maʼnodagi soʻzlar.

**Leksik kalka** - oʻzga til lugʻaviy birligidan qismma–qism nusxa olish yoʻli bilan hosil qilingan soʻz.

**Leksikografiya** (yun.lexikos – lugʻat, grapho – yozmoq) - lugʻatshunoslik taʼlimoti.

**Leksikologiya** (yun.lexikos – lugʻatga, soʻzga oid, logos – taʼlimot) - tilshunoslikning tilning lugʻat tarkibini oʻrganuvchi boʻlimi (tarixiy leksikologiya, tasviriy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya).

**Leksik omonimiya** - leksik birliklar orasidagi omonimiya.

**Leksik sinonimiya** - lugʻaviy birliklar orasidagi sinonimiya.

**Lingvistika** (fran. linguistique, lot. lingua – til) - tilshunoslik fani.

**Lingvistik tahlil** - til, nutq birliklarini, uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni, maʼnosi, mohiyati, vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtayi nazaridan oʻrganish, tadqiq etish (leksikologik, frazeologik, semasiologik, semantik, fonetik, imloviy, orfoepik, morfologik, struktur, sintaktik, kognitiv, punktuasion, uslubiy, etimologik, etnografik va b. turdagi tahlil).

**Lingvistik universaluya** - barcha tillar uchun umumiy boʻlgan til hodisa.

**Matematik lingvistika** - lingvistika muamrolari va masalalarini matematik usul va metodlar (askariyat matematik statistika, ehtimollik nazariyasi, maydon nazariyasi va b.) yordamida tadqiq etish fani, oʻrganuvchi sohasi.

**Matn** - yozuv orqali aks ettirilgan manba, nutq, matn, xat, maʼlumot, xabar.

**Maxsus leksika** - ijtimoiy – siyosiy faoliyatning turli sohalariga tegishli narsa yoki hodisalarni nomlovchi soʻzlar.

**Mahsulli affikslar** - soʻz yasash vazifasini toʻxtatmagan, oz yoki koʻp miqdorda soʻz yasash uchun xizmat qilayotgan affikslar.

**Morfema** - tilning maʼnoli, boshqa maʼnoli qismga boʻlinishi mumkin boʻlmagan eng kichik qismi, birligi (leksik morfema va affiksial morfema. M: “haydovchi” soʻzida “haydov” – leksik morfema, “-chi” affiksial morfema.)



**Morfologiya** (yun. morphe -shakl, logos -ta'limot) 1. So'z shakllari haqidagi grammatik ta'limot. 2. Tilning morfologik qurilishi.

**Nolisoniy omillar** - til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv voqealikka doir shart - sharoitlar (til qonuniyatlari bundan istisno).

**Normativ grammatika** - so'z shakllari va sintaktik qurilish modellarining me'yor talablariga javob berishini belgilovchi grammatika.

**Ominimika** - omonimlarni o'rganuvchi soha. Omonimlar majmuyi.

**Omonimiya** - birdan ortiq til birligining talaffuz va yozilishi jihatidan bir xil bo'lish hodisasi (leksik omonimiya, frazeologik omonimiya, grammatik omonimiya).

**Omonimlar** (yun. xomos - bir xil, onyma - nom) -yozilishi yoki talaffuzi bir xil birdan ortiq so'zlar o't - (maysa, olov, o'tmoq va b.).

**Onomasiologiya** -leksikologiyaning lug'aviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish tamoyillari va qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

**Ot** - predmet ma'nosini bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid muayyan so'z. Predmetlik keng tushunchalarni qamrab oladi (inson, narsa, hodisa va b.). Otlar ma'no jihatidan va ifodalaydigan tushunchaning xususiyatlariga ko'ra atoqli ot, turdosh ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot va b. turlarga bo'linadi.

**Paradigma** (yun. paradeigma - misol, namuna) -til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi bo'limi, tizimi.

**Paradigmatika** -til birliklarini til tizimiga mansub paradigmatlarning unsuri sifatida tekshirish aspekti.

**Paralingvistika** - lingvistikaning o'zaro aloqa aralashuvida imo - ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi soha.

**Paronimiya** - fonetik tuzilishi boshqa - boshqa so'zlarning talaffuzi o'xshash va yaqin bo'lish hodisasi,

**Predikativlik** - gap mazmunining voqealikka munosabatini til vositalari bilan ifodalanishi. Zamon, shaxs son va modallik kategoriyalari predikativlikni ifodalovchi grammatik vositalar bo'lib, xabar ohangi bilan birga gapning umumiy xarakterli belgilari hisoblanadi.

**Reduplikatsiya** (lot. reduplicatio – ikkilanish) - tilshunoslikda ma'lum bir so'zni takror shaklda qo'llash. 2. Ma'lum bir ma'noni ta'kidlash, alohida ko'rsatish, ifodalash maqsadida takror so'z yasash yoki hosil qilish usuli.

**Rema** - gapning aktual bo'linishida temadan so'ng yangi xabarni, ma'lumotni bildiradigan qism.

**Segment** (lot. segmentum – qirqim, bo'lak) - nutqning fonetik jihatdan bo'laklarga (qirqimlarga) bo'linishi natijasida hosil bo'lgan bo'lak.

**Sema** (yun. sema – belgi) -leksik ma'noni tashkil etuvchi komponent (bo'lak, qismlar). Umumiy sema. Farqlovchi sema.

**Semantika** (fran. sementique, sementikos – ifoda etuvchi) - til birliklarining mazmun, ma'no tomoni.

**Semantik kalka** - o'zga tilga oid so'zlar bildiradigan ma'noni o'zlashtirish natijasida o'z tilidagi so'zga shu ma'noning berilishi.

**Semantik maydon** - ma'lum bir arxisistema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuyi.

**Semantik so'z** - semasiologiyaning o'rganish, tadqiq etish obyekti sifatida qabul qilingan so'z.

**Semasiologik tahlil** - lug'aviy birliklarning semantikasi va u bilan aloqador bo'lgan hodisalar nuqtayi -nazaridan olib boriladigan tahlil.

**Semasiologiya** (yun. semasia – ifoda etish, logos – fan, ta'limot, tushuncha) - til birliklarining, lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha.

**Semiologiya** (yun. sema - belgi, logos - tushuncha, ta'limot) - ayn. semiotika.

**Semiotika** (yun. semiotike - belgi) - belgilar, ramzlar tizimining umumiy xususiyatlarini tadqiq etuvchi fan.

**Sermahsul affikslar** - ko'p miqdorda so'z yasaydigan, hozirgi so'z yasashida faol bo'lgan affikslar (-chi, -li, -la, -dor, -don va b.).

**Sinonimika** - 1. Tilshunoslikning sinonimlarni o'rganuvchi bo'limi, sohasi. 2. Sinonimlar majmuyi.

**Sinonimiya** (yun. synonymia – bir xil nomga egalik) - til birliklarining bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi.

**Sinonimlar** (yun. synonymos – bir nomli) - bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, ammo qo'shimcha ma'no xususiyatlari, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishi va sh.k. bilan farqlanadigan so'zlar.

**Sintagma** (yun. syntagma – birlashgan narsa) - nutqning mazmun va melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik – sintaktik birligi. Sintagma bir yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishi, hatto gapga teng boʻlishi ham mumkin.

**Sintagmatika** - til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti.

**Sintagmatik grammatika** - soʻz, soʻz birikmasi, gaplarni sintagmatik planda oʻrganuvchi grammatika.

**Sintagmatik munosabatlari** - til birliklarining nutq oqimida yuz beradigan xususiyatlari asosidagi munosabatlari.

**Sinxroniya** (yug.syn - birga, chromos - vaqt) -ayrim til hodisalarining yaxlitligicha til tizimining maʼlum bir tarixiy rivojlanish bosqichidagi holatini lingvistik tadqiqot sifatida shartli ajratib olish.

**Sistema** (yun. Systema) – bir butunlik, qismlardan tuzilgan, tashkil topgan majmua).

**Situatsiya** (fran. situation - sharoit, holat, vaziyat) - nutq yoki matn yuz berayotganda unga taʼsir etuvchi sharoit.

**Sotsiolingvistika** (lot. soci (etas) - jamiyat plus lingvistika)-tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va taraqqiyot sharoitlarini oʻrganuvchi sohasi.

**Substitutsiya** (lot. Substitution – almashtirib qoʻyish) - transformatsiyaning bir usuli.

**Substrat** (lot. sub stratum)– tillarning chatishishi natijasida bir tilning boshqa tilda qoldirgan izlari.

**Termin** (lot. terminus - chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi.

**Terminologik leksika** -terminlardan iborat boʻlgan leksika.

**Terminologiya** (termin +logos – soʻz, taʼlimot) - biror ilm, kasb va b. sohalariga oid terminlar majmuyi. Tilshunoslikning terminlarni oʻrganuvchi, tadqiq etuvchi boʻlimi.

**Transformasion tahlil** –turli-tuman sintaktik tuzilmalarni qayta tuzib, sodda tuzilmalarga keltirish metodi, uslubi va qoidalari.



**Uslubiy sinonimlar** -ma'lum bir uslubga oidligi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar.

**Uslubiy tahlil** -matnning, uning qismlarining nutq uslublaridan qaysi biriga tegishliligi, bu oidlikni belgilovchi omillar va shu kabilarni belgilash nuqtayi nazaridan olib boriladigan tahlil.

**Fraza** (yun. phrasis – ifoda nutq o'rami) 1. Nutqning aloqa qilish birligi sifatidagi eng kichik mustaqil birligi. 2.Eng katta fonetik birlik – fikr tugalligiga ega, alohida ohang yordamida birlashgan va o'ziga o'xshash birliklardan to'xtam orqali ajratilgan jumla.

**Frazeologik kalka** -o'zga til frazeologik birligidan qismma – qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan frazeologik birlik.

**Funksional semantika** - so'z semantikasining o'zgarishini ular anglatgan narsalarning bir xil vazifa bajarishi bilan izohlovchi nazariya.

**Shtamp** (ital.stampa – muhr) lug'aviy ma'nosi xiralashgan, ekspressivlik xususiyati yo'qolgan, tilda yoki nutqda o'zgarmas qolip shakliga kelgan ifoda.

**Ekspressivlik** -til ekspressiv vazifasining turli shakllar bilan namoyon bo'lishi.

**Ekspressiya** (lot. expressio - ifoda) - nutqning, matnning ta'sirchanlik xususiyati.

**Etimologiya** (yun.etymologia – so'zning haqiqiy ma'nosi) 1. so'z va morfemlarni kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi fan, soha. 2. So'z yoki morfemalarning kelib chiqishi va tarixi.

**Etnolingvistika** - til bilan ma'lum bir millat, elat, xalq o'rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan.

**O'zlashma so'z** - o'zga tildan qabul qilingan so'z.

**O'zlashtirish** - o'zaro ta'sir, aloqa natijasida bir til unsurlarining boshqa bir tilga o'tishi.

## Xitoy tarixiga oid xronologik jadval®

Sulola nomi	Hukumronlik yillari
Sya 夏	milod.avv. XXI-XVI asrlar
Shan 商	milod.avv. XVI-XI asrlar
G'arbiy Chjou 东周	milod.avv. XI-770
Sharqiy Chjou 西周 (Chunsyu va Chjango davrlari)	milod.avv. 770-221
Sin sulolasi 秦	milod.avv. 221-207
G'arbiy Xan 东汉	mil.avv. 206 - milodiy 24
Sharqiy Xan 西汉	25-220
Uch podshohlik davri (Vey, Shu va U) 三国	220-265
G'arbiy Tzin 东晋	265-316
Sharqiy Tzin 西晋	317-420
Janubiy va Shimoliy sulolalar davri 南北朝	420-589
Suy 隋	581-618
Tan 唐	618-907
Besh sulola davri 五代十国	907-960
Shimoliy Sun 北宋	960-1127
Janubiy Sun 南宋	1127-1279
Yuan 元	1271-1368
Min 明	1368-1644
Sin 清	1644-1911

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>1 Mavzu.</b> Sunguxue. Xitoy fonologiyasi. Er Ya. Fang Yan.....	5
<b>2 Mavzu.</b> Xitoy an'anaviy tilshunoslik maktabi .....	25
<b>3 Mavzu.</b> Iyeroglif va so'z - xitoy an'anaviy tilshunosligining obykti sifatida .....	43
<b>4 Mavzu.</b> "Ma Shi Ven Tung" asarining yozilishi va tilshunoslikdagi ahamiyati .....	86
<b>5 Mavzu.</b> Xitoy iyerogliflariga transkripsiya berishning dastlabki usullari.....	129
<b>6 Mavzu.</b> Xitoy tili tarixida lug'atlar o'rni.....	149
<b>7 Mavzu.</b> Xitoy tili tarixida tarixiy man balar o'rni .....	168
<b>8 Mavzu.</b> Qadimgi xitoy tilshunosligida Venyan tilining o'rni.....	183
<b>9 Mavzu.</b> Venyan tili xususiyatlari.....	199
<b>10 Mavzu.</b> Venyanda polisemiya hodisasi .....	224
<b>11 Mavzu.</b> Yozuv haqida umumiy ma'lumot .....	234
<b>12 Mavzu.</b> Xitoy iyerogliflari kategoriyalari .....	250
<b>13 Mavzu.</b> Xitoy tilida yozuv turkumlari.....	282
<b>14 Mavzu.</b> Ma'noviy birlashish turkumi 会意.....	311
<b>15 Mavzu.</b> O'zlashtiruvchi turkum 假借字 .....	326
<b>16 Mavzu.</b> Yon bo'laklar, kalitlar haqida.....	331
<b>17 Mavzu.</b> Bushular va ularning ma'nosi .....	342
<b>18 Mavzu.</b> O'zbekiston va Xitoy munosabatlari tarixidan .....	355
<b>19 Mavzu.</b> Xitoyshunoslik ilmiy maktabi.....	368
<b>20 Mavzu.</b> Asosiy grammatik asarlar.....	374
<b>GLOSSARIY</b> .....	<b>383</b>



# XITOIY TILI TARIXI

DARSLIK

Muharrirlar: S.Nosirova va S. Hashimova  
Sahifalovchi-bezovchi: S.G'ofurov

Nashriyot litsenziyasi: №015 25.07.2018

Bosishga ruxsat etildi 23.02.2021 y.

Bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>. Bosma tab 24,5.

Nashr.tab 14. Adadi 100.

«Zamin Nashr» MCHJ, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 160-uy.